

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYA

S. A. ISXAKOV, A. R. RAXMANOV

# MUSULMON HUQUQI

*O'zbekiston Respublikasi IIV tomonidan Vazirlig oliy ta'lim  
muassasalari uchun darslik sifatida ruxsat etilgan*

Toshkent 2012

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining  
Tahririyat-noshirlilik hay’atida ma’qullangan*

Taqrizchilar:

yuridik fanlar doktori, professor **I. B. Zokirov;**

yuridik fanlar nomzodi, dotsent **N. P. Azizov;**

Toshkent islom universiteti islom huquqi kafedrasining dotsenti,  
yuridik fanlar nomzodi **N. J. Yusupova**

**Isxakov S.A.**

**I-91** Musulmon huquqi: IIV oliv ta’lim muassasalari uchun darslik / S. A. Isxakov, A.R. Raxmanov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 177 b.

Ushbu darslikda musulmon huquqining predmeti, tushunchasi, tizimi, manbalari, islomda oila va nikoh munosabatlari, fiqh-qonunshunoslik, qonun ijodkorligi, jinoyat va jazo, ularning turlari, meros huquqi kabilar yoritilgan.

Darslik IIV Akademiyasining tinglovchilari, oliv ta’lim muassasalarining huquqshunoslik mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalariga mo‘ljallangan.

**BBK 67. 3ya 73**

---

## SO‘Z BOSHI

Mustaqilligimiz sharofati bilan mamlakatimizda tinchlik va osoyish-talik hukm surib, umumbashariy qadriyatlar sarchashmalaridan bahramand bo‘lmoqdamiz. Milliy istiqlol bois davlatchilik tajribamizni, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy asoslarini har tomonlama puxta o‘rganish va rivojlantirish imkoniyati yaratildi. Mustaqil o‘zbek davlatchiligi va milliy huquqiy tizimni shakllantirishning o‘ziga xos va o‘ziga mos yo‘li boy ma’naviy-huquqiy negizlarga asoslanadi. Bizning davlatimiz ko‘hna So‘g‘diyona va Xorazm, shuningdek Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Temuriylar davlatlari hamda barcha o‘zbek xonliklarining davlat boshqaruvi tajribalari, xalqimizning butun milliy, tarixiy, huquqiy, ma’naviy amaliyotini, uning o‘z mustaqil davlatiga ega bo‘lishdek asriy orzularini o‘zida mujassamlashtirgan.

Mintaqamizning qadimiy tarixi va boy madaniyati, bu makonda yashab o‘tgan ajdodlarimizning jahon madaniyatini rivojlantirishga qo‘shgan ulkan hissalari hozirgi kunda ham hayotning barcha jabhalariga sezilarli ta’sir o‘tkazmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti: «O‘tmishimizdagи allomalarining beba ho merosi qanchadan qancha avlodlarning ma’naviy-ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi va u hamon ta’sir ko‘rsatmoqda»<sup>1</sup>, – deya ta’kidlaydi. Shu bois, dunyo huquqiy madaniyatining ajralmas bo‘lagi hisoblangan, o‘zbek davlatchiligining tarixiy tajribasi va huquqiy tafakkuri rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan musulmon huquqini o‘rganishning dolzarbligini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi.

Musulmon huquqi huquqshunoslarning Qur’он va sunnadagi huquqiy qoidalarni amaliy yuridik normalar «tiliga ko‘chirgan» oqilona ijod mahsuli sifatida baholanadi. Bizningcha, fiqh me’yorlarini ibodat qoidalari va insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalarga ajratish hamda tasniflash nuqtai nazaridangina o‘rganish yetarli emas. Ushbu bo‘linish zamirida aynan hayot ehtiyojlari yotadi, chunki ushbu normalar toifalarining ikkisi ham turli sohalarda qo‘llaniladi, shuningdek ularning tarixiy rivojlanish qonuniyatları ham har xil. Mazkur normalar toifalari o‘ziga xos, alohida har biri tartibga

---

<sup>1</sup> Қаранг: *Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат ва мағкура. Т.1. – Т., 1996. – Б. 40–41.*

solvchi xususiyatlarga ega. Ularning islomdagi maqomi ham har xil bo‘lib, bir-biridan mustaqil tarzda amal qilishi mumkin. Ushbu fikrni islom tarixi va musulmon mamlakatlari ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi bosqichidan olingan ko‘plab faktlar tasdiqlaydi.

Yuridik hodisa sifatida musulmon huquqining mustaqilligini uni amalga oshirish jarayonining tahlili ham tasdiqlaydi. Musulmon huquqiga uni amalda qo‘llashning diniy prinsipi ko‘proq xos, ya’ni u, eng avvalo, musulmonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda amal qilgan. Shu narsa muhimki, bu prinsip hozirgi davrgacha saqlanib qolgan. Masalan, musulmon huquqining oila va nikoh masalalarini tartibga soluvchi normalari faqat musulmonlarga nisbatan tatbiq etilib, boshqa dinlarda qo‘llanilmaydi.

Islom dini vujudga kelgan va islom davlati tashkil topgan paytdan boshlab musulmon huquqining normalari nomusulmonlarga nisbatan ham tatbiq etilgan. Masalan, davlat huquqini yoki nomusulmon aholiga soliqlar solish tartibini belgilovchi qoidalar, shuningdek musulmonga turmushga chiqqan nomusulmon ayolning islom qoidalariga bo‘ysunishi kabilar.

Odatda, shaxsning diniy e’tiqodi bilan uzviy bog‘liq, shaxs maqomini tartibga soluvchi normalarni amalda qo‘llashda diniy prinsip chegarasidan chetga chiqish hollari ko‘p uchraydi. Masalan, hozirgi vaqtida meros qoldirish, huquq layoqatini cheklash, vaqf mulki masalalarini tartibga soluvchi musulmon huquqiy normalari arab mamlakatlarining aksariyatida nomusulmonlarga nisbatan ham tatbiq etiladi. Islomdagi diniy va huquqiy normalarning o‘zaro nisbatini tahlil qilganda jazo qo‘llash normalari mazmunan «dunyoviy» ekanligini, diniy jazo choralariga to‘la mos keluvchi xulq-atvor qoidalariga manba bo‘lib xizmat qilgan diniy qoidalar miqdori esa uncha ko‘p emasligini e’tiborga olish lozim.

Ko‘pincha Qur’oni karim va sunnada belgilangan qoidalarni buzganlik uchun nazarda tutilgan jazolar yuridik sanksiyalarga asos bo‘lgach, keyinchalik davlat tomonidan islom huquqiy ta’limoti xulosalari asosida aniqlashtirilgan, to‘ldirilgan va hatto sezilarli darajada o‘zgartirilgan. Masalan, huquqbuzarlikning ko‘rinishi bo‘lgan zinokorlik uchun diniy jazo sifatida nafaqat tan jazosi, balki ayrim hollarda faqat hadislarda keltirilgan toshbo‘ron qilib o‘ldirish ham qo‘llanilgan. Qasddan odam o‘ldirishda, odatda o‘lim jazosi xun to‘lash bilan almashtirilgan.

Islom aqidalari va diniy xulq-atvor, eng avvalo, Qur'on va sunnada ifodalangan, islom ilohiyotchilari va huquqshunoslari tomonidan talqin qilinadigan qoidalardir. Musulmon huquqi nafaqat Qur'on va sunnada mustahkamlab qo'yilgan yoki huquqshunoslар tomonidan ijтиҳод asosida amalga kiritilgan qoidalarning muayyan majmuini, balki amal qiluvchi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanuvchi normalarni ham qamrab oladi.

Ta'kidlash mumkinki, islom ijtimoiy-huquqiy tartibga solish tizimining ilmiy-uslubiy, ma'rifiy konsepsiylarini ishlab chiqish musulmon huquqini tadqiq qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Professor L. Syukiyaynen uqtirganidek, «hozirgi vaqtida musulmon huquqini o'rganish huquq fanida asosiy o'rinnadan birini egallashi lozim, chunki musulmon huquqi tarixi va hozirgi holatini, uning siyosiy-madaniy asoslari va rivojlanish yo'naliшlarini o'rganish islom mintaqasi mamlakatlarida davlat va huquqning vujudga kelishi, evolutsiyasi va holatining asosiy jihatlari va qonuniyatlarini hamda kelgusi rivojlanish omillarini yanada chuqurroq yoritishga ko'maklashadi»<sup>1</sup>.

Ushbu darslikda musulmon huquqining vujudga kelishi, rivojlanishi, asosiy tushunchalari va tuzilmalari, qonuniyatlarini va yo'naliшlarini yoritilgan. Unda musulmon huquqining nazariy-uslubiy va tarixiy, ya'ni umumiy qismiga alohida e'tibor berilgan. Undan musulmon huquqining asosiy tarmoqlariga doir muammolar to'g'risidagi bahs-munozaralar ham o'rin olgan.

---

<sup>1</sup> Сюкияйнен Л.Р. Мусульманское право. – М., 1986. – С. 6.

## BIRINCHI BO‘LIM

---

### **I-BOB. «MUSULMON HUQUQI» TUSHUNCHASI, PREDMETI VA METODLARI**

#### **1.1. Musulmon huquqining predmeti, maqsadi, ahamiyati va boshqa fanlar bilan bog‘liqligi**

O‘zbekistonda adolatli demokratik huquqiy davlat qurilishi jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni boshqarishning aniq mexanizmini ishlab chiqishni talab etadi. Bu vazifani ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning tarixiy-huquqiy asoslarini hisobga olmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov: «Men milliy mafkura xususida bosh qotirayotgan olimlarimiz, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlariga yer yuzida insoniyat va davlatchilik paydo bo‘lganidan buyon shakllangan jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini teran o‘rganish, kishilik tarixining yuksalish va tanazzul davrlarini, taraqqiyotini ana shu inqirozlardan omon saqlab qoluvchi ijtimoiy-ma’naviy omillarni har tomonlama tadqiq etgan holda biror xulosaga kelishni tavsiya etgan bo‘lur edim»<sup>1</sup>, – deb ta’kidlagan.

Jahon dinlari, milliy dinlardan farqli o‘laroq, davlatlararo, millatlararo xususiyatga ega bo‘lgan va keng miqyosda tarqalganligi bilan ajralib turuvchi dinlardir<sup>2</sup>. Dahriylarning yaqin kelajakda dinlarning yo‘qolib ketishi haqidagi bashorati to‘g‘ri chiqmadi. Aksincha, XX asrning oxiri XXI asrning boshida dinga qiziqish ortib, uning odamlar, jamiyatlar va davlatlar hayotiga, siyosatiga, xalqaro va millatlararo munosabatlarga ta’siri kuchaydi. Hozirgi xalqaro munosabatlarda, shuningdek jahon siyosatida har xil diniy birlashma va tashkilotlarning bevosita ishtirok etishi, ya’ni din omili yanada bo‘rtib ko‘rinmoqda. Bu diniy birlashma va tashkilotlar asosan jahon dinlari, ya’ni buddizm, yahudiylilik, xristianlik va islomga tegishlidir.

Islom (arabcha – o‘zini Allah irodasiga topshirish) ijtimoiy-mafkuraviy hodisa sifatida nafaqat Arabiston yarim oroli rivojlanishining

---

<sup>1</sup> Каримов И. А. Жамиятимиз мафкураси халқни – халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат қилсин // Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.7. – Т., 1996. – Б. 84–102.

<sup>2</sup> Қаранг: Сайдов А.Х. Основы мусульманского права. – Т., 1994.

tarixiy yakuni, balki qadimiyatdan o‘rtalashtirish davrida butun Yaqin Sharqqa xos bo‘lgan umumiy jarayonlarning natijalaridan biridir.

Islomning vujudga kelishi undan oldin mavjud bo‘lgan dinlar – buddizm, yahudiylik, xristianlik va zardushtiylikning ta’siri hamda rivojlanishi, shuningdek, sinkretik monoteizmning o‘ziga xos shakllariga ega bo‘lgan Arabiston aholisi diniy ongingin tadrijiy rivojlanishi bilan ham bog‘liqdir. V–VI asrlarga kelib Arabiston yarim orolining shimoliy va janubiy hududlaridagi qadimgi davlatlar parchalanib ketdi. Arabistonning shimol, sharq va janubidagi ayrim hududlar asta-sekin qo‘shni davlatlar – Eron, Vizantiya, Aksum podsholigining hukmi ostiga o‘ta boshladi. Qadimgi jamiyatning negiziga putur yetgani mavjud ijtimoiy ziddiyatlarni keskinlashtirib, shakllangan ijtimoiy aloqalarning yo‘qolishiga olib keldi, jamiyatning turli qatlamlari – ko‘chmanchi qabilalar va o‘troq aholi o‘rtasidagi nizolarni kuchaytirdi. Bularning hammasi islomga qadar arab xalqi hayotida behalovatlikning kuchayishi, fatalizmning paydo bo‘lishiga olib keldi. Ayni shu holat ko‘pgina eski xudolardan hafsalasi pir bo‘lgan arablarni ma’naviy izlanishlarga ham rag‘batlantirdi. Yangi Arabiston dunyosi aynan shu davrda vujudga kela boshladi. Ko‘chmanchilar va o‘troq aholidan iborat, taxt deyarli doim ko‘chmanchilar qo‘lida bo‘lgan yangi davlatlar, chunonchi Lahmiylar, Hassaniylar, Kindiylar podsholigi, qisman Ximyar tashkil topdi. Ko‘chmanchi qabilalar va shahar aholisining yangi ittifoqlari vujudga keldi. Yangi savdo-siyosiy markazlar (masalan, Makka) tashkil topdi. Arabiston xalqlarining etnik va madaniy birlashish jarayoni boshlandi. Yuqorida nomlari keltirilgan hududlarda yagona arab tili, ijodiyoti, umumiy o‘zlikni anglash kayfiyati keng tarqaldi. Urug‘doshlik tuzumidan ilk sinfiy jamiyatga o‘tish jarayoni kuchaydi. Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni g‘oyaviy asoslashga, rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj, intilish Arabistonning deyarli barcha hududlarida bir-biriga o‘xshash hodisalar – qabilalar va shaharlarni birlashtirishga, tashqi dushmanlarga qarshilik ko‘rsatishga yo‘naltirilgan siyosiy harakatlarni vujudga keltirdi. Bunday harakatlarga iloh bilan bevosita aloqadorlikni da’vo qilgan va o‘z faoliyatini «ilohiy ilhom» deya asoslagan shaxslar rahbarlik qildilar. Ilohni ular yagona va tengi yo‘q deb tavsiflab, ar-Rahmon yoki Alloh deb atardilar.

Islom dini va Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarlik faoliyati umumiy jarayonlarning muayyan va qonuniy yakuni bo‘ldi. G‘oyaviy va siyosiy jihatdan Muhammad (s.a.v.) juda kuchli, har tomonlama barkamol shaxs bo‘lgan. VII asrda Hijoz (G‘arbiy Arabiston)da paydo bo‘lib, yahudiylar

va xristianlar ta’limotiga yaqin bu mafkuraviy harakat o‘ziga xos shakl-shamoyil, ma’naviy va siyosiy qudrat kasb etdi, islom dinining vujudga kelishini muhim tarixiy hodisaga aylantirdi. Arabistonda tashqi dushmanlarga qarshi kurash uning asta-sekin siyosiy birlashuviga sabab bo‘ldi. Arab xalqlarining siyosiy, iqtisodiy, etnik va madaniy jihatdan o‘zaro birlashish jarayonining yakun topishida islom dini muhim omil bo‘ldi. Bu jarayon Muhammad (s.a.v.) va uning sahobalari (hammaslaklari)ni tashqi dunyo – Vizantiya va Eron bilan to‘qnashtirdi, yangi dinni yanada rivojlantirish uchun ularga qarshi kurashga hamda yangi tuzilma (umma – islom jamoasi)ni tashkil etishga rag‘batlantirdi.

Hozirgi vaqtida islom dini izdoshlari soniga ko‘ra jahonda (xristianlikdan keyingi) ikkinchi o‘rinda turadigan din hisoblanadi. Yer yuzida qariyb 1,5 milliarddan ortiq kishi islomga e’tiqod qiladi (ularning 90 % ga yaqini – sunniylar). Musulmonlarning uchdan ikki qismidan ko‘prog‘i Osiyoda yashaydi va bu qit‘a aholisining 20 % idan ortiqrog‘ini tashkil etadi. Musulmonlarning qariyb 30 % i Afrikada yashaydi (qit‘a aholisining 49 %). 120 dan ortiq mamlakatning 50 tasida musulmonlar aholining ko‘pchilagini tashkil etadi. Shimoliy Afrika, G‘arbiy Osiyoning deyarli barcha mamlakatlari (Kipr, Livan, Isroil bundan mustasno), Senegal, Gambiya, Niger, Somali, Afg‘oniston, Pokiston, Bangladesh, Indoneziya kabi mamlakatlar aholisining 90 % idan ortiqrog‘i musulmonlardir. Afrikaning bir qancha mamlakatlarida (masalan, Gvineya, Mali, Chad, Sudanda) musulmonlar aholining yarmini yoki 80 % ini tashkil qiladi. Malayziya va Nigeriya aholisining qariyb yarmidan ko‘prog‘i musulmonlar, ba’zi (masalan, Gvineya-Bisau, Kamerun, Burkina-Faso, Syerra-Leone kabi) mamlakatlarda musulmonlar ozchilikni tashkil qilsa ham, ta’sir doirasini kuchli. Musulmonlarining soni jihatdan eng yirik davlatlar Indoneziya, Hindiston, Pokiston va Bangladeshdir. Musulmonlarning ko‘pchiligi Xitoy, Tailand, Eritreya, Efiopiya, Tanzaniya, Yevropaning ayrim mamlakatlari (Bosniya, Gersegovina, Albaniya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va b.), Shimoliy va Janubiy Amerika mamlakatlari (AQSH, Kanada, Argentina, Braziliya, Gayana, Surinam, Trinidad va Tobago)da, Avstraliyada, Fiji orollarida yashaydi.

Afrika va Osiyodagi 28 ta davlat (Misr, Quvayt, Saudiya Arabistoni, Eron, Pokiston va b.)da islom davlat dini (yoki rasmiy din) sifatida tan olingan. Ayrim mamlakatlarda «islom» so‘zi davlatning rasmiy nomi tarkibiga kiritilgan: Eron Islom Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi, Mavritaniya Islom Respublikasi va boshqalar. Ko‘pgina

mamlakatlarda musulmon partiyalari, diniy-siyosiy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, ko'p sonli diniy bilim yurtlari – qorilik maktablari, madrasalar, musulmon universitetlari, islam jamiyatlari, missionerlik tashkilotlari, tijorat korxonalar, islam banklari, sug'urta kompaniyalari ishlab turibdi. Saudiya Arabistoni va Fors ko'rfazining ba'zi davlatlarida islam sud ish yurituv tizimi amal qiladi. O'tgan asrning 70-yillari oxiri va 80-yillarining boshida xalqaro munosabatlarda hukumat yoki nohukumat darajasida faoliyat olib boruvchi musulmon tashkilotlari muayyan o'rirlarni egallay boshladи.

Yuqoridagi ma'lumotlardan dunyo huquqiy madaniyatining ajralmas bo'lagi bo'lgan, o'zbek davlatchiligining tadrijiy tarixi va huquqiy tafakkurining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan musulmon huquqini o'rganishning dolzarbligi ayon bo'ldi. Musulmon huquqini o'rganish esa bir qancha qiyinchiliklar bilan bog'liq, chunki u bir-biriga o'xshash normalar tizimi bo'lmay, balki mujtahidlarning aniq qarorlari majmuini ifodalaydi. Ushbu darslikda musulmon huquqi yaxshiroq tushunish va o'zlashtirish qulay bo'lishi uchun bir nechta bo'limlarga bo'lib yoritildi.

Keng ma'noda ta'riflanganda, musulmon huquqi islam hukmon din hisoblangan davlatdagi diniy va dunyoviy normalar majmuidir. Musulmon huquqi islamning barcha manbalaridagi normalar, qoidalar yig'indisidan iborat.

Hozirgi vaqtida jahon huquq tizimida musulmon huquqining o'ziga xos o'rni bor. Parij universiteti xalqaro qiyosiy huquqshunoslik fakultetining rahbari Rene David jahondagi huquqiy tizimlarni beshta: 1) roman-german; 2) umumi; 3) sotsialistik; 4) musulmon, hindu va yahudiylik, 5) Uzoq Sharq, Afrika va Madagaskar kabi huquq oilalariga ajratgan. Ko'rib turganimizdek, mazkur taqsimotda ham musulmon huquqining jahon huquqiy tizimidagi o'rni mavjud.

XX asrning so'nggi o'n yilligi hamda yangi asrning boshlang'ich davrida dunyoning ko'plab mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayotida islam dinining ta'siri kuchayib borayotganligi kuzatilmoxda. Shu bois, islam davlat dini deb tan olingan va musulmon huquqi qonunchilik hamda sudlov asosini tashkil etgan Osiyo va Afrikadagi ayrim mamlakatlarining (Saudiya Arabistoni, Jordaniya, Marokash, Eron, Pokiston va h.k.) hozirgi hayoti va o'tmishini o'rganish alohida ahamiyatga egadir.

Musulmon huquqi hozirgi zamonning eng yirik huquqiy tizimlaridan bo'lib, unda barcha asosiy sohalardagi ijtimoiy munosabatlar (oila, jamiyat, davlat)ni muvofiqlashtiruvchi normalar mavjud. Ma'lumotlarga ko'ra, musulmonlar soni 1,5 mlrd.dan ziyod bo'lib, bu yer yuzi

aholisining qariyb 1/4 qismini tashkil etadi. Musulmon huquqiga doir ayrim qonunlar odamlarning hayot tarzini butunlay qayta qurish va ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirishga qaratilgan. Shu bois uning hozirgi zamon huquqiy tizimlari orasidagi o'rni ahamiyatga molik.

Musulmon huquqining tarixi, hozirgi maqomi, siyosiy-madaniy manbalari va yo'nalishlari taraqqiyotini o'rganish musulmonlar mintaqasi mamlakatlaridagi davlat va huquqni rivojlanirishning asosiy xususiyatlari, vujudga kelish qonuniyatları, tadrijiy rivojlanish tamoyil (tendensiya)larini chuqurroq tahlil etishga imkon beradi.

Musulmon huquqining predmetini ushbu huquqning paydo bo'lishi va taraqqiyotining umumiy qonuniyatları, musulmon davlatlarida hokimiyatning ijtimoiy mohiyati, ulardagi boshqaruv va davlat tuzilishining shakllari, musulmon huquqining tabiatı, manbalari, mazhablari, normalari, tarkibi va asosiy tuzilmalari hamda hozirgi islom mamlakatlaridagi huquqni o'rganish tashkil etadi. Musulmon huquqi jamiyatshunoslik fani tarmoqlarining o'rganish obyektiidir. Mazkur fan tarmoqlari uni o'z maqsadlariga muvofiq o'rganadi. Shuningdek, huquq fani ham musulmon huquqini muayyan nuqtai nazardan o'rganadi. Huquqshunoslikda yetakchi tarmoq hisoblangan davlat va huquqning umumiy nazariyasi fani uchun musulmon huquqining paydo bo'lishi, rivojlanishining umumiy qonuniyatları, musulmon davlatlarida hokimiyatning ijtimoiy mohiyati, ulardagi boshqaruv va davlat tuzilishi shakllariga xos xususiyatlar, musulmon huquqining tabiatı, manbalari, mazhablari, ularning tarkibi, asosiy tuzilmalari va tarmoqlari, musulmon huquqiy mafkurasining xususiyatlari, hozirgi musulmon mamlakatlaridagi milliy huquqning o'ziga xosliklari tadqiq etish mavzulari hisoblanadi.

***Musulmon huquqi predmetini o'rganishning ahamiyati.*** Mamlakatimizda huquqiy madaniyatni yuksaltirishning chora-tadbirlari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilayotgan sharoitda qonunlarni musulmon huquqiga asoslanib ilmiy tahlil qilish g'oyat muhim. Chunki musulmon huquqida qonunlarga bo'ysunish, ularni hurmat qilish, qonunbuzarlarniadolatli jazolash, aybsizlarga nisbatan to sudning qarori chiqquncha to'g'ri muomalada bo'lish bilan bog'liq muhim masalalar o'z ifodasini topgan bo'lib, ularni asrlar davomida musulmonlarning ongiga singdirishga harakat qilib kelingan. Qonunlarga itoat qilish ajdodlarimizga xos e'tiqod bo'lган. Qonunlarni yaxshi bilish, ularga o'z haq-huquqlarining kafolati va himoyachisi, nizolarni hal qilishning vositasi sifatida murojaat qilish xalqimizning azaliy odatidir.

Shunday qilib, musulmon huquqi insonning barcha zaruriy huquq va erkinliklariga asoslanadi. Musulmonlar o‘rtasidagi munosabatlarda musulmon huquqini qo‘llash ham xuddi shunga asoslanadi. Mazkur huquq asoslanadigan ayrim diniy prinsiplar esa tomonlardan biri boshqa dinning vakili bo‘lgan holatlarda qo‘llanmaydi. Islomda teokratik jamiyatning ta’limoti hukmron bo‘lib, unga ko‘ra davlatga din yo‘l-yo‘riqlarini bajaruvchi xizmatkor maqomi berilgan. Islom dini va ma’rifatiga asoslangan musulmon huquqi mazkur din va ma’rifiylikdan ozroq bo‘lsa-da, tasavvurga ega kishilarga tushunarli bo‘lishi mumkin. Musulmon huquqi musulmon xalqlarning ijtimoiy hayotini shakllantirishning eng harakatchan omilidir. U hayotdagi turli siyosiy qiyinchiliklarga qaramay, islomning yagona va qat’iy tarkibini saqlab qolgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ta’sir eta oladi.

Musulmon huquqi tarkibi, toifalari va tushunchalariga ko‘ra jahon huquqiy tizimlariga qaraganda o‘ziga xos mohiyatga ega. Musulmon huquqi G‘arbdagi ko‘pgina mamlakatlarning davlat qurilishi va huquqiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Uning bugungi mutanosiblashtiruvchi mavqeい o‘zining tarixiy shakllanishi va rivojlanishi bilan uzviydir. Musulmon huquqi ilk amal qilish davridan boshlab musulmonlarning yakka va jamoa bo‘lib yashashlarini tartibga solish vazifasini bajargan. Jamiyat hayotining muhim sohalari mutanosiblashtiriladigan sharoitlarda yangi qabul qilingan qonunlar tufayli an’anaviy musulmon huquqi birmuncha cheklandi. Biroq, ta’kidlash kerakki, yangi qabul qilinadigan qonunlar aksariyat hollarda ilgarigi tartib-qoidalarni qabul qiladi, shu bois hayotning muayyan sohalari (oila, meros, huquq va h.k.) ba’zi mamlakatlarda an’anaviy musulmon huquqi ta’sirida rivojlanib, tartibga solinib kelmoqda. Hatto, ayrim mamlakatlar (Eron, Liviya, Pokiston)ning huquqiy tizimlarida musulmon huquqining mavqeい ancha yuksalib, siyosiy va mafkuraviy hayotdagi o‘rni kuchayib bormoqda.

Turkiston 1917-yilgi Oktabr to‘ntarishigacha bir necha yuz yillar mobaynida islom va musulmon huquqi keng tarqalgan va rivojlangan mintaqa edi. 1928-yilda Xalq komissarlari kengashining buyrug‘iga asosan shariat sudlari bekor qilindi. Unga qadar fuqarolik ishlari ushbu sudlarda ko‘rib chiqilar edi. Respublikamiz aholisining hayot tarziga singgan islom dinining tartiblarini o‘rganish hozirda ham dolzarbdir. Demak, bunday sharoitda musulmon huquqini huquqiy fanlar sirasida o‘rganish markaziy o‘rinni egallamoqda. Ushbu o‘quv fanining bahs mavzui haqida so‘z yuritganda, musulmon huquqining boshqa huquq fanlaridan tafovutlanadigan ayrim prinsiplariga to‘xtalib o‘tish zarur. Eng

avvalo, ta'kidlash kerakki, qaysi davlatda yashashlari, qaysi millatga mansubligidan qat'i nazar, barcha musulmonlar umumiyligini qonunchilik majmuiga, ya'ni musulmon huquqi qoidalariiga tayanib, o'z hayot tarzlarini tuzadilar. Ba'zan ayrim qoidalarda tafovut bo'lgan taqdirda ham, lekin musulmon huquqining bosh qoidalari ular uchun umumiyligini hisoblanadi. Musulmon huquqshunosligi nuqtai nazaridan ular xudoga ma'qul bo'lgan huquqiy arkonlardir. Aniqrog'i, musulmonlar o'z hayotiy aqidalarida fransuzlar yoki inglizlarga o'xshab turli kodekslarga emas, balki yagona ma'naviy-huquqiy qonunga rioya etib yashaydilar.

Ta'kidlaganimizdek, musulmon huquqi huquqning boshqa tizimlaridan mohiyatiga ko'ra tamoman farq qiladi. Musulmon huquqining tamoyillarini Yevropa qonunchiligining tushunchalari va tamoyillari asosida muhokama qilib bo'lmaydi. Musulmon huquqi bilan tanishish uchun islomning diniy aqidalari to'g'risida qisqa bo'lsa ham, lekin aniq ma'lumotga ega bo'lish lozim. Musulmon fuqarolik qonunlari diniy prinsiplarga bo'ysunadi. Musulmon huquqida G'arbiy Yevropa kodekslarida mavjud bo'lмаган (masalan, vaqf va zakot to'g'risidagi) qoidalari uchraydi. Shunday qilib, musulmon huquqi asoslarini o'rGANISHGA kirishgan har qanday shaxs eng avvalo hozirgi zamon Yevropa fanining «huquq» to'g'risidagi tushuncha va tamoyillari musulmon qonunchiligi tizimiga muvofiq kelmasligini yodda tutishi zarur.

Musulmon huquqi shaxslar va ashyolarga aloqador munosabatlar, jinoyat va jazo, hokimiyat va unga bo'ysunish shakllari, davlatni boshqarish kabi ko'plab qoidalari to'g'risida bahs yuritsa-da, lekin undagi tushunchalar ilohiy asosga bog'lanadi, unda inson aqli, tarixiy mavjudlik ikkinchi darajali hodisa sifatida talqin etiladi. Diniy prinsiplarga asoslangan musulmon fiqhi real dunyoda ma'naviy poklanish va u dunyoda rohat-farog'atda bo'lish yo'llari bayon etilgan ilohiy qonunlar tizimidir. U musulmonlarning diniy, oilaviy, ijtimoiy va davlatga oid munosabatlarini muvofiqlashtiradi. Aytish kerakki, musulmon huquqi – turli sohalardagi inson huquqlariga taalluqli yo'l-yo'riq va qoidalarning to'plami emas, balki din, oila, fuqarolik, jinoyat va jazoga oid huquq tarmoqlarining umumiyligini «qomusi»dir. Musulmon huquqi – qat'iy mantiqqa asoslangani, musulmon faqihlari to'plagan behisob materiallarda diniy, oilaviy, fuqarolik va jinoyat huquqlarining muhim qoidalari ixcham tarzda ifoda topgani bilan boshqalardan keskin ajralib turuvchi g'oyat o'ziga xos hodisadir.

Musulmon huquqi tizimiga xoslik shundaki, unda sof diniy qonunlar musulmonlarning asosiy majburiyatları: namoz, ro'za, zakot, haj bilan

bog‘liq usullar yordamida yoritiladi. Bundan so‘ng esa nikoh va oilaviy munosabatlar, qasam, savdo, vafotdan so‘ng mulk taqsimoti, hadya qilish, yollash, qarzlar, kafolatga olish, vaqf, mast qiluvchi ichimliklar, ovchilik, hayvonlar, sudlov, guvohlar, tinch kelishuv bitimi, jazolar, o‘g‘rilik, muqaddas urush (jihod), vasiyat to‘g‘risidagi qoidalarning bayoni o‘rin olgan.

Mazkur munosabatlarda sotib olish, pul qo‘yish, qarz berish, ijara to‘lovi, vakolat berish, kafolatlash, kelishuv bitimlari ustuvor maqomga ega. Xususan, meros huquqiga alohida e’tibor berilgan. Meros huquqi, Muhammad (s.a.v.) payg‘ambardan bizgacha yetib kelgan tartibga ko‘ra, ushbu huquqning yarmini tashkil etadi, u alohida tadqiqot obyekti hisoblanib, «ilm-ul-faroiz» deb yuritiladi.

Musulmon huquqi sunniylik mazhabi qonunchiligidagi maxsus fan – fiqh, ya’ni qonunshunoslik deb nomlanadi. Lekin ushbu fanning mohiyati faqat qonunshunoslikdan iborat bo‘lmay, ayni paytda u insonning islam diniga mansubligi borasidagi majburiyatları to‘g‘risidagi ta’limot hamdir.

## **1.2. Musulmon huquqining tizimi va metodlari**

*Fiqh* – qonunshunoslik fani ikki qismdan iborat:

1. *Ilm ul-fiqh* – huquqning manbalari to‘g‘risida bo‘lib, Qur’on, sunna, ijmo va qiyosni huquqning manbalari sifatida tan oladi va o‘rganadi.

2. *Ilm ul-furu-al-fiqh* – huquqning tarmoqlari to‘g‘risida bahs yuritadi, u musulmon huquqi normalarini kodekslashtirishga oid qonunchilikka bag‘ishlanadi.

Musulmon faqihlari davlatni ilohiy hokimiyat (teokratiya) deya baholab, uning haqiqiy egasi – oliy zot, ya’ni Alloh, mamlakat qonunlari esa uning bevosita amrlaridan iborat, deb ta’lim beradilar. Binobarin, huquq va ilohiy ta’limot bir yaxlit tushuncha – ash-sharia – ilohiy qonunga jam bo‘lib, uning quyidagi: *Ilm ul-fiqh* – qonunshunoslik; *Ilm ultafsir* – Qur’oni sharh; *Ilm ul-hadis* – hadislar; *Ilm ul-kalom* – e’tiqod; *Ilm ul-faroiz* – meros; *Ilm ul-usul-fiqh* – huquqning manbalari to‘g‘risidagi fanlardan iborat qismlari mavjud. Islom dinining yuqorida keltirilgan sohalari majmuini musulmon huquqi dinimizning manbalari va dunyoviy qonunchilik normalari sifatida o‘ziga qamrab olgan.

Musulmon huquqida mujtahid (huquqshunos)ning mavqeい ingliz sudidagi advokat (himoyachi)ning maqomiga tengdir. Islom hozirgi zamonda rivojlanayotgan va keng tarqalgan din bo‘lib, qator

mamlakatlarda davlat dini sifatida qabul qilingan, bu maqom konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlangan. Aksariyat musulmon mamlakatlarida ushbu huquq o‘z o‘rnini yangi qonunchilikka bo‘shatib berib, huquqiy tizimning asosini tashkil etmasa-da, haligacha oila-nikoh, meros va huquqning boshqa tarmoqlaridagi muammolarni hal etishda uning ta’siri kuchli, ahamiyati kattadir. Ba’zi davlatlarda (Saudiya Arabistoni, Eron, Pokiston) musulmon huquqi ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi faol omil sifatida qo‘llanib kelmoqda.

Musulmon huquqi normalari – ahkomlarining afzalligi dunyoning barcha musulmonlari uchun majburiyligidadir. O‘zbekistonda birinchi bo‘lib musulmon huquqining manbalari to‘g‘risidagi masalani professor A. X. Saidov o‘rgandi. Uning ta’kidlashicha, musulmon huquqi tarixga «islom huquqi» istilohi bilan kirdi, u «islomga talpinadigan jamoalarning qonun ijodkori tomonidan barpo etilgan yo‘lidir», shuningdek u diniy hamda fuqarolik qonunlaridan iborat. Islom rivojlanishining dastlabki vaqtlarida musulmon huquqiga doir qonunlar faqat diniy tavsifga ega edi. Vaqt o‘tishi bilan, ya’ni birinchi musulmon jamoalari Madinaga ko‘chgan paytdan boshlab, islomning ta’sirini yanada kuchaytirish maqsadida Muhammad (s.a.v.) oilaviy va ijtimoiy turmush, shartnomalar va ixtiyoriy majburiyatlar, jumladan merosga oid qator yangi normalarni e’lon qildi. Mazkur normalar sunnani, ya’ni musulmon huquqi asosiy manbalaridan birining asosini tashkil etadi.

Musulmon huquqini o‘rganish umumjahon huquqiy madaniyatining bir qismi sifatida islom siyosiy-huquqiy tafakkurining insoniyat ma’naviyatiga qo‘sghan hissasini o‘rganishdan iborat. Shu bois musulmon huquqini quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha o‘rganish juda muhimdir: *birinchidan*, musulmon huquqi nazariyasi va tarixi – musulmon huquqi islom siyosiy-huquqiy g‘oyalari tarixi. Bunda alohida e’tibor:

- 1) O‘zbekistonda fiqhning shakllanishi, unda islomgacha mavjud bo‘lgan huquqiy an’analar va boshqa ijtimoiy normalarning aks etishi;
- 2) islom ma’naviy merosining muhim qismi hisoblangan musulmon huquqi (musulmon huquqi, fiqh, usul al-fiqh)ning nazariy asoslari;
- 3) musulmon huquqida diniy-axloqiy va huquqiy aqidalarning o‘zaro aloqadorligi;
- 4) musulmon huquqiy doktrinasi (ta’limoti)ning jahon huquqiy tafakkurining bir qismi sifatidagi evolutsiyasiga qaratiladi.

*Ikkinchidan*, musulmon huquqi – islom turmush tarzining muhim unsuri. Mazkur o‘rinda quyidagilar:

1) musulmonlarning ijtimoiy-huquqiy madaniyati va turmush tarzida musulmon huquqining o‘rni;

2) islam tizimida diniy-huquqiy va axloqiy unsurlarning o‘zaro munosabati;

3) musulmon huquqi hamda mahalliy urf-odat va an’analarning o‘zaro munosabati;

4) fiqh maktab (mazhab)lari va ularning mintaqaviy (joylashish) turli-tumanligi;

5) musulmon huquqi yaxlitligi va ayni davrda ko‘p xilligi.

*Uchinchidan*, musulmon huquqining Sharq huquqiy tizimlaridagi tarixiy va zamonaviy o‘rni. Ushbu yo‘nalishda quyidagi asoslarni o‘rganish muhim milliy va amaliy ahamiyatga ega:

1) o‘rtalasrlar Sharq huquqiy tizimlarida musulmon huquqi (noislomiy tuzilmalar – «davlat» huquqi, urf-odatlar, Yevropa huquqi, noislomiy dinlar huquqi bilan o‘zaro munosabati);

2) hozirgi zamon Sharqining huquqiy rivojlanishida musulmon huquqining o‘rni;

3) musulmon huquqining Yevropa huquqiy tizimlariga va Yevropa huquqiy madaniyatining musulmon huquqi tarkibiga ta’siri;

4) musulmon huquqining zamonaviy huquqiy tizimlarning turli tarmoqlari orasidagi o‘rni.

*To‘rtinchidan*, musulmon huquqi – hozirgi eng yirik huquqiy tizimlardan biri. Bunda:

1) musulmon huquqining boshqa huquqiy tizimlar (madaniyatlar) bilan o‘zaro munosabati va aloqasi;

2) musulmon huquqi va umuminsoniy huquqiy qadriyatlar;

3) musulmon huquqining umuminsoniy huquqiy madaniyatga qo‘shgan ulushi;

4) hozirgi zamon musulmon huquqining Yevropa huquqiy madaniyati ta’sirida shakllanishi.

*Beshinchidan*, musulmon huquqi va shaxsning huquqiy maqomi. Mazkur yo‘nalishda:

1) musulmon huquqida shaxs maqomining diniy va huquqiy jihatlari;

2) musulmonlarning shaxsiy maqomi haqidagi islam ta’limotlari;

3) erkin e’tiqod tamoyili va musulmonlar maqomining huquqiy jihatlari;

4) musulmonlarning nomusulmon mamlakatlardagi maqomi va uning huquqiy mustahkamlanganligi (Sharq va G‘arb davlatlari misolida);

5) islom tamoyilining davlat bilan aloqadorligi va uni nomusulmon mamlakatlarda huquqiy mezonlashtirish;

6) musulmon mamlakatlarida nomusulmonlarning maqomi (davlat fuqarolari va xorijiy davlat fuqarolari) o‘rganiladi.

*Oltinchidan*, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-huquqiy va ma’naviy madaniyatida musulmon huquqi. Ushbu yo‘nalishda asosiy mavzular sifatida quyidagilar o‘rganiladi:

1) O‘zbekistonda musulmon huquqining tarixi va musulmon huquqiy tafakkuri;

2) musulmon xulq-atvorlarini mezonlashtirish mexanizmida musulmon huquqi va urf-odatning o‘zaro munosabati;

3) Markaziy Osiyo mamlakatlarining amaldagi qonunchiligi va musulmon huquqini qiyosiy o‘rganish.

*Yettinchidan*, musulmon huquqining tarmog‘iga oid muammolar, hozirgi kunda musulmon huquqining tarkibi, shakli va mazmunida sodir bo‘layotgan evolyutsion o‘zgarishlardan iborat. Bunda musulmon huquqining ayrim tarmoqlari va tuzilmalari mumtoz nazariya va hozirgi zamon amaliyotiga solishtirgan holda tahlil etiladi. Buning uchun eng avvalo musulmon huquqiy mafkurasi va amaldagi huquqiy normalarning tizimi sifatida musulmon huquqining manbalarini o‘rganish taqozo etiladi. Unga Qur’oni karim, hadislari to‘plamlari va ulardan keyin yozilgan mumtoz asarlar, jumladan «Hidoya» taalluqlidir. O‘rta asrlarda musulmon mamlakatlarida amalda bo‘lgan qonunchilik hujjatlari, shuningdek, hozirgi zamon islom qonunchiligi va ushbu huquq ta’siridagi konstitutsiyaviy, oila va meros huquqlarini o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega. Huquqshunoslar, tarixchilar, sharqshunoslar va faylasuflarning musulmon huquqi va umuman islomga doir asarlari, shuningdek islomshunoslik masalalariga bag‘ishlangan huquqiy adabiyotlarni ham o‘rganish muhim ahamiyatga molikdir.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Musulmon huquqining yuridik fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligini tushuntiring.

2. Ichki ishlar idoralari xodimlarining musulmon huquqi sohasidagi bilimlarining amaliy ahamiyati qanday?

3. Markaziy Osiyolik alloma ajdodlarimizning musulmon huquqiy tizimini shakllantirishdagi hissalar haqida nimalarni bilasiz?

4. Musulmon huquqi O‘zbekiston Respublikasi huquqiy merosining ajralmas bo‘lagi ekanligini tushuntiring.

## **2-BOB. ISLOMNING KELIB CHIQISHI VA MARKAZIY OSIYODA MUSULMON HUQUQI**

### **2.1. Islom va musulmon jamoasining vujudga kelishi**

Musulmon huquqi islom dinining ajralmas qismidir. Ushbu din tamoyillariga asoslangan musulmon huquqi Arab xalifaligida VII–XIII asrlarda vujudga keldi.

Islom diniga e’tiqod qiluvchilar uning yo‘l-yo‘riqlariga amal qiladilar, musulmon huquqiga bo‘ysunadilar. Islom tarixida islom huquqiga ko‘ra, faqat musulmonlar to‘laqonli fuqarolik huquqi maqomidan foydalanganlar. Nasroniylik yoki o‘zga dinlarga e’tiqod qiluvchilar uchun musulmon huquqining normalari ular jinoyat sodir etgan yoki musulmonlar bilan oldi-sotdi bitimlari tuzilgan holatlardagina qo‘llangan.

Islom ta’limotiga ko‘ra, Alloh taolo Muhammad ibn Abdullohni o‘zining elchisi, ya’ni payg‘ambari deb tanlagan va Jabroil farishta orqali Qur’onni nozil qilgan. Qur’on va unga asoslangan musulmon qonunchiligi dunyodagi turli xalqlarni jo‘g‘rofiy va etnografik jihatdan ikki guruhga: musulmonlar va nomusulmonlarga ajratadi. Musulmon huquqi normalari musulmon jamoasining ham diniy, ham huquqiy jihatdan mazmunan farqli, lekin o‘zaro mushtarak bo‘lgan ijtimoiy, hujjatli oilaviy va shaxsiy tomonlarini mutanosiblashtirgan.

V–VII asrlarda Arabiston aholisining asosiy tarixiy harakatdagilari g‘arbiy, markaziy va sharqiy viloyatlarda yashovchi arablar edi. Janubiy Arabiston aholisi dehqonchilik va hunarmandchilikda yuksak rivojlanishga erishib, o‘ziga xos madaniyatini bunyod etgan bo‘lsa-da, mazkur davrda inqiroz va tanazzulga yuz tutgan edi.

Arablar jo‘g‘rofiy mavqeい va turmush tarzlariga ko‘ra ko‘chmanchi (badaviy)lar va o‘troq aholidan iborat. Ular o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar rivojlangan, hokimiyat uchun o‘zaro kurash vaqtı-vaqtı bilan qonli to‘qnashuvlargacha borib yetar edi. Bu jo‘g‘rofiy va etnografik mansublik, bog‘liqlikni istisno etar, bu kurashlar tufayli nafaqat katta qabilalar, balki ayrim yirik guruhlar ham har xil mintaqalarga bo‘linib ketgan edi. O‘sha davrlarda qabilaviy qonunlar bilan birga, ibridoiy qabilaviy dinlar ham katta mavqega ega edi. Badaviylar asosan ko‘p xudolik edilar. Ularning uncha ko‘p bo‘lmagan qismi nasroniy yoki yahudiy dinida bo‘lganlar. Har qabilaning tepasida rahbari sifatida saylab qo‘yilgan dohiy – sayid turar, u aksariyat boy urug‘ning vakili bo‘lardi.

Arablarda yozuv uncha keng tarqalmaganligi tufayli huquqiy normalarni kelgusi avlodga yetkazishning birdan-bir shakli sifatida

rivoyatdan foydalanilar edi. Shimoliy va Markaziy Arabistonda yashovchi arablarning urf-odatlari asosan ko‘chmanchi qabilalar, ularning ittifoqlari va ayrim qabilalarda saqlanib kelayotgan an'analar hisoblangan. Bu davrda arablarda chorvachilik va dehqonchilik yaxshi rivojlangani tufayli qabila tuzumi yemirildi. Ko‘chmanchi arablardagi urfga ko‘ra, mol boqiladigan o‘tloqlar va suv chashmalari jamoaning mulki sanalardi. O‘troq arablarda VII asrda haydaladigan yerlar va suv manbalariga nisbatan xususiy mulk paydo bo‘ldi. Ko‘chmanchi va o‘troq yashaydigan arablarning xususiy mulkiga qullar ham kirardi. Urf-odatga ko‘ra, ular harbiy o‘ljani egallash, xiroj olish, merosga ega bo‘lish, shartnomalar tuzish orqali mulkiy huquqqa ega bo‘lar edilar. Arablarning urf-odatlarini majburiyatli munosabatlar muvofiqlashtirar edi. Shartnoma turlaridan homiylik to‘g‘risidagi shartnoma ahamiyatga ega bo‘lib, u ayrim shaxslar, qabilalar va ittifoqlar o‘rtasida tuzilar edi. Makka va Madinaning dehqonchilik va savdo bilan shug‘ullanuvchi aholisi o‘rtasida ayrboshlash, oldi-sotdi, qarz berish, chorakorlik kabi shartnomalar keng qo‘llanilgan. Shartnomalar og‘zaki, tantanali qasam shakllarida tuzilar, bu esa bitimning buzilmasligiga kafolat bo‘lar, uni buzgan odam esa jazoga mahkum etilardi. Arablarda nikoh islomgacha bo‘lgan davrlarda monogamiya tamoyiliga asoslangan<sup>1</sup>. Johiliyat davrida nikohning bir nechta turlari mavjud bo‘lib, ular aslida inson tabiatiga zidligi tufayli keyinchalik islom ularning barchasini bekor etib, faqat doimiy nikohni joriy qildi.

Arab oilasi patriarchal asosda qurilar, bu oilada otaning ustunligini belgilar edi. Ajralishlar cheksiz bo‘lib, erkakning tashabbusi bilan amalga oshirilgan. Ajralgan qalliq sepi va xotinlik huquqlaridan mahrum etilgan. Qadimiylar odatiga ko‘ra, merosxo‘r nayza ishlatishtga, o‘z mulkini qo‘lga kiritish va himoya qilishga qodir bo‘lishi shart edi. Islomgacha arablarning huquqiy amaliyotida shartnoma va qasamga ko‘ra, merosxo‘rlik qilish ham urf edi. VI asr oxirlariga kelib, merosxo‘rlar safiga qizlar va ayollar ham qo‘shildi.

Islomgacha yashagan arablarda eng yomon huquqbazarlik – jamoa an'analarini buzish hisoblangan, buni sodir etgan aybdor urug‘ va qabiladan haydalgan. Shaxsga qarshi jinoyatlar ham juda ko‘p sodir etilgan. Jinoyat uchun jazo talion tamoyiliga asoslanib, ya’ni «tanga jon, qonga qon» shaklida amalga oshirilgan. Eng og‘ir jinoyat odam o‘ldirish

---

<sup>1</sup> Карапг: Жўзжоний А.Ш. Ислом ҳукуқшунослиги. – Т.,2002. – Б. 16.; Бартольд В.В. Соч. Т. VI. – М., 1996. – С. 234.

hisoblangan. Arablarning urflariga ko‘ra, o‘ldirilgan odam uchun uning qarindoshlari besh avlod davomida qotilning qarindoshlaridan o‘ch olishlari mumkin bo‘lgan. Bunda qotilni o‘ldirish diya<sup>1</sup> bilan ham almashtirilishi mumkin edi.

Arabistonda islomgacha bo‘lgan davrda spirtli ichimliklar iste’ moli huquqbuzarlik sanalmagan. Arablar odatda qabila sudidan foydalan-ganlar, ular sudda o‘zlarining shaxsiy sifatlariga ko‘ra saylanar edilar. Sudlov og‘zaki va jamoa oldida oshkora amalga oshirilgan.

VI asrda Arabiston mustaqil davlatlar majmuidan iborat edi. Dehqonchilik rivojlangan vohalarda feodalizm tuzumi hukm surar edi. Ibtidoiy jamoa tuzumi munosabatlari chorvachilikka asoslangan hududlarda hukmronlik qilardi. Islomning kelib chiqishi Makka shahrida dunyoga kelgan Muhammad ibn Abdulloh (570–632-yillar)ning muborak nomi va faoliyati bilan bog‘liq. Islom dinining bashoratchisi – payg‘ambari, asoschisi Muhammad (s.a.v.) o‘z davrida qabila boshlig‘i – sayid, shuningdek harbiy yurishlar boshlig‘i, bosh qozi va da‘vatchi edi. U barcha arab qabilalarini faqat bir dinga birlashtirib qolmay, balki ayni zamonda davlatga ham asos soldi.

Arabistonda islomgacha bo‘lgan urug‘-qabila ittifoqidan farqli o‘laroq, Muhammad (s.a.v.) barpo etgan musulmon jamoasi diniy umumiylik asosiga qurilgan edi. Biroq bu jamoada urug‘ tuzumi davridagi normalar birdaniga tugatilgan edi. Muhammad (s.a.v.) umrining so‘nggi yilida Arabistonning katta qismini o‘z hokimiyatni bo‘ysundirdi. Uning ilk izdoshlari – Abu Bakr (632–634-yillar), Umar (634–644-yillar), Usmon (644–656-yillar) va Ali (656–662-yillar)ni musulmon olami to‘g‘ri yo‘ldagi xalifalar deb tan oldilar. Ular mamlakatni boshqargan yillar payg‘ambar davri, shuningdek islomning ilk davri ilohiy hokimiyat (teokratiya) – xalifalikda komil boshqaruv organi sifatida qabul qilingan.

Ilohiy va dunyoviy hokimiyat, huquq va din yagona tushunchalar hisoblanib, diniy jamoa boshlig‘i ayni paytda davlatning ham boshlig‘i hisoblangan. Xalifalar «islomni yoyish» shiori ostida juda katta davlat barpo etdilar. G‘olibona yurishlar tufayli Vizantiyaning anchagina qismi, Sosoniylar davlati, Janubi-g‘arbiy Osiyo, Shimoliy Afrika va Bruney yarim orolidagi qator davlatlar musulmonlarning tasarrufiga o‘tdi. VII asrning o‘rtalariga kelib Eron, Iroq, Suriya, Falastin, Misr, Liviya, Mag‘rib mamlakatlari (Jazoir, Tunis, Marokash), Ispaniya, Kavkazortining bir qismi, O‘rta Osiyodagi viloyatlar (jumladan Samarqand,

---

<sup>1</sup> Дия – ўлдирилган одам қонининг баҳоси, моддий жарима ундирилиши.

Xorazm, Farg‘ona), Afg‘onistonning katta qismi, Shimoli-g‘arbiy Hindistonnинг ayrim tumanlari, Sitsiliya va Malta hududlari ham xalifalik tarkibiga kiritildi. Ushbu istilolar arab jamiyatida iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot jarayonini tezlashtirdi. Arab jamiyatida Yevropa mamlakatlarida qaror topgan tabaqali tuzum shaklidagi boshqaruvi urf bo‘lmadi. Hukmron doiralarning vakillari – feodallar foydalanadigan huquq va imtiyozlar musulmon huquqida mavjud emas edi. Eng nufuzli urug‘larda oqsoqollar mazkur urug‘ a’zolarini kuzatar, o‘z urug‘ining obro‘siti to‘g‘risida qayg‘urar, ular ro‘yxatini tuzib berardi. Bir so‘z bilan aytganda, musulmon huquqi o‘rta asrning boshqa davlatlaridagi dvoryanlik yoki ruhoniylilik kabi tabaqalanishdan boxabar bo‘lib, arab jamiyatining boshqa bir xususiyati – musulmon va nomusulmonlarning huquqlaridagi tafovutdir.

Yahudiy hamda nasroniy diniga sig‘inuvchilar *zimmiyalar* deb atalardi. Ular muxtoriyatdan foydalanib, o‘z fuqarolik huquqiy urf-odatlari va oqsoqollari tomonidan boshqarilar edi. Lekin sodir etgan jinoyatlari uchun, shuningdek musulmonlar bilan tuziladigan bitimlarda musulmon huquqi bo‘yicha javobgar bo‘lar edilar. Zimmiyarga musulmonlar bilan nikohda bo‘lish va musulmon qullarga egalik qilish taqiqlangan edi. Ular musulmonlardan farqlanish uchun maxsus kiyim-kechak kiyar edilar. Ularga otda yurish man etilgan bo‘lib, faqat xachir yoki eshakda yurishlari mumkin edi. Bulardan boshqa cheklashlar ham mavjud edi. Arab davlatida saqlanib qolgan qulchilik tuzumi feodal munosabatlarning rivojini ancha keyinga surdi. Qullar qonunga ko‘ra huquq subyektlari emas edilar, lekin amalda bundan chekinish holatlari ham uchrardi, masalan, o‘z hukmdorlarining ruxsatiga ko‘ra savdo va hunarmandlik bilan shug‘ullanuvchi qullar erkin fuqarolar bilan bitimlar tuzilishlari mumkin edi. Qullikdan ozod qilish, xususan qul musulmonlarni qullikdan ozod etish uchun musulmon huquqining asosiy manbalarida dunyo va oxirat savoblari va’da qilingan. Xalifalik ilohiy davlatdan iborat bo‘lib, uni xalifa, ya’ni payg‘ambarning izdoshi, Allohning yerdagi vakili, noibi boshqarardi. Xalifa qo‘l ostida ruhoniy va dunyoviy hokimiyatni saqlab turar edi. Xalifalik hokimiyatining manbalarini, asoslari: 1) xalifaning xalq tomonidan saylanishi; 2) amaldagi xalifaning vasiyati orqali saylanish (keyinchalik ummaviy sulolalar tajribasida ko‘rilgan) edi.

Vaqtlar o‘tishi bilan ikkinchi asos odat tusini oldi. Xalifa o‘zining vorisi sifatida mazkur lavozim uchun zaruriy talablarga ko‘ra: oila a’zolarining birini, hech bo‘lmaganda Muhammad (s.a.v.) mansub bo‘lgan urug‘, ya’ni qurayshlardan bo‘lgan, balog‘at yoshiga yetib,

jismoniy kamchiligi bo‘lмаган, ilmli va erkin mulkka ega shaxsni tanlashi lozim edi. Bundan tashqari, bo‘lg‘usi xalifa ma’lum axloqiy fazilatlar ega va jasur shaxs bo‘lishi zarur edi. Xalifa hayotlik chog‘ida o‘zidan keyingi xalifani tayinlash to‘g‘risidagi vasiyatining qonuniy bo‘lishi uchun uni guvohlar oldida tuzishi shart edi. Xalifaning vazifalari: davlatni musulmon huquqi bo‘yicha boshqarish; islom ta’limotining sofligini himoya qilish; odil sudlovni amalga oshirish; harbiy ishlarga rahbarlik qilish; ichki xavfsizlikni ta’minalash; mansabdor shaxslarni tayinlash; soliqlarni yig‘ishdan iborat edi. Musulmon huquqshunoslarining ta’limotiga ko‘ra, xalifaning hokimiyyati uning vafoti yoki hokimiyatdan voz kechishi, majburiyatlarini bajarishga jismoniy yoxud axloqiy jihatdan qodirsiz bo‘lib qolishi bilan to‘xtatilar edi.

Musulmon huquqi VII asrda shakllandi. U islom tamoyillariga tayanib, asta-sekin Qur'on va sunnaning mohiyatini aks ettirgan, mustahkamlangan diniy huquqiy tizimga aylana bordi. Muhammad (s.a.v.)ning vafotidan so‘ng, solih xalifalar ayni vaqtida diniy va dunyoviy (qonun chiqaruvchi, sudlov va ijro qiluvchi) hokimiyatga egalik qildilar. Arab xalifaligi tarixida ilk xalifalar davri oliv hokimiyat – sof ilohiy xususiyatga ega edi. Xalifalar bu davrlarda faqat ruhiy-ma’naviy yo‘lboshchilargina bo‘lib qolmay, ayni paytda harbiy sarkardalar (amir al-mo‘minin) ham edilar. O‘zga hududlarni zabit etish, uncha katta bo‘lмаган musulmon jamoasining qudratli saltanatga aylanishi tufayli Arab xalifaligi paydo bo‘ldi. Zabit etilgan hududlarda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, shuningdek xalifalik hududida bir xil normalarni o‘rnatish uchun musulmon huquqining asosiy manbasi bo‘lgan Qur’onga murojaat qilindi.

***Qur'on*** – Alloh tomonidan Muhammad (s.a.v.)ga yuborilgan. Unda: «*Ey mo‘minlar,adolat bilan turuvchi hamda o‘zlaringning yoki ota-ona va qarindosh-urug‘larning zarariga bo‘lsa-da, Alloh uchun to‘g‘ri guvohlik beruvchi bo‘linglar. Bas, adolat qilmasdan nafsi havoga berilib ketmanglar. Agar tillaringni burib (noto‘g‘ri guvohlik bersanglar) yoki (guvohlik berishdan) bosh tortsanglar, albatta, Alloh qilayotgan ishlaringizdan xabardor bo‘ladigan zotdir*», – deyilgan («Niso» surasi, 135-oyat). Qur'on nasihatlar, targ‘ibotlar va rivoyatlardan iborat kitob bo‘lib, 114 sura, 6666 oyatdan iborat. Unda diniy, ya’ni ibodat qoidalari bilan birga, fuqarolik va jinoyatga oid 500 ta huquqiy norma ham oyatlarda ifodalangan. Sunna Muhammad (s.a.v.)ning hikmatlari va ma’qullagan harakatlari, ta’limi to‘plamidir. O‘lkalarda Qur’oni karim, sunna va ularning sharhlari, qisman fath etilgan xalqlarning islomga mos

keluvchi urflari asosida musulmon huquqi bunyod etildi. Musulmon huquqi diniy va huquqiy qoidalar majmui bo‘lib, musulmonlar ularga rioya etishlari lozim edi.

Qur’on ayollar uchun monogamiya (bir er bilan yashash)ni belgilab, arablarning ko‘pxotinlik an’analarini mustahkamladi, dindorlarga bir vaqtida to‘rtta ayolga uylanish va hisobsiz cho‘rilar saqlash huquqini berdi. Nikohga kirishda Qur’oni karim er kishiga o‘z ayoliga nikohi uchun mahr<sup>1</sup> to‘lashni buyurdi.

Musulmon meros huquqining asosi Qur’oni karim hisoblanib, «Niso» surasining 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17-hamda so‘nggi ikki oyatida meros huquqi yoritilgan. Ushbu oyatlar va sunnaga suyanib, musulmon huquqshunoslari faroiz – «meros ilmi»ni ishlab chiqqanlar. Unda birinchi navbatda, meros oluvchilar tabaqasiga kimlar kirishi, ularning ulushlari, ayol kishining yolg‘iz holda hamda farzandi bo‘lgani holda qancha ulush olishi, marhumning merosi ochilishi bilan uning ota-onalari ulushi miqdori aniq ishlab chiqilgan.

Qur’oni tadqiq etish jarayonida jinoyat va jazo to‘g‘risidagi huquqiy normalar Muhammad (s.a.v.) va xalifalar davrlarida ham batafsil ishlanmaganligi namoyon bo‘ldi. Qur’onda jinoyat hisoblanadigan xattiharakat va qilmishlar tizimsiz holda bayon etilgan. Ularni to‘rt guruhga ajratish mumkin, ya’ni: 1) dinga qarshi; 2) hokimiyatga qarshi; 3) mulkka qarshi; 4) shaxsga qarshi sodir etilgan jinoyatlar.

Ilk musulmon davlatida sudlov va surishtiruv ishlari arablarning urf-odatlari, so‘ng esa Qur’on, sunna normalari asosida amalga oshirilar edi. Jazo tayinlash huquqi xalifaga, joylarda esa uning noiblariga tegishli bo‘lgan. Jazo tayinlash diniy asosda amalga oshirilgan. Islomning dastlabki o‘n yilliklardagi harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlar Muhammad (s.a.v.) va «taqvodor» xalifalarning o‘zga din vakillariga nisbatan diniy murosada bo‘lganliklarini ko‘rsatadi. Musulmon huquqining evolutsiyasiga nafaqat islomgacha yashagan arablarning urf-odatlari, balki Arabiston yarim orolida keng tarqalgan turli diniy aqidalarning ham ta’siri bor.

VIII asrda, ya’ni arablarning O‘rta Osiyon istilosi vaqtida mazkur hududda islom dini va u bilan birga musulmon huquqi tizimini singdirish avj oldi. Arabistonda paydo bo‘lgan musulmon huquqi hozirgi

---

<sup>1</sup> *Maxr* – факат аёлнинг хусусий мулки бўлиши шарти билан бериладиган моддий тўлов. Унинг аниқ қиймати ҳакида сунний ва шия оқимлари ўртасида бироз тафовут бор.

O‘zbekiston hududida ham katta mavqega ega bo‘lib, o‘n ikki asrdan ko‘proq vaqt mobaynida amal qildi. Musulmon huquqining asosiy qoidalari va me’yorlaridan asrlar mobaynida hech bir o‘zgarishsiz foydalanildi. Zero, musulmon huquqi islom dini bilan uzviy bog‘liq bo‘lgani bois, islomning qabul qilinishi bilan musulmon huquqining ham joriy etilishi muqarrar edi.

## **2.2. Markaziy Osiyoda musulmon huquqining o‘rnatalishi, o‘zbekistonlik faqihlarning musulmon huquqi rivojiga qo‘shgan hissalar**

Islom adabiyotlaridagi ma’lumotlarga ko‘ra, milodiy VIII asrdan Movarounnahr xalqlari tarixida yangi davr boshlandi<sup>1</sup> (Movarounnahr – Markaziy Osiyoda Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi mintaqqa (jumladan hozirgi O‘zbekiston hududi)ning arabcha geografik nomi. Islomdan oldingi davrlarda Turon deb atalgan. Makedoniyalik sarkarda Iskandar bu joyni So‘g‘diyona deb nomlagan, XIX asrning ikkinchi yarmida mintaqqa Turkiston degan nom olgan). Qanday nomlanishidan qat’i nazar, jahon sivilizatsiyasining eng qadimgi o‘chog‘i bo‘lgan bu mintaqada davlatchilik va huquq, din va madaniyat, til va adabiyot rivojlangan edi. Turon (Movarounnahr, So‘g‘diyona, Turkiston)ga xos xususiyat shuki, uning xalqlari ma’naviyati turg‘unlik kechirmagan, bu hududda hech qachon urug‘-aymoqchilik, milliy yoki diniy biqiqlik tamoyillari amal qilmagan. Turonga Buyuk ipak yo‘li orqali Xitoy va Hindiston, Hijoz va Vizantiya, Yaqin va O‘rta Sharqdan nafaqat moddiy boyliklar, balki ilmiy va badiiy asarlar, yangi g‘oyalar va bilimlar ham olib kelingan. Ular «islomga mansub emas», degan vaj bilan rad etilmagan, balki ajdodlarimiz tomonidan boyitilib, takomillashtirilib, mahalliy madaniyat bilan uyg‘unlashtirilgan.

VIII asrdan boshlab islom Movarounnahrda hukmron dinga aylanib, jamiyat hayotining barcha jabhalariga singib ketgan bo‘lsa-da, amalda uning o‘zi ham Turon sharoiti (masalan, mulk shakllari, aholining turmush tarzi)ga moslashib borgan. Xullas, musulmon huquqi va uning me’yorlarining shakllanishida mahalliy sharoit va urf-odatlar hisobga olingan. Qur‘on va sunna talablari, yakka xudolik tamoyili – tavhidga zid bo‘lgan hamma qarashlarga barham berilgan. Tabiiyki, islom hayotning barcha jabhalarini darhol va teng darajada o‘ziga «bo‘ysundirmagan».

---

<sup>1</sup> Каранг: *Мұхаммад Абу Зүхра. Ислом мазҳабларининг тарихи (араб)*. – Байрут, 1978. – Б. 76.

Sababi – islomning o‘zi ham darhol shakllanmagan. Islom dini, unga asoslangan musulmon huquqi, islom falsafasi – kalom va boshqa, tamoyillar va talablar VII–XII asrlar mobaynida bosqichma-bosqich, astasekinlik bilan rivoj topgan.

Movarounnahrda fuqarolik, yer, oila-nikoh, vorislik va boshqa masalalar musulmon huquqining hanafiylik mazhabi me’yorlari asosida tartibga solingan. Jinoyat ishlari ham ana shu me’yorlar asosida ko‘rib chiqilgan va hal qilingan. Bundan tashqari, musulmon huquqiga mahalliy odat huquqiga xos ko‘pgina me’yorlar ham singdirilgan edi.

Ta’kidlash zarurki, islom turli madaniyatlar, an'analar va urfodatlarni birlashtirdi, xalqlar o‘rtasidagi aloqalarning rivojiga imkoniyat yaratdi, o‘sha davming yangi davlat-huquqiy makonini vujudga keltirib, Sharq, jumladan Movarounnahr xalqlari tarixida muhim rol o‘ynadi. Tarixni kuzatish, o‘sha davrda yaratilgan «Hudud al-olam», «Kitob al-masolik va-l-mamolik» kabi asarlarni o‘rganish VII asrning oxirida arablar Movarounnahr deganda, Amudaryoning narigi tomonidagi hududni tushungan, degan xulosani beradi. Keyinchalik ushbu tushunchaning mazmuni kengaygan: dastlab Movarounnahr Xurosonning bir qismi sanalgan bo‘lsa, X asr o‘rtalarida u nisbatan mustaqil geografik mintaqaga aylangan. Bu davrga kelib Movarounnahr tarkibiga Buxoro, Samarqand, Kesh, Nasaf kabi yaqin hududlardan tashqari, Xorazm, Badahshon, Marv, O‘zgan, Xuttal kabi viloyatlar ham kirar edi. X–XIII asrlarda Movarounnahr siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta’sirida geografik tushunchadan siyosiy-huquqiy tushunchaga aylandi. Movarounnahr deganda, musulmon aholi yashaydigan O‘rta Osiyo hududi tushunila boshlandi. Arab xalifaligi tarkibiga kirgan Movarounnahr ulkan hududda yashovchi xalqlarning muhim siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy markaziga aylandi. Ayni vaqtda Movarounnahrda ilmiy-madaniy va ma’naviy-huquqiy hayotning barcha jabhalari tobora boyib, mustaqillikni qo‘lga kirta bordi.

Islom madaniyati va huquqining rivojiga Movarounnahr mutafakkirlari va faqihlari ulkan hissa qo‘shdilar. Diniy va dunyoviy ilmlarni yangi ta’limotlar va g‘oyalar bilan boyitgan al-Xorazmiy, Rudakiy, at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Burhoniddin Marg‘inoniy, al-Farg‘oniy, al-Marvoziy, Zamahshariy, Ahmad Yassaviy, Najmaddin Kubro, Mahmud Qoshg‘ariy kabi buyuk allomalar shu zaminda zamindan yetishib chiqdilar.

Xorazmlik ulug‘ alloma – tilshunos, shoir, faqih, Qur’oni karim tafsirchisi Abul Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad Zamahshariy

(1075–1144)ning nomi Sharq ilmiy tafakkuri tarixida mashhurdir. Zamahshariyning hayoti va faoliyati haqidagi asosiy ma'lumotlar arab manbalarida qayd etilgan. Tarixchi va geograf Yoqt al-Hamaviy (1179–1229)ning ta'kidlashicha, Zamahshariy buyuk imom unvoniga munosib topilgan, fan turli sohalarining bilimdoni, iqtidorli alloma bo'lgan1. «Jorulloh» – «Allohning qo'shnisi», «Butun dunyoning ustozisi», «Xorazm faxri», deya ulug'langan Zamahshariy Xorazmnинг Zamahshar qishlog'ida tug'ilgan. Otasining ko'magida savod chiqarib, Gurganj va Buxoroda ta'lim olgan. Bir necha yil xorazmshohlar saroyida xizmat qilgan. 1118-yildan boshlab umrini faqat ilm-fanga bag'ishlagan. Ikki marta haj safarida bo'lgan. Ko'hna Urganchda vafot etgan. Zamahshariyning ijodi serqirra va sermahsul bo'lib, u ellikdan ortiq yirik asarlarning muallifi sifatida butun dunyoga mashhurdir. U «Al-kashshof», «Al-mufassal», «Navobig' ul-kalom», «Atboq uz-zahab», «Maqomot az-Zamahshariy», «Muqaddimat ul-adab», «Al-mujmal-arabiyy al-forsiy», «Asos ul-balogs'a» kabi asarlari bilan musulmon olamini hayratga solgan. «Al-kashshof» asari to'qqiz asrdan buyon islomning mashhur madrasalarida Qur'oni karimni o'rganish bo'yicha asosiy qo'llanma hisoblanadi. Zamahshariy, Forobiy, al-Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino kabi movarounnahrlik allomalar yangi bilim va tajriba izlab olis yurtlarga – Qohira, Aleppo, Damashq va Bag'dodga ketganlar, u yerlarda tahsil olib, o'zlarini ham ta'lim bergenlar, shuningdek ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanganlar.

Xalifa al-Ma'mun IX asr boshida Bag'dodda «Bayt ul-hikma» (Donishmandlar uyi) fanlar akademiyasini tashkil etib, mazkur ilm dargohiga Movarounnahrdan ko'plab ulug' allomalarni taklif qildi. Ta'kidlash zarurki, ilk «Ma'mun akademiyasi» («Bayt ul-hikma» hozirgi Yevropada shunday deb ataladi)ning dastlabki rahbarlari (prezidenti va vitse-prezidenti) al-Farg'oniy va al-Xorazmiy bo'lganlar. Movarounnahrlik allomalar Ma'mun akademiyasining tamal toshini qo'yganlar.

Islom madaniyati va huquqining rivojlanishiga Muhammad al-Buxoriy, Iso at-Termiziyy, al-Hakim at-Termiziyy, Najmuddin an-Nasafiy, al-Moturidiy, Yusuf al-Hamadoniy, Abdus-Salam G'ijduvoniy, Burhoniddin Marg'inoniy, Ahmad Yassaviy, Najmuddin Kubro, as-Suhrawardiyy kabi movarounnahrlik buyuk allomalar ulkan hissa qo'shdilar. Keyinroq (XIV asrda) mashhur faqihlarning mazkur guruhiga Bahovuddin Naqshband va boshqalar qo'shildi. Movarounnahr aholisi ommaviy tarzda islam dinini qabul qilganidan so'ng, musulmonlar tomonidan muqaddas joylarni, asosan Makkani ziyorat qilishdek diniy aloqa turi keng tarqalgandi. Bu

diniy-huquqiy madaniyatning yuksalishi, Movarounnahrda musulmon huquqiy maktablarining shakllanishi va rivojlanishiga imkoniyat yaratdi. Ta'kidlaganimizdek, O'rta Osiyo mintaqasida hanafiylik mazhabi keng yoyilgan. Uning tarafdorlari quyidagi qoidalarga qat'iy amal qilganlar:

1. Diniy majburiyatlarni ado etish (ibodat), yuridik amallar (muomalot) va jazo tizimi (uqubat) musulmon huquqi (musulmon huquqi me'yorlari majmui)ning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Amallar diniy va fuqaroviylar nuqtai nazardan beshga bo'linadi. Diniy amallarning quyidagi turlari farqlanadi: a) zarur (vojib) va farz (majburiy) amallar – ularni bajarishi tufayli inson taqdirlanadi, bajarmasa – jazolanadi. Farz amallar shaxsiy (farz al-ayn, masalan, namoz) va zaruriy majburiyat (farz alkifoya, masalan, haj)lardan iborat; b) tavsiya etiladigan amallar (mandub) – ularni bajarishi tufayli inson taqdirlanadi, bajarmasa, jazolanadi; v) ruxsat etilgan amallar (muboh); g) qoralanadigan amallar (makruh); d) taqiqlangan amallar (harom).

Fuqaroviylar nuqtai nazardan amallarning quyidagi turlari farqlanadi: a) to'g'ri amallar (sahih); b) noto'g'ri amallar (botil); v) ruxsat etilgan amallar (joiz); g) o'rinali amallar (mafrud); d) bog'lovchi amallar (lozim).

2. Movarounnahr faqihlari ibodat va yuridik qoidalarni farqlaganlar. Ular musulmon huquqi yuridik me'yorlar, tamoyillar, xulq-atvor va diniy ibodat qoidalari majmuidan iboratligini ta'kidlaganlar.

Movarounnahrda quyidagilar musulmon huquqining manbalari Qur'on, sunna, ijmo, qiyos va mahalliy urf-odatlar sanalgan.

Qozilar chiqaradigan hukmlarning quyidagi turlari farqlangan: 1) arra'y (qiyosga asoslanib ish ko'rish); 2) istihson (qiyosning bir turi bo'lib, istisno tariqasida hukm chiqarish); 3) istisloh (jamiyat manfaatlarini hisobga olib, isloh qilish orqali hukm chiqarish).

Bunda quyidagi talablarga qat'iy rioya etish shart bo'lган: hukm e'tiqodga daxl etmasligi kerak; hukm islomga zid bo'lmasligi lozim; chiqarilgan hukmdan foyda aniq-ravshan ko'rinishi kerak.

3. Kalom (ilohiyot) va diniy-huquqiy ongning rivojlanishi tufayli fiqhning o'ziga xos maktabi vujudga keldi. U «Movarounnahr fiqh maktabi» deya shuhrat qozondi. Uni tashkil etishga mashhur faqihlar Imom al-Buxoriy va Burhoniddin Marg'inoniy ulkan hissa qo'shdilar.

Movarounnahr faqihlarining avlodlari kundalik amaliyatda nafaqat islomning umumiyligi me'yorlari, balki mintaqaga hayotining muayyan xususiyatlari hisobga olingan Movarounnahr fiqh maktabining an'analarini davom ettirdilar. Movarounnahr fiqh maktabi mintaqaga hayotida muhim o'rinn tutgan. Movarounnahr tarixi tadqiqotchilarning

ko‘plab avlodlari e’tiborini o‘ziga tortib kelmoqda. Mintaqada islom tarixini o‘rganishga mashhur sharqshunos V. V. Bartold katta hissa qo‘shti. O. G. Bolshakovning tadqiqotlari hanafiylik mazhabi tarixida ulkan ahamiyatga ega bo‘lib, u Movarounnahr xalqining hayotiga bag‘ishlangan<sup>1</sup>. Bu mavzuga O. D. Chexovich ham to‘xtalib, mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holat haqida tarixiy ma’lumotlar olish uchun Movarounnahr faqihlarining asarlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega ekanligini aytib o‘tgan <sup>2</sup>. O. Pritsakning tadqiqoti buxorolik nufuzli oila – Burhonlar sulolasi tarixiga bag‘ishlangan<sup>3</sup>. V. Madelungning ilmiy tadqiqoti Sharqiy Xuroson va Movarounnahrda hanafiylik mazhabining yoyilishida murji‘iylar ta’limotining roliga bag‘ishlangan<sup>1</sup>. Uning boshqa bir maqolasida Yaqin Sharq mamlakatlarida moturidiylik ta’limotining tarqalishida Movarounnahr ilohiyotchilarining roli yoritilgan <sup>2</sup>.

Al-Xoris ibn Surayj (128–746-yilda o‘ldirilgan) o‘limidan keyin Kufa murji‘iylari ulamosi Abu Hanifa sharqiy murji‘iylar rahnamosiga aylangan. Sharqiy Xuroson, ayniqsa, Balxdan Iroqqa ta’lim olgani kelgan odamlar asosan Abu Hanifa qo‘lida tahsil olganlar. Abu Hanifaning Kufadagi muxoliflari Balxni zaharxandalik bilan «Murji‘yobod» deb ataganlar. IX asr oxirida islomning sunniylik yo‘nalishidagi asosiy diniy-huquqiy maktablari shakllangan. Balx hanafiylik ta’limotini ishlab chiqish va o‘rgatishning Sharqdagi markaziga aylangan. Sharqiy Xuroson va Movarounnahrda Abu Sulaymon al-Jo‘zjoniy (200–815–816-yillardan keyin v.e.) va Abu Hafs al-Buxoriy (217–832-y. v. e.) hanafiylik mazhabining asosiy g‘oyalari o‘z aksini topgan Muhammad ibn al-Hasan ash-Shayboniy (189–805-y. v. e.) asarlarining targ‘ibotchilari bo‘lganlar.

Somoniylar davlati tashkil topgach, uning poytaxti Buxoroda ijtimoiy hayot jadal sur’atlarda rivojlangan. Buxoro va Samarqandda mahalliy hanafiylik maktablari vujudga kelgan. Al-Kafaviy asaridagi isnadlarni (isnad – hadisda aytilgan so‘zni aytuvchisiga bog‘lash) o‘rganish va bu yerlarda maktablarning shakllanishida Bag‘dod va Balxning ta’siri kuchli bo‘lgan. Samarqandda Ismoiliylar aqidalariga qarshi keskin kurashgan va keyinchalik al-Moturidiy (333–945-y. v.e.) nomi bilan ataluvchi yangi oqim vujudga keldi. X asrning oxirida Abu Lays as-Samarqandiy (373–984-y. v.e.) va Abu Bakr Muhammad ibn al-Fazl al-Buxoriy (381–991-y. v.e.) kabi allomalarning faoliyati Movarounnahr fiqh maktabining shu davrdagi yuksak mavqeidan dalolat beradi. Buxoro va Samarqandda Movarounnahr hanafiy faqihlarning sakkiz guruhi (beshtasi Buxoroda va uchtasi Samarqandda) mavjud bo‘lgan. O‘sha davrda yashagan musulmon huquqshunoslari o‘tmishdoshlarining hech qanday hukm bo‘lmagan yangi

hayotiy vaziyatlarni hal qilishlariga to‘g‘ri kelgan. Ular hanafiylik mazhabining an‘analari va mahalliy urf-odatlarga asoslanib, turli masalalar yuzasidan fatvo chiqarganlar. Nufuzli faqihlarning qarorlari kelajak avlodlar uchun kundalik amaliyot qo‘llanmasi bo‘lib qolgan. Movarounnahrlar faqihlar xo‘jalik, mulk, oila-nikoh, savdo-sotiq munosabatlari, rasm-rusumlar yuzasidan fatvolar chiqarganlar. Bunday fatvolarda Movarounnahr aholisining turmush tarzi va yashash sharoitiga xos xususiyatlar inobatga olingan.

Movarounnahr fiqh maktabining olti vakili – as-Saraxsiy (490–1097-y. v.e.), al-Pazdaviy (482–1089-y. v.e.), Iftixoriddin al-Buxoriy (542–1148-y. v.e.), as-Sadr al-Kabir (570–1175-y. v.e.) va Faxriddin Qozixon (592–1196-y. v.e.)ga usul al-fiqh bilimdonlari uchinchi darajali mujtahid unvonini bergenlar. Bu faqihlarning Movarounnahrda furu’ al-fiqh bo‘yicha qarorlari va hukmlari oltmishdan ortiq kitobda o‘z aksini topgan.

Burhoniddin Marg‘inoniyning «Muxtasar al-Kuduriy», «Hidoya», Ibn Bazzozning «Fatvo», Abu Yusufning «Adab al-qozi», Imom at-Tahoviyning «al-Aqoid» asarlari fiqh sohasidagi eng sara va noyob manbalar hisoblanadi. Bu manbalarda musulmon huquqining faro‘id (vorislik), mulk, uqubot (jinoyat huquqi), muomalot (fuqarolik huquqi) kabi tarmoqlarining aniq ta’riflari keltirilgan.

4. Ijtimoiy munosabatlar *ar-ra'y* tamoyili asosida tartibga solingan. Undan foydalanish huquqi qozilarga berilgan. Movarounnahr fiqh maktabiga xos xususiyatlardan biri jinoyat sodir etgan shaxslarga rahmdillik bilan yondashish bo‘lgan. Masalan, o‘g‘rilik uchun jazo – bir qo‘lni kesish homilador ayollar, qashshoq yoki yosh musulmonlarga nisbatan qo‘llanilmagan. Mazkur maktabga xos yana bir xususiyat – Movarounnahrning atoqli faqihlarining asarlaridagi qoidalar qonun kuchiga teng bo‘lgan.

**Imom al-Buxoriy – buyuk muhaddis.** Buyuk muhaddis va uning ijodi haqida to‘xtalishdan oldin musulmon huquqining asosiy manbalidan biri – sunnaning vujudga kelishi tarixini eslash o‘rinlidir. Arabcha «sunna» so‘zi odad, an‘ana, xatti-harakat tarzi degan ma’nolarni ifodalaydi. Muhammad (s.a.v.)ning musulmonlar uchun ibrat hisoblangan so‘zlari, amallari va xatti-harakatlari islomda sunnani tashkil etadi. Sunna ko‘plab hadislardan tarkib topgan. «Hadis» so‘zi dastlab xabar, yangilik degan ma’nolarni anglatgan, so‘ngra maxsus ma’noni ifoda etgan, ya’ni Muhammad (s.a.v.)ning aytgan so‘zlari, qilgan ishlari, ko‘rsatmalari to‘g‘risidagi rivoyatlardan iborat bo‘lgan. Hadislarni naql qiluvchilar, rivoyatchilar, avvalo, payg‘ambarning sahobalari, uning vafotidan keyin

esa asosan Madinada yashagan qarindoshlari, safdoshlari va shogirdlari, chunonchi xalifa Umar ibn Hattob va uning o‘g‘li Abdulloh ibn Umar (693-y. v.e.); xalifa Ali ibn Abu Tolib; taniqli sahoba Talha ibn az-Zubayr; payg‘ambarning yaqin do‘sti Abu Hurayra (677-y. v.e.); Eronni fath etuvchilardan biri Abdulloh ibn Amir (679-y. v.e.); payg‘ambarning kotibi, Qur‘on bilimdoni Zayd ibn Sobit; payg‘ambarning bevasi Oysha (678-y. v.e., aytishlaricha, 1210 ta hadisni rivoyat qilgan) shunday kishilar hisoblanadi.

Qur‘onni o‘rganish tufayli tafsir ilmi, hadislarni to‘plash va o‘rganish natijasida hadisshunoslik paydo bo‘lgan. Hadislarni to‘plash VII asrning o‘rtalarida boshlangan. Bir yarim-ikki asr mobaynida hadislar juda ko‘plab to‘plangan. Hadisshunoslikning «oltin asri» – IX asrga kelib, ular tartibga solinib, din, axloq va fiqhning asosiy manbasiga aylangan. Sahobalarning ismlari maxsus tartibga solingan va ular rivoyat qilgan hadislar jamlangan kitob «Musnad», mualliflarning keksalari «hurufi hijo» (alifbo) tartibiga qo‘yilib, har birining yo‘li bilan muallifga yetib kelgan rivoyatlarni to‘plagan kitob «Mu’jam» deyilgan. Islom olamida hadislarning «musannaf» (arabcha «tanlab olingan») turi keng tarqalgan. Musannafda hadislar mavzular bo‘yicha jamlangan bo‘ladi. Shu bois ma’lum soha yoki mavzuga oid hadisni musannaf to‘plamlardan qidirib topish osonroq kechgan. Tarixan musnad ilgariroq, musannaf esa keyinroq vujudga kelgan.

Islom olamida hadis to‘plamlarining eng mashhuri oltita bo‘lib, ular «al-kutub as-sitta» («olti kitob») deb ataladi. Sunniylik yo‘nalishi musulmonlari orasida bu to‘plamlar keng tarqalgan. Ular quyidagilar:

- 1) «*Al-jome’ as-sahih*» («Ishonchli to‘plam») yoki qisqacha «*as-Sahih*». Uni Abu Abdulloh Muhammad al-Buxoriy tuzgan. Shu bois u «*Sahihi Buxoriy*» ham deb ataladi. To‘plam islom olamida katta dovrug‘ qozongan va Sharqda juda ko‘p marta nashr etilgan;
- 2) «*Sahihi Muslim*». Tuzuvchisi Muslim an-Nishopuriy (817–875). U 300 mingga yaqin hadisni o‘rganib chiqib, ulardan 12 mingi, ya’ni to‘rt foizini haqiqiy deb topgan;
- 3) «*As-sunan*» («Sunnalar»). Tuzuvchisi Ibn Mojja (886-y. v.e.);
- 4) Abu Dovud as-Sijistoniy (888-y. v.e.)ning to‘plami;
- 5) Muhammad at-Termiziy (802-y. v.e.)ning «*Al-jome’ al-kabir*» («Katta to‘plam») nomli to‘plami;
- 6) Abu Dovudning shogirdi Nasoiy (915-y. v.e., hozirgi Ashxabod yaqinidagi Niso shahridan) tuzgan «*As-sunan*» to‘plami.

Ta'kidlaganimizdek, Abu Abdulloh Muhammad al-Buxoriyning «Al-jome' as-sahih» to‘plami ahamiyatiga ko‘ra islom olamida birinchi o‘rindadir. Islom olamida bu to‘plam boshqa muhaddislar tuzgan to‘plamlar orasida eng ishonarli va mukammalidir. Unda Muhammad (s.a.v.) hadislaridan tashqari yana fiqh, islom urf-odatlari, axloq-odob, ta’lim-tarbiya, shuningdek o‘sha davr tarixi va etnografiyasiga doir ko‘plab ma’lumotlar berilgan. Unga 600 ming hadisdan saralangan 7275 ta eng sahihlari kiritilgan. Mazkur to‘plam Misr va boshqa mamlakatlarda juda ko‘p marta chop etilgan hamda unga yirik ulamolar ko‘plab sharhlar yozganlar.

Buyuk muhaddisning to‘liq ism-sharifi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug‘ira ibn Bardizboh al-Ju’fiy al-Buxoriy (810–870)dir. Imom al-Buxoriy hijriy 194 yilning shavvol oyida Buxoroda tavallud topgan. Otasi Ismoil o‘sha davrning yetuk muhaddisi Molik ibn Anasning shogirdi va yaqini bo‘lib, tijorat bilan shug‘ullangan. Onasi ham taqvodor, diyonatli va oqila ayol bo‘lgan. Otasi vafot etgach, uning tarbiysi bilan validasi shug‘ullangan. U 5–6 yoshidan islomiy ilmlarni o‘zlashtirishga, Muhammad (s.a.v.)ning hadislarini o‘rganish va yodlashga kirishgan. Taniqli muhaddislar al-Doxiliy, Muhammad ibn Salom al-Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf al-Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy kabilardan saboq olgan.

Muhaddislar azaldan safarlarga chiqishdan oldin o‘z yurtlaridagi roviylardan barcha hadislarni yozib olgan bo‘lishlari shart edi. Shundan keyin boshqa shahar yoki mamlakatga safar qilishlari mumkin edi. Buxoriy 16 yoshga yetguncha o‘z yurtidagi mashoyixlardan ko‘plab hadislarni tinglab, yozib olgan, so‘ngra xalifalikning turli viloyathlariga safarga chiqqan. Buxoriy 825-yilda onasi va Ahmad ismli akasi bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etgan. Onasi va akasini Buxoroga qaytarib yuborib, o‘zi Makkada qolgan. Bu yerdagi mashoyixlarning ilmiy yig‘inlarida qatnashgan, 827-yilda Madinaga borib, u yerdagi mashhur ulamolar Ibrohim ibn al-Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza kabilar bilan hamsuhbatda bo‘lgan, ulardan hadislarga doir saboqlar olgan. O‘sha vaqtarda Muhammad (s.a.v.)ning sahabalari, ularning izdoshlari ham turli mamlakatlarga tarqalib ketgan edilar. Bunday vaziyatda payg‘ambarning hadislarini to‘plash undan turli shahar va mamlakatlarga borishini taqozo qilgan edi. Tarixnavislarning ta’kidlashlaricha, Buxoriyning Hijoz, Makka, Madina, Toif va Jiddaga qilgan turli safarlari olti yil davom etgan. So‘ngra u Basra, Kufa va Bag‘dodga safar qilgan. Shom va Misrda bo‘lgan. Buxoriy yana,

Xuroson, Marv, Balx, Hirot, Nishopur, Ray va Jibol kabi shaharlarda ham bo‘lib, u yerlardagi olimlardan ham saboqlar olgan va hadislar to‘plagan. Xorijiy safarlardan keyin Buxoroga qaytib, hadislarini targ‘ib etishga kirishgan. Uning bunday savobli sa'y-harakatlari Buxoroning o‘scha davrdagi hukmdori Xolid ibn Ahmad az-Zuhliyga ma’qul kelmagan. Shu sababli Buxoriy o‘z yurtini tark etib, Poykend, keyinchalik Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog‘iga kelib, muqim yashashga majbur bo‘lgan va shu yerda vafot etgan.

Buxoriy butun faoliyati davomida ilm kishilarini ma’naviy va moddiy qo‘llab-quvvatlagan. Tijoratdan topgan daromadining besh yuz dirhamini oyiga faqiru miskinlarga, ilm toliblariga hadya qilgan. Shaxsiy hayotida dabdabaga berilmagan, sarf-xarajatlarga yo‘l qo‘ymagan. Buxoriy umri davomida hadislarni to‘plash va tizimga solish bilan shug‘ullangan, ularni sahih (to‘g‘ri, ishonchli) va g‘ayri sahih (xato, zaif)ga ajratgan. Bu vazifa hadischi roviylarning hayot va yashash tarzi, tug‘ilgan va vafot etgan sanalari, ularning o‘zaro muloqotlarini chuqur o‘rganish hamda tahlil qilish orqali amalga oshirgan.

Buxoriy noyob qobiliyati, o‘tkir zehni, quvvai hofizasining kuchliligi bilan o‘scha davr ilm ahllarini lol qoldirgan. Uning atoqli alloma bo‘lib yetishuvida oila va madrasa ta’limidan tashqari, ustozlarining xizmatlari va ta’siri katta bo‘lgan. Turli mamlakatlardagi mashhur diniy ulamolar – Makkada Abdulloh ibn Zubayr al-Xo‘jandiy, Ahmad ibn Muhammad Azraqiy, Abdulloh Muqriy; Madinada Abdulaziz Uvaysiy, Mutrif ibn Abdulloh; Basrada Abu Osam an-Nabil; Balxda Yahyo ibn Basr, Utayba ibn Said; Kufada Abu Naim al-Fazl; Bag‘dodda Sarih ibn an-Nu’mon, Ahmad ibn Tanbal; Shomda Muhammad al-Forobi, Odam ibn Abu Ilyos; Misrda Ahmad ibn Shuayb, Ahmad ibn Solih; Marvda Ahmad ibn al-Hasan; Nishopurda Is’hoq ibn Ibrohim Rohvayh al-Hamzamiy, Muhammad ibn Yahyo Zuhaliy, Yahyo ibn Yahyo Tamimi, Bashr ibn al-Hakim kabilar Buxoriyning ustozlari edilar. Buxoriyga hadis ilmidan saboq bergen ustozlar sal vaqt o‘tmay, o‘zlarining qobiliyatda unga shogird darajasida ekanliklarini e’tirof eta boshlaganlar. Ustozi Is’hoh ibn Rohvayh ishonch bilan Buxoriyga bolalik chog‘idayoq: «Siz (hadis) aytib turing, boshqalar yozib olsin», – deya tayinlar ekan, ustozi Abdulloh ibn Munir esa kamtarlik bilan: «Men al-Buxoriyning shogirdlaridanman», – der ekan. Unga zamondosh muhaddis Abdulloh ibn Abdurahmon Samarqandiy: «Ikki haramaynda (Makka va Madinada), Hijozda, Shomda va Iroqda ko‘p olimlarni ko‘rdim, lekin Muhammad ibn Ismoildek (ko‘p va sahih) hadis jamlaganni ko‘rmadim. Ul kishi bizdan ko‘ra

bilguvchiroq, faqihroq va talabchanroqdir», – degan. Imom Buxoriyning shogirdlari ham son-sanoqsiz bo‘lgan. Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy: «Birgina «Al-jome’ as-sahih»ni ul zotdan eshitgan kishilarning sanog‘i to‘qson ming kishi bo‘lgan», – deb yozgan.

Hadis ilmining ravnaqiga o‘ta fidoyilik, aql-zakovatini baxshida etish Buxoriyga shon-sharaf keltirdi, u islomning eng buyuk allomalaridan biri sifatida dunyoga tanildi. Buxoriy umri davomida yozib olgan va yod bilgan 600000 hadisdan 7275 ta sahihlarini ajratib, «Al-jome’ as-sahih» to‘plamiga kiritgan. Unda Muhammad (s.a.v.)ning hadisi shariflari «Iymon», «Tahorat», «Namoz», «Zakot», «Haj», «Nikoh», «Taloq», «Savdo-sotiq kitobi», «Ichimliklar», «Vakolat kitobi», «Hadyalar», «Guvohliklar kitobi», «Sulh kitobi», «Vasiyat kitobi», «Maloikalar haqida» kabi 100 bobga ajratilib, tartib bilan bayon qilingan. Har qaysi bobda mavzuga doir hadislar ishonchli roviylarning isnodlari (manbalari) bilan keltirilgan. Buxoriyning «Al-jome’ as-sahih» to‘plami shunday ulkan ma’naviy qudratli xazinaki, undagi hadislar o‘z zamonasida va keyinchalik ham musulmon huquqi, kalom va fiqh ilmlarida Qur’oni karim oyatlaridan keyin shar’iy hukmlarga asos bo‘lgan. Undagi ba’zi hadislarda zamonaviy tabiatshunoslik fanlarining ham negiziga doir ma’lumotlar borligini ta’kidlash mumkin. Masalan, «Suv haqidagi hikmatlar» kitobida barcha o‘simpliklar va jonzotlar suvdan paydo bo‘lgani haqida qudsiy hadis keltirilgan<sup>1</sup>. Vaqf mulklari, merosxo‘rlarning haqlari, ilm-ma’rifat o‘rganishning barcha musulmon erkak va ayollarga farzligi haqidagi hadisi shariflar muhim hayotiy muammolarni hal etishda musulmon huquqidagi hukmlar, qozilarning fatvolariga tayanch manba bo‘lgan.

Buxoriyning «Al-jome’ as-sahih» asari tomonidan fiqh ilmi bo‘yicha dasturilamal ekanligini zamondoshlari tan oldilar va X asrga kelib sunniylik to‘plamlari orasida Muslimning «as-Sahih»i kabi asosiy o‘rinni egalladi<sup>1</sup>. Buxoriyning ko‘plab asarlari orasida «Tafsir al-Qur’on» («Qur’on tafsiri») ham alohida muhim ahamiyatga ega. Uning asarlari musulmon dunyosining barcha madrasa va dorilfununlarida Muhammad (s.a.v.) sunnasiga doir asosiy darslik hamda qo‘llanmalar hisoblanadi. Jamoat arboblari, ulamolar va din peshvolari Buxoriy asarlarining mohiyatiga tayanib ish ko‘radilar.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Buxoriyning o‘lmas merosiga munosabat tamoman o‘zgardi va uning o‘z yurtdoshlariga bag‘riga qaytarildi. Buxoriyning ilmiy merosini o‘rganish, targ‘ib qilish va xotirasini abadiylashtirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. 1998-yil

23-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qaroriga binoan Samarqandda imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo‘yicha 1225 yillik yubileyi tantanalari o‘tkazildi. Alloma dafn etilgan Chelak tumanidagi Hartang qishlog‘ida ulkan yodgorlik majmui yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov imom al-Buxoriy yodgorlik majmuining ochilishiga bag‘ishlangan marosimda so‘zlagan nutqida: «Imom al-Buxoriy hazratlari nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun musulmon olaming faxr-iftixoridir. Ul tabarruk zotning hayoti tom ma’nodagi ilmiy va insoniy jasorat, bukilmas iroda, so‘nmas e’tiqod timsolidir. Olti buyuk muhaddisning ikkinchisi hisoblangan Imom Muslimning al-Buxoriyga qarata: «Ey, ustozlarning ustozi, muhaddis-larning sulton, hadislarning tabibi! Poyingizni o‘pishga ijozat bering!» deya qilgan xitobi ahli islamning ulug‘ bobomizga hurmat va e’tirofi naqadar yuksakligini ko‘rsatadi»<sup>1</sup>, – deya ta’kidlagan edi.

***Buyuk faqih Burhoniddin Marg‘inoniy va uning «Hidoya» asari.*** Musulmon huquqshunosligining ulkan namoyandas, shayx ul-islom Burhoniddin Marg‘inoniyning nomi islam olamida Imom Buxoriy, Imom Termiziyy, Imom Moturidiy, Mahmud Zamahshariy, Najmuddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror singari ulug‘ siymolarning nomlari bilan yonma-yon turadi.

Prezident Islom Karimov: «Nafaqat musulmon olami, balki butun dunyo e’tirof etgan, Alloh taolo bergen aql-zakovati bilan musulmon huquqshunosligi ilmida o‘ziga xos mакtab yaratgan, beba ho merosi bilan mana shu Farg‘ona diyorini jahonga tarannum etgan ul zotning tariximizdagi o‘rni va obro’si beqiyosdir»<sup>2</sup>, – deya uning faoliyatiga yuksak baho bergen edi.

Hayotini dinu diyonat pokligi, iymon-e’tiqod ustuvorligi, ilm vaadolat tantanasi uchun sarflagan bu mo‘tabar alloma Sharq olamida «Burhonuddin va milla», ya’ni «Din va millatning hujjati», degan yuksak e’tirofga sazovor bo‘lgan. Oddiy xalq orasida esa «Hidoyat yo‘lining sarboni», deya katta hurmat-e’tibor topgan. Marg‘inoniyning o‘lmas merosi, xususan, «Hidoya» («To‘g‘ri yo‘l») deb atalgan asari, sakkiz asrdan buyon musulmon mamlakatlarida eng nufuzli va mukammal huquqiy manba sifatida e’tirof etib kelinmoqda. Bu mumtoz asarning

<sup>1</sup> Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т. 7. – Т., 1999. – Б. 179–185.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Бурхониддин Марғиноний таваллудининг 910 йиллигига бағишиланган тантанали маросимда сўзланган нутқ // Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т. 9. – Т., 2001. – Б. 114.

Yevropa tillariga ham tarjima qilingani, butun dunyoda katta qiziqish bilan o‘rganilayotgani, turli tillarda unga ko‘plab sharh va izohlar bitilgani Marg‘inoniy merosining umumbashariy ahamiyatidan dalolat beradi. Burhoniddin Marg‘inoniyning bizga qoldirgan ulkan merosi, erishgan shon-shuhratining zamiri avvalo uning ibratli hayoti, pok e’tiqodi, olijanob insoniy fazilatlaridir.

Burhoniddin Marg‘inoniyning «Hidoya» (to‘liq nomi «Al-Hidoya fi sharh al-Bidoya» – «Bidoya (kitobi)ning sharhi bo‘yicha qo‘llanma») asari sunniylikning hanafiylik mazhabida keng tarqalgan musulmon huquqidan qo‘llanma (kodeks)dir. Uni Burhoniddin Marg‘inoniy 13 yil davomida yozgan. Alloma uni yaratishda Qur’oni karim oyatlari, dastlabki to‘rt xalifa, sahobalar va tobeinlarning rivoyatlari, hadislar, sunniylik oqimidagi to‘rt mazhab asoschilarining asarlariga tayangan. Marg‘inoniy bu asarda o‘z davrida mo‘min-musulmonlar uchun dolzarb bo‘lgan hayotiy masalalar, chunonchi oilaviy va ijtimoiy munosabatlar, mulkchilik, savdo-sotiq, jinoyat va jazo, insonning burch va mas’uliyatiga taalluqli juda ko‘p murakkab muammolarni musulmon huquqi nuqtai nazaridan hal etib bergen. Mazkur kitob nafaqat Movarounnahrda, balki butun islom olamida ko‘plab tillarga tarjima qilinib, ma’lum va mashhur bo‘lib ketgan.

«Hidoya» to‘rt jild, 57 kitob, 165 bob, 152 fasldan iborat. Birinchi jild 5 ta kitobdan iborat bo‘lib, tahorat va amaliy ibodatlar (namoz, ro‘za, zakot va haj)ga bag‘ishlangan. Ikkinci jildda nikoh, emizish, taloq, qulni ozod qilish, topib olingan bolalarning nasabini aniqlash, bedarak yo‘qolganlar, sherikchilik, vaqf huquqi kabi masalalar yoritilgan. Uchinchi jildda oldi-sotdi, pul muammolari, kafolat, qozilarning vazifalari, guvohlik, vakolat, da’vo, sulh, qarz berish, sovg‘a, ijara, voliylik (patronat), homiylik kabi masalalar, to‘rtinchchi jildda shafoat, merosni taqsimlash, vasiyat, dehqonchilik va bog‘dorchilik, shartnama, qurbanlik qilish, ovchilik, garovga berish, jinoyatlar, xun haqi to‘lash kabi masalalar bayon etilgan.

«Hidoya» hanafiylik fiqhining to‘rt asrlik rivojiga yakun yasadi. U XIV asrda hanafiylik mazhabida mumtoz asar sifatida tan olindi. Kitob yaratilgandan boshlab faqihlar, tarixchilar, davlat namoyandalari diqqat-e’tiborini tortib kelgan. «Hidoya» bir necha asrlar mobaynida ko‘pgina musulmon mamlakatlarida huquqshunoslikdan eng asosiy qo‘llanma hisoblangan. O‘zbekistonda u XX asrning 30-yillarigacha – musulmon huquqi qozilari «bekor qilinib», sho‘rolarning sud tizimi joriy qilingunga qadar amalda bo‘lib keldi. Uni o‘rganish musulmon mamlakatlari oliy

o‘quv yurtlarining o‘quv dasturlariga kiritilgan. Kitob, ta’kidlaganimizdek, jahonning bir necha tillariga tarjima qilingan. «Hidoya»ni o‘zbek tilida mukammal tarjima qilishga kirishilgan. Chunonchi, 2000-yilda Burhoniddin Marg‘inoniy tavalludining 910 yilligi nishonlanishi arafasida birinchi jildning arab tilidan qilingan bevosita tarjimasi bosmadan chiqdi1. Marg‘inoniylar sulolasiga nomi bilan bog‘liq musulmon fiqhshunoslik maktabi nafaqat Turkiston hududida, balki butun o‘rta asr arab-musulmon dunyosi huquqshunoslik ilmida asrlar davomida ustuvor bo‘lib qolishida Burhoniddin Marg‘inoniy hal qiluvchi rol o‘ynagan. «Hidoya» o‘rta asrlar va hozirgi kunda ham musulmon huquqining qomusi, qonunlar chiqarish ibtidosi, umuman har qanday huquqiy ma’rifat, ta’lim va tahsilning birlamchi ibtidosidir, u musulmon huquqidagi hanafiylik huquqiy maktabiga ergashuvchilargina emas, balki musulmon huquqidagi barcha mazhablar uchun ham andozadir.

Burhoniddin Marg‘inoniy – imom, qonunshunos, hadisshunos, Qur’onni yoddan bilgan va tafsir qilgan, huquqiy bilimlarni to‘plab, ularni yaxlit bir fan holatiga keltirgan tadqiqotchidir. Marg‘inoniy yana bir qancha asarlar yozgan, ular «Nashr al-mazhab» («Mazhabning tarqalishi»), «Kitob at-tajnis val-maziyd» («Fuqarolik huquqini taqdim etish»), «Kitob ul-faroiz» («Majburiyatlar haqida kitob»), «Maziyd fi furu ul-hanafiy» («Hanafiylik mazhabiga qo‘sishchalar») kabilar. U asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, mulkchilikning turli shakllari (davlat va xususiy mulkchilik), moliyaviy faoliyat, jinoyat va jazoning huquqiy asoslari, fuqarolik huquqi nazariyasi va amaliyoti, qozilik muassasalari tarkibi, tartibi va jinoyat ishini ko‘rish masalalarini batatsil yoritib berdi. Bu asarlarda adolatli bo‘lish, o‘z davrining huquqiy mezonlari asosida yashash, o‘zganing mol-mulkiga ko‘z olaytirmaslik, haromdan hazar qilish, insof va diyonat, mehr-oqibat kabi ezgu tushunchalarning mohiyati ochib berilgan. Burhoniddin Marg‘inoniyning o‘zi hayoti davomida shunday insoniy fazilatlar mujassam bo‘lgan inson sifatida yashagan. Ilmu urfonga fidoyiligi, kamtarligi, o‘z asarlarida biror marta ham «men» degan so‘zni ifodalalamay, «bu zaif banda aytadi», deya xokisorlik bilan izoh berishida ham uning oljanob insonligi ko‘rinib turadi.

Burhoniddin Marg‘inoniy 1197-yilning 29-oktabrida vafot etgan. U Samarqand shahridagi Chokardiza qabristoniga dafn etilgan. Burhoniddin Marg‘inoniy buyuk olim sifatida tarixda chuqrizmiz qoldirdi. Uch o‘g‘li – Jaloliddin Muhammad, Nizomiddin Umar, Imomiddin Abu Bakrdan so‘ng uzoq muddatlarda navbatma-navbat Samarqand shayx ul-islomi bo‘lib turdilar. Nevarasi Abdurahim ibn Bakr al-Marg‘inoniyning (1253-

y.dan so‘ng v.e.) fiqhiy asari – «Al-Fusul al-Imodiya» islom dunyosida keng shuhrat topdi. Evarasi Abdulavval ibn al-Marg‘inoniy (1411-y.dan so‘ng v.e.) Turkiyada mashhur olim va ustoz sifatida tanilgan. Amir Temur va Temuriylar davri (1405–1500)da Marg‘inoniy avlodlari Movarounnahrda uzoq yillar shayx ul-islam lavozimini egallab turdilar. Marg‘inoniyning ilmiy merosi hozirgacha o‘z qimmatini yo‘qotmay kelmoqda. Jahondagi ko‘plab oliy o‘quv yurtlarida musulmon huquqshunosligi uning fiqh ta’limoti asosida o‘rganiladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Burhoniddin Marg‘inoniyning ilmiy merosini har tomonlama chuqur o‘rganish, asarlarini chop etish ishlariga e’tibor kuchaytirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan Marg‘inoniy vafotining 800 yilligi (1997-y.), tavalludining 910 yilligi (hijriy sana bo‘yicha) (2000-y.) keng nishonlandi. Marg‘ilon shahrining markazida unga yodgorlik majmui bunyod etilib, shu yerda unga ramziy maqbara qurildi. Prezident Islom Karimov buyuk faqih tavalludining 910 yilligiga bag‘ishlangan tantanada so‘zlagan nutqida quyidagilarni faxr bilan ta’kidladi: «Agar biz allomaning zamondoshlaridan biri aytgan «Ey aql egasi, «Hidoya»ni o‘qib, mag‘zini chaqqin, chunki u seni hidoyat yo‘liga boshlab, eng oliy maqsadlarga yetkazgay», degan so‘zlarini eslasak, o‘ylaymanki, u zoti sharifning avlodlar oldidagi tarixiy xizmatlarini yana bir bor yaqqol tasavvur qilgan bo‘lamiz. Shubha yo‘qli, «Kuch – adolatdadir» degan g‘oyani o‘z hayotining mazmuni deb bilgan Amir Temur bobomizdek ulug‘ ajdodlarimizning kamol topishida ham «Hidoya» singari qomusiy asarlarning ta’siri va ahamiyati beqiyos bo‘lgan»<sup>1</sup>.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Islom dini Movarounnahrda qachon yoyila boshlagan?
2. Movarounnahrda sunniylik yo‘nalishining qaysi mazhabi asosiy o‘rinni egallagan?
3. Movarounnahrda kimlar faqih deb atalgan?
4. Imom al-Buxoriy kim va uning ilmiy izlanishlarining mohiyati nimalardan iborat?
5. Buyuk faqih Burhoniddin Marg‘inoniyning shoh asari qaysi va unda qanday masalalar yoritilgan?

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т. 9. – Т., 2001. – Б. 116–117.

### **3-BOB. MUSULMON HUQUQINING MANBALARI**

#### **3.1. «Musulmon huquqi manbalari» tushunchasi va turlari**

Musulmon huquqshunosligi huquqiy normalardagi aniq qoidalarning ahamiyatini ibodat qoidalari bilan teng qo‘yadi. Insonning har bir qilmishi nazariy jihatdan normativ mutanosiblashtiruvchi yoki musulmon hayotining barcha jihatlarini mezonlashtiradigan musulmon huquqi tomonidan baholanishidan chetda qolmaydi, deb tan olingan. Diniy nuqtai nazardan xulq-odat qoidalarini huquqiy yoki nohuquqiyga ajratish muhim ahamiyatga molik emas. Ularning birortasiga rioya qilmaslik esa eng avvalo diniy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Biroq amaldagi musulmon ta’limoti ikki guruh normalarini qat’iy tavofutlaydi, bular:

1) inson va Alloh o‘rtasidagi munosabatlarni mezonlashtiruvchi (ya’ni din asosi va diniy majburiyatlarni bajarishning qoidalari aniqlaydigan), dinga asoslangan va barqaror hisoblangan qoidalari;

2) kishilarning o‘zaro munosabatlaridagi xulq-atvor qoidalari. Birinchi guruh qoidalardan farqli o‘laroq, bu guruhdagi normalarni muayyan holatlarda o‘zgartish, hatto ular musulmon huquqining umumiyo‘riqlariga rivoja qilgan holda insonlar tomonidan yaratilishi ham mumkin. Mazkur qoidalarning aksariyatini huquqiy normalar tashkil etadi. Albatta, ularni xulq-atvorning boshqa qoidalardan ajratishning hamisha ham imkon bo‘lmaydi, aslida ular o‘z haqiqiy manbaiga ko‘ra muhim tafovutga ega emas, musulmon huquqi fani huquqning davlat bilan izchil bog‘lanishini amalga oshirmaydi. Shu bois musulmon huquqining normalari faqat amaliy jihatdan, musulmon davlatining huquqiy ta’limotida ifodalangan xulq-atvorning muayyan qoidalarini quvvatlash va joriy etishga oid faoliyatni taklif etish yo‘li bilan tafovutlanishi mumkin.

Ushbu tartibga ko‘ra, musulmon huquqining masalalari ikkita fan tomonidan o‘rganiladi. Birinchisi – *manbalar to‘g‘risida fan* bo‘lib, u musulmon huquqi manbalarini o‘rganadi va ular asosida muayyan masalalar to‘g‘risida Alloh belgilagan axloq qoidalari orqali huquqiy normalarni ifodalashning mantiqiy usullarini ishlab chiqadi. Barcha huquqiy normalar musulmon huquqi manbalarining birortasiga u yoki bu tarzda asoslanishi shart. Mazkur manbalar orasida Qur’on eng muhimidir. Tarmoqlar to‘g‘risidagi fan – *fiqh* muayyan huquqiy normalar bilan shug‘ullanadi. Islom dinining keng ravnaq topishida uning manbalarining ahamiyati beqiyosdir. 632-yil – to Muhammad (s.a.v.) vafotiga qadar

musulmonlar huquq manbalariga emas, ul zotning o‘zlariga murojaat qilardilar. Huquqiy muammolarni yechishda hech qanday qiyinchiliklar bo‘lmas, chunki payg‘ambar (s.a.v.)ning o‘zi yuzaga kelgan muammolarni vahiy yoki o‘z hukmlari, ijтиходлари orqali hal qilgan<sup>1</sup>. Payg‘ambar vafotidan so‘ng, ummaviylar sulolasi hukmronligi davrida islom dini ancha yangi-yangi sarhadlarga yoyilgan. Ilgari boshqa dinlarga e’tiqod qiluvchi minglab kishilar islom dinini qabul qilganlar. Tabiiyki, ularning millatlari turlicha bo‘lgani kabi, urf-odatlari, dinga munosabatlari, huquqiy qarashlari va an’analari ham turlicha edi. Ularga islom dinini mukammal, sof holda targ‘ib va talqin qilish uchun o‘sha davrda Qur’oni yod bilgan, undagi ilmlardan to‘lig‘icha xabardor bo‘lgan, minglab hadislarni esda saqlagan mashhur sahoba yoki tobeinlar safarbar etilganlar 2. Xuddi shu davrda musulmon huquqining manbalarini shakllantirish va tizimga solishning zarurati yuzaga kelgan. Musulmonlarning Qur’oni karimda ifodasini topmagan turli huquqiy muammolarini yechishda, ikkinchi manba bo‘lgan sunnaga murojaat qilishni o‘rganish va tizimga solishga ham zarurat kuchaygan. Sunna tarkiban uchta: qavliy, fe’liy, taqririy qismdan iborat.

*Qavliy sunna* – Muhammad (s.a.v.)ning so‘zlari bo‘lib, uning biror voqeа-hodisaga munosabati ifodalananadi.

*Fe’liy sunna* – Muhammad (s.a.v.)ning biror narsani ma’lum qilish uchun bajargan xatti-harakatlaridir.

*Taqririy sunna* – Muhammad (s.a.v.)ning huzurida biror ish qilinsa yoki birovning biror ish qilgani haqida aytilsa, payg‘ambarning bunga e’tiroz bildirmaganidir 3.

### **3.2. Qur’on va sunnaning huquqiy ko‘rsatmalari musulmon huquqi manbalari sifatida**

G‘arb huquqi dunyoviy tizim bo‘lgani bois uning manbalari qonunlar va urf-odatlardan iborat<sup>1</sup>. Ammo musulmon huquqi dunyoviy huquq bo‘lsa-da, diniy mohiyatga ega va ilohiy manbara asoslanadi, bu uning G‘arb huquqidan asosiy farqini ko‘rsatadi. Musulmon huquqining asosiy manbalari buyuk faqihlar tomonidan yakdillik bilan to‘rtta deb tan olingan. Usul ul-fiqhda manbalar «adilla» (dalillar) yoki «adillai tafsiliya» (tafsiliy dalillar) deb ataladi. Mazkur to‘rtta asosiy manbalarni ko‘rib chiqamiz.

---

<sup>1</sup> Каранг: Жўзжоний А.Ш. Ислом хукуқшунослиги: Ҳанафий мазҳаби ва Ўрта Осиё фақихлари. – Т., 2002. – Б. 63–73.

*Qur’oni karim* 23 yil risolat davri (610–632-yillar)da payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga Alloh tomonidan nozil qilingan ilohiy kitob bo‘lib, 114 sura, 6666 oyat, 77434 so‘zdan tarkib topgan. Qur’on suralarining 95 tasi 13 yil davomida Makka shahrida nozil bo‘lib, *Makkiy suralar* deb ataladi. Suralarning uchdan bir qismi, ya’ni 19 tasi 622-yilda yuz bergen hijratdan keyingi 10 yil davomida Madinada nozil bo‘lib, *Madaniy suralar* deb qabul qilingan. Suralarning farqlari shundan iboratki, Makkada nozil bo‘lgan oyatlarning ko‘pi e’tiqod masalalari, ibodat, oliv axloqiy fazilatlar, erkin fikrlilik, ilmni targ‘ib qilishga bag‘ishlangan. Ularda «Ey iymon keltirganlar, Ey mo‘minlar!», deb xitob etiladi.

Madinada nozil qilingan oyatlar fiqhiy, ya’ni ahkom-muomalat, jinoyat va jazo, oilaviy munosabatlar, tinchlik bitimlari, musulmonlar o‘rtasidagi turli aloqalar to‘g‘risida bo‘lib, ularda «*YO ayyuhannos*» (*Ey odamlar, ey insonlar!*), deb xitob qilinadi.

*Qur’oni karim* uch marta to‘plangan: 1. Payg‘ambar hayotlik chog‘ida vahiyning kotiblari yordamida yozilgan oyatlari va suralarini payg‘ambar (s.a.v.)ning uyida saqlash va ular tomonidan to‘plangan suralarni joy-joyiga qo‘yilish davri. 2. Abu Bakr xalifaligi davrida Hazrat Umarning taklifiga binoan, Zayd ibn Sobit rahbarligida tayinlangan hay’at tomonidan Qur’onning barcha oyatlarini birlashtirish, to‘plash davri. 3. Hazrat Usmon davrida butun islam dunyosida qiroatni bixillashtirish maqsadida mus’haf holiga keltirilgan Qur’ondan nusxalar ko‘chirib, tarqatish davri. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Diniy ishlar qo‘mitasining qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan Usmon mus’hafi mazkur nusxalardan biridir.

*Qur’onda* fiqhiy-huquqiy masalalarga umumiy yondashilgan va ayrim masalalar, masalan, huququllo mufassal shaklda yoritib berilgan. Mashhur fiqhshunos Muhammad Yusuf Musoning ta’kidlashicha, *Qur’onda* fiqhiy-huquqiy masalalarda quyidagicha:

- haqqulloh (amaliy ibodatlar)ga doir – 140 oyat;
- shaxsiy huquq (oila, taloq, vasiyat va boshqalar)ga doir – 70 oyat;
- muomalot yoki fuqarolik huquqi (oldi-sotdi, ijara, garov, qarz, shirkat va boshqalar)ga oid – 70 oyat;
- jinoyat va jazoga doir – 30 oyat;
- sud, sud jarayoni, guvohlik va shular bilan bog‘liq masalalarga doir – 20 oyat mavjud.

Bizning fikrimizcha, davlat huquqi sohasida 3 ta oyat mavjud bo‘lib, *Qur’onda* jami 333 ta huquqiy oyat bor.

Qur'onning boshqa ilohiy kitoblardan asosiy farqi shundan iboratki, u faqat aqidaviy-g'oyaviy manba emas, balki qonun va axloq hamdir. Mashhur faylasuf Ibn Rushd (595-h.y.)ning fikricha, bu Qur'onning buyuk mo'jizasi hisoblanadi.

«*Sunna*» fiqhiy atamasining ma'nosи yo'l-yo'riq bo'lib, payg'ambarning so'zлari, fe'llari (amallari) va tahrirlari, ya'ni tasdiqlari, shuningdek sahobalarning so'zлari va amallari majmuidir. Musulmon huquqining Qur'ondan keyingi ikkinchi manbasi sunnati Nabaviyya (Payg'ambarning sunnalari) hisoblanadi. Ul zot: «*Sizlar uchun ikki narsa qoldirdim, modomiki ularga amal qilib yursangizlar, hech qachon adashmaysizlar. Ular Allohning kitobi va mening sunnatimdir*», – deb vasiyat qilgan edilar. Shubhasiz, Muhammad (s.a.v.) Alloh tanlagan vakil, buyuk elchi va targ'ibotchi edi. Qur'oni karimda: «*Ey payg'ambар, Alloh tomonidan senga nozil etilgan (yuborilgan, tushirilgan) narsalarni tablig 'qilgin (odamlarga yetkazgin)*»<sup>1</sup>, – deyiladi.

Tadqiqotchi olimlar, jumladan doktor Ahmad Shalabiy sunnani ikki qismga bo'lib o'rgangan: *birinchisi*, agar biror ish qilinmoqchi bo'lsa, Yaratuvchi tomonidan o'sha ishga tegishli fikr payg'ambarga vahiy (vahiy hafiy) orqali bildiriladi. Payg'ambar uni o'z so'zлari orqali bayon etadi. Bu vahiy, ya'ni vahiy hafiy Qur'on oyatlari, ya'ni vahiy jaliydan farqlanadi. Qur'on oyatlarining mazmuni, har bir iborasi Alloh tomonidan Jabroil orqali yuborilgan bo'ladi. *Ikkinchisi*, agar musulmonlar hayotiga tegishli biror-bir yangilik kiritish zarurati sezilsa, lekin uni hal qilish uchun payg'ambarga vahiy kelmasa, bunday holatda payg'ambarga ijтиҳод qilish, ya'ni masalani o'z shaxsiy fikri asosida yechish uchun ruxsat berilgan. O'shanda payg'ambar (s.a.v.) ijтиҳод qilib, sahabalar bilan kengash – maslahat o'tkazib, bir to'xtamga kelgan.

Payg'ambarning qarori yoki bildirgan fikri Qur'on orqali tuzatilsa, sunna (payg'ambarning so'zi yoki qarori) Qur'on orqali mansux bo'ladi, ya'ni bekor qilinadi va Qur'onning hukmi amalga oshiriladi. Masalan, Badr urushida dushmanning 70 nafar askari asir olinib, urush tugamasidan muayyan tovon evaziga ular bo'shatib yuboriladi. Ozod bo'lganlar yana dushman safiga qo'shilib, ularni kuchaytirgan. Shunda: «*Biror payg'ambар uchun, to yerda (dushmanlarga) zarba bermagunchа, asirlarga ega bo'lish mumkin emas. (Siz – mo'minlar) dunyo matoini istaysizlar. Alloh esa (sizlar uchun) oxiratni istaydi. Alloh qudratli va*

---

<sup>1</sup> «Моида» сураси, 67-оят.

*hikmatli zotdir*<sup>1</sup>, – degan oyat nozil bo‘lib, dushman ustidan batamom g‘alaba qozonilguncha, asirlarni qo‘yib yuborishga ruxsat yo‘qligi ta’kidlandi.

Agar payg‘ambarning o‘zi inson sifatida ba’zi ishlarni bajarsa, bu harakat musulmon huquqi manbai yoki musulmon huquqida qonun hisoblanmaydi. Masalan, payg‘ambar biror narsani ustun qo‘ysa yoki biror libosni yoqtirsa, bunday holatlar tashri’ emas, ya’ni ular musulmon huquqining hukmlariga kirmaydi. Musulmonlar payg‘ambarda yuz beruvchi bunday ikki holatni bilardilar. Masalan, Badr urushi bo‘lib o‘tadigan joy haqida sahabalardan Hubob ibn Munzir: «Bu Allohdan vahiy bo‘lganmi yoki o‘zingizning ijтиhodingizmi?», – deb so‘raganida, payg‘ambar: «O‘zimning ijтиhodim», – deb javob bergen. «Gap shunday bo‘lsa, menimcha Badr qudug‘i yoniga joylashsak, yaxshiroq bo‘lardi», – deydi Hubob ibn Munzir. Boshqa musulmonlar uni ma’qullagach, Badr qudug‘i yoniga joylashishga ruxsat berilgan.

*Sunnaning qonun tuzish salohiyati*. Payg‘ambar (s.a.v.) Qur’onning sharhlovchisi sifatida tashri’ qilish (qonun tuzish) vakolatiga ega bo‘lgan. Shunga binoan, sunna tashri’ (qonun tuzish) bo‘yicha ikki asosiy sohani qamrab oladi: *birinchisi*, Qur’onda zikr etilgan hukmlarni yoritib berish; *ikkinchisi*, Qur’onda ko‘rsatilmagan hukmlarning tashri’i (qonuniy shaklda chiqarish)ga bog‘liq.

Birinchi sohada sunna Qur’oni karim oyatlarini tafsir va ta’vil qiladi, mujmal iboralarni izohlaydi, umumiy ma’noga ega bo‘lganini xoslashtiradi, mutlaq, ya’ni qaydu shartsiz oyatlarga qaydu shart qo‘yadi. Masalan, Qur’onda «Namoz o‘qinglar», deb amr qilinadi, ammo namoz o‘qishning tartibi, rak’atlari sonini faqat payg‘ambarning o‘zi belgilab va amalda ko‘rsatib bergen. Bu esa Qur’ondagi amrning izohlanishidir.

Yana bir misol: Qur’onda meros tizimi umumiylarini ma’noda izohlangan, lekin payg‘ambar meros olish uchun din birligi, qotil yoki va qul bo‘lmaslikni shart qilib qo‘yib, uni xoslashtirgan. Masalan, otasini o‘ldirgan yoki nohaq yo‘l bilan uning o‘limiga sabab bo‘lgan farzand otasidan meros olish huquqidani mahrum bo‘ladi va shu kabilar.

*Ikkinci soha* – sunnaga tegishli bahslardan tashkil topadi. Zarurat tug‘ilganda Qur’onda aytilmagan biror-bir yangi hukmni sunna belgilab beradi. Bu o‘rinda hukmlarning ba’zilari payg‘ambardan vahiy (ilhomga o‘xshash holatlar) orqali va ba’zilari uning ijтиhodi, shaxsiy fikridan hosil

---

<sup>1</sup> «Анфол» сураси, 67-оят.

bo‘lgan. Albatta, payg‘ambar (s.a.v.) ijтиҳод qilishda ham islom ruhi va falsafasini nazarda tutgan.

Bunday hukmlarga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Masalan, jadda (buvi)ga merosdan oltidan bir hissa berish, nikoh bitimining to‘g‘ri tuzilishi uchun guvohlarning shartligi, badan (tana) a’zolari xuni, ya’ni bahosini belgilash, shuningdek urf asosida amal qilinganda, uning to‘g‘riligini tasdiqlash va hokazo.

*Hadis ilmi yoki hadisshunoslik.* Hadis – sunnaning asosiy qismi, ya’ni payg‘ambar rivoyat qilgan fikrlarni ifodalaydi. Lekin ba’zi olimlar, jumladan Misrdagi al-Azhar islom universitetining vakili doktor al-Husayniy Abdulmajid Hoshim sunna, hadis, xabar va osarni bitta ma’noda, ya’ni payg‘ambar tomonidan asos solingan yo‘l-yo‘riqlar, uning so‘zлari, undan, sahabalar va tobeinlardan yetib kelgan barcha rivoyatlarni qamrab olgan ilm, deb ta’kidlaydi<sup>1</sup>.

Arabiston, ayniqsa. payg‘ambarning shahri deb tan olingen Madinada sahabalar ko‘pligi tufayli hadis roviylari ham ko‘p edi. Iroq o‘lkasiga esa sahabalar Hazrat Umar davrida yuborildi va undan keyin Iroqda siyosiy hodisalar va urushlar ko‘paygani sababli, hadis roviylarini yetarli darajada jalb etishga muvaffaq bo‘lmadi.

Iroq turlicha aqidalarga tayangan yo‘nalishlar va siyosiy harakatlar mintaqasi, cheksiz qarama-qarshiliklar markaziga aylandi. Natijada islomga qarshi guruuhlar ko‘plab to‘qima hadislarni yaratib, payg‘ambarga nisbat bera boshladilar. Bunday murakkab vaziyat hadislarni saralash, ya’ni haqiqiyarni ja’liy (to‘qima)lardan ajratib olish zaruratini yuzaga keltirdi. Bu maqsadga erishish uchun bir necha usul va qoidalari ishlab chiqildi, bu bilan ilm ul-hadis, ya’ni hadisshunoslik ilmiga asos solindi.

Hadis ilmi ikki turga bo‘linadi. Birinchisi, *rivoyat ul-hadis* – payg‘ambardan rivoyat qilingan so‘zlar, ya’ni uning amallari, tasdiqlari, axloqi, oliy fazilatlari va boshqa sifatlari, shuningdek sahabalar va tobeinga nisbat berilgan narsalarni o‘rganadi. Ikkinchisi, *diroyatul-hadis* – hadis va sunnani rivoyat qilishda foydalaniladigan usul va qoidalarni o‘rganadi. «Diroyat» – biror narsani tom ma’noda tushunib olish demakdir. Diroyat ul-hadis *mustalah ul-hadis*, *usuli hadis* ilmi yoki rivoyat ul-hadis ilmining usullari ham deb ataladi. Ya’ni roviylar va

---

<sup>1</sup> Қаранг: Ҳусайний Абдулмажид Ҳошим. Усул ул-ҳадисин-набавий, улумуху ва мақойисуху (Пайғамбар ҳадисларини ўрганиш усуллари, илмлари, мезонлари). –Қохира, 1988. – Б. 23.

hadislar matnlarini osonroq o'rganish uchun hadisshunoslar kelishib olgan qoida va usullardir.

Hadis ilmida quyidagi atamalardan foydalilanadi: a) *isnad* – hadis roviylari va tashuvchilari silsilasi; b) *matn* – hadis mazmunini ifodalovchi iboralar – so'zlar. Umumiy ma'noda hadislar uch tur – *sahih*, *hasan*, *zaifga* bo'linadi.

Sunna va payg'ambar hadislarini toplash, ularni ja'liy (to'qima) hadislardan ajratib olishda vatandoshimiz alloma Imom Muhammad ibn Ismoil Buxoriy (815–892-y.) mislsiz hissa qo'shib, o'zidan abadiy barhayot asarlar qoldirdi. Imom Buxoriyning shoh asari «Al-jome' as-sahih» islam olamida Qur'onidan keyingi eng mo'tabar, ishonarli kitob sifatida shuhrat qozongan.

### **3.3. Musulmon huquqining ratsional manbalari**

«*Ijmo*» so'zi ittifoq va kelishuv ma'nosini anglatadi. Ijmo fiqhiy atama bo'lib, odillik sifati va mujtahidlik malakasini egallagan bitta davr olimlarining muayyan hukmlar borasidagi kelishuvidir.

Ijmo – sunnadan keyin musulmon huquqshunosligining uchinchi asosiy manbai bo'lib, unda belgilangan hukmlarga amal qilish vojib bo'lган. G'azzoliyning fikricha, ijmo mazhablarga doir masalalar bo'yicha Muhammad (s.a.v.) ummatining ittifoqi – kelishuvidir.

Ijmo ikki qismga bo'linadi: a) *ijmo ul-umma* (ummat ijmoi), ya'ni islam jamosining kelishuvi; b) *ijmo ul-aimma* (imomlar – olimlar ijmoi), ya'ni ummat imomlari sanalgan fiqh ilmining buyuk olimlari kelishuvi.

Ijmo ul-ummaga haj ibodati marosimidagi amallarning barcha musulmonlar tomonidan bir xilda bajarilishi misol bo'ladi.

Olimlar ijmoni ikkiga bo'lganlar: *birinchisi*, oyat yoki hadislarni izohlash borasidagi kelishuv. Masalan, vafot etgan kishining zimmasida qolgan qarzlari. Marhumdan qolgan mol-mulk (taraka)ni vorislarga taqsimlab berishdan ilgari uning qarzlarini to'lash zarurligi ta'kidlangan oyatlar borasida kelishuv. *Ikkinchisi*, huquqiy usul va qoidalarni ifodalovchi bir necha mo'jaz va qisqa iboralar majmui borasidagi kelishuv. Ularning biror oyat yoki hadisga asoslanganiga ishora qilinmasa ham, ular ishonch bilan qabul qilingan. Masalan, vaqf qiluvchining irodasi musulmon huquqida hukm hisoblanadi, ya'ni o'z mulkini vaqf qiluvchi kishi vaqf qilish orqali shunday doimiy mulkka asos soladiki, bunda vaqfdan keladigan foydalarni ma'lum tashkilotga o'tkazish va undan foydalanish huquqi abadiylashtiriladi. Ammo mulkning o'zi

saqlanib qoladi, uni hech kim sotish, sotib olish va unga egalik qilish huquqiga ega bo‘lmaydi. Vaqf tizimi musulmon huquqiga xos tarmoq bo‘lib, boshqa huquqiy tizimda mavjud emas.

«Az-zarurotu tubihul-mahzurot» (ya’ni, zarurat chog‘ida noravo narsalarning ravo bo‘lishi). Ushbu tamoyilga ko‘ra, insonning hayoti xavf ostida qolganda, deylik, boshqa oziq mahsuli bo‘lma ganda, taqiqlangan mahsulotlar, masalan, cho‘chqaning yoki o‘zi o‘lgan hayvonning go‘shtini iste’mol qilish mumkin.

Ijmo qachon kerak bo‘ladi? Qachonki qonun «sukut» qilganda, ya’ni biror masala borasida ahli sunna mazhablarida nass mavjud bo‘lma ganda, avvalo ijmodan foydalaniladi. Hanafiy mazhabining buyuk faqihlaridan biri, «Usul ush-Shoshiy» asari muallifining ta’kidlashicha, ijmo amalda to‘rt xil bo‘ladi: a) *sahobalar ijmoi* – ya’ni sahobalar biror masala to‘g‘risida o‘zaro yaqin fikrlarni ochiqdan-ochiq bildirgan bo‘lsalar, bu ijmo ahamiyati jihatidan Qur’on oyatlariga yaqin turadi; b) o‘rtaga qo‘yilgan masalani sahobalarning bir guruhi tasdiqlab, qolganlarining tortishuv (ixtilof)dan keyin qabul qilingan qarorni inkor qilmay, jim turishlari holati (*ijmoi sukutiy*) *mutavotir hadis* darajasida turadi; d) sahobalardan rivoyat qilinmagan masala borasida tobein ijmoi xabari mashhur o‘rinda turadi; f) keyingi davr olimlarining sahobalarning ba’zi so‘zлari haqidaga ijmoi *xabari vohid* o‘rnida turadi<sup>1</sup>.

Shuni ta’kidlash zarurki, ijmoni amalga oshirishda ijтиҳод vakolatiga ega kishilarning kelishuvi e’tiborga olinadi. Oddiy odamlar, mutakallimlar, muhaddislar va fiqh usullari borasida yetarli bilimga ega bo‘lman kishilarning kelishuvlari esa ahamiyatsiz hisoblanadi.

*Shialikda ijmo.* Shialarning o‘zlariga xos tashri’ manbalarini mavjud. Ular uchun ijmo hujjat emas. Lekin «qavli imom» (ya’ni imomning so‘zi) muhim, u vahiy orqali har qanday narsani bilib oladi, shu bois uning so‘zlariga amal qilish majburiyidir. Shia mazhabida ijmo imomning fikriga asoslanadi. U hujjat va islom fiqhining manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu nuqtai nazardan ijmo bo‘yicha shialikda uchta maktab mavjud:

*Ijmoi duxuliy* deb atalgan birinchi maktabning aqidasiga binoan, ijmo ummat (islom jamosi) faqihlarining ittifoqi bo‘lgani bois imom ham faqih deb tan olinib, jamoaning tepasida turadi. Shunga ko‘ra, imom tanilmagan bo‘lsa ham, ijmo qiluvchilar orasida bo‘lishi shart. Agar barcha

---

<sup>1</sup> Каранг: *Низомул-милла Абу Иброҳим Исҳоқ ибн Иброҳим аи-Шоший*. Усул уш-Шоший. – Дехли, 1935. – Б. 78.

kelishuvchilar «ma'lum un-nasab» (ya'ni tanilgan faqihlar) bo'lsalar-da, imom ularning orasida bo'lmasa, bunday ijmo hujjat hisoblanmaydi. Ushbu matabning aqidasiga ko'ra, kelishuvchilar orasida bitta tanilmagan (ya'ni imom bo'lib tanilish ehtimoli bor) kishi bo'lishi shart.

*Ijmoi lutfiy* deb tanilgan ikkinchi matab vakillarining fikricha, ijmo – biror fiqhiy masala borasida olimlarning kelishuvi va ittifoqi. Bunda, olimlar lutfu marhamatlari va o'z vakili (imom) orqali har qanday kelishuvni buzib, ularni to'g'ri yo'lga solishlari zarurdir.

Uchinchi matab *ijmoi kashfiy* deb ataladi. Ularning fikricha, agarda biror fiqhiy masalada ittifoq hosil bo'lsa, o'sha kelishuv to'g'risidagi fikrni imom kashf qildi deb tan olinadi. Ushbu matabning muxoliflari esa bunday istidlol, imom hozir bo'lgandagina to'g'ri, imom g'oyib bo'lgan chog'da, to'g'ri emas, degan fikrni bildiradilar<sup>1</sup>.

«Qiyos»ning lug'aviy ma'nosi solishtirish yoki taqqoslashdir. U huquqiy atama sifatida hukmi aniq bo'lman masalani nass orqali hukmi aniq bo'lgan boshqa masala bilan solishtiradi, oradagi mushtarak sabab mavjud bo'lsa, ikkinchi masala hukmini hukmi aniq bo'lman masalaga ko'chiradi. Bunday holatda har ikkala masala ham islam qonuniga muvofiq bo'ladi.

Masalan, xamr (uzum yoki xurmodan tayyorlangan ichkilik) Qur'onda qat'iy harom deb hukm qilingan<sup>2</sup>, ammo aroq, boshqa mevalar yoki o'simliklardan tayyorlangan ichkiliklar haqida nass mavjud bo'lmani sababli, ularning hukmi (ya'ni, halol yoki harom ekanligi) aniq emas edi. Qiyosda har ikkalasi ham ichuvchini mast, irodasiz qilish xususiyatiga egaligi tahlil etilgani bois, xamrning hukmi, ya'ni haromligi aroqqa ko'chirilib, u ham xamr kabi harom deb hukm etildi.

Edvard Saxov fikricha, «ra'y» sahabalar zamonida yuzaga kelib, undan keyin qiyos darajasiga ko'tarilgan, Go'ld Ziher fikricha, islam fiqhida «ra'y»dan foydalanish hayot jarayonida sud ishlarini yuritish uchun yuzaga kelgan jiddiy zaruratdan kelib chiqib rivojlangan va qiyos shaklini olgan. Yana E. Saxovning ta'kidlashicha, ra'yga asoslangan fiqh Abu Hanifagacha bo'lgan davrlarda taraqqiyot pog'onalariga ko'tarila olmadi. U fiqhning boshqa qoidalari qatorida qiyos prinsipini birinchi bo'lib ishlab chiqdi.

---

<sup>1</sup> Ушбу масалада кенгроқ маълумот олиш учун қаранг: *Жаъфарий Лонгрудий. Ҳукуқ терминологияси.* – Техрон, 137 х.й.

<sup>2</sup> Куръони каримнинг «Моида» сураси, 90-оят.

*Istihson.* Qiyoṣi ikki tur, ya’ni qiyosi zohir (yoki ja’liy) va qiyosi hafiy (yoki istihson)ga bo‘linadi. Istihson – qiyosi ja’liydan voz kechib, nass yoki urfga amal qilishdir. Al-Bazdaviy ta’riflaganidek, «*tarkul-usri lil-yusri*», ya’ni og‘ir holatni tark etib, odamlar uchun qulay va yengil bo‘lgan holatni tanlab olishdir.

Manbalarda istihsonning uch holati qayd etilgan:

*birinchisi*, qiyosi zohir (qiyosi ja’liy) jarayonida ba’zi bir juz’iyotga tatbiq etish lozim topilmasa, boshqa illat qidiriladi. Muayyan illat (sabab)ga asoslanib, ish ko‘rish, «Usul ush-Shoshiy»da yozilishicha, «qiyosi hafiy» deb ataladi;

*ikkinchisi*, qiyosi ja’liy (qiyosi zohir) biror nassga (Qur’on oyati yoki hadis iborasi) zid bo‘lsa, nassga amal qilinib, qiyosdan voz kechiladi. Qachonki, nass mavjud bo‘lmaganda, qiyosga amal qilinadi;

*uchinchisi*, qiyosi ijmo yoki urfga zidlik. Bunday holatda ijmoga yoki xalq hayotiga singgan urf-odatga amal qilinadi.

Xullas, istihson qiyosdan voz kechib, mukallaf kishi uchun qulay bo‘lgan nass yoki urfga amal qilishdir. Ushbu uslubdan Hanafiy mazhabida keng foydalanilgan.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. Musulmon huquqi manbalarining zamonaviy nazariyasi va musulmon huquqida «manba» tushunchasining mohiyatini tushuntiring.
2. Qur’on, sunna, ijmo va qiyosning tasnifini tuzing.
3. Urf, odat, fatvo, qonunchilik siyosatining islom jamiyatini huquqiy tartibga solishdagi ahamiyatini yoriting.
4. Musulmon huquqi manbalarini ajrata olish malakasiga ega bo‘lish deganda nimani tushunasiz?

## IKKINCHI BO‘LIM

---

### 4-BOB. MUSULMON MAZHABLARI VA HUQUQIY MAKTABLARI

#### **4.1. Ilk islom davlati boshqaruvi davrida siyosiy-huquqiy qarama-qarshiliklar. Musulmon huquqida diniy-huquqiy mazhablarning vujudga kelishi**

Ilk islom davlati boshqaruvi, ya’ni xalifalar davrida ijmo tamoyili paydo bo‘ldi. Ijtihod esa fiqhning *qiyyas* deb ataluvchi mustaqil tamoyiliga aylandi. Ushbu davr mazhabi aslida o’sha davrdagi xalifaning mazhabi edi. Zero, huquqiy masalalarda oxirgi hal etuvchi so‘z xalifa tomonidan aytilar edi. Ammo barcha huquqiy qarorlar Muhammad (s.a.v.)ning qayd qilingan so‘zleri yoki odatlari, ya’ni hadislarga asosan o‘zgartirilar edi.

Ummaviylar sulolasi hukmronligining ilk davrida fiqh ulamolari ijтиходда иккита асоси: *Ahl ar-ra'y* va *Ahl al-hadis* mazhablariga bo‘лindilar. Xalifalikdan monarxiyaga o‘tilgan davrda bu ikki maktab zaminida bir qancha yangi maktablar vujudga keldi<sup>1</sup>.

Davlatning bir mazhabni boshqasidan afzal ko‘rishi, saroydagи tortishuvlar, gij-gijlashlar tufayli mazhablarda ichki raqobat kuchaydi. Ular o‘rtasidagi farqlar yanada aniqroq ko‘rina boshladи. Abbosiylar xalifaligi tugab, ijtihod tanazzulga yuz tutgach, mazhablar soni kamaydi, bir-biridan butkul uzoqlashib ketgan, o‘zaro ziddiyatda, ko‘pincha o‘zaro kurashuvchi to‘rtta mazhab qoldi. Ular o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf etib bo‘lmасди. Mazhablarda o‘taketgan mutaassiblik va guruhbozlik kuchaygan edi.

Quyida mazhablar, ularning asoschilari, shakllanishi va asosiy tamoyillari haqida batafsил to‘xtalamiz. Ulardagi farqlarning paydo bo‘lish sabablarini yoritamiz.

#### **4.2. Musulmon huquqining asosiy mazhablari**

*Hanafiylik mazhabi* unga asos solgan olimning nomi bilan atilib, uning asl ismi Nu’mon ibn Sobit bo‘lgan. U 702-yilda Kufada (Iraq) tug‘ilgan. Otasi ipak bilan savdo qilgan, kelib chiqishi fors bo‘lib, Xularo Rashidun hukmronligi davrida islomni qabul qilgan.

---

<sup>1</sup> Каранг: Жўзжоний А.Ш. Ислом хукуқшунослиги: Ханафий мазҳаби ва Ўрта Осиё фақихлари. – Т., 2002. – Б. 76–81.

Abu Hanifa dastlab «Ilm ul-kalom» deb nomlanuvchi falsafa va dialektikani o‘rganishni boshlagan. Bu sohadagi turli fanlarni o‘zlashtirgan va hadislar hamda fiqhni chuqur o‘rganishga kirishgan. Hadis ilmida zamonasining eng buyuk ulamolari safidan o‘rin olgan Hammod ibn Zaydga shogird tushib, o‘n sakkiz yil davomida undan ta’lim olgan. U mudarrislik ilmini ham o‘zlashtirgan, ammo ustozining vafotiga qadar (742-y.) uning shogirdi bo‘lib qolavergan. Qirq yoshga yetgach, Abu Hanifa mudarrislik lavozimini egallagan va Kufadagi eng mashhur olimga aylangan. Ummaviylar sulolasining xalifalari unga Kufaning qozisi lavozimini taklif etganlar, biroq u rad etib, buning uchun Amir Yazid ibn Umar tomonidan kaltaklangan. Abbosiylar hukmronligi davrida ham u qirolik taklifini rad etgani uchun xalifa Abu Ja’far al-Mansur (754–775-yillarda hukmronlik qilgan) tomonidan Bag‘dod zindoniga tashlangan. U o‘limiga qadar (767-yil) mahbuslikda hayot kechirgan. Abu Hanifani ikkinchi avlod tobeinlar qatoriga qo‘sadilar, chunki u ba’zi sahobalar bilan shaxsan uchrashgan va ularning og‘zidan bir nechta hadislarni eshitgan.

*Hanafiy mazhabining shakllanishi.* Imom Abu Hanifaning dars berish usuli *sho‘ro* (jamoaviy muhokama, kengash) tamoyiliga asoslangan. U shogirdlariga birorta huquqiy muammoni munozara mavzusi sifatida tanishtirar va hamma bir fikrga kelgach, ularga barcha holatlarda qabul qilgan qarorlarini yozib, qayd etishni buyurgan. Fatvo chiqarishga bunday yondashuv, aytish mumkinki, Hanafiy mazhabi vakillarining sa'y-harakatlari natijasi sifatida paydo bo‘lgan. Faraziy fiqhga asoslangan muhokamalar «Agar bunday bo‘lganida, nima bo‘lardi?», degan savol bilan boshlanganligi bois, bu maktab vakillari Ahl al-ra'y nomi bilan shuhrat qozondilar.

*Hanafiy mazhabi qo‘llagan huquq manbalari.* Mazkur mazhabning birinchi huquqshunoslari huquqiy normalarni quyidagi manbalarga tayanib chiqarar edilar:

*Qur’on.* Ular Qur’onni musulmon huquqining birlamchi va inkor etib bo‘lmaydigan manbai hisoblar, undan boshqa manbalarning to‘g‘riligini baholashda foydalanar edilar. Shundan kelib chiqib, Qur’onga zid keluvchi har qanday boshqa manba noto‘g‘ri hisoblanar edi.

*Sunnaga* musulmon huquqining ikkinchi muhim manbai sifatida murojaat qilinardi, lekin uni qo‘llashning muayyan shartlari bor edi. Ular, agar biror hadisdan huquqiy nuqtai nazardan dalil sifatida foydalanish kerak bo‘lsa, bunda ushbu hadisning sahih ekanligining o‘zi kamlik qiladi, bundan tashqari u keng tarqalgan, ya’ni mashhur ham bo‘lishi

shart, degan fikr tarafdori edilar. Bu shart mashhur sahobalarning (Ali va ibn Mas'ud) ayrimlarigina yashash uchun ko'chib borgan hududlarda keng tarqalgan to'qima hadislarga chek qo'yish niyatida kiritilgan edi.

*Muhammad (s.a.v.) izdoshlarining ijmolarini*. Musulmon huquqida ahamiyati bo'yicha uchinchi o'rinda turadigan manba Qur'on yoki sunnada tilga olinmagan har qanday huquqiy masala bo'yicha sahobalarning yagona fikri hisoblangan. Bu shuni anglatganki, islom normalarini chiqarishda Muhammad (s.a.v.) izdoshlarining fikrlari Abu Hanifa va shogirdlarining fikrlaridan afzal ko'rilgan. Hanafiy mazhabining vakillari har qanday davr ulamolarining o'z kuchiga ega va musulmonlar uchun majburiy bo'lgan ijmolarini ham tan olganlar.

*Muhammad (s.a.v.) izdoshlarining (sahobalarning) shaxsiy fikrlari*. Agar muayyan huquqiy masala bo'yicha sahobalarning fikrlari har xil bo'lib, ijmoga erishilmagan bo'lsa, Abu Hanifa mazkur holat uchun eng mos keluvchi nuqtai nazarni tanlagan. Buni o'z mazhabining eng muhim tamoyillaridan biri sifatida o'rnatar ekan, Abu Hanifa sahobalarning fikrlarini o'zining shaxsiy fikridan ancha ustun qo'ygan. Biroq, turli nuqtai nazarlardan birini tanlashda, ma'lum ma'noda o'zining shaxsiy mulohazalariga tayangan.

*Qiyos*. Abu Hanifa yuqoridagi muhim manbalarning hech birida isboti aniq bo'lmagan sohalarda sahobalarning shogirdlari (tobeinlar) chiqargan xulosalarga qo'shilish shart emas, deb hisoblardi. U o'zini tobeinlarga teng qo'yar hamda o'zi va shogirdlari tomonidan o'rnatilgan qiyos tamoyili asosida o'z ijtihodi bo'yicha qaror qabul qilar edi.

*Istihson (afzal ko'rish, yaxshi deb hisoblash)*. «Istihson» atamasi bir dalilning muayyan vaziyat uchun ko'proq mos kelishi, bir dalil boshqa dalilga nisbatan zaifroq bo'lishiga qaramay, muayyan sharoit uchun undan afzal ekanligini anglatadi. Masalan, aniq ma'noga ega bo'lgan biror hadisning ma'nosи umumiyoq bo'lgan boshqa hadisdan yoki muayyan vaziyat uchun ko'proq qo'l keladigan normani qiyos usuli bilan chiqarilgan boshqa normadan afzal ko'rish.

*Urf (mahalliy urf-odatlар)*. Islom tomonidan hech qanday majburiy qoidalar o'rnatilmagan sohalarda mahalliy urf-odatlarga ko'proq ahamiyat berilgan. Ushbu tamoyilni amalda qo'llash hisobiga islom dunyosidagi har xil madaniyatlarda uchraydigan turli-tuman urf-odatlар bir qator mamlakatlarning huquqiy tizimiga kirib bongan<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Каранг: Исҳаков С.А. Бурҳониддин Марғиноний ва фикҳ илми. – Т., 2000. – Б. 22.

## **Hanafiy mazhabining mashhur namoyandalari (Abu Hanifaning shogirdlari)**

*Zufar ibn Huzayl* (732–774) Hanafiy mazhabining taniqli vakillaridan hisoblanadi. U ustozи Abu Hanifadan o‘rnak olib, bir necha marta takliflar bo‘lganiga qaramay, qozi lavozimini qabul qilishdan voz kechganlardan biri edi. U mudarrislik qilishni afzal ko‘rdi va umrining oxirigacha, 42 yoshida Basra shahrida vafot etguniga qadar, shu ish bilan shug‘ullandi.

*Abu Yusuf Yoqub ibn Ibrohim* (735–795) Kufada kambag‘al oilada tug‘ilgan. U hadislarni chuqur o‘rganib, hadis ilmi sohasida ko‘zga ko‘ringan olimga aylandi. 9 yil davomida Kufada madinalik mashhur sahobaning o‘g‘li imom ibn Abu Laylo (765-yilda vafot etgan)dan fiqhni o‘rgandi. Keyinroq yana shuncha vaqt Abu Hanifaning qo‘lida tahsil oldi. Abu Hanifa olamdan o‘tgach, Madinaga borib, ma’lum muddat imom Molikdan ilm o‘rgangan.

Abu Yusuf Abbosiy xalifalar tomonidan davlatning bosh qozisi etib tayinlangan. Bosh qozi sifatida u shahar qozilarini tayinlardi, uning barcha yaqinlari Hanafiy mazhabining davomchilari edilar. Bu ushbu maktab g‘oyalarining butun musulmon imperiyasi bo‘ylab yoyilishiga yordam bergen omillardan biri edi.

*Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniy* (749–805) Kufada voyaga yetgan. Abu Yusuf kabi u ham avval hadislarni o‘rganib chiqqan. U bir oz muddat Abu Hanifadan tahsil oldi, Abu Hanifa vafot etgach, unga Abu Yusuf ustozlik qildi. Keyinroq Madinaga borib, uch yil davomida imom Molikdan saboq oldi. Bu muddat ichida u Molikning «Al-Muvatto» kitobi bo‘yicha asosiy hadis aytuvchilardan biriga aylandi. Imom Shofi’iy Muhammad ibn Hasandan ta’lim olgan ko‘plab shogirdlardan biri edi.

Muhammad ibn Hasan ham xalifa Xorun ar-Rashid hukmronligi davrida qozilik lavozimiga tayinlangan, lekin oz fursat ichida bu lavozim ko‘pincha murosa qilishni talab etganligi sababli undan voz kechdi va Bag‘dodga mudarrislik lavozimiga qaytdi.

Hanafiya mazhabiga mansub bo‘lganlarning ko‘pchiligi hozirgi kunda Hindiston, Afg‘oniston, Iroq, Siriya, Turkiya, Gayana, Trinidad, Surinam va qisman Misrda yashaydilar. Sobiq Ittifoq hududida istiqomat qiluvchi musulmonlarning ko‘pchiligi ham ushbu mazhab vakillari hisoblanadilar. XII asrda Usmoniy hukmdorlar musulmon huquqini Hanafiy mazhabiga moslashtirib, uni davlat qonunchilik darajasiga olib chiqishgach, qozilik lavozimini egallamoqchi bo‘lgan ham bir ulamo mazkur mazhabni o‘rganib chiqishi shart bo‘lgan. Buning natijasida XIX

asrning ikkinchi yarmiga kelib, Hanafiy mazhabi butun Usmoniylar davlati bo‘ylab yoyilib ketdi.

Hanafiy mazhabining tarqalishiga quyidagi omillar sabab bo‘ldi.

*Birinchi omil.* Ushbu mazhab mohiyati, ta’limoti va qo‘llanish uslubi bilan jamiyatda yuz berib turadigan huquqiy muammolarni hal etish imkoniyatiga ega bo‘lib, har qanday savolga javob topa olgan. Bunday imkoniyat shundan kelib chiqadiki, Hanafiy mazhabi biror masala to‘g‘risida nass (Qur‘on yoki hadislar matni) mavjud bo‘lmasa, qiyos va uning eng muhim turi bo‘lgan qiyosi hafiy, ya’ni yopiq yoki yashirin qiyos (istihson)ga tayanib ish olib borgan, shuningdek, urf-odatga katta e’tibor qaratgan. Bunday uslubdan foydalanish xalq uchun hayotiy muammolarni musulmon huquqi qoidalariiga asoslanib yechishda qulaylik tug‘dirib, Hanafiy mazhabining tarqalishi uchun zamin yaratib bergen.

*Ikkinci omil.* Hanafiylik ilmiy asoslarga tayangan mazhab sifatida Abbosiylar imperiyasining mazhabi bo‘lgan. Undan keyin G‘aznaviylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Temuriylar, Boburiylar, shuningdek, Usmoniylar davrida ham asosiy va davlat mazhabiga aylanishi uning rivojlanishi va tarqalishi uchun katta imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Ushbu davlatlarda, ayniqsa, Abbosiylar, G‘aznaviylar, Usmoniylar davlatlarida sud tizimi rivojlandi. Alloma ibn Obidin aytganidek, ularning barcha qozilari va shayx ul-islomlari Hanafiy mazhabi vakillari bo‘lganlar.

*Uchinchi omil* – Abu Hanifa shogirdlarining ko‘pligi. Shayx Mahmudxon Tunkiy yozgan 60 jiddlik «Majma’ul-musannifiyn» kitobida zikr etilishicha, uning shogirdlari (Abu Yusuf, Muhammad ibn Hasan, Zufar va Abdulhasandan tashqari)ning ko‘pchiligi Mavarounnah, Xuroson va Eron hududlaridan edilar. ularning ba’zilari, masalan, Usmon al-Bustiy va boshqalar yuksak ilmiy maqomga ega bo‘lib, ushbu mazhabni yoyish yo‘lida katta xizmat ko‘rsatganlar. Ulardan ayrimlari eng salohiyatli fiqhshunoslar sifatida uning ilmiy uslubi, huquqiy qarashlarini yoritib, ba’zan unga qarshi o‘z fikr-mulohazalarini ham bildirganlar.

*To‘rtinchi omil.* Abu Hanifaning iqtidorli shogirdlaridan keyin ularning izdoshlari bo‘lgan bir guruh faqihlar yetishib chiqib, musulmon huquqi hukmlarini istinbot va istihroj (tahlil) qilish va ularni asrlar davomida yuz bergen hodisalarga tatbiq etish muammolariga jiddiy yondashganlar. Abu Zahraning ta’kidlashicha, ular mazhablariga tegishli bo‘lgan juz’iy masalalar asosi bo‘lgan hukmlarning illatlari (sabablari)ni belgilab olgandan keyin, umumiy va qamrab oluvchi qoidalarga tayangan

holda, bir-biri bilan uyg‘unlashgan masalalarini to‘plashga urindilar. Shunday qilib, mazhab bo‘yicha tafriy’, ya’ni juz’iy masalalar (furu’l-fiqh) va fiqhning barcha tarmoqlarini birlashtiruvchi va umumiy tamoyillarga e’tibor beruvchi asosiy qoidalar va umumiy nazariyalar (usul ul-fiqh) yuzaga kelgan. Izohlab o‘tilgan to‘rt omil Hanafiy mazhabining islom dunyosida keng ko‘lamda tarqalib, rivojlanishining asosiy sabablari hisoblanadi.

Hozirgi kunda Hanafiylikning jo‘g‘rofiy hududi Markaziy Osiy davlatlaridan boshlab, Xitoy, Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston, Eron, Iraq, Arabiston, Yaman, Misr, Jazoir, Tunis, Marokash, Turkiya, Indoneziya va boshqa musulmon o‘lkalariga yetib boradi. Abu Hanifa mazhabi aytib o‘tilgan mamlakatlarning ayrimlarida asosiy mazhab bo‘lsa, ayrimlarida ikkinchi yoki uchinchi o‘rinda turadi.

Hanafiy mazhabi Shimoliy Afrika mamlakatlari (Tunis, Jazoir, Marokash)da ham tarqalgan. Bu o‘lkalarda hanafiylar soni ko‘p bo‘lmasa ham, bu mazhab olimlari katta izzat va hurmatga ega. Tunis poytaxtida sud ishlari hanafiy va molikiy mazhablari asosida yuritilib, unda hanafiy sud tizimi molikiy sud tizimi bilan birga qo‘llaniladi. Hasan Sodiqning ta’kidlashicha, bu yerda hanafiy mazhabining buyuk muftiylari mavjud bo‘lib, barcha ustidan ma’naviy rahbarlik maqomida turib, «shayx ulislom» deb ataladilar.

Shuningdek, odat bo‘yicha Zaytuna universiteti o‘qituvchilarining yarmi hanafiylardan va yarmisi esa molikiylardan bo‘ladi.

Hanafiy mazhabi tarafdorlari Hindistonda 48 mln.ga yetib boradi. Janubiy Amerika va Braziliyada 25 mln hanafiy musulmonlari yashaydilar.

**Molikiy mazhabiga** asos solgan ulamo Molik ibn Anas ibn Amir 717-yilda Madinada tug‘ilgan. Uning bobosi Amir Muhammad (s.a.v)ning Madinada yashagan asosiy izdoshlari qatoridan o‘rin olgan edi.

Molik hadislarni o‘z zamonining yirik ulamosi bo‘lgan az-Zuhriy va sahoba Abdulla ibn Umar ozod qilgan qul – buyuk hadis aytuvchi Nofiydan o‘rgangan. Molik faqat haj safarini ado etish uchungina Madinani tark etgan, shu bois u asosan Madinada tarqalgan hadislarni bilish bilan cheklangan. 764-yilda u majburlab ajratish haqiqiy hisoblanmaydi, degan fatvo chiqargani uchun Madina amirining buyrug‘iga binoan ayovsiz kaltaklangan. Bu fatvo Abbosiylar sulolasi xalifalarining amaliyotiga zid edi. Bu amaliyotga ko‘ra, xalq sodiqlik to‘g‘risida qasamyod qilgan vaqtida «ushbu qasamni buzgan har qanday shaxs o‘z-o‘zidan xotinidan ajrashgan hisoblanadi», degan bandni qo‘sib

aytar edi. Imom Molikni bog‘lab qo‘yib, qo‘llari qattiq jarohat olguniga qadar kaltaklaganlar. Jarohat shunchalik og‘ir ediki, salotni ado etayotgan vaqtida imom qo‘llarini ko‘ksiga qo‘ya olmay qolgan, ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, ibodat vaqtida u qo‘llarini pastga tushirib turgan.

Imom Molik qirq yil Madinada hadis ilmidan ta’lim bergen va Muhammad (s.a.v.)ning hadislari hamda sahobalar va ularning shogirdlari asarlaridan tashkil topgan «Al-Muvatto» kitobini yaratgan.

Muhammad (s.a.v.)ning sunnasiga asoslangan va barcha holatlarda qo‘llash mumkin bo‘lgan keng qamrovli qomusga ega bo‘lish istagida bo‘lgan Abbosiylar xalifasi Abu Ja’far al-Mansurning iltimosiga ko‘ra, Molik hadislar to‘plamini yaratishni boshlagan. Biroq, bunday kitob yozib tugatilgach, Molik uning odamlarga majburan tatbiq etilishiga qarshi chiqdi va buning sababini butun Islom imperiyasi bo‘ylab tarqalib ketishga ulgurgan sahobalar sunnaning boshqa qismlarini o‘zlarini bilan olib ketganliklari va butun davlatga oid har qanday qonunda ular ham o‘z aksini topmog‘i lozimligi bilan izohladi. Xuddi shunday iltimos bilan Xorun ar-Rashid (768–809) ham imomga murojaat qilgan, biroq rad javobini olgan. Imom Molik o‘zi tug‘ilgan shaharda 801 yilda, 83 yoshida vafot etdi.

*Molikiy mazhabining tashkil topishi.* Imom Molikning ta’lim berish uslubi hadislarni hikoya qilish va ularning mazmunini o‘sha davr muammosi doirasida muhokama qilishga asoslangan edi. U o‘z shogirdlariga musulmon huquqining turli sohalariga oid hadislar va osarlarni (sahobalarning naql qilganlari) hikoya qilib berar, so‘ngra ulardan qanday xulosalar chiqarish mumkinligi haqida suhbat qurardi yoki oldiga kelgan shogirdlaridan yuzaga kelgan muammo haqida so‘rab, ularni hal etishda qo‘llash mumkin bo‘lgan hadis yoki osarlarni aniqlab berardi.

Molik «Al-Muvatto»ni tugatgach, uni o‘z mazhabining manbai sifatida mazmunini shogirdlariga gapirib bergen. Har safar yangi ma’lumotlarga ega bo‘lganida, ma’ruzasida oz-moz qo‘srimchalar yoki juz’iy qisqartirishlar bo‘lar edi. U iloji boricha mulohaza yuritish va gipotezik fiqh amaliyotidan qochardi, shuning uchun uning maktabi va izdoshlarini Hadis ahli (Ahl al-hadis) deb ataganlar.

*Molikiylar mazhabi foydalangan huquq manbalari.* Imom Molik islom normalarini quyidagi manbalarga asoslanib chiqargan:

1. *Qur'on*. Barcha imomlar kabi Molik Qur'oni musulmon huquqining birinchi darajali manbai hisoblar va uni hech qanday shartlarsiz qo'llar edi.

2. Imom Molik *sunnani* musulmon huquqining muhimligi jihatidan ikkinchi o'rinda turuvchi manbai sifatida qo'llagan. Biroq, Abu Hanifa kabi uni qo'llash borasida ayrim cheklovlar kiritdi. Agar qaysidir hadis Madina aholisining odatdagi amaliyotiga zid kelsa, uni rad etardi. Ammo Abu Hanifadan farqli o'laroq, u qo'llanayotgan hadisning mashhur bo'lishi shart, degan qat'iy talab qo'ymas edi. Aksincha, u o'zi eshitgan har qanday hadisni, agar hikoya qiluvchilari yolg'onchi sifatida nom chiqarmagan va xotira zaifligi dardiga chalinmagan bo'lsalar, qo'llayverardi.

3. *Amal – Madina aholisining amaliyoti*. Imom Molik Madina aholisining ko'pchiligi Muhammad (s.a.v.)ning to'g'ridan-to'g'ri avlodlari, Madina esa Muhammad (s.a.v.) umrining so'nggi o'n yilini o'tkazgan joy ekanligi tufayli shahar aholisi qo'llagan an'analar Rasululloh (s.a.v.)ning shaxsan o'ziga ma'qul kelmagan taqdirda ham, ruxsat etilganlik maqomini olishi lozim, deb hisoblardi. Shunday qilib, imom Molik Madina aholisining an'analariga musulmon huquqi manbalarining nihoyatda ishonchli, so'zda emas, amaldagi turlaridan biri sifatida qaragan. Abu Hanifa kabi imom Molik ham sahabalar hamda boshqa ulamolarning ijmolarni musulmon huquqining ahamiyatga molik manbai, deb hisoblardi.

4. *Sahobalarning shaxsiy fikrlari*. Imom Molik sahabalarning fikrlarini, ularning o'zaro mos kelishi yoki kelmasligiga qaramasdan, o'zining «Al-Muvatto» hadislar kitobiga kiritgan. Biroq, sahabalarning shaxsiy fikrlaridan ko'ra, jamoaning yagona fikrini afzal ko'rgan. Biror masala bo'yicha sahabalarning shaxsiy fikrlari bo'lsa, imom Molik bu fikrlarni o'z nuqtai nazaridan ustun qo'ygan.

5. *Qiyos*. Yuqorida zikr etilgan manbalarda tilga olinmagan masalalar bo'yicha imom Molik shaxsiy deduktiv mulohaza yuritish usulini qo'llagan. Biroq mulohaza yuritishning bu shakli subyektiv tabiatga ega bo'lganligi uchun u bu ishni o'ta ehtiyyotkorlik bilan amalgalashgan.

6. *Madina aholisining urf-odatlari*. Imom Molik Madina aholisi amal qiladigan kamyob odatlarga ham, agar ular mashhur hadislarga zid kelmasa, ahamiyat bergen. Bunday odatlar muayyan holatlarda namoyon bo'lishiga qaramay, imom Molik musulmonlarning birinchi avlodidan o'tib kelayotganligi uchun saqlab qolinishi kerak, zero ularning mavjudligining o'zi sahabalar va hattoki, Muhammad (s.a.v.) tomonidan ma'qullanganini bildiradi, deb fikr yuritardi.

7. *Istisloh*. Abu Hanifa tomonidan rivojlantirilgan istihson tamoyilini imom Molik va uning shogirdlari ham qo'llangan. Biroq ular mazkur atamani «qulay va ko'proq mos keladigan» ma'nosini ifodalovchi «istisloh» atamasi bilan nomlaganlar. U inson farovonligi sohasiga oid, biroq musulmon huquqida alohida ko'rib chiqilmagan barcha narsalarga taalluqli bo'lgan. Istislohga misol sifatida xalifa Alining qotillik sodir etgan guruhning har bir a'zosi, qotillik aslida guruhdagi bir shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa ham, aybdor hisoblanadi, degan fatvosini keltirish mumkin. Musulmon huquqining normalari faktik qotilning o'zigagina tegishli bo'lgan. Istislohnинг yana bir misoli sifatida musulmon hukmdorlarining boylardan nafaqat zakot, balki, agar bunga davlat manfaatlari yo'lida zarurat tug'ilsa, boshqa soliqlarni undirish huquqini eslab o'tish mumkin. Biroq musulmon huquqida faqat zakot tilga olingan xolos. Imom Molik mavjud talablardan kelib chiqadigan normalarni qiyos usuli orqali chiqarishda ham istislohdan foydalangan.

8. *Urf*. Abu Hanifa kabi imom Molik ham musulmon dunyosidagi barcha xalqlarning musulmon huquqi ruhiga zid kelmaydigan turli urfodatlarini huquqning ikkinchi darajali manbai hisoblagan. Masalan, Suriyadagi bir odatga ko'ra, «dabba» so'zining lug'aviy ma'nosи «to'rt oyoqli hayvon» bo'la turib, uni «ot» ma'nosida qo'llaydilar. Shuning uchun Suriyada tuziladigan dabba shaklidagi to'lov talab qilingan shartnomalarda, yuridik nuqtai nazardan, to'lovnin ot bilan amalga oshirish nazarda tutilgan. Biroq, arab dunyosining boshqa yerlarida to'loving ot bilan amalga oshirilishi aniq ko'rsatilishi shart bo'lgan.

*Molikiy mazhabining mashhur namoyandalari*. Imom Molikning keyinchalik o'z mazhabini yaratmagan shogirdlaridan eng mashhurlari al-Qosim va Uahb edilar.

*Abu Abdurahmon ibn al-Qosim* (745–813) Misrda tug'ilgan, Madinaga kelib yigirma yildan ortiq imom Molik qo'lida ta'lim oldi. U Molikiy fiqhi bo'yicha «Al-Muvatto»ni ham ortda qoldiruvchi keng qamrovli «Al-Mudovanna» kitobini yozdi.

*Abu Abdulloh ibn Uahb* (742–819) ham imom Molikdan saboq olish uchun Misrdan Madinaga kelgan. U fatvolar deduksiyasidagi qobiliyatini shu darajada namoyon qildiki, imom Molik unga muftiy unvonini berdi. Bu unvon musulmon huquqining rasmiy sharhlovchisi (fatvo beruvchi) degan ma'noni anglatadi. Uahbga Misr qozisi lavozimini taklif qilishgan, biroq u erkin olim bo'lib qolish uchun undan voz kechgan.

Imom Molikning mashhur shogirdlari orasida boshqa mazhablarga mansublari ham bo'lib, ba'zilari Molikdan o'rganganlari asosida o'z

mazhablariga tuzatishlar kiritganlar. Masalan, Abu Hanifaning eng birinchi shogirdlaridan bo‘lgan Muhammad Shayboniy shular jumlasidandir. Shuningdek, ular qatorida imom Molik va boshqalarning ta’limotlarini birlashtirib, o‘z mazhablarini yaratganlari ham bor. Masalan, ko‘p yillar davomida Imom Molik hamda Abu Hanifaning shogirdi Muhammad Shayboniydan ta’lim olgan Muhammad ibn Idris Shofi’iy shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda bu mazhab vakillarining asosiy qismi Yuqori Misrda, Shimoliy Afrikada (Tunis, Jazoir, Marokash), G‘arbiy Afrikada (Mali, Nigeriya, Chad va b.) hamda Fors ko‘rfazi davlatlarida (Quvayt, Qatar va Bahrayn) yashaydilar.

**Shofi’iy mazhabi.** Mazkur huquq maktabiga nomi berilgan shaxsning to‘liq ismi Muhammad ibn Idris Shofi’iy bo‘lgan. U 769-yilda Shom mamlakatining O‘rta Yer dengizi bo‘yidagi G‘azo shahrida tug‘ilgan. Yigitlik vaqtida imom Molikdan fiqh va hadis ilmlarini o‘rganish uchun Madinaga borgan. U imom Molikning «Al-Muvatto» kitobini yodlab oladi va ustoziga so‘zlab beradi. Shofi’iy imom Molikning vafotiga qadar (801) u bilan birga bo‘ladi, keyin Yamanga borib mudarrislik qildi. 805-yilda uni shialar ta’limotini targ‘ib qilganlikda ayblab, Iroqqa, Abbosiylar xalifalardan Xorun ar-Rashid (786–809-yillarda boshqargan) huzuriga keltirgunlaricha o‘sha yerda bo‘ldi. U o‘z e’tiqodining to‘g‘riligini isbotladi va ozod qilindi. Shofi’iy Iroqda qolib, Abu Hanifaning iqtidorli shogirdi imom Muhammad ibn Hasanning qo‘lida ma’lum muddat tahsil oldi. Keyin u imom al-Laytdan saboq olish uchun Misrga yo‘l oldi, biroq yetib borganida imom hayotdan ko‘z yumgan edi. Bu yerda u al-Layt mazhabini uning shogirdlaridan o‘rgandi. Shofi’iy to vafotiga qadar (820) xalifa al-Ma’mun (813–832) davrida Misrda hayot kechirdi.

**Shofi’iy mazhabining paydo bo‘lishi.** Imom Shofi’iy Hijoz (Molikiy maktabi) va Iroq (Hanafiy maktabi) fiqhini birlashtirib, yangi mazhab yaratdi va uni o‘z shogirdlariga aytib yozdirdi.

Shofi’iyning ilk mudarrislik davrini uning Misrga ko‘chib o‘tganidan boshlanadigan keyingi davrdan farqlash uchun odatda «Al-mazhab al-qadim» deb ataganlar. Bu yerda u imom al-Layt ibn Sodaning fiqhini o‘rganib chiqib, o‘z shogirdlariga «Al-umm» («Bosh kitob») deb nomlanuvchi boshqa bir kitob ko‘rinishidagi «Al-mazhab al-jadid» («Yangi mazhab»)ini yozdirdi. Misrga kelib huquqiy masalalar bo‘yicha ko‘plab mutlaqo yangi hadislar va mulohazalar bilan tanishgan Shofi’iy «Al-mazhab al-jadid» kitobida Iroqda o‘zi maqullagan huquqiy masalalar borasidagi ko‘pgina fikrlarini qayta ko‘rib chiqdi va o‘zgartirdi. Imom

Shofi’iy yana shunisi bilan ham mashhurki, «Al-risola» nomli kitobida bayon qilinganidek, u fiqhning asosiy tamoyillarini tartibga solib bergen birinchi imom edi.

*Shofi’iy mazhabi qo’llagan huquq manbalari.*

1) *Qur’on.* Musulmon huquqi manbalari orasida Qur’on birinchi darajali ekanligi borasida Shofi’iy yuqorida eslab o’tilgan imomlar bilan bir xil fikrda bo’lgan. U avvalgi imomlar kabi Qur’onga qattiq suyangan. Qur’onning mazmunini chuqur o’rganib chiqqach, o’zida paydo bo’lgan yangi fikr, bilim va tushunchalarini qo’shimcha qilardi, xolos;

2) *sunna.* Imom Shofi’iy hadislarning maqbul bo‘lishiga birgina shart qo‘ygan, bu ularning sahihligi edi. Imom Abu Hanifa va imom Molik qo‘ygan boshqa barcha shartlarni rad etdi. Shofi’iy hadis tanqidchiligi sohasiga qo’shgan ulkan hissasi bilan ham ajralib turadi;

3) *ijmo.* Ba’zi holatlarda ijmoni qo’llash mumkinligiga jiddiy e’tirozlar bildirgan bo‘lishiga qaramay, Shofi’iy ijmo tamoyili qo’llanilgan ayrim holatlarda unga uchinchi darajali musulmon huquqi manbai sifatida qarash mumkin deb hisoblagan;

4) *sahobalarning shaxsiy fikrlari.* Imom Shofi’iy sahobalarning shaxsiy fikrlari o’zaro mos kelgan hollarda ularga katta ahamiyat bergen. Biror masala bo‘yicha sahobalarning shaxsiy fikrlari o’zaro mos kelmasa, xuddi Abu Hanifa kabi qaysi fikr asosiy manbalarga yaqin tursa, shuni olib qolgan, qolganlarini chiqarib tashlagan;

5) *qiyos.* Mazkur imomning fikriga ko‘ra, qiyos oldingi manbalardan yangi fatvolar chiqarishning ruxsat etilgan usullaridan biridir. Biroq, Shofi’iy ahamiyatiga ko‘ra, uni sahobalarning fikriga asoslangan dalillardan ham pastda turuvchi shaxsiy mulohazalar qatoriga kiritgan;

6) *istis’hob (bog’lash).* Shofi’iy Abu Hanifa qo’llagan istihson tamoyilini ham, imom Molik ishlatgan istisloh tamoyilini ham bid’atning bir ko‘rinishi deb hisoblagan holda inkor etgan. Chunki uning fikricha, mazkur imomlar ilohiy vahiy mavjud bo’lgan paytda, asosan, insonning subyektiv mulohazalariga asoslangan. Biroq, o’xhash masalalarni ko‘rib chiqishda Shofi’iy baribir istihson yoki istislohga o’xhash tamoyilni qo’llashga majbur bo’lgan va uni «bog’liqlikni topish» degan ma’noga ega «istis’hob» deb nomlagan.

Ta’kidlash joizki, uning ilgarigi bilan o‘z davriga oid normalari orasidagi bog’liqlikni topish yo‘li fiqhda yangi fatvolarni ishlab chiqish jarayonining xuddi o‘zi edi. Istis’hob – ma’lum sharoitlar uchun qo’llangan fatvolar ushbu sharoitlar o‘zgarganda ham u to‘g‘risida hech narsa deyish mumkin bo‘lmasa, bunday fatvolar o‘z kuchini yo‘qotmaydi,

degan farazga asoslangan. Masalan, biror kimsa uzoq muddat yo‘qolib qolib, uning hayot yoki vafot etganligi noma’lum bo‘lganda, istis’hob tamoyiliga asosan, barcha huquqiy qoidalar o‘sha kimsaning hayotligida qanday qo‘llansa yoki qanday rioya etilgan bo‘lsa, shundayligicha qolishi kerak, deb hisoblangan.

*Shofi’iy mazhabining mashhur namoyandalari.* Imom Shofi’iy maktabini davom ettirgan mashhur shogirdlari Muzaniy, Robiy va Yusuf ibn Yahyo edilar.

*Muzaniy* (791–876)ning to‘liq ism sharifi Ismoil ibn Yahyo al-Muzaniy bo‘lgan. U Misrda imom Shofi’iy bilan doim birga bo‘lgan. Muzaniy Shofi’iy fiqhining barchasini to‘plab, kitob holiga keltirgan. Uning «Muxtasar al-Muzaniy» nomli asari Shofi’iy mazhabi fiqhiga oid eng ko‘p o‘qiladigan manbaga aylangan.

*Ar-Robiy al-Marodiy* (790–873). Shofi’iyning «Al-umm» kitobini hikoya qilishda Robiyga hech kim teng kela olmas edi. U bu kitobni «Arrisola» va boshqa kitoblar bilan bir vaqtida imom Shofi’iy tirikligi vaqtida yozib olgan edi.

*Yusuf ibn Yahyo Buvaytiy* mazkur mazhabning asosiy ustozи sifatida Shofi’iyning o‘rnini egallagan.

Shofi’iy mazhabiga ergashuvchilarning ko‘pchilagini hozirgi kunda Misr, Arabiston yarim orolining janubiy qismi (Yaman, Xazramavt), Shri Lanka, Indoneziya, Malayziya, Sharqiy Afrika (Keniya, Tanzaniya) hamda Surinam (Janubiy Amerika)da istiqomat qiadilar.

**Hanbaliy mazhabiga** asos solgan ulamo 778-yilda tug‘ilgan Ahmad ibn Hanbaldir. U o‘z davrining buyuk muhaddisi va bilimdoni bo‘lgan. Hadislarni o‘rganishga bel bog‘lagan imom Ahmad fiqh ilmi va hadislarni Abu Hanifaning mashhur shogirdi imom Yusuf hamda imom Shofi’iyning o‘zidan o‘rgandi. U zamonasining Mu’tazaliylar falsafasini qabul qilgan xalifalari tomonidan ko‘p marotaba ta’qib qilingan. Qur’on yaratilgan degan falsafiy oqimga qarshi chiqqani uchun xalifa Ma’mun (813–832)ning amriga ko‘ra ikki yil zindonda saqlangan. Zindondan ozod etilgach, uni yana ta’qib qilishni boshlagan Vosiq (842–846-yillarda hukmronlik qilgan) xalifa bo‘lgunicha Bag‘dodda mudarrislik qilishni davom ettirdi. Shundan so‘ng imom Ahmad dars berishni to‘xtatib, besh yil davomida, hokimiyat tepasiga xalifa al-Mutavakkil (847–861) kelguncha panoh izlab yurdi. Ushbu xalifa Mu’taziliylarni quvg‘in qilish

va ularning falsafasini rasman inkor etish orqali bu masala bo'yicha tortishuvga to'la-to'kis yakun yasadi. Imom Ahmad vafotiga qadar (855) Bag'dodda mudarrislik qildi.

*Hanbaliy mazhabining tashkil topishi.* Imom Ahmad hadislarni toplash, hikoya qilish va sharhlashga katta ahamiyat bergan. Uning o'qitish usuli 30000 dan ortiq hadislар kiritilgan va «al-Musnad» nomi bilan mashhur bo'lgan yirik to'plamida hadislар hamda ularning sharhi borasidagi sahobalarning fikrlarini yozdirishdan iborat edi. So'ngra u ushbu hadislар va fatvolarni o'z davrining turli muammolariga nisbatan qo'llagan. U yoki bu masalani hal etish uchun mos keladigan hadis yoki fikr topilmagan taqdirda, shaxsiy fikrini taklif etardi. Biroq, shogirdlariga o'zining shaxsiy mulohazalaridan hech birini yozib olishga ruxsat bermagan. Buning natijasida uning mazhabi shogirdlari tomonidan emas, shogirdlarining shogirdlari tomonidan yozib olingan.

*Hanbaliy mazhabi qo'llagan huquq manbalari.*

1) *Qur'on.* Qur'oni qo'llash borasida Ahmad ibn Hanbal va ungacha bo'lgan imomlar o'rtasida hech qanday farq bo'limgan. Boshqacha qilib aytganda, Qur'on boshqa manbalardan barcha sharoitlarda ustun qo'yilgan (ya'ni u huquqning boshqa manbalaridan butkul va shartsiz afzal ko'rilgan);

2) *sunna.* Avvalgi imomlar kabi bu maktab asoschisi ham fatvolar chiqarishda qo'llagan asosiy manbalar ichida Muhammad (s.a.v.)ning sunnasi ikkinchi o'rinda turgan. Uning yagona o'ziga xosligi marfu'tamoyili, ya'ni bevosita Muhammad (s.a.v.)ning o'zidan olingan ma'lumotlar bo'lgan;

3) *sahobalarning ijmolari.* Imom Ahmad sahobalarning yakdil fikrlarini tan olardi va ularni huquqning asosiy manbalari orasida uchinchi o'ringa qo'yardi. Ammo u sahobalar davriga oid bo'limgan ijmolarni, islam davlati bo'ylab tarqalib ketgan ulamolarning soni juda ko'p bo'lganligi uchun, aniq emas deb hisoblab, ularga ishonmagan. Uning fikricha, sahobalar davri o'tgandan keyin ijmol qabul qilinishi mumkin emas;

4) *sahobalarning shaxsiy fikrlari.* Sahobalar turlicha nuqtai nazar bildirgan masalalarga oid muammo paydo bo'lgan taqdirda, Ahmad imom Molik kabi barcha fikrlarni e'tibordan chetda qoldirmagan. Aynan shuning uchun ushbu mazhab ichida muayyan masala bo'yicha turli fikrlarni uchratish mumkin;

5) *zaif hadislар.* Yuqorida keltirilgan manbalarning hech birida hal etilmagan masalalar bo'yicha fatvolar chiqarishda imom qiyosga

asoslanib mulohaza yuritishdan ko‘ra, zaif hadislardan foydalanishni afzal ko‘rgan. Biroq, zaif hadisning roviylaridan birortasi fosiq yoki kazzob (yolg‘onchi) bo‘lgan bo‘lsa, bunga yo‘l qo‘yilmagan;

6) *qiyyos*. Bu usul so‘nggi chora sifatida, ya’ni boshqa asosiy manbalarni bevosita qo‘llash mumkin bo‘lmaganida qo‘llangan. Ahmad qiyos tamoyilini qo‘llashni uncha xush ko‘rmagan, odatda u o‘z fatvolarini yuqoridagi manbalarning birortasiga asoslangan holda chiqargan.

*Hanbaliy mazhabining asosiy namoyandalari* imom Ahmadning ikki o‘g‘li – Solih (873-yilda vafot etgan) va Abdulla (903-yilda vafot etgan) edilar. Yirik hadislар to‘plamlarini tuzgan imom Buxoriy va imom Muslimlar ham imom Ahmadning shogirdlari hisoblanadi. Hanbaliy mazhabi vakillarining ko‘pchiligi hozirgi kunda Falastin va Saudiya Arabistonida yashaydilar.

*Shialik oqimi va uning mazhablari*. Shialik oqimida quyidagi aqida ilgari suriladi: imomat, ya’ni payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) o‘rribbosarligi yoki islom davlati rahbarligi payg‘ambar vasiyatiga binoan faqatgina payg‘ambarning qizi Fotimadan tug‘ilgan Alining erkak avlodlariga xos bo‘lib qoladi.

Ibn Xaldunning ta’kidlashicha, shialar aqidasinga binoan imomat masalasi islom qoidasi va dinning asosi bo‘lgani uchun uni belgilash hamda tayinlash islom jamoasi (ummah)ga topshirilgan emas. Payg‘ambar tomonidan ushbu vakolat ummatga berilmagan. Islom jamoasi uchun imomni tayinlash payg‘ambarga vojibdir. Ularning fikricha, sahoba-larning afzali va payg‘ambar tomonidan birinchi xalifa qilib tanlangan Ali ibn Abu Tolib edi.

Shialar aqidasinga binoan, «imomlar» oddiy insonlar jumlasidan bo‘lmay, quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladilar: *birinchidan*, faqat payg‘ambarning qizi Fotimadan tug‘ilgan zotlar va ularning bolalari payg‘ambar oilasi hisoblanib, imomlik vakolatining haqiqiy va qonuniy egalaridir. *Ikkinchidan*, imom payg‘ambar emas. Ammo payg‘ambar bilan oddiy insonlar o‘rtasida turadi. *Uchinchidan*, imom har qanday gunohdan pok bo‘lib, hech qachon gunoh va xato qilishi mumkin emas. *To‘rtinchidan*, imom barcha bo‘lib o‘tgan va qiyomat kunigacha yuz beradigan ishlardan ilhom orqali voqifdir. *Beshinchidan*, Qur’oni tafsir qilish faqat imomga xosdir.

Shuning uchun shialar imom sunniylar imomi (xalifasi)dan farqli o‘laroq birinchi muallif, g‘aybni biluvchi payg‘ambar bilimlarining merosxo‘ri bo‘lgan zot hisoblanadi. Doktor Z. Safoning ta’kidlashicha,

Ali zohiri va botiniy (ichki) bilimlarini payg‘ambardan o‘rgandi. Ushbu qobiliyat undan keyin uning avlodlariga o‘tdi. Imomlarning har biri o‘z zamonida aholini o‘z ilmlaridan xabardor qilib kelganlar. Shuning uchun shialar, imomlardan rivoyat qilinmagan hadislarni qabul qilmaydilar.

Shialarga, ayniqsa, *Ja’fariylik mazhabiga* xos xususiyatlar quyidagilar:

- a) imomat, ya’ni davlat boshqaruvini egallashga faqat imomlar loyiq deb ishonish;
- b) Qur’on va o‘z imomlari tomonidan rivoyat qilingan hadislarni asosiy manbalar deb qabul qilish, ijmo va qiyosni rad etish;
- d) ayrim namozlarni bir vaqtning o‘zida qo‘sib o‘qish;
- f) tahoratda oyoqlarni yuvmasdan, ularga faqat mas’h tortish;
- g) vaqtinchalik nikohni qonuniy deb hisoblash (Eron Islom Respublikasi Fuqarolik qonunining 6-bo‘limi 1075–1077-moddalarida vaqtincha nikoh «Nikohi munqati» nomi bilan qonuniy hisoblangan);
- h) taqiya, ya’ni inson hayoti uchun xavfli hisoblangan joylar va vaziyatlarda o‘z e’tiqodi va mazhabini yashirish;
- i) azon aytayotganda «ashhadu anna Aliyan vali-alloh» (guvohlik beraman, Ali Allohning valiysi, ya’ni do’stidir) iborasini qo‘sib aytish;
- j) nasroniy yoki yahudiy ayollar (ahli kitob ayollari)ga uylanishni harom, deb bilish. Shuningdek, bir o‘tirishda uch taloq berilsa, bitta taloq deb hisoblash; taloqning esa ikki odil kishining guvohligida qonuniy kuchga kirishini tan olish;
- k) go‘dak bir ayolni bir kecha-kunduz mobaynida yoki ketma-ket 15 marotaba emganda emizish hukmi joriy bo‘ladi.

Shialik oqimi asosan ikki guruhga bo‘linadi: g‘oliylar (ko‘p mubolag‘a qiluvchilar) va mo‘tadillar (g‘ulotlar).

G‘oliy shialar yettinchi asrdan boshlab Alini payg‘ambarlik yoki Xudolik darajasiga ko‘targanliklari uchun g‘oliylar (g‘ulot), ya’ni mubolag‘a qiluvchilar, deb atalganlar. Ulardan bir guruhining aqidasiga binoan, go‘yoki Ali payg‘ambar edi, lekin Jabroil xato qilib vahiyni unga emas, balki hazrat Muhammadga olib borgan. Xuddi g‘uroblar (qarg‘alar) bir-biriga o‘xshaganidek, Ali ham Muhammadga o‘xshar ekan. Shu sababli bular guruhni «g‘urobiya» deb ataganlar.

Ulardan yana bir guruh Alini Xudolik maqomiga ko‘targan. Ularning talqinicha, Xudo Alining vujudiga kirib, uning tanasi bilan birlashgan emish. Yana ulardag‘i ayrim firqalarning aqidasiga ko‘ra, go‘yo har bir imomning ruhiga uluhiyat (xudolik) kirgan va bu ruh undan boshqasiga ham o‘tadi.

Nizoriy Ismoiliylar imomni payg‘ambardan ham ustun qo‘yadilar. Sababi, ularning aqidasicha, imomat bir o‘lmas va doimiy asl (asos)dan iboratdir. Agarda imom bir lahzaga bu dunyodan ketsa, hamma narsalar nobud bo‘lar emish. Ammo nubuvvat (payg‘ambarlik) vaqtincha bir mazhabiy ishidan iborat bo‘lib, Xudo o‘z payg‘ambarini imomning notig‘i sifatida yuboradi.

Mo‘tadil shialar uchta mazhabga bo‘linadilar. Ular imomlarining soni nechta bo‘lishiga qarab farqlanadi. Ular Ja’fariy, Ismoiliy va Zaydiy mazhablaridir.

*Ja’fariy mazhabining* tarafдорлари Ali va uning avlodlaridan tarqalgan o‘n ikkita imomning borligiga ishonadilar. Shu bois ular «Isnoshariya» (o‘n ikki imomlik) deb ham ataladilar. ularning aqidasicha, o‘n ikkinchi imom tug‘ilgan bo‘lsa ham, hozircha u g‘oyib, ya’ni namoyon bo‘lmagan. Bir kun kelib, u zohir bo‘ladi, ko‘rinadi va dunyo ahliniadolat va imonga yo‘llaydi. Bu mazhab Eron Islom Respublikasining rasmiy mazhabidir.

Ja’fariy shialar «mut’a»<sup>1</sup> nikohini qonuniy deb hisoblaydilar, lekin Zaydiy va Fotimiylar (Ismoiliy) shialar sunniylar kabi unday nikohni noqonuniy, deb biladilar.

Fotimiylar uchun mut’a yoki vaqtincha nikoh qonuniy emas. Bu haqida Sayid Idris Imodiddinning «Uyunul-axbor» asarida shunday rivoyat keltirilgan: «undan (imom al-Muiz Lidinillohdan) mut’a haqida so‘ralganda, imom undan: «O‘zingga yaqin qarindoshlar (ya’ni uylanishing harom bo‘lgan kishilar) bilan mut’a nikohi amalgamoshirilishiga rozimisan?», – deb so‘raganda, o’sha odam: «Xudo guvoh bo‘lsinki, rozi emasman», – deb javob beradi. Imom unga qarab: «Shu sen uchun yetarli, o‘zing uchun tanlamagan qonunni boshqalar uchun tanlamagin», – degan ekan».

Eron Islom Respublikasi konstitutsiyasiga ko‘ra, barcha ichki va tashqi siyosat, ayniqsa, qonunchilik ishlari islam va ushbu mazhabning normalari asosida olib boriladi.

*Ismoiliy mazhabi.* Ushbu mazhab vakillari Alidan boshlab yettita imom borligiga va yettinchi imom Ismoil oltinchi imom (Ja’far Sodiq)ning o‘g‘li bo‘lib, hozirgacha yashirin ekanligiga ishonadilar. Ushbu firqa tarafдорлари Fotimiylar rahbarligida Misrni bosib olib, Shimoliy Afrika Fotimiylar (909–1171-m.y.) davlatiga asos soldilar va

---

<sup>1</sup> Изоҳ: Мутъа никоҳи аёлга муайян вақтга қадар уйланишни англатади, бошқача айтганда, вақтинча никоҳдир.

o‘sha yerdan turib Ismoiliy mazhabini Eron, Xuroson va boshqa joylarga tarqatishga urindilar.

Ismoiliylardan bir guruhi – Nasiriylar «g‘ulot» – mubolag‘a qiluvchilar jumlasidan bo‘lib, Alini Xudo darajasiga ko‘tarib, imom va uning qilmishlari, so‘zлari va fikrlari haqida haddan oshirib so‘zlaydilar, ushbu haddan oshgan guruh boshqa shia guruhlari, ayniqsa, Ja’fariylar tomonidan musulmon ekanliklari inkor qilinadi.

Islomiy mazhabiga mansub Botiniy va Qarmatiy firqalari islomda paydo bo‘lgan ilk ekstremistik guruhlardan bo‘lib, qurol ishlatish va terrorizm yo‘li bilan hokimiyatga erishish uchun kurash olib borib, juda ko‘p din va davlat arboblarini o‘ldirganlar. Abu Mansur Moturidiy ularga qarshi g‘oyaviy kurash olib borib, bir qator kitoblar yozgan. Ismoiliylar Hindiston, Pokiston, Eron, Afg‘oniston va tog‘li Badahshonda yashaydilar.

*Zaydiy mazhabi* imomlar sonini kamaytiradi. Ularning fikricha, beshinchi imom Zayd ibn Ali Zaynun-Obiddin bo‘lib, undan keyin imomlar xatolarga yo‘l qo‘yanlar. Ular huquqiy masalalarda sunniylarga ancha yaqin bo‘lib, Qur‘on va sunnadan keyin qiyosni musulmon huquqining asoschisi deb biladilar, ra’y, ijтиhod va istihsonni huquqiy asos sifatida qabul qiladilar.

Mazhabning asoschisi imom Zayd ibn Ali faqih va muhaddis edi. Uning fiqhiy uslubi ibn Abu Laylo va Abu Hanifa uslubiga yaqin bo‘lgan. Abu Hanifa unga xayrixohlik bildirib, urush olib borgan davrida unga moddiy yordam ko‘rsatgan edi. Yaman o‘lkasi ularning asosiy markazi hisoblanadi.

### **4.3. Musulmon huquqida diniy-huquqiy mazhablarning o‘rni va ahamiyati**

Fiqhning yuksalgan davri taxminan 750-yildan 950-yilgacha davom etgan va xalifa Abul Abbos (750–754-yillarda hukmronlik qilgan) asos solgan Abbosiylar sulolasining mustahkamlanishi va tanazzuli davriga to‘g‘ri kelgan (Abbosiyalar Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarning amakisi Abbosning avlodlari bo‘lgan). Aynan shu davrda fiqh mustaqil fan sifatida shakllangan. Islom ilmiy muhiti xalifa tomonidan qo‘llab-quvvatlandi va munozarali masalalar yuzasidan bo‘ladigan tortishuvlar va fikr almashishlarning keng miqyosda bo‘lganligi uchun tez sur’atda rivojlanib bordi. Hadislар va fiqh to‘plamlarining tuzilishi, ilmiy, falsafiy va teologik asarlarning arab tilidan tarjima qilinishi islomiy tafakkurga

katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu davrning oxiriga kelib fiqh ikki qismga bo'lindi: asos bo'luvchi tamoyillar (usul) va fiqh sohalarini yorituvchi asarlarning tamoyillari (furu).

Fiqhning rivojlanishi davrida mazhablar taraqqiyotiga taalluqli ikki yo'nalish ko'zga tashlanadi.

*Birinchisi*, yetakchi mazhablarning asoschilari bo'lmish buyuk imomlar va ularning izdoshlari zamonida paydo bo'lgan. Bu mazhablar tez fursatda bo'linib ketganliklariga qaramasdan, huquqiy normalar, fatvolarni chiqarish va qabul qilishda o'z salaflarining zamoniga xos moslashuvchanlik an'anasini davom ettirdilar.

*Ikkinci* yo'nalish turli mazhablarga mansub yirik ulamolarning vafotlaridan keyingi davrda ko'zga tashlangan. Bu davrda fatvolarni qattiqqo'llik asosida chiqarish va joriy qilish boshlangan. Bunday yondashuv keyingi davrlar mazhablari va tabiiyki, ularning fiqhini ilgarigilaridan ajratib turuvchi asosiy xususiyat sifatida namoyon bo'lgan.

Buyuk imomlar va ularning mashhur shogirdlari davri (750–850-yillar)dagi fiqhning rivojiga quyidagi omillar kuchli ta'sir ko'rsatgan:

1) *ulamolarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi*. Abbosiylar sulolasining dastlabki xalifalari islam qonunlari va huquqshunos olimlarini hurmat qilganlar. Shu bois ushbu sulolaning barcha xalifalari o'z farzandlarini yirik ulamolar huzuriga faxr bilan tahsil olishga yuborganlar. Shuningdek, ba'zi xalifolarning o'zlari ham huquqshunos olim bo'lib yetishganlar, masalan, Xorun ar-Rashid (786–809-yillarda hukmronlik qilgan) shunday xalifalardan biri bo'lgan. Bu davrda xalifalar fiqhga doir masalalarda mashhur ulamolar bilan kengashib turganlar. Masalan, xalifa al-Mansurning imom Molikka sunna haqida kitob yozishni topshirgani tarixiy dalildir. Kitob tayyor bo'lgach, xalifa imom Molikdan uni davlatning asosiy qonuniga (konstitutsiyasiga) aylantirib, shu orqali imom Molikning mazhabini barcha musulmonlarga majburiy ravishda qabul qildirish mumkin yoki yo'qligini so'ragan. Lekin imom bunga rozi bo'ldigan. U alohida bir mazhabning qoidalari barcha musulmonlar uchun majburiy qilib qo'yilishi mumkin emas, deb hisoblagan. Imom Molik har qanday alohida faoliyat ko'rsatayotgan mazhab mukammal emas, deb hisoblagan. Chunki mamlakatning boshqa hududlariga safar qilgan sahobalardan eshitilgan ko'plab boshqa hadislar ham o'sha davrda mavjud bo'lgan. Davlatning fiqh ulamolarini qo'llab-quvvatlashi, ularga qayg'urishi Ummaviylar hukmdorligining ikkinchi yarmida paydo bo'lgan ko'pgina mazhablarning taraqqiyotiga katta turtki bo'ldi.

Biroq, qayd qilish joizki, ulamo va qozilarga keng fikr erkinligi huquqi berilganiga qaramay, ularning qarorlari davlat siyosatiga zid kelgan taqdirda, ayovsiz jazolangan. Masalan, imom Molik chiqargan fatvo Abbosiy xalifalardan birining siyosatiga zid kelganligi bois, u zindonband etilib, qiyonoqqa solingan. Sababi xalifaning talabiga ko'ra, fuqarolar unga sodiq bo'lishga qasam ichishlari, mabodo kimdir qasamini buzsa, o'z-o'zidan xotini bilan ajrashib ketishga majburligi shart deb belgilanib, ommaga e'lon qilinishi zarur bo'lgan. Imom Molikning fatvosida esa majburlab ajratish hech qanday ta'sir kuchiga ega emas, deyilib, xalifaning talabi rad etilgan edi;

2) *ta'lim markazlari sonining ko'payishi*. Shimoliy Afrika va Ispaniya davlatlari (Ummaviy shahzodalardan biri Abdurahmon ibn Muoviya mo'jiza tufayli Abbosiylar qo'lida o'lim topishdan qutulib qolib, Ispaniyaga qochib borib, 756-yilda Kordova Ummaviylar qirolligiga asos solgan) Abbosiylar imperiyasidan ajralsa-da, Abbosiylar davlatining chegaralari kengayib, Eron, Hindiston, Movarounnahrni o'z tarkibiga kiritgan, uning poytaxti esa Bag'dodga ko'chirilgan. Ta'lim markazlari va mazhablarining ham soni ortgan.

Turli markazlardan olim-sahobalar va tobeinlar o'z bilimlarini musulmon davlatining boshqa qismlaridagi zamondoshlari chiqargan xulosalar bilan boyitish maqsadida bir hududdan boshqasiga qatnay boshlagan. Bunga misol sifatida Abu Hanifaning mashhur shogirdlaridan Muhammad ibn Hasan Molikiy mazhabining asoschisi imom Molikdan saboq o'rganish, uning «Al-Muvatto» nomli hadislari kitobini yod olish uchun Iroqdan Madinaga qilgan sayohatini keltirish mumkin. Imom Shofi'iy (Shofi'iy mazhabining asoschisi) hamda imom Molikdan tahsil olish maqsadida Hijozga, keyin Muhammad ibn Hasandan saboq olish uchun esa Iroqqa va nihoyat Misrga borgan. Bu jahongashtaliklar, birinchi navbatda, ulamolar o'rtasida paydo bo'lgan asosiy farqlarning yo'qolishiga hamda musulmon huquqi maktabalaridan ba'zilarining butkul birlashib ketishiga olib keldi. Masalan, imom Shofi'iy Hijoz fiqhini Iroq va Misr fiqhi bilan birlashtirdi va yangi huquq maktabi – Shofi'iy mazhabini yaratdi. Shu o'rinda ilk imomlarning fiqhga nisbatan moslashuvchan yondashuvlarini yana bir bor esga olish maqsadga muvofiqdir;

3) *fikrlar almashuvi – munozaralar tajribasining yoyilishi*. Ulamolar yoki ularning shogirdlari har doim uchrashganlarida, turli masalalar yuzasidan fikrlar almashar edilar. Qabul qilgan qarorlarida keskin farqlar bo'lsa, ular yagona fikrga kelmagunlaricha yoki fikrlar turliligi

ma'qullanmagunicha, munozarani tugatmay, uni yangidan boshlab, davom ettiraver ganlar. Bunday tortishuvlar yozishmalar tarzida ham amalga oshirilar edi. Masalan, imom Molik va imom Layloning Madina urf-odatlari masalasidagi (imom Laylo imom Molikning Madina aholisining fikri musulmon huquqi manbalaridan biridir, degan fikriga qo'shilmagan) yozishmalari shular jumlasidan.

Turli mazhab vakillari (ularning asoschilari va shogirdlari) o'rta sidagi bahslarning yozishmalar yoki shaxsiy uchrashuvlar tarzida ko'payishi ba'zi muhim masalalarga oydinlik kiritilishiga va musulmon huquqidagi mavjud yanglish nuqtai nazar va fikrlarning bartaraf etilishiga sabab bo'lgan. Mazhablar taraqqiyoti ilk bosqichidagi ulamolar va ularning shogirdlarida mutaassiblik va aqidaparastlik qarashlari yo'q bo'lgan. Masalalar odilona tahlil etilgan, xulosalar dalillarning xolisligiga qarab chiqarilgan. Imomlar Abu Hanifa va Shofi'iy agarda biror hadis sahihligiga ko'ra mashhur bo'lsa, u uning mazhabi hisoblanishi kerakligini ta'kidlab o'tganlar. Xamr va boshqa mast qiluvchi ichimliklarga oid taqiq bunga o'rinni misoldir. Hanafiy mazhabining asoschisi imom Hanifa xamrning taqiqlangani faqat uzum sharbatining achitilishidan hosil bo'luvchi mahsulotga tegishli ekani, boshqa mast qiluvchi moddalarga esa taalluqli emasligi haqida fatvo chiqargan. Ushbu fatvo bilan boshqa mahsulotlardan tayyorlangan mast qiluvchi ichimliklarning mast qilmaydigan miqdorda iste'mol qilinishiga ruxsat etilgan. Biroq Abu Hanifaning uch nafar eng mashhur shogirdi (Abu Yusuf, Muhammad ibn Hasan va Zufar) keyinchalik ustozining bu fatvosini Muhammad (s.a.v.)ning xamrga mast va sarkush qiluvchi barcha mahsulotlar kirishi to'g'risidagi sahih hadisiga asoslanib, rad etdilar. Bunday erkin fikr almashishlar, ya'ni hatto mazhablar asoschilari chiqargan fatvolarni o'zgartirishgacha borish, afsuski, keyingi davrlar mazhablarida uchramagan.

Kichik ulamolar davri, ya'ni turli mazhablarning ikkinchi avlodi vakillari davrida (850–950-yillar) fiqhning rivojiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi:

1) *fiqh to'plamlarini yaratish*. Dastlabki davrda ulamolar fatvolar berish va huquqiy qoidalarni o'rnatish uchun hadislar va osarlarni (sahobalar va ular shogirdlarining aytganlari va qilganlari) yig'ish ilinjida islom davlatlarining turli chekkalariga safarlar qilib, ko'p vaqt va kuch sarflashga majbur bo'lar edilar. Bu davrda Muhammad (s.a.v.)ning sunnati tartibga solinib, hadislar to'plami yaratilgan edi. Shu tariqa

ulamolar diqqatlarini hadislarni tushunish va qo'llashga qaratish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Bu davrda fiqhni to'plash ham keng miqyosda va tartibli amalgalashirildi. Ba'zi ulamolar o'z fatvolari to'plamlarini yaratganlar, boshqalari, masalan, imomlar Abu Hanifa va Ahmad shogirdlariga turli muammolarni hal etishning yo'llarini ko'rsatganlar. Shogirdlar esa ularni tanlab, to'plamlarga kiritganlar. Imom Molik «Al-Muvatto» to'plamiga hadislar va sahobalarning fikrlari bilan birga, o'z fatvolarini ham kiritgan. Imom ash-Shofi'iyning «Al-Umm» nomli kitobiga o'z fatvolari va ular uchun keltirgan dalillari kiritilgan;

2) *fiqh to'plamarining turlari*. Dastlabki fiqhga oid kitoblarning tuzilishi hadislar, fatvolar, shuningdek sahobalar va ularning shogirdlarining turli nuqtai nazarlaridan iborat bo'lgan. Bu davrda yaratilgan to'plamdan biri imom Molikning qalamiga mansub «Al-Muvatto»dir. Ba'zi fiqh kitoblari asosiy tamoyillarga bag'ishlangan, ulardagi hadislar esa muallif xulosalarining to'g'riligini isbotlash maqsadida kiritilgan. Masalan, imom Abu Yusufning (imom Abu Hanifaning shogirdlaridan biri) «Kitob al-Xiroj» va imom Shofi'iyning «Al-Umm» asarlari ana shunday yozma manbalar sirasiga kiradi.

Qolgan fiqh kitoblari esa butunlay fiqh tamoyillarini qo'llashga bag'ishlangan bo'lib, ularga hadislar juda kam kiritilgan. Bunday asarlar imom Muhammad ibn Hasanning (imom Abu Hanifaning shogirdlaridan biri) oltita kitobi, imom ibn al-Qosimning (imom Molikning yetuk shogirdi) «Al-Mudovvana»sidir. Dastlabki asarlarda turli masalalarga oid fatvolarning har qaysisi uchun dalil tariqasida ularning roviylari zanjiri (isnadi) keltirilgan hadis matnlari joy olgan. Vaqt o'tishi bilan isnod keltirish yo'qolib, tegishli hadisning matni berilgan yoki o'sha hadisni topish mumkin bo'lgan to'plamlarga havola berish bilan cheklanilgan.

Hadislarni to'plash davrida ularning to'plamarini tuzuvchi mutaxassislar va tanqidchilar o'rtasida fiqh masalalarini mazhablarning an'anaviy normalariga qat'iy rioya qilmay hal etishdek qarshi yo'nalish paydo bo'lgan. Boshqacha aytganda, ular avvalgi davr fatvolariga mashhur ulamolar tomonidan chiqarilsa-da, ko'r-ko'rona amal qilmanlar. Dastlabki ulamolarning moslashuvchanlik yondashuvlarini qo'llab, mumkin bo'lgan o'rinnarda o'z fikrlarini sahib hadislar bilan asoslashga harakat qilganlar. Imom Buxoriy (810–870-yillar) va imom Muslim (817–875-yillar) kabi hadis ilmining mashhur bilimdonlari fiqh masalalarini hal etishda asosiy e'tiborni hadislarga qaratib, imkoniboricha barcha manbalardan foydalanganlar. Muhammad (s.a.v.)ning

sahih hadislari va izdoshlarining osarlarini to‘plashga bor kuchlarini sarflaganlar.

Fiqhning tizimga solinishi, shuningdek islom ulamolarining Yunoniston, Rim, Eron va Hindistondagi tabiiy fanlar hamda falsafaga oid yirik asarlarni tarjima qilish jarayonlarida (tarjimalarning aksariyati shu davr (750–830-yillar)ning birinchi yarmida paydo bo‘lsa-da, biroq ularning ta’siri mazkur davrning ikkinchi yarmida sezila boshladi) tafakkur, deduksiya va xulosalashning yangi tizimlari bilan tanishganlar. Ushbu bilimlar ularning fiqhga bo‘lgan munosabatlariga ham ta’sir ko‘rsatgan. Natijada ular fiqhdagi asosiy (usul) va qo‘srimcha (furu’) manbalarni ajrata boshlaganlar. Vaqt o‘tishi bilan bu ta’sir natijasida tafsir (Qur’oni sharh), hadislar va nahv (grammatika) tadqiqotning ixtisoslashgan tarmoqlariga aylangan.

Fiqh yetakchi ulamolarining fikrlari yozib borilgan, islom qonunchiligining manbalari esa ahamiyatiga qarab birlamchi yoki boshqa o‘rinlardagi manbalar sifatida belgilangan va tasnif qilinadigan bo‘lgan.

Musulmon huquqi manbalari tahlili davrining oxiriga kelib, ko‘plab ulamolar tomonidan manbalar ahamiyatiga ko‘ra, quyidagi tartibda tan olina boshlangan:

1) *Qur’on*. Qur’on musulmon huquqining birlamchi manbai bo‘lib, uning barcha bo‘limlarining haqiqiyligiga hech shubha qilinmagan. Biroq, uning ba’zi bo‘limlari sharhlari borasidagi ulamolarning ayrim fikrlari o‘zaro mos kelmagan;

2) *sunna*. Ahamiyatiga ko‘ra ikkinchi o‘ringa Muhammad (s.a.v.)ning hadislari qo‘yilgan. Biroq ulamolar hadislarni qabul qilish va amalda qo‘llashning turli shartlarini o‘rnatganlar;

3) *sahobalarning fikrlari*. Muhammad (s.a.v.) izdoshlarining ham jamoaviy, ham shaxsiy fikrlari musulmon huquqining uchinchi eng muhim manbai hisoblangan. Bu manbalar sahobalarning nuqtai nazarlariga qarab ikki qismga bo‘lingan:

a) biror masala borasida fikrlar bir xil bo‘lsa – ijmo;

b) biror masalada fikrlar turlicha bo‘lsa, har bir sahobaning fikri ra’y (shaxsiy fikr), deb nomlangan;

4) *qiyos*. To‘rtinchi o‘rinda Qur’on yoki sunna yoxud ijmoga asoslangan ijтиҳод turgan. Mulohaza usuli – «qiyos» deb atalgan deduksiya bo‘lgan. Qiyosga namuna sifatida nashaning taqiqlanganini keltirish mumkin, bu hukm Muhammad (s.a.v.)ning: «*Barcha mast qiluvchi moddalar xamrdir, har qanday xamr esa haromdir*», – degan

hadisiga asoslanib chiqarilgan. Nasha mast qilish xususiyatiga egaligi uchun ham xamr toifasiga kiritilgan va harom hisoblangan;

5) *istihson*. Bu tamoyil qiyos tufayli chiqarilgan fikrdan muayyan amaliy ehtiyoj tufayli chiqarilgan fikrning afzalligini nazarda tutgan. Turlicha nomlangan ushbu tamoyilni huquqiy tafakkur maktablarining ko‘plab ulamolari qo‘llaganlar. Biror narsani ishlab chiqarish va sotish shartnomasining mazmunini sharhlashni istihsonga misol qilib keltirish mumkin. Muhammad (s.a.v.)ning: «*Kimki oziq-ovqat sotmoqchi bo‘lsa, to unga o‘zi egalik qilmaguncha, bu ishga kirishmasin*», – degan o‘gitiga asoslangan qiyosga ko‘ra, bunday shartnoma haqiqiy hisoblanmagan. Deylik, shartnoma tuzilayotgan vaqtida sotiladigan o‘sha narsa mavjud bo‘lmaydi. Biroq bunday shartnomani barcha tan olishi va unga bo‘lgan ehtiyojning tabiiyligi hisobga olinib, qiyos asosidagi mazkur fatvo majburiy emas, deb tan olingan. Bunday shartnomani tuzishga esa, afzal ko‘rish (istihson) tamoyiliga asosan ruxsat etilgan, ya’ni qo‘lida bo‘lmagan narsaning savdosiga ham ruxsat berilgan;

6) *urf*. Mahalliy urf-odatlar, agar ular islom qonunchiligi tamoyillariga zid kelmasa, muayyan hududda musulmon huquqining manbai, deb qabul qilingan. Masalan, nikohda kuyovning kelinga nikoh sovg‘asi (mahr)ni berishi tartibining o‘rnatalishi urf-odatlarga asoslangan. Musulmon huquqiga asosan, mahr nikoh shartnomasining bir qismi sifatida kelishib olinadi, biroq uni to‘lashning vaqtি aniq belgilanmaydi. Misrliklar va boshqa ba’zi xalqlarning odatlariga ko‘ra, uning «muqaddam» deb atalgan bir qismi nikoh marosimidan oldin to‘lanishi, «muahhar» deb nomlangan qolgan qismi esa, vafot etgan taqdirda, qaysi birining avval sodir bo‘lishiga qarab, to‘lanishi lozim bo‘lgan<sup>1</sup>.

Odatning yana bir namunasi bu ijara yoki odam yollashdir. Islom qonunchiligi sotilayotgan narsa to‘liq yetkazib berilmaguncha oluvchidan tegishli narxni to‘lashni talab qilishni taqiqlaydi. Biroq, odatga ko‘ra, ijarachi yoki yollovchi ijaraga berilgan joy yoki narsadan foydalanishni boshlagunga qadar kelishilgan muddat uchun ijara haqi olishi mumkin.

Bu kabi tizimga solish va tasniflash ko‘p jihatdan ijobiy hodisa bo‘lsa-da, u guruhbozlik, mazhablar o‘rtasidagi tafovutlarning yanada ko‘payishiga sabab bo‘lgan. Shunday qilib, mazmunan bitta tamoyilni ifodalovchi turlicha atamalar mazhablar o‘rtasidagi ixtilof va ziddiyatlarga sabab bo‘lgan. Masalan, Molikiylar Hanafiy mazhabining

<sup>1</sup> Қаранг: *Шалобий Мұхаммад Мұстафо*. Усул ал фикҳ-ал исломий. – Байрут- Ливан, 1978.

istihsanini qabul qilmaganlar, biroq aynan shu tamoyilni «maslahati mursala» atamasi bilan qo‘llagan. Shofi’iylar esa ikki atamani ham inkor etib, «istis’hob» nomi bilan qo‘llaganlar.

Abbosiylar hukmronligi davrida fiqh kitoblarini yaratish uchun ma’lum shakl va tartiblar joriy qilingan. Bu tartib barchaga taalluqli bo‘lib, undan hozirgacha foydalaniladi. Turli masalalar umumiy sarlavhalar ostida ifodalansa-da, guruhlar va boblarga taqsimlangan. Boblarning berilishidagi tartib ham hamma uchun bir xil bo‘lgan. Mualliflar o‘zlarining fiqh kitoblarini iymondan keyin keluvchi to‘rt ustun bilan boshlaganlar. Islom teologiyasiga oid kitoblarda «tahorat» va «salot» (ibodat), «savm» (ro‘za) va «haj» kabi tushunchalarga oid masalalar bayon etib bo‘lingach, nikoh, taloq, bay, undan keyin boshqa masalalarga o‘tilgan. Bu masalalar bilan to‘qnash kelganda, mazhab ulamolari barcha mazhablarda qo‘llanilgan turli dalillarni keltirib, o‘z mazhabi nuqtai nazarining to‘g‘riligini metodologik tomondan isbotlab, mazhablarning dalillarini rad etganlar.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Islomda mazhablarning paydo bo‘lishi sabablarini tushuntiring.
2. Sunniylarning qanday mazhablari mavjud bo‘lgan?
3. Sunniylik va shialik ta’limotlari o‘rtasidagi farqlar nimalardan iborat?
4. Islomning turli huquqiy maktablari kelajakda birlashishi mumkinmi?

## **5-BOB. MUSULMON HUQUQINING NORMALARI VA TURLARI**

### **5.1. Musulmon huquqiy normalari va ularning tasniflanishi**

Musulmon huquqining O‘zbekiston hududida yoyilishi va uning mamlakat huquqiy hayotida mustahkam o‘rin egallashi arab xalifaligining mintaqada yuritgan siyosati, islom dinini yoyish borasidagi sa’y-harakatlarining natijasidir. Movarounnahrdan yetishib chiqqan huquqshunos olimlar musulmon huquqi nazariyasi va amaliyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shganlar. Ularning samarali ijodiy faoliyati tufayli ushbu huquqning turli sohalari va institutlariga bag‘ishlagan asarlar yaratilgan. Ushbu huquqiy tizimning nazariy asoslari mustahkamlanib, uning dovrug‘i butun olamga yoyilgan.

O‘zbekiston hududida Hanafiylar huquq maktabi ta’limotlari keng yoyilgan. Barcha huquqiy masalalar ushbu maktab namoyandalarining fikr-mulohazalariga tayanib, hal qilingan. Mintaqada musulmon huquqidan tashqari odat huquqi va ijobjiy huquq normalarining ham amal qilishiga imkoniyat yaratilgan.

Musulmon huquqshunoslari ushbu huquq tarkibidagi o‘zaro bog‘liq ikki guruhni farqlaydilar<sup>1</sup>. *Birinchisi* – Qur’oni karim va sunnadagi huquqiy ko‘rsatmalar. Bu normalar faqihlar ta’kidlaganlaridek, ilohiy tabiatga ega. *Ikkinchisi* esa, ijmo va qiyos asosida rasmiylashtirilgan normalar. Asosiy normalar sifatida dastlabki ikki manbadagi (Qur’oni karim va sunna) normalar tan olingan. Musulmon huquqshunos olimlarining fikrlaricha, haqiqiy normalar faqat Qur’oni karim va sunnada ifodalangan, boshqa manbalarda ko‘rsatilgan normalar esa ularni to‘ldirishga xizmat qiladi. Musulmon huquqidagi normalarning o‘rnini va ahamiyati uning qaysi manbadan olinganligiga qarab belgilanadi. Agar o‘rganilayotgan masala yuzasidan chiqarilgan qaror (hukm) musulmon huquqining asosiy manbalariga tayangan bo‘lsa, o‘rganish darhol to‘xtalgan. Ammo qaror ikkilamchi manbalar yoki mujtahidlarning fikrlari asosida chiqarilgan bo‘lsa, qozilar yoki muftilar o‘sha qarorning o‘rniga boshqasini tanlash huquqiga ega bo‘lganlar. O‘zining aniqligi bilan Qur’oni karim va sunnadagi normalar ikki toifaga ajratilgan.

*Birinchisi* – aniq, turli izohlarga muhtoj bo‘lmagan normalar. Bu turdagи normalar aniqligi va tushunarligi bilan ajratiladi, bevosita va yagona tartibda amaliyotda qo‘llaniladi, ularni tushunishda ijтиходга yo‘l qo‘yilmaydi.

*Ikkinchisi* – boshqa ma’nolarni ham ifodalovchi turli izohlarga muhtoj mavhum normalar. Bunday normalarga ijтиҳод orqali aniqliklar kiritish zarur bo‘ladi.

Qur’oni karimning «Moida» surasi 106-oyatida: «*Ey mo‘minlar, birovningizga o‘lim kelib vasiyat qilar vaqtida, o‘zingizdan bo‘lgan ikki adolat egasi yoki agar biror yerga safar qilib, o‘sha yerda sizga o‘lim yetgan bo‘lsa, o‘zgalardan bo‘lgan ikki kishi o‘rtalariningizda guvoh bo‘lsin*», – deyiladi. Ushbu oyatda vasiyatga asoslangan meros qoldirishni rasmiylashtirish to‘g‘risidagi qoida ifodalangan bo‘lib, uning mohiyatini aslicha tushunish lozim. Ya’ni mazkur oyatni o‘zgacha tushunish yoki sharhlash mumkin emas.

---

<sup>1</sup> Қаранг: *Абдулқодир Ўда*. Ислом ҳукуқида жиноят қонунларини дунёвий қонунлар билан қиёсий ўрганиш (Араб тилида). Ж. 2. – Байрут, 1985.

Mazmuni mavhum, unchalik aniq bo‘lman normalarda qat’iy, aniq qoidalar belgilanmagan. Unga aniqlik kiritishda sharhlash yo‘li orqali tegishli xulosa chiqariladi. Masalan, Qur’onning «Nur» surasi 56-oyatida: «*Namozni ado etinglar va zakotni beringlar va payg‘ambarlarga itoat qilinglar. Shoyad mag‘firat qilinsangiz*», – deyiladi. Oyatdagi «zakotni beringlar» ko‘rsatmasi umumiy, mavhum bo‘lib, unda qanday moldan qachon va qancha miqdordagi zakot berilishi kerakligi aniq emas. Mazkur qoidaga aniqlik kiritish ijтиҳод usulidan foydalanishni, boshqa manbalarga murojaat qilishni talab qiladi.

VIII asrdan boshlab turli musulmon huquqiy maktablari, XII asrga kelib esa musulmon huquqiy nazariyasining to‘liq shakllangani tufayli ushbu huquq tizimini tarkibiy qismlarga bo‘lish, undagi normalarni turlarga ajratishga zarurat sezildi. Amaliyotda u yoki bu masala to‘g‘risida asosiy manbalarda tegishli qoida bo‘lmasa, masala hal qilinayotgan hududdagi hukmron huquq maktabining ta’limotiga va shu mintaqadagi yirik huquqshunos olimlarning asarlariga tayanib, hukm yoki qaror chiqarish qoidaga aylandi. Musulmon huquqidagi barcha normalar mohiyatiga ko‘ra ikki katta guruhga bo‘linadi. Birinchi guruh normalari: insonning u yoki bu harakatini baholash to‘g‘risidadir. Bu guruh normalarini besh turga ajratish qabul qilingan, bular – majburiy, tavsiya etuvchi, ruxsat beruvchi, tanbeh beruvchi, taqiqlovchi normalardir.

Majburiy normalar islam ta’limotida *farz amallar*, deb ataladi. Farz amallar qat’iy belgilangan bo‘lib, islam ta’limotiga ko‘ra, ularni bajarish shart va bajargan kimsa savob egasi, bajarmagan esa gunohkor sanaladi. Ularni inkor etgan shaxs esa dindan chiqqan hisoblanadi. Farz amallarining *farzi ayn* va *farzi kifoya* kabi turlari mavjud.

*Farzi ayn* har qaysi musulmon albatta bajarishi shart bo‘lgan qoida yoki amallar. Mutaxassis olimlarning fikricha, bunday normalar yuzdan ortiq<sup>1</sup>. Namoz o‘qish, ro‘za tutish, qodir bo‘lsa haj qilish, qurbi etsa zakot berish, guvohlik bergandaadolat bilan rost so‘zlash, ushr berish, ernen o‘z xotinini uy-joy bilan ta’minlashi, xotinning mahrini ado etish kabilar farzi ayn normalardir.

*Farzi kifoya* shunday normalardirki, ularni bajarish bitta jamoaga mansub bo‘lgan musulmonlarning barchasi uchun shart emas. Ularning bir qismi ushbu normalarni bajarsalar, qolganlarining zimmasidan mazkur majburiyat soqit bo‘ladi. Ushbu normalarni bajarmagan musulmonlar

<sup>1</sup> Қаранг: *Мөварадий Абулҳасан Али. Султоний ҳукмлар. – Қоҳира, 1298 ҳ.й. – Б. 225.*

gunohkor bo‘lmaydilar. Agarda musulmon jamoasi a’zolaridan hech biri farzi kifoya normalarini bajarmasa, unda butun jamoa a’zolari gunohkor bo‘ladilar. Farzi kifoya normalari umumiylar sonining qanchaligi haqida turlicha fikrlar bor. Ushbu normalar musulmon huquqiga doir ilmlarni mukammal egallash, musulmonlarga ilm o‘rgatish, Qur’oni karimni yodlash, zaif, faqir kimsalar va yetimlarga muruvvat ko‘rsatish hamda tarbiyaga olish, Vatanni himoya qilish kabilardan iborat.

Tartibga solgan ijtimoiy munosabatlarning mazmuniga ko‘ra, musulmon huquqining normalari quyidagi sohalarga ajratiladi:  
a) davlat huquqi; b) moliya huquqi; d) fuqarolik huquqi; e) oila huquqi; f) meros huquqi; g) jinoyat huquqi; h) sud huquqi.

*Davlat huquqiga doir normalar* – hokimiyatni amalga oshirish, davlat organlarini tashkil etish, ularning o‘zaro munosabatlari, vazifalari, vakolatlari bilan bog‘liq masalalar, davlat organlari bilan fuqarolar, ijtimoiy va diniy tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu sohaning asosiy institutlari – davlat bilan hokimiyatining asoslari, davlat boshqaruv organlari, davlat organlari bilan fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlardir.

*Moliya huquqi sohasidagi normalar* – davlat daromadlari va xarajatlari, soliqlarning turlari, ularni undirish va taqsimlash bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalardir. Uning asosiy institutlarini davlat daromadlari, davlat xarajatlari, zakot, xums, soliq yig‘ish va undan yig‘ilgan mablag‘larni taqsimlash kabilar tashkil etadi.

Musulmon huquqining eng ulkan sohasi *fuqarolik huquqi* bo‘lib, u mulkdan foydalanish, uni egallash va tasarruf qilish, sotish va sotib olish, ijaraga berish, hadya qilish, garovga qo‘yish, shartnomalar va majburiyatlar, ularning ijrosini ta’minalash kafolatlari bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yig‘indisidan iborat. Uning asosiy institutlari – mulk huquqi, savdo huquqi, ijaraga berish, hadya qilish, garovga qo‘yish, shartnomalar va majburiyatlar, ularning ijrosini ta’minalash kafolatlari bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalardir.

*Oila huquqi* nikohni qayd qilish, er-xotinning huquq va burchlari, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar, nikohni tugatish asoslari va uning huquqiy oqibatlari, vasiylik va homiylik bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni o‘z ichiga oladi. Mazkur sohaning asosiy institutlari – nikoh, mahr, er-xotinning huquq va

burchlari, nikohni tugatish, nafaqa berish, vasiylik va homiylik kabilardan iborat.

*Meros huquqining normalari* merosning ochilishi, uning turlari, meros qoldiruvchi va uni oluvchilar o‘rtasidagi munosabatlar, merosni taqsimlash va merosga aloqador nizolarni hal qilish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Meros huquqining asosiy institutlari – vasiyat, qonuniy meros, merosni taqsimlash, voyaga yetmaganlarning meros mulki bo‘yicha vasiyligi kabilardir.

*Jinoyat huquqining normalari* jinoyat va uning turlari, jinoyatlarni sodir qilganlik uchun belgilanadigan jazo turlari bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu huquq sohasi institutlarini «jinoyat» tushunchasi, turlari, jinoyat tarkibi, jinoyatda ishtirokchilik, jazo va uning turlari tashkil qiladi.

*Sud huquqi* – fuqarolik va jinoyat ishlarini sudda ko‘rib, qaror chiqarish, ularning ijrosini ta’minlash bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yig‘indisidir. Fuqarolik va jinoyat ishlarini sudda ko‘rish uchun qabul qilish, sud muhokamasi, da’vogarlik, javobgarlik, guvohlik, vakillik, dalillar, sud qarori va hukmi, ularning ijrosini ta’minlash ushbu sohaning asosiy institutlari hisoblanadi.

Yuqorida bayon qilinganlarga xulosa qilib, quyidagilarni ta’kidlash zarurki, musulmon huquqi qadimgi huquqiy tizimlardan biridir, u shakllanish, rivojlanish va takomilga yetish bosqichlarini bosib o‘tgan. Bu jarayonlar islom dini va arab xalifaligining vujudga kelishi hamda rivojlanishi bilan bog‘liq kechgan. Musulmon huquqi murakkabligi, serqirraligi, ko‘p manbaligi, turli yo‘nalishdagi huquq maktablarining mavjudligi bilan boshqa huquqiy tizimlardan tubdan farq qiladi.

## 5.2. Aniq va mavhum normalar

Mohiyatiga ko‘ra, *tavsiya etuvchi normalar* islom ta’limotida *vojib amallar*, deb ataladi. Ular ham farz kabi musulmonlarni u yoki bu xattiharakatni bajarishga undaydi. Ularni bajarganlar savob oladi, bajarmaganlar esa gunohkor bo‘ladilar. Vojib amallarni inkor qilgan musulmon iymonsiz sanalmasa-da, gunohi kabira (katta gunoh) egasi bo‘ladi. Bunday amallarning eng muhimlari soni qirqta. Masalan, zakot to‘lashga qodir mo‘minlarning qurbon hayiti kunlarida jonliq so‘yib qurbonlik qilishlari, va’daga vafo qilish, er-xotinning bir-birlari oldidagi burch va vazifalarga rioya qilishlari, sotuvchi sotayotan narsasining aybini aytib sotishi zarurligi kabilar vojib amallarga kiradi.

*Ruxsat beruvchi normalar* islom ta’limotida *sunnat amallar* deb yuritiladi. Sunnat lug‘aviy jihatdan «yo‘l» degan ma’noni, istilohiy ma’noda Muhammad (s.a.v.)ning so‘zлari, xatti-harakatlari, ma’qullagan ishlarini ifoda etadi. Ya’ni bu normalar «payg‘ambar belgilab bergen yo‘l», degan ma’noni anglatadi. Bunday amallarni bajarganlar savob oladi, bajarmaganlar gunohi kabira egasi sanalmasalar-da, qiyomat kunida qattiq malomatga qoladilar. Sunnat amallarning soni aniq emas, sababi sahib hadislarda belgilangan sunnat amallarning soni aholi orasida qanchalik tarqalganligiga bog‘liq. Sunnat amallarning turlari ko‘p bo‘lib, ular insonlarning turmush tarzi bilan bog‘liq holda bajariladi. Masalan, xatna qilish, misvok tutish, voyaga yetgan bolalarni uylantirish yoki turmushga berish, nikoh to‘yi va hokazo.

Sunnat amallarning bir turi *mustahabdir*. Mustahab – payg‘ambar (s.a.v.)ning umrida bir yoki ikki marotaba qilib, keyin tark qilgan amallaridir. Ularni bajargan kishi savob oladi, bajarmasa, gunohkor bo‘lmaydi. Muhtojlarga uy-ro‘zg‘or buyumlarini beg‘araz omonatga berib turish, suv chiqarish, oldi-sotdi ishlarida chaqqon va jur’atli bo‘lish, halolligiga shubha qilingan mollarni xarid qilmaslik, qarz bergen kishining iloji boricha qarzini so‘ramay turishi, qarz olgan odam qarzini tezroq to‘lashi kabilar mustahab amallardir.

*Tanbeh beruvchi normalar* biror xatti-harakatni qilishdan qaytaruvchi normalardir. Bunday normalar islom ta’limotida *makruh* va *harom* deb ataladi. Mo‘min-musulmon kishi bunday ishlarni qilishdan saqlanishi lozim. Gunohidan qo‘rqib bunday ishlardan saqlangan kishi savob oladi, qilgan kishi gunohkor bo‘ladi.

Makruh va harom amallar: ayollarning erlari yoki mahramlarisiz safarga chiqishlari, sotuvchi molini maqtab, qasam ichib sotishi, ayolni besabab taloq qilish, halolligi shubhali bo‘lgan mollar bilan savdo qilish, qozi va hokimning mahkamaga murojaat qilganlarga bir xil muomalada bo‘imasligi, birovning hovlisiga iznsiz kirish, egasidan so‘ramay, uning molini sotib yuborish, bozorda narx-navoning ko‘tarilishini kutib, sotiladigan mollarni sotuvga chiqarmay saqlash, mollarni qimmat narxda sotish niyatida hammasini ko‘tarasiga olib qo‘yish, qo‘y yo sigirni baland narxda sotish maqsadida bir-ikki kun sog‘may saqlash, zakot yoki ushr uchun molning yomonrog‘ini tanlash kabilar bo‘lib, ularni qilish gunoh hisoblanadi.

### **5.3. Ogohlantiruvchi va taqiqlovchi normalar**

Taqiqlovchi normalar u yoki bu xatti-harakatni sodir etishni man qiladi. Islom ta'limotida bu turdag'i normalar *zulmiy* va *zulmiy bo'lmagan haromlar*, deb ataladi. Harom islom dinida qattiq taqiqlangan amal bo'lib, uni qilish mutlaqo mumkin emas. Bunday amalni qilgan kishi katta gunohga botadi, uni qilmagan esa katta savobga muyassar bo'ladi. Haromning haromligini inkor qilgan kishi iymonidan ajraladi. Zulmiy harom uni sodir qilgan kishigagina zararli bo'lmay, boshqalar uchun ham zararlidir. Zulmiy harom amallarning o'ta qattiq taqiqlanganlari 90 dan ortiq. Bular: sizni o'ldirishga qasd qilmagan kishini siz ham o'ldirmangiz, birovning hech bir a'zosini kesib yoki urib aybdor qilmangiz, hech kimning molini talab olmangiz, savdo-sotiqa birovning haqini o'z molingizga aralashtirmangiz, yetimlarning mollariga xiyonat qilmangiz, zino qilmagan kishini zinokor, deb so'kmangiz, ko'rmagan, bilmagan ishingizga guvohlik bermangiz, xalq orasiga urush-janjal va adovatga sabab bo'luchchi fitna, fasod solmangiz, oziq-ovqat kabi xalqning zarur mahsulotlarini arzon vaqtda olib qo'yib, xalqqa yana qimmat narxda sotmangiz, sotayotgan molingizning aybini oluvchiga aytmay, aldab sotmangiz. Qiz bolani o'zi xohlamagan kishiga zo'r lab erga bermangiz. Bergan ahdingizni buzmangiz. Hokim va rahbarlar qo'l ostidagi kishilarga zulm qilmasinlar kabi qoidalar bo'lib, ularda u yoki bu xatti-harakatni sodir qilish taqiqlangan.

Zulmiy bo'lmagan haromlarning zulmiy haromlardan farqi shundaki, bunday xatti-harakatlarni sodir qilishdan keladigan zarar faqat ularni sodir qilgan shaxsga tegadi. Jamiyat va boshqa shaxslar bunday turdag'i haromlardan zarar ko'rmaydi. Zulmiy bo'lmagan haromni sodir etgan kishi o'z xati-harakatidan afsuslanib, gunohini kechirishini so'rab Allohga iltijo qilsa, uning kechirilish ehtimoli bor. Zulmiy haromni sodir etgan kishi esa kechirilmaydi. Qimor o'ynab, boylik orttirish, sudxo'rlik qilish, pora olish, najas va harom narsalarni sotib olish, ishsizlik va yalqovlik bilan kun kechirish, tamagirlik qilish, vaqf moliga xiyonat qilish, baytul-mol pulini nohaq o'zlashtirish, zino qilish, zino ishlariga vositachilik qilish, mast qiluvchi ichimliklarni ichish kabilar zulmiy bo'lmagan harom ishlar bo'lib, ularni qilish taqiqlangan.

Alovida holatlarda inson xulq-atvori, harakatlari va uning oqibatini belgilovchi normalar ham musulmon huquqi nazariyasida bir necha guruhni tashkil etadi. Ularning birinchisi *mubohdir*. Muboh – biror ishni qilish yoki qilmaslikni insonning ixtiyoriga berish haqidagi normadir.

*Birinchidan*, ushbu normani bajarmaslik gunoh hisoblanmaydi. *Ikkinchidan*, bu normada belgilangan xatti-harakatni sodir qilish biror holat, hodisa, voqea bilan bog‘lanadi. Masalan, Qur’oni karim «Moida» surasining ikkinchi oyatida «*ehromdan chiqib halol bo‘lgach, ov qilaveringiz*», deyilgan. Ushbu oyatdagi «ov qilaveringlar», degan ko‘rsatma majburiy bo‘lmay, balki ixtiyoriydir. Ovni faqat xohlagan kishi qilishi mumkin. Ov qilish – halol bo‘lish degan fikrga bog‘langan. Bu harakatdan maqsad – ehromdan chiqishni ko‘zda tutgan.

Ikkinci to‘plam qonunlari *vaz’iy hukmlar* (ijtihod asosida qabul qilingan hukmlar, qarorlar to‘plami) deb ataladi. Ushbu qoidalar besh qismdan iborat: sabab, shart, mone, ruxsat va azima, sihha va butlon. Sabab, ya’ni biror, voqea, hodisaning kelib chiqishi, sodir bo‘lishining shart-sharoiti, xizmat qiluvchi fakti. Masalan, Qur’oni karim «Baqara» surasining 180-oyatida: «*Birovingizga o‘lim kelgan paytda (o‘zidan keyin) mol-dunyo qoldirayotgan bo‘lsa,adolat – to‘g‘rilik bilan ota-onaga, qarindosh-urug‘ga vasiyat qilish farz etildi*», – deyilgan. Bu yerda o‘lim – sabab, meros haqida vasiyat qilish esa oqibatdir. Shart shunday vaziyatki, bir narsa yoki holatning bo‘lishini ikkinchisi taqozo etishidir. Masalan, er-xotinlik bo‘lmasa, taloq bo‘lmaydi. Lekin, birinchisining bo‘lishi uchun ikkinchisi talab qilinmaydi. O‘z navbatida, shartning ikki turi mavjud: a) qonun tomonidan qo‘yilgan shart; b) huquq subyekti tomonidan qo‘yilgan shart. Birinchi shartga nikoh tuzish, savdo-sotiq qilish, vasiyatni rasmiylashtirishda bajarilishi shart qilib qo‘yilgan xatti-harakatlar, xulq-atvor qoidalari misol bo‘la oladi. Ikkinci shartda huquqiy munosabat ishtirokchisi bo‘lgan shaxsga shartni mustaqil belgilash vakolati beriladi. Masalan, er xotiniga: «Mendan beizn tashqariga chiqsang, sen taloqsan», – degan shartni qo‘yishga qonun bo‘yicha haqi bor.

*Mone* – biror-bir holat, faktning mavjudligi tufayli xatti-harakat qilish mumkin emasligini belgilab beruvchi qoida. Masalan, umumiy qoidaga binoan, uka akasidan meros olishi mumkin. Lekin, uka akasini o‘ldirsa, meros olish huquqidan mahrum bo‘ladi. Chunki qonunda meros oluvchi meros qoldiruvchini o‘ldirsa, meros olish huquqidan mahrum bo‘lishi haqidagi qoida mavjud. Payg‘ambarning «qotil meros olmaydi», degan ko‘rsatmasi ushbu qoidaga asos bo‘lib xizmat qiladi. *Ruxsat va azimaning ma’nolari* shuki, ularda umumiy qoidaga muvofiq, huquq subyektiga yengillik berish, qulaylik yaratish maqsadida taqilangan xatti-harakatni qilishga ruxsat etiladi. Masalan, Qur’oni karim «Naxl» surasining 106-oyatida: «*Kim Allohga iymon keltirganidan keyin (yana qaytib) kofir*

*bo'lsa (Allohning g'azabiga duchor bo'lur). Lekin, kim qalbi iymon bilan taskin topgani holda (kufr kalimasini aytishga) majbur qilinsa, (uning iymoniga ziyon yetmas)», – deyilgan. Sahih va botil normalar shunday normalarki, ularning birinchisida qonunda belgilangan barcha talablar, shartlarning natijasida kelib chiqadigan oqibat haqiqiy, qonuniydir.*

Ikkinchisida esa qonun talablarini to'la bajarmaslik oqibatida kelib chiqqan natija haqiqiy emas, deb hisoblanadi. Masalan, qonun talablariga to'liq rioya qilinib tuzilgan nikoh haqiqiy deb tan olinadi va huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Qo'yiladigan talablardan ayrimlarini bajarmasdan tuzilgan nikoh esa haqiqiy hisoblanmaydi. Masalan, erkak kishining boshqaning nikohidagi ayol bilan nikohga kirishishi, ushbu nikohni haqiqiy emas, deb topishga asos bo'ladi. Ushbu nikoh hech qanday huquqiy oqibat keltirib chiqarmaydi. Hozirgi zamон isлом qiyosiy huquqshunosligida musulmon huquqiy normalari imperativ va dispozitiv turlarga bo'lib o'rganiladi. *Imperativ norma* – xatti-harakat, xulq-atvor qoidasi, qat'iy belgilangan norma bo'lib, huquqiy munosabat subyekti uni tanlash imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Masalan, Qur'oni karim «Tavba» surasining 60-oyatida: «*Albatta, sadaqalar Allah tomonidan farz bo'lgan holda, faqat faqirlarga, miskinlarga, sadaqa yig'uvchilarga, ko'ngillari (islomga) oshno qilinuvchi kishilarga, bo'yinlarni (qullarni) ozod qilishga, qarzdor kishilarga va Allah yo'lida hamda yo'lovchi musofirlarga berilur*», – deyilgan. Ushbu oyatda zakotdan yig'ilgan mablag'lar kimlarga berilishi zarurligi aniq belgilab qo'yilgan.

Dispozitiv normaga muvofiq, subyektga tanlash imkoniyati beriladi. Qur'oni karim «Moida» surasining 33-oyatida: «*Albatta, Allah va uning payg'ambariga qarshi urushadigan va yerda buzg'unchilik qilish harakatida yuradigan kimsalarning jazosi – o'lim yo dorga osish yoki oyoq-qo'llari teskarisiga (ya'ni o'ng qo'l va chap oyoq yoki chap qo'l bilan o'ng oyoq) kesilishi yoxud o'z yerlaridan surgun qilinishlaridir*», – deyilgan. Mazkur oyatda jinoyatchiga qo'llanishi mumkin bo'lgan bir necha jazo turlari ko'rsatilgan bo'lib, jazo tayinlovchi ulardan birini tanlash huquqiga ega.

Ayrim huquqiy maktablar vakillari, masalan, Zohiriylar dispozitiv normalarni tan olmaganlar va tomonlarning shartnoma shartlarini o'zgartirishga haqlari yo'q, deb hisoblaganlar. Ularning fikricha, shartnoma shartlari musulmon huquqi tomonidan o'zgarmas qilib o'rnatilgan. Boshqa huquq maktablarining vakillari esa tomonlarning musulmon huquqi taqiqlamagan har qanday kelishuvlarini ma'qullaganlar. Hanafiylar va Shofi'iylar maktabi kompromiss (kelishuv,

murosa qilish) nuqtai nazarni quvvatlaganlar. Umuman olganda, musulmon huquqida ko‘plab normalar imperativ xarakterga ega. Musulmon huquqiy doktrinasi ta’limoti musulmonlar huquqiy normalarni biladilar degan nuqtai nazaridan kelib chiqadi. Aks holda, agarda musulmonlar u yoki bu normani bilmasdan xatti-harakat sodir etgan bo‘lsalar, ular javobgarlikdan ozod etiladilar. Ko‘pchilik tadqiqotchilar ushbu holatni faqat Qur’on va sunna normalariga tegishli, mujtahidlar tomonidan qabul qilingan normalar esa musulmonlar ularni bilish yo bilmasliklaridan qat’i nazar, amal qiladi, deyishgan. Musulmon huquqining boshqa huquqiy tizimlar, jumladan roman-german huquqiy tizimidan muhim farqi shundaki, uni sohalarga bo‘lish manbalarga bog‘liq emas. Bitta manba musulmon huquqining bir necha sohasi uchun asos, zamin bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Musulmon huquqining shakllanishi davrida uni sohalarga bo‘lish masalasi ko‘tarilmagan. Huquq normalarini dastlab mazmuniga ko‘ra guruhlashga harakat qilingan. Musulmon huquqi nazariyasi to‘liq shakllangach, uning normalarini sohalarga bo‘lish davri boshlandi<sup>1</sup>. Lekin, huquqiy maktablar orasida musulmon huquqi normalarini alohida sohalarga taqsimlash borasida yakdillik bo‘lmagan va bu hol hozirgacha saqlanib qolmoqda. Ba’zi tadqiqotchilar musulmon huquqi normalarini uchta katta guruhga bo‘ladilar. Musulmon huquqi tizimi musulmonlarning uch asosiy hayot tarzini tartibga soluvchi norma va tamoyillarni «qamrab oladi». Ular musulmonlar bilan Alloh o‘rtasidagi; fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni; davlatlar va dinlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalardir.

Ba’zi tadqiqotchilar musulmon davlati va u bilan fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar va institutlar yig‘indisini alohida mustaqil guruhga ajratadilar. Hanafiy mazhabiga mansub olimlar esa davlatlar, xalqlar, turli dinlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yig‘indisini alohida guruhlarga ajratadilar. Masalan, «Majalla-al-ahkom al-adliya»da (ilk islom kodeksi) islom bilan bog‘liq bo‘lgan barcha qoidalar ikki katta guruhga bo‘lingan.

*Birinchi guruh* ibodat – barcha musulmonlarning diniy majburiyat-larni ado etishlari bilan bog‘liq qoidalar.

*Ikkinchisi guruh* muomalot – fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yig‘indisi.

---

<sup>1</sup> Қаранг: *Исмоил Ҳаққи Измирли. Ҳикмати ташриъ* (Ислом хуқуқшунослигининг ҳикмати). Ж. 1. – Истамбул, 1986.

Muomalot o‘z o‘rnida uchta asosiy guruhgaga bo‘lingan:

- shaxsning huquqiy maqomini belgilovchi normalar;
- jinoyat huquqi;
- fuqarolik huquqi.

Musulmon huquqi nazariyasi ushbu uch tarmoq bilan bir qatorda, yana boshqa uchta tarmoqni, ya’ni «hokimiyat normalari» sohasi, sud huquqi, siyar normalari – musulmon xalqaro huquq normalalarini ajratadi. Musulmon huquqi normalalarini yuqorida bayon qilingan tarzda sohalarga bo‘lish hozirgi zamon huquqshunosligida keng tarqalgan nuqtai nazar, deb hisoblanadi. Bundan tashqari, ayrim huquqshunoslardan musulmon huquqini umumiy va xususiy turlarga bo‘lish g‘oyasini ilgari surganlar. Lekin, an’ anaviy musulmon huquqshunoslik fanida ushbu g‘oya deyarli tasdig‘ini topmagan. Musulmon huquqini amaliyatda umumiy va xususiy turlarga bo‘lish hollari birmuncha darajada uchraydi. Bu vaziyatda shuni ta’kidlash lozimki, huquq normalari umumiy va xususiy turlarga ajratilayotganda, ular tartibga soladigan munosabatlarning mazmuni emas, balki tartibga solish usuli asos qilib olingan. Ayrim tadqiqot-chilarining fikricha, musulmon huquqi, umumiy olganda, xususiy huquqdir. Uning normalari asosan, shaxsning manfaatlari, jamiyatda tutgan o‘rni, hayoti, huquq va majburiyatlari, oilasi va mulkini muhofaza qilish va boshqalar bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Mutaxassislar xususiy huquqqa shaxsiy, oila, fuqarolik va savdo huquqi kabi sohalarni kiritadi. Jinoyat huquqi borasida ta’kidlash lozimki, ushbu huquq sohasi ko‘p jihatdan xususiy huquqdir. Chunki jinoyat huquqi bir nechta jinoyatlarni hisobga olmaganda, asosan alohida shaxslar manfaati, shaxsi va haq-huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Unda umumiy va xususiy huquq normalari aralashib ketgan. Xuddi shunday holat musulmon sud huquqida ham kuzatiladi. Mutaxassislar tom ma’nodagi umumiy huquqqa hokimiyat normalari huquqini ham kiritadilar. Ushbu soha normalari orqali davlat organlarini tashkil qilish, ularning vakolatlari, faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, davlat organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, ma’muriy-huquqiy munosabatlar tartibga solinadi.

Umumiy huquqning yana bir sohasi – musulmon xalqaro huquqidir. Undagi normalar musulmon davlati bilan boshqa davlatlar, musulmon jamoasi bilan boshqa dinlar va diniy jamoalarga mansub kishilarning o‘zaro aloqalari, islomga munosabati, urush va tinchlik masalalarini tartibga soladi. Musulmon xalqaro huquqini sof holda umumiy va xalqaro huquq deb atash mumkin emas. Chunki u umumiy manfaatlar bilan bir qatorda, xususiy manfaatlar bilan ham bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni

tartibga soladi. Shuningdek, u bir tomondan, davlatlararo munosabatlarni, ikkinchi tomondan esa, islom mamlakati hududidagi musulmon jamoasi bilan boshqa diniy tashkilotlar, musulmonlar bilan musulmon bo‘limganlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Demak, musulmon xalqaro huquqida ham umumiyligi huquq normalari bilan xususiy huquq normalari qorishib ketgan. Musulmon huquqi normalarini sohalarga bo‘lish masalasida yuqoridagi fikr-mulohazalarga yakun yasab, shuni ta’kidlash lozimki, ushbu masala munozarali bo‘lib, bu haqdagi tortishuvlar hozirgacha davom etmoqda. Buning sabablaridan birinchisi musulmon huquqining murakkab, serqirra, sermazmun va ko‘p manbalni huquq tizimi ekanligidir. Ikkinci muhim sababi – musulmon huquqi nazariyasi va amaliyotiga yuqorida qayd etilgan musulmon huquq maktablari vakillarining ko‘rsatgan ta’sirlaridir. Uchinchidan, yer kurrasidagi turli mintaqalar, mamlakatlarda musulmon huquqi, uning sohalari va institutlari, muammolarini o‘rganish, tadqiq qilishga qiziqishning ortib borayotganligidir.

### *Savol va topshiriqlar*

1. «Islom davlatlarida huquqiy normalar» tushunchasining mohiyatini tushuntiring.
2. Ijtihad – musulmon huquq ijodkorligining ma’nosini tushuntiring.
3. «Islom huquqi normalari» tushunchasi, turlarini izohlang.
4. «Tavsiya etuvchi normalar», «ruxsat beruvchi normalar» tushunchalari va turlarini tushuntiring.

## **6-BOB. MUSULMON HUQUQINING TARMOQ VA INSTITUTLARI. ISLOM DAVLATI VA MOLIYA HUQUQI**

### **6.1. Islomda «davlat huquqi» tushunchasi**

Musulmon jamoasida oliy hokimiyat, ya’ni xalifalik huquqi to‘g‘risidagi masala milodiy VII–X asrlarda hal etilgan bo‘lib, u xalifalikning ijtimoiy-siyosiy tarixida eng muhim va keskin muammo hisoblangan. Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarning vafotidan so‘ng, yangi xalifani saylash zarur bo‘lgan. Makka va Madinada payg‘ambar bilan birga bo‘lib, hadislarni yaxshi biluvchi, hayoti payg‘ambarning sunnada tafsiflangan hayotiga monand bo‘lgan zotgina xalifa lavozimiga munosib

ko‘rilgan<sup>1</sup>. Bunday shaxsning farmoyishlarini musulmonlar so‘zsiz, zudlik bilan bajarishlari uchun u ancha katta nufuzga ega bo‘lishi shart edi. Dastlabki to‘rt xalifa bunday talablarga to‘liq javob berar edilar. Ular arab diniy manbalarida «xulafo ar-roshidin», ya’ni «to‘g‘ri yo‘ldan borgan xalifalar», deb ta’riflangan.

Qur’oni karimda Odam va Dovud alayhissalomlar Allohnинг yerdagи noiblari sifatida xalifalar deb atalgan, ya’ni: «*Eslang (ey Muhammad), Parvardigoringiz farishtalarga: «Men Yerda (Odamni) xalifa (yordamchi) qilmoqchiman»*, deganida, ular aytdilar: «*U yerda buzg ‘unchilik qiladigan, qonlar to‘kadigan kimsani (xalifa) qilasanmi? Holbuki, biz hamdu sano aytish bilan Seni ulug‘laymiz va Sening nomingni mudom pok tutamiz»*. (Alloh) aytdi: «*Men sizlar bilmagan narsalarni bilaman*». Va *U zot Odamga barcha narsalarning ismlarini o‘rgatdi. So‘ngra ularni farishtalarga ro‘baro‘ qilib dedi: «Agar xalifalikka biz haqdormiz, degan so‘zlarining rost bo‘lsa, mana bu narsalarning ismlarini Menga bildiring!»* («Baqara» surasi)<sup>2</sup>.

«*Ey Dovud, darhaqiqat, Biz seni yerda xalifa qildik. Bas, sen (nafs) xohishiga ergashib ketmagin!* Aks holda, u seni Allohnинг yo‘lidan ozdirur. Albatta, Allah yo‘lidan ozadigan kimsalar uchun hisob-kitob kunini (ya’ni qiyomatni) unutib qo‘yanlari sababli, qattiq azob bordir» («Sod» surasi).

«Xalifa» so‘zi Abu Bakr jamoa boshlig‘i (amiri) qilib saylanganidan keyin terminologik ahamiyat kasb etdi. Ikkinci xalifa – Umarga «Allah elchisining xalifasi», degan nom berildi, lekin keyinroq bu nom amir al-mo‘minin (mo‘minlar hukmdori), deb o‘zgartirildi. Ko‘plab musulmon mutafakkirlarining fikricha, xalifa hokimiyatining qaror topishi «zarurat» edi. U musulmon davlatining boshlig‘iga, xalifani saylovchi va nazorat qiluvchi, shuningdek unga maslahatlar beruvchi jamoa vakillariga, shuningdek barcha musulmonlarga yuklatilgan «majburiyat» sanalgan. Islom davlatshunoslari xalifalikning zarurligi haqidagi xulosani isbotlash uchun diniy aqidalar bilan birga, mantiqiy dalillarni ham keltirganlar. Diniy aqidalarda musulmonlarning diniy majburiyatlarni ado etishlari, umuman musulmon huquqi qoidalarini to‘liq bajarishlari uchun xalifa nazorati zarurligi ta’kidlangan.

---

<sup>1</sup> Қаранг: *Абул Ҳасан Али ал-Мовардий*. Султоний хукмлар (Араб тилида). – Коҳира, 1298.

<sup>2</sup> Қуръони карим маъноларининг таржимаси / Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. – Т., 2001.

Musulmon huquqi qoidalariga asoslangan islomiy adolatga erishish uchun «oqilona» sabablardan hisoblangan jamoa a'zolari o'rtasidagi nizolarni hal qilish zarurligi keltirilgan. Lekin xalifalik foydasiga ilgari surilgan barcha oqilona dalillarning markazida doim davlat va jamoat ishlarida tartibsizlik hamda o'zboshimchalikka yo'l qo'ymaslik zarurligi ta'kidlangan1.

Shialik yo'nalishi vakillari xalifalikning zarurligi g'oyasini yanada qat'iyoq «himoya qilganlar». Shialar imomatni (ular davlatni shunday deb ataganlar) Muhammad (s.a.v.) payg'ambar da'vatining davomi va muqarrar yakuni, deb hisoblaganlar. Ular imomatni qaror toptirish jamoa burchi emas, balki Allohning huquqi, deb bilganlar. Ta'kidlash lozimki, shialarda musulmon davlati huquqiy institut emas, balki dinning ilk asoslaridan biri, islomning «tayanchi» hisoblanadi. Imomat huquq fani predmetini tashkil etmaydi, huquqshunoslar ta'riflagan normalar yordamida ta'riflanmaydi, balki Allohning hukmi bilan uzil-kesil belgilangan qoida, shakl hisoblanadi. Shu bois shialar imomatdan voz kechish yoki hatto uning muayyan shaklini tanlashni jamoaga topshirish mumkin emas, deb ta'kidlaydilar.

Dastlabki to'rt xalifani saylash tartiblari oddiy qabila boshlig'ini saylashdan kam farq qilgan. Bunda hokimiyatga bo'lgan huquqning birdan-bir manbai – ko'pchilikning xohish-irodasi bo'lgan. Muhammad (s.a.v.) payg'ambar vafotidan so'ng musulmonlarning guruhlarga bo'linishiga sabab bo'lgan jamoa rahbari xususidagi bahslarda quyidagi holatlar aniq-ravshan ko'zga tashlangan:

- a) rahbar musulmonlar jamoasi (umma) tomonidan saylanishi lozim, degan fikrga hamma qo'shilgan;
- b) jamoa ma'qul deb topgan, ko'pchilik musulmonlarning e'tiborini qozongan odamgina saylanishi mumkin bo'lgan.

Kim rahbar lavozimiga da'vogar bo'lishi mumkin, degan masalada ulamolar yagona fikrga kela olmaganlar. Muhammad (s.a.v.)ning kutilmagan vafotidan so'ng, muhojirlar va ansorlar o'rtasida nizo chiqqan. Choryorlardan biri, buyuk davlat arbobi Umar ibn Hattob al-Farruh (taxminan 585–644)ning vositachiligidagi bu nizoga barham berilgan. Aynan u Abu Bakrni xalifa etib saylash (632-y.) tashabbuskori, uning yaqin maslahatgo'yi bo'lib, o'z kuch-g'ayrati va qat'iyni bilan unga madad berib turgan.

Muhojirlar islam dinini qabul qilgan madinaliklar – ansorlar bilan birgalikda musulmon jamoasining eng sara qismini tashkil qilgan. Allohning elchisi vafot etganidan so'ng, muhojirlar va ansorlar o'rtasida

hokimiyat uchun kurash avj olgan. Bu kurashda muhojirlar yutib chiqqanlar. Shuni ta'kidlash zarurki, islomdagi barcha xalifalar makkaliklar avlodidan bo'lgan. Xalifalik ulamolari Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning avlodlari (Hoshimiylar), payg'ambar sahabalari (muhojirlar va ansorlar), Makkaning ayrim nufuzli qavmlari (ayniqsa, ummaviyalar)dan va oldingi qabila oqsoqollarining bir qismidan yetishib chiqqanlar.

O'sha davrda musulmonlar jamoasi va arab davlati o'rtasida farq bo'Imagan. Jamoa Qur'on va sunna asosida boshqarilishi lozim, deb hisoblangan. Xalifalik hokimiyatining diniy va dunyoviy (siyosiy) vazifalari ham dastlab farqlanmagan, lekin keyinroq ular farqlana boshlandi. Barcha musulmonlarning tengligi rasman tan olingan.

Uchinchi xalifa – Usmon davrida xalifalik to'liq ummaviyalar va ularning izdoshlari, boshqacha aytganda, makkalik zodagonlar firqasi qo'liga o'tdi. Keksa muhojir, payg'ambarning kuyovi Usmon o'ta taqvodor musulmon sifatida dovruq qozongan edi. U o'z atrofiga ummaviyalar urug'i a'zolarini to'pladi.

Xalifalikdagi barcha muhim lavozimlar, chunonchi, sarkarda va viloyat noiblari lavozimlarini ummaviyalar urug'ining a'zolari yoki ularning tarafdarlari egalladilar. Ular yerlarni bosib olish va boyishda o'z mavqeidan foydalandilar. Xususan, Muoviya ibn Abu Sufyon boy Suriya noibi etib tayinlandi. Ijtimoiy tengsizlikning kuchaygani ummaning ko'pgina a'zolarining noroziligiga sabab bo'ldi. Usmon hokimiyatiga qarshi xalifalikda muxolifat yuzaga keldi. Qo'shinda va viloyatlarda yashovchi zodagonlar o'rtasida xalifa Usmonning siyosatiga qarshi norozilik kuchaydi. Aynan shu davrda Muhammad (s.a.v.)ning kuyovi, uning suyukli qizi Fotimaning eri Ali ibn Abu Tolib tarafdarlari guruhi yoki firqasi tashkil topdi. Uning tarafdarlari «Ali shiasi» yoki «Ali firqasi» deb nomlandi. Shialik yo'naliشining nomi shundan kelib chiqqan.

## **6.2. Davlat boshqaruvi shakllari: imomlik va xalifalik**

Dastlab birinchi xalifani saylash chog'ida Alining xalifalikka bo'lgan huquqini faqat uch nafar sahaba – Abu Zarr al-G'afforiy, Mihdad ibn al-Asvat va fors Salmon al-Forsiy yoqlab chiqdilar. Biroq ularning gaplariga hech kim quloq solmadi. Xalifa Usmon davrida jamiyatning quyi tabaqalari o'rtasidagi norozilikning kuchayishi bois Alining dovrug'i oshdi. Abu Zarr (653-y. v.e.) «Ali firqasi» shialik harakatining faol

tashkilotchisiga aylandi. Abu Zarr Damashqda, xalifa noibi Muoviya huzurida hukmdor tabaqaning dabdababozligi va ochko‘zligini qoralab, va’z aytdi. U payg‘ambarning oilasi, ya’ni Ali va uning Fotimadan tug‘ilgan o‘g‘illari – Hasan va Husayn imomlik huquqiga egalar, deb e’lon qildi.

Milodiy 653–655-yillarda xalifa Usmon hokimiyatiga qarshi norozilik tobora kuchayib bordi. 656-yil may oyining boshlarida Madinaga misrliklardan elchilar keldi. Usmon Alining vositachiligidagi ular bilan muzokaraga kirishdi va qo‘yilgan talablarni qondirishga va’da berdi. Ammo shundan keyin xalifa Misrdagi noibi ibn Abu Sarhuga elchilar vataniga qaytgach, ularni qatl etishni buyurib, maktub yubordi. Biroq yo‘lda misrliklar maktubni qo‘lga kiritdilar va Madinaga qaytib kelib, boshqa norozilar bilan birga Usmonning uyini qamal qildilar. Ular Usmondan xalifalikdan voz kechishni talab qildilar. Usmon rozi bo‘lmadi. Shunda isyonchilar uni o‘ldirdilar.

Misrliklarning taklifiga ko‘ra (ularga kufaliklar va basraliklar ham qo‘shildi) Ali ibn Abu Tolib xalifa deb e’lon qilindi. Ammo sahobalardan Talha va az-Zubayr, shuningdek Aliga nisbatan adovatda bo‘lgan payg‘ambarning bevasi Oyshaning tarafdarlari unga qarshi bosh ko‘tardilar. Ular Alining qat’iyatsizligi va sustkashligidan foydalanib, Basrani egallab oldilar. Ayni vaqtida qatl etilgan Usmonning qarindoshi, Suriya hokimi Muoviya ham Aliga qarshi urush e’lon qildi. 656-yilning dekabrida Basra shahri yaqinida bo‘lgan «tuyalar jangi»da Ali Talha va az-Zubayrning kam sonli qo‘shinini tor-mor keltirdi. Oysha asir olindi. Lekin Ali unga izzat-ikrom ko‘rsatib, qo‘yib yubordi. Shunday qilib, eski muhojirlarning bir qismiga suyangan guruh tor-mor etildi. Payg‘ambarning kuyoviga qarshi faqat birgina raqib – Muoviya qoldi. Ali o‘z qarorgohini Iroqning Kufa shahriga ko‘chirib, suriyaliklarga qarshi urush boshladi. 657-yilning iyulida Furot daryosining o‘ng qirg‘og‘idagi Siffin degan joyda yuz bergen jangda Alining qo‘li baland kelgan bo‘lsa-da, u raqiblari bilan kelishishga ko‘ndi. Alining harakatidan norozi bo‘lgan askarlaridan 12 ming kishi jang maydonini tark etib, «xorijiylar» deb atalgan diniy-siyosiy oqimni tashkil qildilar.

«Shialar» singari «xorijiylar» ham dastlab sof siyosiy firqa bo‘lgan va keyinchalik alohida diniy oqimga aylangan. Alining tarafdarlari shundan buyon «shialar» deb ataladi. Ular Ali va uning avlodlariga, shuningdek avloddan avlodga o‘tuvchi xalifalik – imomat g‘oyasiga sodiqdirlar.

Ali bilan Muoviya o‘rtasidagi urush 658-yilda yana avj oldi. Biroq Ali maslahatchilarining so‘ziga kirib, avaal «xorijiylar»ga qarshi yurish

qildi, ularning qo'shinini Nahrevon yaqinidagi jangda tor-mor keltirdi. Lekin «xorijiylar» oqimi yo'q qilib tashlanmadı. Shundan beri «shialar» va «xorijiylar» o'rtasidagi ixtilof murosasizlik tusini oldi.

Hazrat Ali 661-yil 19-yanvarda Kufa masjididan chiqayotganda Abdurahmon ibn Muljam as-Sorimiy degan xorijiy tomonidan jarohatlandi va ikki kundan so'ng vafot etdi. Bundan avval (660-yilda) Muoviya Quddusda xalifa deb e'lon qilingan edi. Oxirgi ikki yilda ustunlik Muoviya tarafida bo'lgan fuqarolar urushi Alining o'limidan so'ng barham topdi. Shialar ikkinchi imom deb hisoblagan Alining katta o'g'li Hasan Muoviya bilan tuzilgan bitimga ko'ra, o'z huquqlaridan voz kechdi, buning evaziga ko'p miqdorda pul va boy mulklar olib, Madinada yashay boshladi. Muoviya o'zining barcha raqiblarini afv etdi. U xalifalikning barcha viloyatlarida xalifa deb tan olindi (uning xalifalik davri 661–680-yillar). Muoviya davrida poytaxt Damashqqa ko'chirildi, chunki unga asosiy tayanch bo'luvchilar Suriyada yashaydigan arab qabilalari edi.

Ummaviylar sulolasining hukmronlik davrida (661–750) xalifalik ilk feodal jamiyatga aylandi. Ummaviylar dunyoviy davlat qurdilar. Bu muhojirlar va ansorlardan iborat diniy davlat tarafdarlarining noroziligini kuchaytirdi. Madina muxolifat markazi bo'lib qoldi. Lekin Ummaviylarning eng xavfli raqiblari shialar va xorijiylar edi. Xorijiylar qo'zg'olonlar ko'tarishda doim quyi tabaqalar – dehqonlar, qashshoq badaviylar, shahar hunarmandlari va qullarga tayanardilar. Xorijiylar o'tgan xalifalardan faqat Abu Bakr va Umarni tan olardilar, xolos. Ular o'z oralaridan «xalifalar» tayinlar edilar, lekin ularni xorijiylarning o'zlaridan boshqa hech kim tan olmasdi. Bularning barchasida ilk xorijiylarning demokratik xususiyati namoyon bo'ladi. Amalda ushbu oqimning tarafdarları musulmonlar jamoasini davlatning oliy organi, deb hisoblaganlar, xalifalarga bu jamoaning xizmatkorlari sifatida qaraganlar.

Xorijiylar ta'limotiga ko'ra, xalifa diniy jamoa tomonidan saylanadi va jamoaga bo'ysunadi. Har qanday taqvodor musulmon (hatto u qul yoki qora tanli bo'lsa ham) xalifa etib saylanishi mumkin. Agarda xalifa jamoa manfaatlarini himoya qilmasa, vazifasidan bo'shatiladi va hatto qatl etiladi. Xorijiylar fikricha, e'tiqod amaliy faoliyat bilan mustahkamlanishi shart.

VII asrning oxirida xorijiylar ko'targan ko'plab qo'zg'olonlar ummaviylardan bo'lgan xalifalar tomonidan shafqatsizlik bilan bostirildi. Oxirgi qo'zg'olonlar xalifa Marvon II (744–750)ning davrida Mesopotamiya va Arabistonda ko'tarildi. Bu mashhur sarkarda qo'zg'oltonni

bostirish uchun juda ko‘p harbiy kuch sarflashiga to‘g‘ri keldi. Ummaviylar bilan shialar ham murosaga kela olmaganlar. Ummaviylar bilan Alining avlodlari o‘rtasidagi xalifalik uchun kurashlar jarayonida islom dini ikki asosiy yo‘nalish – sunniylik va shialikka bo‘linganini biz yuqorida aytib o‘tdik.

Ilk shialar faqat arablar edi. Biroq, Ummaviylar davrida bu harakat Iroq va Eronda ham keng tarqaldi. Shialar bu davlatlarning aholisiga arablar bilan teng huquqlarni berishni va’da qildilar.

Xalifalik hokimiyatini avval Aliga, uning vafotidan keyin esa avlodlariga berish masalasi shialar bilan ummaviylar o‘rtasidagi kurashning siyosiy maqsadiga aylandi. Bu shialarning avloddan avlodga o‘tish tamoyiliga asoslangan xalifalik hokimiyatini tan olishlarini anglatar edi.

Shialarga ummaviylarga qarshi kurashning g‘oyaviy asoslari zarur edi. Ali Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarning oilasidan chiqqanligi, Alining o‘g‘illari – Hasan va Husayn payg‘ambarning nabiralari ekanligi shialar uchun shunday asos bo‘lib xizmat qildi. Bundan tashqari, ular ummaviylarni Qur‘on qoidalaridan chetga chiqishda va dahriylikda aybladilar. Yuzaga kelgan sharoitda shialar marhum Alining shaxsini o‘ta ilohiylashtirib yubordilar. Shialarning hadislarida u nafaqat Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarga teng, balki ba’zan undan ham yuqori qo‘yiladi. Ular o‘rtasida Allohnning Muhammad (s.a.v.)ga aytgan quyidagi «so‘zlari» keng tarqalgan: «...agar sen bo‘lmasang, men osmonni yaratmagan bo‘lardim, lekin Ali bo‘lmasa, men seni yaratmagan bo‘lardim»<sup>1</sup>.

Usmon to‘plab kitob shakliga keltirgan Qur‘onning 114-surasiga shialar «Ikki ziyo» deb nomlangan yana bir surani qo‘sghanlar. Bunda «ziyo»lardan birinchisi Muhammad (s.a.v.) payg‘ambar, ikkinchisi Ali, deya tan olingan. Shialar Qur‘onning to‘plovchilarini uning mazmunida Alining ilk islom tarixidagi rolini pasaytirib ko‘rsatganlikda ayblaganlar.

Sunna hadislari to‘planib, qayd etilishi jarayonida Qur‘on matni va diniy ta’limotning mazmuni ko‘proq ummaviylarning manfaatlariga moslangan. Tabiiyki, shialar bu bilan kelisha olmaganlar, ular sunnani inkor etib, Ali va uning tarafдорлари manfaatlari bilan bog‘liq hadislardan iborat mustaqil to‘plamlar tuzganlar. Bunday to‘plamlar «Axbor» deb atalgan.

Ko‘pgina islomshunoslar hadislarning bu ikki to‘plamini qarama-qarshi qo‘ymaslik kerak, deb hisoblaydilar. Masalan, taniqli fransuz sharqshunosi A. Masse: «Matnlarning aksariyati umumiyl bo‘lib, roviylar-

<sup>1</sup> Қаранг: Климович Л.И. Ислам: очерки. – М., 1962. – С. 113.

ning ismiga ko‘ra farq qiladi<sup>1</sup>, – deb yozadi. Shunga qaramay, islom-dagi asosiy yo‘nalish – sunniylik degan nom sunniylik ta’limotini tan olishdan kelib chiqqan.

Muhammad (s.a.v.) payg‘ambar nabiralari – Hasan va Husayn (Hazrat Alining o‘g‘illari)ning xalifalik siyosiy maydoniga chiqishga urinishlari muvaffaqiyatsiz tugadi. Ularning mavqeい va imomlik unvoni ularga hokimiyatni egallash imkonini bermadi.

Xalifa Muoviya I ning o‘limi (680-yil) Ummaviylarga qarshi muxolifatning bosh ko‘tarishiga turtki bo‘ldi. Kufa shialari Makkaga, Alining ikkinchi o‘g‘li Husaynga vakillar yuborib, uni Kufaga taklif qildilar va undan xalifa Yazidga qarshi qo‘zg‘olonga bosh bo‘lishini so‘radilar. Shialar Alining katta o‘g‘li, ikkinchi imom Hasan 669-yilda vafot etgach, Husaynni uchinchi imom deb e’lon qilgan edilar. Husayn kichik lashkar bilan Makkadan Kufaga jo‘nadi. U jiyani Muslim ibn Oqilni Kufaga o‘zidan ilgariroq yubordi. Biroq Kufa noibi Ubaydulloh ibn Ziyod shialarning qo‘zg‘olonini avj olmasdan turib bostirdi, Muslim Kufaga yetmasdan halok bo‘ldi. Husayn yo‘lda bundan xabar topdi, lekin orqaga qaytishni xohlamadi. U yetmish nafar jangchisi, shu jumladan 18 yoshli jiyani, ularning xotinlari va bola-chaqalari bilan Kufa yaqinidagi Karbalo dashtiga yetib kelganida, xalifa Yazidning sarkarda Umar ibn Said ibn Abu Vaqqos boshliq bo‘lgan to‘rt ming kishilik qo‘shini ularni qurshovga oldi. Husayn Umarning xalifaga taslim bo‘lish haqidagi talabini rad etdi, uning odamlari bir hafta mobaynida tashnalikdan azob chekdilar. 680-yil 9-oktabr tunida Husayn o‘z yaqinlariga vasiyat qoldirib, so‘nggi ko‘rsatmalarini berdi. 10-oktabr kuni ertalabki namozdan keyin Husayn va uning odamlari jangga kirdilar. Husayn jangda tengsiz mardlik ko‘rsatib, tanasining 67 joyidan jarohatlanib, shahid bo‘ldi. Uning jangchilari ham halok bo‘ldilar. Ularning tanasidan juda qilingan boshlari Damashqqa, xalifa Yazidga yuborildi. Xalifa Husaynning asir olingan xotinlari, bolalari va qarindoshlarini ozod qilib, Madinaga qaytishlariga ruxsat berdi. Karbalodagi fofia shialarga juda kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ular uchinchi imom Husaynni shahid, deb e’lon qildilar, Husaynning jasadi dafn etilgan Karbalo dashti shialarning asosiy ziyoratgohlaridan biriga aylandi. Shialar hozirgacha imom Husaynga motam tutadilar, «Shaxsey-vaxsey» deb nomlangan motam yurishlari o‘tkazadilar. Bu ibora «Shoh Husayn, voh Husayn», degan ma’noni anglatadi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Массэ А. Ислам. Очерк истории. – М., 1961. – С. 139.

<sup>2</sup> Қаранг: Босворт К.Э. Мусулмон сулолалари. – Т., 2007. – Б.24.

Dastlabki imomlarning barchalari o'ldirilgani shialarning bu barcha imomlarning qismati, deb hisoblashlariga asos bo'ldi. Ilk islom davrida musulmon jamoasida oliy hokimiyatga bo'lgan huquq haqidagi fikrga yakun yasar ekanmiz, quyidagi xulosalarga keldik. Dastlab siyosiy harakat sifatida vujudga kelgan shialik Husaynning o'limidan (680-yil) keyin o'tgan 70 yil mobaynida, ya'ni xalifalik Abbosiylar sulolasining qo'liga o'tgunga qadar (750-yil) diniy yo'naliishga aylandi. Shialikning diniy oqimga aylanishi zamirida shahid ketgan imomlar Ali va Husaynning ruhlariga sig'inish yotadi.

Shialik ta'limotida imomlarning mavqeい sunniylik tizimidagidan ancha yuqori qo'yiladi. Shialik ta'limotiga ko'ra, imomlar o'z hokimiyatini Allohning hukmiga asosan oladi, chunki Alining avlodlari, sulolasida har qaysi imomning tug'ilishi Alloh tomonidan belgilab qo'yilgan. Imomlarning diniy yoki siyosiy masala yuzasidan chiqargan har qanday hukmi qat'iy hisoblanadi. Aynan shu jihatdan shialik sunniylikdan keskin farq qiladi. Zotan, sunniylikda uzil-kesil qaror ulamolar va faqihlarning umumiy kelishuvi (ijmo) asosida chiqariladi, shialikda esa bunday qarorni imomning o'zi chiqaradi.

Xalifalik o'rta asrdagi davlat sifatida Arabiston yarim orolining markaziy qismida yashagan arab qabilalarining birlashishi natijasida vujudga keldi. VII asrda arab davlatchiligi yuzaga kelishining o'ziga xos xususiyati shundaki, mazkur jarayon diniy tusga ega bo'lib, yangi jahon dini – islomning shakllanishi bilan bog'liq holda yuz bergen. Majusiylik va mushriklikdan voz kechish g'oyasi ostida amalga oshirilib, qabilalarni birlashtirishni bosh maqsad qilib qo'ygan siyosiy harakat – «Hanafiylik harakati» deb nomlangan.

*Hanif* – yakkaxudolikka e'tiqod qiluvchi, haqqa moyil, taqvodor odam. Musulmonlarning rivoyatiga ko'ra, islomgacha Arabistondagi qabila xudolariga sig'inishni rad etib, zohid, yakka xudoga astoydil ishongan, ammo xristianlikka ham, yahudiylitka ham qo'shilmagan va Ibrohim (s.a.v.) dinida bo'lgan odam «hanif» deb atalgan. Qur'onda Ibrohim alayhissalom ham hanif deb atalgan, uning chinakam yakka xudolikka asoslangan dinini Muhammad (s.a.v.) tiklagan, deb hisoblanadi. Ibn Mas'udning naql qilishicha, Qur'onda «hanaf» atamasi mavjud1, matnning boshqa variantlarida u «islom» atamasi bilan almashtirilgan: «*Albatta, Allah nazdida maqbul bo'ladigan din faqat islam dinidir. Ahli kitoblar (yahudiy va nasroniylar) ularga (islom va Muhammadning haq payg'ambarligi haqida) hujjat kelganidan keyin*

*faqat o‘zaro hasad-adovat qilganlari sababligina talashib-tortishdilar...»*  
(Qur’oni karimning «Ol-i Imron» surasi, 19-oyat).

VII asrning 20–30-yillarida, ya’ni o’n yil vaqt mobaynida Madinadagi musulmonlarning davlat tuzilmasida tashkiliy qayta qurish jarayoni tugallandi. Muhammad (s.a.v.)ning o‘zi bu jarayonda diniy rahnamo va hakam vazifasini bajardi. Islom dini va jamoaning harbiy kuchi yordamida yangi ijtimoiy-siyosiy tuzilmaning dushmanlariga qarshi kurash boshlandi. Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarning yaqin qarindoshlari va safdoshlari hokimiyatga bo‘lgan mutlaq huquqni qo‘lga kiritgan imtiyozli guruh bo‘lib birlashdilar. Bu haqda biz yuqorida to‘xtalib o‘tdik. Shuni qo‘sishimcha qilish mumkinki, VII asr va VIII asrning birinchi yarmida Vizantiya va Eronning sobiq mulklaridan aksariyati, jumladan Yaqin Sharq, O‘rta Osiyo, Kavkazorti, Shimoliy Afrika va Ispaniya fath etildi. Arablarning qo‘sini Fransiya hududiga ham kirib keldi. Shuni ta’kidlash kerakki, arab jamiyatining rivojlanishi Sharq o‘rta asr jamiyatlari tadrijiy rivojlanishining asosiy qonuniyatlariga bo‘ysungan, diniy va milliy-madaniy omillardagina muayyan farqlar mavjud bo‘lgan.

Musulmon ijtimoiy tuzumiga xos xususiyatlar: yerga nisbatan davlat mulk huquqining ustuvorligida, davlat xo‘jaligi (sug‘orish, konlar, ustaxonalar)da qullar mehnatidan keng foydalanganida, dehqonlarga davlat foydasiga ishlab berish shaklida soliq solinishida, jamiyat hayotining barcha jabhalari davlat tomonidan diniy qoidalar orqali tartibga solinishida, shaharlarning alohida maqomga ega emasligida, to‘laqonli tabaqalar, hech qanday erkinlik va imtiyozlarning yo‘qligida namoyon bo‘ladi. Shaxsning yuridik holati diniy e’tiqod bilan belgilanganligi sababli, musulmonlar va g‘ayridinlar (zimmilar)ning huquqiy maqomidagi farqlar asosiy o‘ringa chiqqan.

Rivojlanishning dastlabki bosqichida xalifalik nisbatan markazlashgan teokratik monarxiya bo‘lgan. Diniy hokimiyat (imomat) va dunyoviy hokimiyat (amirlik) xalifa qo‘li ostida jamlangan. Bu ikki hokimiyat uzviy va cheksiz hisoblangan. Dastlabki xalifalar ulamolar tomonidan saylangan, ammo oradan ko‘p muddat o‘tmay xalifa hokimiysi uning vasiyatiga ko‘ra, avloddan avlodga o‘tadigan bo‘lgan<sup>1</sup>. Keyinchalik vazir xalifaning bosh maslahatchisi va uning huzuridagi oliy mansabдор shaxsga aylangan. Musulmon huquqiga ko‘ra, vazirlarning ikki toifasi farqlangan: *keng vakolatga ega bo‘lgan vazirlar va vakolati cheklanmagan vazirlar*. Saroydagi yuksak martabali amaldorlar sirasiga xalifa

<sup>1</sup> Қаранг: Исҳаков С. А. Ислом хуқуқий мазҳаблари. – Т., 2009. – Б.34.

shaxsiy soqchilarining boshlig‘i, mirshabboshi va boshqa mansabdar shaxslar ustidan nazorat olib boruvchi alohida amaldor ham kirgan.

Hukumatning maxsus organlari – devonlar (hozirgi vazirliklar) davlat boshqaruvining markaziy organlari hisoblangan. Ular Ummaviylar davridayoq vujudga kelgan. Bu sulola vakillaridan chiqqan xalifalar arab tilida ish yuritishning majburiy tartibini ham joriy etganlar. Harbiy ishlar devoni qo‘sinni ta’minlash va qurollantirish bilan shug‘ullangan.

VII–VIII asrlarda davlat boshqaruvi mahalliy organlari tizimida jiddiy o‘zgarishlar yuz bergan. Fath etilgan mamlakatlarda dastlabki davrda mahalliy amaldorlar apparati va eskicha boshqaruv usullari saqlab qolingan. Xalifalik hukmdorlarining hokimiyyati mustahkamlanishiga qarab, mahalliy ma’muriyatlar forscha andosida tartibga solingan.

Xalifalik hududi viloyatlarga bo‘lingan. Viloyatlarni odatda harbiy noiblar – amirlar boshqarganlar. Ular bevosita xalifaga bo‘ysunganlar. Xalifa amirlarni o‘z yaqinlari orasidan tayinlagan. Biroq mahalliy zodagonlar, fath etilgan hududlarning sobiq hukmdorlari orasidan tayinlangan amirlar ham bo‘lgan. Amirlarga qurolli kuchlar, mahalliy ma’muriy-moliyaviy apparat va mirshablar bo‘ysungan. Amirlarning yordamchi noiblari ham bo‘lgan.

Xalifalikdagi kichik ma’muriy birliklar (shaharlar, qishloqlar) turli daraja va nomdagи mansabdar shaxslar tomonidan boshqarilgan. Ba’zan bu vazifalar mahalliy musulmonlar jamoalarining rahbarlari – shayxlar zimmasiga yuklatilgan.

Xalifalikda sudning vazifalari ma’muriy ishlardan ajratib qo‘yilgan. Mahalliy hokimiyyat organlari hakamlar chiqqan qarorlarga aralashish huquqiga ega bo‘lmagan.

Davlat boshlig‘i – xalifa bosh hakam hisoblangan. Umuman olganda, odil sudlovni amalga oshirish ulamolarning ishi bo‘lgan. Amalda oliy sud hokimiyatini nufuzli faqihlardan iborat hay’at amalga oshirgan. Ular xalifa nomidan ulamolar orasidan quyi hakamlar – qozilar va ularning joylardagi faoliyatini nazorat qiluvchi maxsus vakillarni tayinlaganlar.

Qozilar har xil vakolatlarga ega bo‘lganlar. Ular joylarda barcha toifadagi ishlarni ko‘rib chiqqanlar, o‘z qarorlari va hukmlarining ijrosini kuzatib borganlar. Qamoqxonalar va zindonlar ustidan nazoratni amalga oshirganlar, vasiyatnomalarni, merosni taqsimlaganlar, yerdan foydalanishning qonuniyligini tekshirganlar, vaqf mulkini boshqarganlar. Hukmlar chiqarishda qozilar avvalo Qur’on va sunnaga tayanganlar, ishlarni ularning erkin tafsiri asosida hal qilganlar. Sud qarorlari va qozilar chiqqan hukmlar odatda uzil-kesil bo‘lib, ular ustidan shikoyat

qilish mumkin emas edi. Xalifa yoki uning vakillari qozining hukmini o‘zgartirgan hollar bundan mustasno bo‘lgan.

G‘ayridinlar (zimmiyalar)ning ishi odatda ularning o‘z ruhoniylaridan iborat sudlar tomonidan ko‘rilgan.

Islom dinining birlashtiruvchi omili va hokimiyatni amalga oshirishning avtoritar-teokratik shakllariga qaramay, har xil qismlardan iborat ulkan sultanat yagona markazlashgan davlat sifatida uzoq vaqt mavjud bo‘lishi mumkin emas edi. Xalifalik davlat tuzilmasida IX asrdan boshlab quyidagi o‘zgarishlar yuz berdi:

a) xalifalikning dunyoviy hokimiyati amalda diniy hokimiyatdan ajratildi; xalifaning o‘rinbosari – ulug‘ vazir zodagonlar madadiga suyanib, amalda oliy hukmdorni hokimiyat va boshqaruvdan chetlatdi; IX asr boshiga kelib, mamlakatni amalda vazirlar boshqara boshladi; vazir xalifa oldida hisob bermasdan, oliy davlat amaldorlarini mustaqil tayinlashi mumkin edi; xalifa diniy hokimiyatni sudlar va maorif ishlarini boshqargan qozikalon bilan birga amalga oshira boshladi;

b) xalifalikning davlat mexanizmida armiyaning roli va siyosiy hayotga ta’siri yanada oshdi; xalq lashkari o‘rnini professional yollanma qo‘sishin egalladi; turkiy, kavkaz va hatto slavyan millatlariga mansub qullardan xalifa gvardiyasi (mamluklar) tashkil etildi, bu gvardiya IX asrda markaziy hokimiyatning asosiy tayanchlaridan biriga aylandi; biroq IX asrning oxirida uning ta’siri shu darajada kuchayib ketdiki, gvardiya sarkardalari o‘zlariga ma’qul bo‘lmagan xalifalarni o‘ldirib, taxtga o‘z odamlarini o‘tqizdilar;

d) viloyatlarda xalifalik tarkibidan chiqishga intilish harakatlari kuchaydi; amirlar, shuningdek mahalliy qabilalar oqsoqollarining hokimiyati markazga tobora kam bo‘ysunib bordi; IX asrdan amirlar boshqarayotgan hududlarda siyosiy hokimiyat amalda avloddan avlodga o‘tuvchi xususiyat kasb etdi; amirlarning yangi sulolalari vujudga keldi, ular ayrim holda (agar shialardan bo‘lmasa) xalifaning diniy hokimiyatini tan olar edi;

f) amirlar o‘z qo‘shinini tuzdi, soliq tushumlarini o‘z foydasiga o‘tkaza boshladi va shu tariqa mustaqil hukmdorlarga aylandi; amirlar hokimiyatining mustahkamlanishiga xalifaning ularga kuchayib borayotgan ozodlik harakatlarini bostirish uchun keng huquqlar bergani ham ko‘maklashdi.

Xalifalikning amirlik va sultonatlar – Ispaniya, Marokash, Misr, O‘rta Osiyo, Kavkazortidagi mustaqil davlatlarga parchalanishi shunga olib keldiki, Bag‘dod xalifasi sunniylarning diniy rahnamosi sifatida X asrga

kelib, amalda Eronning bir qismi va poytaxt hududinigina nazorat qila boshladi. X va XI asrlarda Bag‘dodni turli ko‘chmanchi qabilalar bosib olgani tufayli xalifa ikki marta dunyoviy hokimiyatdan mahrum qilindi. Sharqiy xalifalik XIII asrda mo‘g‘ullar tomonidan bosib olindi va butunlay tugatildi. Xalifa qarorgohi xalifalikning g‘arbiy qismiga – Qohiraga ko‘chirildi. Bu yerda xalifa XVI asrning boshigacha sunniylar diniy rahnamosi bo‘lib turdi. 1517-yilda Abbosiy xalifalarning avlodи Mutavakkil III Istanbulga keltirildi va u diniy rahnamolik huquqini turk sultonlariga topshirdi. Turk sultonlari xalifalik unvonini 1924-yilgacha, ya’ni Usmonli turk sultanati ag‘darilgunga qadar saqlab qolganlar.

XX asrda xalifalik instituti butunlay barham topdi. Biroq hozirgi vaqtida islomdagи ayrim buzg‘unchi oqimlar (masalan, «Musulmon birodarlar», «Al-qoida» va b.) xalifalikni tiklashni haqiqiy islomiy tamoyillarni tiklash sharti deb hisoblamoqdalar.

Sharq mamlakatlarining hozirgi davlat-huquqiy rivojlanishida islom va musulmon huquqining o‘rni tahlili, ayrim sharqshunoslarning eskirgan aqidalarga asoslangan sof islomiy davlat-huquqiy tafakkuri hozirgi islom olamida milliy davlatchilikning tadrijiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmaydi, degan fikrlariga qo‘shilishga imkon bermaydi. Mazkur g‘oya hozirgi Sharq mamlakatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmayotgani shubhasiz, lekin ayrim islomiy-huquqiy tamoyillar, me’yorlar va hatto institutlar musulmon mamlakatlarining hozirgi davlat huquqida an’anaviy yoki yangi ijtimoiy mazmun sifatida qo‘llanilmayotganini hech kim inkor eta olmaydi. Bu fikrni isbotlash uchun islom mamlakatlarining hozirgi davlat huquqiga ta’sir ko‘rsatayotgan islom va musulmon huquqining asosiy yo‘nalishlarini ko‘rib chiqamiz.

Islomning davlat dini sifatida tan olinishi islom institutlari va normalarining davlat huquqiga ta’sirini aks ettiruvchi va ayni vaqtida bunday ta’sirning huquqiy negizi sifatida amal qiluvchi asosiy konstitutsiyaviy tamoyil hisoblanadi. O‘ttizga yaqin mamlakatda islom davlat dini sifatida tan olingan. Mazkur konstitutsiyaviy qoida, masalan, Iordaniya (2-modda), Birlashgan Arab Amirliklari (7-modda), Qatar (1-modda), Misr Arab Respublikasi (2-modda), Pokiston (2-modda) konstitutsiyalarida mustahkamlangan. Fors ko‘rfazi mamlakatlarida, Iroqda va boshqa mamlakatlarda islomning davlat dini sifatida mustahkamlab qo‘yilgani mamlakat aholisining ko‘pchilagini musulmonlar tashkil etganini asoslamaydi, balki hukmron doiralarning «musulmon turmush tarzi»ni amalda joriy etish, tuzumning haqiqiy «islom davlati» deb hisoblanishiga intilishidan dalolat beradi.

Islomning hozirgi zamon davlat huquqiga ta'siri asosan musulmon huquqi ayrim institutlari va normalarining mustahkamlab qo'yilishida ko'rinadi. Bu, eng avvalo, islomdagi hokimiyat g'oyasining asosiy negizlari – «maslahatlashish» tamoyili va davlat boshlig'ining maqomiga taalluqli. Masalan, arab dunyosidagi ayrim monarxiyalarda davlat boshlig'i huzurida «bamaslahat boshqarish» islom huquqiy g'oyasiga ko'p jihatdan mos keladigan maslahat organi faoliyat olib boradi. Bunday organlar, Qatar va Birlashgan Arab Amirliklarida mavjud. Ayrim hollarda maslahatlashish islom huquqiy tamoyilidan muhim davlat lavozimlariga tayinlashda ham foydalaniladi. Masalan, Qatar konstitutsiyasiga (21-modda) muvofiq, amir taxt vorisini «vakolatli shaxslar» – «ahl al-hall va-l-aqd» bilan bamaslahat tayinlaydi.

Quvayt konstitutsiyasida (56-modda) amir bosh vazirni an'anaviy maslahatlashishdan keyin tayinlashi nazarda tutilgan. Saudiya Arabistonida ham qirolni saylashda maslahatlashish tamoyili amal qiladi. Saudiya Arabistoni Qirolligining boshlig'i lavozimiga nomzodni tasdiqlash bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

- 1) qirol taxt vorisini tayinlaydi va bu qaror oilaviy kengashda bir ovozdan tasdiqlanadi;
- 2) ulamolar maxsus hujjat – fatvo chiqaradi;
- 3) qirol tayinlagan taxt vorisi Vazirlar kengashi va Maslahat kengashining qo'shma majlisida ma'qullanadi.

Yangi qirolni taxtga o'tqizish taomili ham shunga o'xshaydi. Bu o'rinda ham ulamolar muhim rol o'ynaydilar.

Ayrim musulmon mamlakatlarining davlat huquqida *bay'a* (muboya) – davlat boshlig'i lavozimiga nomzod jamoaning eng nufuzli vakillari bilan tuziladigan o'ziga xos shartnoma instituti qo'llaniladi. Masalan, Quvayt konstitutsiyasida taxt vorisining amir tomonidan tayinlanishi, uning Milliy kengash tomonidan ma'qullanishi (muboya) lozimligi nazarda tutilgan (4-modda). Birlashgan Arab Amirliklarida esa qabila boshliqlarini tayinlashda ham shu institut qo'llaniladi. Ba'zan yakdillik bilan qabul qilingan qaror – ijmo ham shunday vazifani bajaradi. Masalan, 1956-yil Tunisda respublika boshqaruv shaklining joriy etilishi va davlat boshlig'iga prezident vakolatining berilishi xalqning yakdil qarori – ijmoning amalga oshirilishidir1.

Davlat boshlig'i uchun diniy mansublik shartining belgilanishi hozirgi zamon davlat huquqiga islom institutlarining muhim ta'sirlaridan biridir. Masalan, Iordaniya konstitutsiyasiga (29-moddaning «d» bandi) muvofiq, musulmon ota-onadan tug'ilgan musulmon fuqarogina qiro

bo‘lishi mumkin. Quvaytda ham amir shu talabga mos kelishi shart (4-modda). Pokistonning 1973-yilgi konstitutsiyasiga muvofiq, nafaqat prezident, balki bosh vazir ham musulmon bo‘lishi kerak. Islom huquqiy tamoyillari va islom bilan bog‘liq an’analar davlat boshlig‘ining huquqiy holatini tartibga solishda ham muhim rol o‘ynaydi. Islom dini va musulmon huquqi islom mamlakatlarining davlat idoralari tizimida alohida o‘rin egallaydi va islomga taalluqli masalalar bilan shug‘ullanuvchi muassasalarga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayrim musulmon davlatlarida bunday vazifalar maxsus vazirliklarga yuklatilgan, masalan, Birlashgan Arab Amirliklarida Islom ishlari vazirligi, Bahraynda Adliya va islom ishlari vazirligi, ayrim mamlakatlarda adliya va vaqf ishlari vazirliklari va h.k.

Islom davlat-huquqiy qoidalari va tamoyillarining ta’sir doirasi davlat mexanizmi ayrim bo‘g‘inlarining tarkibi va faoliyati bilan cheklanmaydi. Bu ta’sir ba’zan davlat huquqining boshqa muhim institutlari darajasida seziladi. Masalan, deyarli barcha musulmon mamlakatlarida shaxsning konstitutsiyaviy (konstitutsiya qabul qilinmagan davlatlarda – huquqiy) maqomida islom qoidalarinig jiddiy ta’siri seziladi. Musulmon davlatlari va xalqlari bilan do‘stona munosabatlarni mustahkamlash ko‘pgina islom mamlakatlarining konstitutsiyalarida davlat tashqi siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida qayd etilgan (masalan, Bahrayn konstitutsiyasining 6-moddasi, Qatar konstitutsiyasining 5-moddasi).

Davlat huquqi normalarining boshqa tarmoqlar uchun ahamiyati muhim ekanligini hisobga olsak, musulmon huquqiga konstitutsiyaviy tamoyil sifatida qonunchilikning asosiy manbai maqomining berilishi alohida ma’no kasb etadi.

### **6.3. «Moliya huquqi» tushunchasi va shakllari**

Fiqhning ko‘chmas mulkka oid qoidalari ko‘char mulkni tartibga soluvchi qoidalarga qaraganda ko‘proq bo‘lib, bu mulkning ilohiy inoyat ekanligini to‘liq tasdiqlaydi.

Musulmon huquqshunoslari mulk huquqi predmetini tashkil etuvchi yerning besh turini farqlaydi: a) «jonsiz» yerlar; b) «jonlantirilgan» yerlar; d) tanob yerlar; f) xiroj yerlar; g) habus.

Bu yerlar uch guruhgaga birlashtiriladi: 1) mulk (yoki xususiy mulk) tariqasidagi yerlar; 2) xiroj (soliq solinadigan) yerlar; 3) vaqf (xususiy mulk egalari diniy muassasalar yoki xudoyixonalarga mulk qilib bergen yerlar).

*Xiroj yerlar.* Xalifalikka ixtiyoriy ravishda bo‘ysungan hududlarda mahalliy aholi yerga bo‘lgan mulk huquqini saqlab qolgan bo‘lsa, fath etilgan hududlarda musulmon jamoasi yerga nisbatan oliy huquqqa ega bo‘lgan. Yer egalari bu yer avloddan avlodga o‘tishini istisno etuvchi ayrim uzufrukt huquqinigina saqlab qolganlar 1. Bunday yerlar xiroj yerlar deb atalgan, chunki ularga har yili mol yoki pul ko‘rinishida undiriladigan soliq – xiroj solingan. Xirojning qonuniy xususiyati ijтиҳод qoidalariga asoslanadi.

Shuni ta’kidlash zarurki, xirojning nazariy asoslari hijriy V asrda vujudga kelgan. Ilk islom davrida fath etilgan yerlar askarlarga mulk qilib berilgan, lekin bu siyosat qo‘shinni zaiflashtirish bilan bir vaqtda, xirojga qaraganda kamroq soliq – zakot undiruvchi davlatga ziyon yetkazgan. Shu sababli xalifa Umar yerni mulkdorlar ixtiyorida qoldirib, ularga xiroj to‘lash majburiyatini yuklagan, shu bilan birga, mulkdorning islom diniga kirishi ham, yer maydonlarining musulmonlarga sotilishi ham bu yerlar uchun soliq – xiroj to‘lashdan ozod qilinmasligini belgilab qo‘yan.

*Yerga mulk sifatida egalik qilish va unga tutash ashyoviy huquqlar.* Yerga bo‘lgan mulk huquqi musulmonlar uchun muqaddas, binobarin, daxlsizdir. Shu bois jamoat manfaatlarida yerga bo‘lgan mulk huquqini olib qo‘yishni nazarda tutuvchi qoidaning qabul qilinishiga erishish (ayniqsa, hanafiyarda) juda qiyin bo‘ldi (Turkiyada bunga 1885-yildagina erishildi). Qarzdorning mol-mulkiga sud orqali undiruvni qaratishga ijozat berilishi uchun ham shunga o‘xhash qiyinchiliklarni yengishga to‘g‘ri keldi. Mulk huquqining egasi mazkur huquqdan o‘z ixtiyoriga ko‘ra foydalanishi mumkin. Biroq musulmon huquqi mulkdorga o‘z mol-mulkini suiiste’mol qilish, uni behuda isrof etishni taqiqlaydi. Huquqni suiiste’mol qilish umumiyligi nazariyasiga sud qarorlaridan keltirib chiqarilishi mumkin emas edi. Ayni vaqtda, birovga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan har qanday harakatdan o‘zini tiyish haqidagi islom tamoyili (u mashhur hadislardan biriga asoslangan) huquqiy emas, balki ma’naviy jihatdan huquqni suiiste’mol qilish nazariyasiga qaraganda, kengroq asosga ega.

Mulk huquqi qanday yuzaga keladi? Bu savolga javobni fransuz yozuvchisi R. Sharlning «Musulmon huquqi» kitobidan izlaymiz. Yerni egallab olish (harbiy yo‘l bilan) va parvarish qilish kabi ilk klassik usullardan tashqari, musulmon huquqida yerkarni «jonlantirish» va ularga ishlov berish ham ma’lum.

Egasiz yerga ishlov berib, uni o‘z mulkiga aylantirgan odam hech qanday rasmiyatchiliklarsiz shu yerning mulkdori hisoblanadi. Mahalliy

hokimning ruxsati bilan birovning yeriga birovning urug‘ini ekkan odam shu urug‘ni qaytarib beradi, lekin olingan hosil uning o‘z ixtiyorida qoladi.

Mulk huquqi yuzaga kelishining asoslari – yerni sotish, meros olish, hadya qilish, egallah muddatining o‘tishi hisoblanadi. Mulkdorning o‘z mol-mulkini qarovsiz qoldirishi yoki uning nobud bo‘lishi mulk huquqining barham topishiga sabab bo‘lishi mumkin. Nihoyat, mulk huquqi mulkdorning dindan qaytishi yoki mol-mulk undan majburiy olib qo‘yilishi natijasida qonun kuchi bilan bekor qilinadi.

Mulk huquqi qanday isbotlanadi? Musulmon huquqshunosligida «egalik holatining isbotlovchi kuchi» tushunchasi ishlab chiqilgan. Musulmon huquqida bitim mulk huquqining yetarli dalili bo‘lib xizmat qilmaydi, chunki bitimning mazmuni uchinchi shaxslar uchun kuchga ega emas. Gap shundaki, uning qonuniy kuchi mulk egasi bo‘lmagan shaxsga nisbatan bitimni tasdiqlovchi hujjatni saqllovchi shaxs, uni mazkur mol-mulkka egalik holati bilan ham mustahkamlay olgan holdagina namoyon bo‘ladi. Musulmon huquqshunoslari dalillarning bunday tuzilishida har xil ahamiyatga molik, muayyan darajada aniq belgilangan oqibatlarga sabab bo‘luvchi turli egalik shakllarini belgilaganlar: a) oddiy egalik; b) uzoq muddat egalik qilish; d) murakkab egalik.

Mulk huquqi amalda mazkur yer maydonining sirti va osti, hatto ustidagi havo bo‘shlig‘iga ham egalik qilish huquqini beradi (qo‘shnilar birovning bog‘ida o‘sgan daraxtning o‘z bog‘i hududiga osilib tushgan shohlarini kesishga haqli, mulk huquqi bo‘yicha yer maydoniga egalik qiluvchi shaxs uning ustidagi havo bo‘shlig‘ini sotishi mumkin).

*Davlat ko‘chmas mulki.* Davlat mulki yoki mahzanga quyidagilar kiradi, deb aytish uchun asoslar bor: a) xo‘jasiz yerlar; b) musulmon jamoasiga iqtisodiy (daryolar) yoki strategik (gish yerlar) jihatdan zarur deb hisoblangan yerlar; d) nihoyat, «jonsiz» yerlar.

*Habus mulki (vaqflar).* Shimoliy Afrikada habus deb ataladigan vaqflar islom mulkdorligining o‘ziga xos toifasini tashkil etadi. Vaqflar haqida biz yuqorida aytib o‘tdik. Ular ixtiyoriy ehson, in’omga asoslanadi. Bu in’om mol-mulordan olingan daromadni xayriya ishlariga yoki ijtimoiy foydali maqsadlarga yo‘naltiriladi. Bunday mol-mulkka nisbatan «yalang‘och» mulk huquqi ham, undan foydalanish huquqi ham sekvestr qilinadi.

Mol-mulk ko‘pincha hadya qiluvchidan ancha uzoqda joylashgan obyektga (masalan, biror-bir masjidga yoki maktab qurilishiga) in’om qilinadi. Vaqflarga xos xususiyat tegishli mol-mulkning fuqarolik

muomalasidan chiqarilishida namoyon bo‘ladi. Qonuniy vaqf ta’sis etish uchun quyidagi to‘rt shart bajarilishi lozim:

1) ta’sischi mol-mulkni tasarruf etish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak (u amalda musulmon bo‘lishi lozim, biroq xristian yoki yahudiyning ham xudoga manzur bo‘ladigan ish qilishiga yo‘l qo‘yiladi);

2) vaqf (habus) ta’sischisi hadya qilinayotgan mol-mulkka mulk huquqida egalik qilishi kerak, bunda mazkur mol-mulk ko‘chmas va naqd bo‘lishi lozim (arsh yerlar yoki iste’mol qilinadigan narsalarni vaqfga aylantirish mumkin emas);

3) ta’sischi mol-mulkka egalik qilishdan butunlay voz kechishi kerak, chunki vaqf ta’sis etish uzufruktni hadya qilish hisoblanadi;

4) vaqf ta’sis etishning belgilangan shakllariga rioya qilinishi lozim.

Vaqf mulkiga hech qanday soliq va o‘lpon solinmaydi. O‘z mol-mulkini vaqfga bergan odamlar musulmon ulamolarining maqtoviga sazovor bo‘ladi. Vaqf mulki yaroqsiz holga kelganidan keyin ham vaqf shaklini yo‘qotmaydi. Musulmon huquqi vaqf mulkining yaroqsizligi bahonasida uning ayrim shaxslar tomonidan o‘zlashtirilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Musulmon huquqi sudlari vaqf mulkini boshqarish vazifasi yuklatilgan shaxslarning faoliyatini sinchkovlik bilan kuzatib boradi. Agar mutavalli (vaqf mulkini boshqaruvchi) vaqf mulkidan noto‘g‘ri foydalanayotgan bo‘lsa, musulmon huquqi sudi uni lavozimidan chetlatish va uning o‘rniga boshqa mutavallini tayinlash huquqiga ega.

*Vasiyat masalalari.* Musulmon huquqida vasiyatning ikki asosiy turi farqlanadi:

1) qarindoshlar va merosxo‘rlarga bevosita vasiyat qilish;

2) vasiylar va ishonchli shaxslarga vasiyat qilish. Ko‘pincha vasiy yoki ishonchli shaxs etib ulamolar tayinlanadi.

Shuni ta’kidlash zarurki, merosxo‘rlar vasiyatga ko‘ra nafaqat mol-mulkka ega bo‘ladilar, balki ularning zimmasiga qarzlarni to‘lash va bajarilmagan diniy ahndlarni bajarish majburiyati ham yuklatiladi. Agar ota-onalar ahd qilgan ibodat, ro‘za yoki boshqa diniy rasm-rusumlarni ado etmasdan vafot etgan bo‘lsalar, ularning voyaga yetgan farzandlari bu majburiyatlarni ularning o‘rniga bajarishlari shart. Bu haqdagi vasiyat og‘zaki yoki yozma shakllarda qilinadi. Bunday vasiyat qiluvchi voyaga yetgan, aqli raso va xotirasi butun odam bo‘lishi kerak.

Mol-mulkni merosxo‘rlarga yoki boshqa shaxslarga topshirish haqidagi vasiyat, odatda keksa yoshda amalga oshiriladi. Musulmon huquqi musulmondan diniy burchni ado etishni talab qiladi va o‘limi

oldidan u o‘z merosxo‘rlariga shu burchni ado etishni topshirishi zarur. Bu eng avval katta o‘g‘il farzandga yuklatiladi. Agar merosxo‘rlar bo‘lmasa, diniy burchni haq evaziga bajaruvchi shaxsni yollash uchun marhumning mol-mulkidan mablag‘ ajratiladi.

Musulmon odam hech kim bilmaydigan xazinaga ega bo‘lsa, u o‘limi oldidan bu haqida merosxo‘rlarini ogoh etishi shart. Merosxo‘rlar voyaga yetmagan bo‘lsalar, bu ishga ishonchli vasiylar jalb qilinadi.

Islom qonunchiligining soliq tizimida musulmonlar va g‘ayridinlarga soliq solish shakllari, usullari va miqdorlari umumlashtirilgan. Islomdagи yuridik qoidalarni tarixiy va geografik material bilan taqqoslashda ayrim ixtiloflar kuzatilishi tabiiy holdir. Musulmon huquqi tarixida asosan xalifalik soliq tizimining tarixiy tajribasi umumlashtirilib ko‘rsatilgan.

Musulmon soliq tizimini o‘rganish ayrim (qonunchilik tizimi zamirida musulmon huquqiga asoslangan) musulmon mamlakatlarining hozirgi soliq tizimi haqida aniq tasavvur hosil qilish uchun ham zarur.

Musulmon huquqida soliqning quyidagi turlari nazarda tutilgan:

- xums – mulk solig‘i (daromadning 1/5 qismi). Xums (arabchada beshdan bir) – islom an’anasida musulmon qo‘sishnları qo‘lga kiritgan o‘ljalarining beshdan bir qismi. U avval Muhammad (s.a.v.) ixtiyoriga, keyinchalik xalifalar xazinasiga ajratilgan, qolgan qismini harbiy boshliqlar o‘zlariga va lashkarlarga taqsimlaganlar. Xums sifatida to‘plangan mablag‘larning beshdan bir qismi avval Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) va uning avlodlarini ta’minalashga, shuningdek qo‘sish xarajatlariga sarflangan. Xalifalar va keyingi hukmdorlar davrida xums xazinaga tushgan;

- zakot – boy musulmonlarning mol-mulki va daromadidan kambag‘allar foydasiga undiriladigan soliq;

- zakot al-fitr – Ro‘za hayiti munosabati bilan beriladigan sadaqa;

- sadaqa – kambag‘allarga qilinadigan xayr-ehson;

- jizya – musulmon mamlakatlarida musulmon bo‘limgan fuqarolardan olinadigan jon solig‘i;

- xiroj – yer solig‘i;

- ushr – yer solig‘i (o‘ndan bir).

Keyingi davrda: a) xalifa yoki davlat boshlig‘i ixtiyoriga o‘ljadan ajratilgan ulush (g‘anima); b) dengiz mahsulotlari (marvarid, dur, qimmatbaho toshlar)dan olinadigan soliq; v) topilgan xazinadan ulush; g) musulmon nomusulmonga yer sotganida davlatga to‘lanadigan boj.

Shuni ta’kidlash zarurki, beshdan bir ulush miqdoridagi har qanday soliq ham xums hisoblanmagan. Masalan, nasroniyalar – tag‘libiyalar

kamsituvchi jizya emas, balki ikki baravar miqdorda ushr to‘laganlar. Bu soliq xums emas, balki ikki baravar – o‘ndan bir ulush deb atalgan1.

Zakot – muhtoj musulmonlar foydasiga mol-mulk va daromaddan beriladigan sadaqa, xayr-ehson. Qur’onning Makka suralarida zakot xayrli ish, moddiy yordam ma’nosida kelgan. Zakot Umar ibn Hattobning xalifalik davrida ilk bor tartibga solingan.

Zakotni faqat voyaga yetgan muomala layoqatiga ega musulmonlar: hosildan; uzumzor va zaytunzorlardan; mol-holdan; tilla va kumushdan; mahsulotlardan to‘lagan.

Zakotning eng kam miqdori (nisab): dehqonchilik mahsulotlaridan – 5 vask (975 kg); moldan – besh tuya, 20 sigir yoki 40 qo‘y; tilla va kumushdan – 20 dinor yoki 200 dirham; mahsulotlardan – tegishli narxiga qarab.

Yig‘ilgan zakot mablag‘larini qozi tasarruf etgan. Bu mablag‘lar yil davomida va faqat u yig‘ilgan ma’muriy hudud doirasida sarflanishi lozim bo‘lgan.

Zakot quyidagi shaxslarga berilgan: miskinlar, faqirlar, zakot yig‘uvchilar, taqdirlashga sazovor ish qilgan shaxslar, mukotab qullar, qarzni to‘lashga qurbi yetmaydigan odamlar, yurtiga qaytishga puli bo‘lmagan musofirlar.

Sadaqa (arabcha «chin dildan qilingan ehson») – xayr-ehson. Sadaqa berish haqida Qur’onda ham ta’kidlab o‘tilgan («Baqara» surasining, 191, 264–265, 273, 277-oyatlari). Sadaqa bilan bog‘liq masalalarni fiqhning uqubot va ahkom bo‘limlari talqin qiladi. Imkoni bo‘lgan har bir kishi uchun sadaqa berish farz sanaladi. Bu ish mandub amallar qatoriga kiradi.

Jizya – musulmon davlatlarida nomusulmon fuqarolardan olingan jon solig‘i.

Xiroj – o‘rta asr musulmon davlatlarida yer solig‘i. Dastlab xirojni Arab xalifaligida faqat g‘ayridinlar to‘laganlar. Musulmonlar ushr solig‘i to‘laganlar. Keyinchalik yer egalari asosan musulmonlar bo‘lgach, xiroj umumiylar yer solig‘iga aylangan.

Zakot al-fit (fitr sadaqa) – islomda ramazon oyi tugashi munosabati bilan beriladigan sadaqa. Har bir musulmon erkak va ayol uchun ikki yarim kilogramm xurmo, arpa, un, guruch yoki ularning qiymati miqdorida pul ehson qilish vojibdir. Fitr sadaqasini kattayu kichik, erxotin, oila boshlig‘i o‘z qaramog‘idagi har bir jon hisobidan beradi.

Ushr (arabcha o‘ndan bir) – musulmon mamlakatlarida natura shaklida (ba’zan pul bilan) davlat foydasiga, ba’zan kambag‘al, yetim-yesirlar hisobiga undiriladigan soliq. Ushr har yili dehqonchilik

mahsulotlaridan olingan. Ushr olingan yer-suv «mulki ushriya» deb atalgan. Turli davrlarda ushrning shakli mahalliy shart-sharoitga ko‘ra o‘zgarib turgan. Masalan, Usmonli turk sultanatida – o‘nta, o‘ntalik, salariy'a, Eron, Buxoro amirligi va boshqa joylarda – «dahyak» deb yuritilgan. Keyinchalik yangicha daromad solig‘i joriy etila boshlagach, ushr ba’zi joylarda (1918 yil Jazoirda, 1925 yil Turkiyada, 1935 yil Tunisda) bekor qilindi. Ammo ayrim musulmon davlatlarida hozir ham mavjud. O‘rta Osiyoda XX asrning boshigacha ushr saqlangan.

Shuni ta’kidlash zarurki, ushr hammadan – musulmonlar, zimmiyalar, g‘ayridinlardan ham olinadigan soliqdir. U dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik mahsulotlari va sotish uchun mo‘ljallangan, qiymati 200 dirhamdan kam bo‘lmagan boshqa mahsulotlardan olinadi. Ushr solig‘i shaklan bozor yig‘imlari turiga o‘xshab, barcha fuqarolar, chetdan kelgan savdogarlar va savdo korxonalaridan undiriladigan soliq bo‘lib, davlat daromadining ancha katta qismini tashkil etadi.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Davlat hokimiyatini amalga oshirish, davlat organlarini tashkil qilish, ularning o‘zaro munosabatlari, vazifalari va vakolatlarini tushuntirib bering.
2. Zakot va uning turlarini tushuntiring.
3. Soliq yig‘uvchi va to‘lovchilarning huquqiy maqomini yoritib bering.
4. «Islom moliya huquqi» tushunchasining mohiyatini aytинг.

### 7-BOB. OILA, NIKOH VA MEROS HUQUQI

#### 7.1. Islomda «nikoh» tushunchasi va shartlari

Oila-nikoh musulmon huquqida mukammal darajada ishlab chiqilgan, keng qamrovli huquq tarmoqlaridan biridir. Ushbu huquq tarmog‘i orqali oila, nikoh, er va xotinning huquq va majburiyatlari, nikohni tuzish, bekor qilish, farzand tarbiyasi, nafaqa olish yoki berish bilan bog‘liq munosabatlar huquqiy tartibga solinadi.

«Nikoh» tushunchasi musulmon huquqida shunday shartnoma-bitim sifatida ta’riflanadiki, unga muvofiq nikohga kirgan xotin erkak uchun begona, «taqiqlangan» bo‘lmaydi. Nikoh tuzish uchun ayol yoki erkakning xohishi kifoya qilmaydi. Doimiy nikoh uchun ham, vaqtinchalik nikoh uchun nikoh duosini o‘qish va nikoh bitimini tuzish talab etiladi.

Islom ulamolari, ayniqsa, Hanafiy mazhabi namoyandalari oilaviy hayotning yaxshi va chiroyli davom etishi uchun kelin bilan kuyov bir necha o‘rinlarda o‘zaro teng bo‘lishlari kerakligini ta’kidlaydilar. Ular ta’kidlagan o‘zaro tenglikning hamma davr va makonga mos keladigani diyonat, iqtisod, kasb va hunardir.

*Diyonat* deganda, ayolning e’tiqodi, dindorligi, solihaligi nazarda tutiladi. Bunday ayol e’tiqodsiz, gunoh ishlarni oshkora qilib yurgan er kishiga teng bo‘lmaydi.

*Iqtisoddan* maqsad esa, kelin bilan kuyovning oilalari iqtisodiy tomondan bir-birlariga yaqin bo‘lsalar, ularning o‘zaro til topishishi oson va yengil bo‘ladi.

*Kasb va hunar* deganda, kuyovning kasb-hunari kelinning otasining kasb-hunariga yaqinroq bo‘lishi nazarda tutilgan.

*Nikohning shartlari. Uylanish mumkin bo‘lmagan ayollar.* Islom olimlari istilohida bu toifadagilar – «al-muharramot minan-niso», ya’ni ma’lum kishiga nisbatan nikohga olish, uylanishlik harom qilingan ayollar, deb ataladi.

Bular ikki toifaga bo‘linadi. *Birinchi toifa* umuman, hech ham uylanish mumkin bo‘lmagan ayollar. *Ikkinci toifa* esa vaqtincha uylanish mumkin bo‘lmagan ayollardir. Ikkinci toifadagilaridan uylanishni man etuvchi sabab ketsagina, ularga uylanish mumkin.

Birinchi toifaga uch xil: 1) tug‘ishganlik; 2) uylanish sababli qarindosh bo‘lgan; 3) sut emadigan davrda yigit va qizning bir ayolni emganligi sababli uylanish mumkin bo‘lmagan ayollar kiradi.

*Er va xotinning huquqlari.* Er va xotin bir-birlari bilan sahih nikoh orqali bog‘langanlaridan so‘ng, ularda o‘zaro huquqlar ham vujudga keladi. Bular mushtarak huquqlar, ernening xotindagi huquqlari va xotinning erdag'i huquqlaridan iboratdir:

1) *mushtarak huquqlar* er bilan xotin o‘rtasida bo‘ladigan, uni bajarishda hamkorlik qilish lozim bo‘lgan huquqlardir. Bunday huquqlar sirasiga *sahih aqd* – nikoh sababli bir-birlaridan foydalanish kiradi. Zero, Alloh taolo «Mo‘minlar» surasining 7-oyatida: «*O‘zaro or-nomuslarini jufti halollaridan boshqalardan saqllovchilar najot topuvchilardan*», – degan. Bunga er va xotin bir-birlarining yaqin kishilar – qarindoshlarini hurmat qilish, oilaga keladigan daromadlarni tejamkorlik bilan sarflash, oila yashab turgan uy-hovlining ichki va tashqi tomonlarini ozoda saqlab, tug‘ilgan farzandlarni e’tiqodli, axloqli, o‘qimishli, hunarli, jamiyatga foydali kishilar qilib tarbiyalash, bir-birlaridan meros olish kabi burchlar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 4-bobining 21-moddasida ham: «Bolalar tarbiyasi va oilaviy turmushning boshqa masalalarini er va xotin birgalikda hal qiladilar», – deyilgan;

2) *ernening xotindagi haqi.* Ma’lumki, har qanday jamiyatda, u xoh katta va xoh kichik bo‘lishidan qat’i nazar, uning a’zolaridan bitta layoqatlisi jamiyatda intizom va tarbiyani saqlash, a’zolarining huquqlarini himoya qilish maqsadida boshliq qilib tayinlanadi. Oila ham kichik bir «jamiyat»dir. Islomda oila eng muhim va nozik masala bo‘lganligi sababli, Alloh taoloning o‘zi oilaga kim boshliq bo‘lishi lozimligini Qur’oni karimda ko‘rsatmalar berib, «Niso» surasining 34-oyatida: «*Erkaklar xotinlari ustidan rahbardirlar. Alloh ularning ba’zilarini ba’zilaridan ortiq qilib yaratdi. Hamda ayollarni boqish, ularga uylanayotganda mahr berishlari erlarning vazifalaridandir*», – deydi, chunki erlar jismonan baquvvat bo‘lib, oilani himoya qilish, a’zolarini tartibga chaqirish, ularga odob berish vazifalarini bajaruvchi, hissiyotga berilmaydigan, g‘azabi kelganda, o‘zini tuta olish xislatlari bilan ayollardan ajralib turadilar. Shu bilan birga, oilada bo‘ladigan noxushlik yoxud uning buzilishi xavfi tug‘ilgani sababli oilani tuzishga sarflagan mablag‘larni mulohaza qilish sifatiga ham egadirlar. Yuqorida ko‘rsatilgan sabablarga ko‘ra, taloq qilish huquqi ham erlarga berilgan. Oilada intizom bo‘lishi zarurligi, oila a’zolarining boshliqqa, jumladan,

ayolning eriga ma'ruf, ya'ni gunoh bo'lmaydigan ishlarda itoat etishi talab qilinadi. Oiladagi ichki ishlar ko'proq ayollarning vazifasi bo'lib, tashqaridagi ishlar erlarning vazifasi hisoblanadi;

3) *xotinning erdag'i haqi*. Islomda erlarning ayollarda haqlari bo'lganidek, ayollarning ham erlarida haqlari bordir. Zero, Alloh taolo «Baqara» surasining 228-oyatida: «Ayollarning qilishi lozim bo'lgan vazifalari bo'lgani kabi, ularning ham foydalariga bir qancha yaxshilik ila qilinadigan ishlar bordir», «Niso» surasining 19-oyatida: «Ayollar bilan yaxshi muomalada bo'lib hayot kechiringlar», – deb ko'rsatma bergen. Oyatda ta'kidlangan «yaxshi muomala» iborasini ulamolar, sizlarga ayollar yaxshi muomala qilsalar, sizlar ularga ham shunday muomala qilinglar, – deb tushuntiradilar. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ham marhamat qilib: «Sizlarning yaxshilaringiz o'z ahli ayoliga yaxshilik qiluvchilardir. Men ham o'z ahlimga sizlardan ko'ra yaxshi muomala qiluvchiman», – deganlar. Alloh taolo «Baqara» surasining 233-oyatida: «Ularni (onalarni) yaxshilik bilan yedirib-kiydirish otaning zimmasidadir», – desa, «Taloq» surasining 6-oyatida esa: «Ayollarni o'z imkoniyatlaringizga qarab turar joy bilan ta'minlanglar», – deb marhamat qilganligi bois, erkak kishiga o'z iqtisodiy ahvoliga qarab, ayolini ta'minlashi vojibdir.

*Nikohning tugatilishi*. Musulmon huquqi bo'yicha nikoh quyidagi asoslarga ko'ra tugatilishi mumkin: a) er yoki xotindan birining vafoti bilan; b) ernen taloq qo'yishi; d) nikohning fas'h bo'lishi; f) xotinning arizasiga muvofiq, qozining nikohni bekor qilish haqida chiqargan qarori; h) hul'a sababli; i) lion oqibatida.

Erning *taloq* qo'yishi nikohning bekor qilinishidir. Er tomonidan ushbu so'zning ayttilishi ayolni barcha xotinlik majburiyatlaridan to'la ozod etadi. Bunday holatda er tomonidan berilgan mol-mulk (mahr) xotinda qoladi, er xotinni idda muddati o'tguncha moddiy ta'minlab turishi kerak.

*Fas'h* – er nikoh shartnomasining biror-bir shartini bajarmagani sababli, xotinning tashabbusiga ko'ra ajrashishdir; biroq er-xotin murosaga kelib yarashsalar, bunday ajrashish haqiqiy emas, deb topiladi.

*Hul'a* – xotinning tashabbusiga ko'ra uzil-kesil ajrashish, bunda xotin er tomonidan o'ziga ajratilgan mol-mulk (mahr)dan mahrum bo'ladi, boz ustiga unga tovon puli – ivod to'lashi shart; ivod miqdori o'zaro kelishuvga ko'ra yoki qozi tomonidan belgilanadi;

*Lion* – bir-birini la'natlash, bunda er xotinini xiyonatda ayblaydi, lekin isbotlab bera olmaydi, xotin esa erini yolg'onchilik va tuhmat

qilganlikda ayblaydi; ajrashish uzil-kesil bo‘ladi, xotin o‘z mahrini yo‘qotadi, er esa, bunday ajrashishdan keyin tug‘ilgan bolani o‘ziniki, deb tan olmasligi mumkin.

## 7.2. Islomda «taloq» tushunchasi va turlari

*Nikohning tugatilishi (taloq instituti).* Erkak tomonidan xotinni taloq qilish oqibatida nikohning tugatilishi musulmon huquqida eng keng tarqalgan. «Taloq» degan so‘z arabcha bo‘lib, «bog‘langan tugunni yechib yuborish, bo‘sh qo‘yish» degan ma’nolarni anglatadi. Musulmon huquqiga ko‘ra, taloq eru xotin o‘rtasidagi nikohning tugatilishi uchun shar’iy asos bo‘lib xizmat qiladi va ushbu huquq muomala layoqatiga ega bo‘lgan erkak kishilarga berilgan. Payg‘ambar (s.a.v.)ning: «*Uchta narsaning hazili ham, jiddysi ham e’tiborga olinadi: qulni ozod qildim, degan so‘z, nikohga oldim, degan so‘z, taloq qo‘ydim, degan so‘z*», – degan fikrlariga binoan, Hanafiy mazhabidagi kishining o‘z xotiniga qarab, xoh mast holda, xoh hazillashib taloq qo‘ydim, deyishi bilan taloq tushadi. Majburlab ayttirilgan taloq lafzi borasida islom huquqshunoslarida ixtilof mavjud: Hanafiy olimlari «tushadi» desalar, jumhur ulamolar «tushmaydi», deganlar.

Taloq keltirib chiqaradigan oqibatlar deganda, asosan taloq turiga qarab nikohni davom ettirish yoki bekor qilish hamda ayolning o‘z eridan meros olishi, «taloq» lafzi aytilgandan so‘nggi davrda ayol kishining nafaqasi tushuniladi. Ayol bir yoki ikki taloq qilingan vaqt mobaynida eri vafot qilsa, u eridan meros oladi. Uch taloq qilingan ayolning idda muddati davomida eri vafot etsa, musulmon huquqi ruxsat bergen ba’zi hollardagina ayol meros oladi. «Taloq» lafzi aytilgan davrdan boshlab, ayolning nikohi butunlay bekor bo‘lmaq unicha, idda muddati davomida er o‘z xotinini iqtisodiy ta’minlashi shart.

*Nikohning fas’h bo‘lishi.* Islomda er va xotinlik goho arning taloq huquqiga egaligi sababli, goho esa er-xotinlikni saqlab turgan nikohni buzish bilan bekor qilinadi. Nikohni buzib, ajralish faqihlar istilohida «fas’h», ya’ni mavjud bir sabab bilan taloq lafzi aytilmay, nikohning bekor qilinishi deyiladi.

*Taloq bilan fas’hning farqi.* Er tomonidan aytilgan taloq lafzi er-xotinlikning tugatilganini, har ikkalasi nikohdan oldingi holatga qaytganini bildiradi. Taloq faqat sahib nikohdagina bo‘ladi.

Fas’h esa keyin joriy qilingan qoida bo‘lib, nikohning davom etishiga to‘sinqilik qiluvchi yoki o‘sha to‘sinqilik bartaraf etilgach, nikohni

davom ettirish mumkinligidir. Fas'h ikki turli bo'ladi: *birinchisi*, nikohning qolishi aslo mumkin bo'lmaydigan holat. Bu holatda nikohni buzish shart. Masalan, er yoki xotinning biri islom dinidan qasddan chiqishi yoki qaytishi; ikkinchisi, arning o'z ayolini bir taloq qilib, uning boshqa turmushga chiqishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida, «men senga yaqinlashmayman», deb qasam ichishi tufayli nikohning tugatilishi. Mazkur qasamga binoan, ayol arosatda qoldirilib, arning zulmi ostida qiynalib, yashashga majbur qilinadi.

Alloh taolo ayollarga nisbatan bunday zulmga chek qo'yib, ichilgan qasam cheksiz muddatga amal qilishini to'xtatib, unga ma'lum muddat belgiladi. Bu haqida «Baqara» surasining 226–227-oyatlarida: «*Xotinlaridan qasam bilan yuz o'girgan kishilar uchun to'rt oy muhlat bor. Agar (shu muddat ichida xotinlariga) qaytsalar, joizdir. Zero, Allah shubhasiz mag'firatli, rahmatlidir. Va agar (taloq qilishni) qasd qilgan bo'lsalar, bas albatta, Allah eshitguvchi, bilguvchidir*», – deyilgan. Mazkur oyati karimaning mazmunidan islom olimlari quyidagi hukmlarni chiqarganlar:

- Allah nomini o'rtaga qo'yib ichilsagina, qasam shar'an qonuniy hisoblanadi;
- «Iylo» – «xotinimga yaqinlashmayman», deb ichilgan qasamning eng kam muddati to'rt oy bo'lishi lozim;
- qasam ichilsa-yu, lekin to'rt oy muddat tugamay qasamiga pushaymon bo'lib, xotini bilan yarashmoqni istasa, qasamiga musulmon huquqi bo'yicha kafforat (jarima) berib, yarashishi mumkin.

Qasamning kafforati uchun uni ichgan kishi quyidagi uchta ishdan bittasini ixtiyor qilib bajarishi shart: bir qulni ozod qilishi yoki o'nta miskinni to'yg'azishi yoki o'nta miskingga kiyim-kechak qilib berishi. Agar bu uchta amaldan birortasini ham qilishga qodir bo'lmasa, uch kun ro'za tutib berishi lozim<sup>1</sup>.

Abu Hanifa mazhabi qoidasiga asosan qasam ichgan kundan boshlab to'rt oy muddat o'tsa, er-xotin bir-biridan ajralgan hisoblanadi, «taloq qildim», deyilishi shart emas. Yuqorida aytib o'tganimizdek, har qaysi musulmon kishi og'izdan chiqqan so'zi uchun Allah oldida mas'uldir. Demak, qaysi bir kishi xotiniga: «Senga yaqinlashmayman», – deb qasam ichsa, uning shar'iy hukmi yuqorida aytib o'tilganidek bo'ladi.

*Qozining hukmi bilan bo'ladigan taloq.* Yuqorida aytib o'tilgan ajralish turlaridan boshqa ba'zi holatlarda musulmon huquqi taloq qilishni

---

<sup>1</sup> Қаранг: *Аҳмад ибн Исо Оиур*. Ал-фикхул мұяссар фил муомалот (Фуқаролик ҳуқуқи бўйича енгил фикх). – Байрут, 1996.

qozining hukmiga bergen. Abu Hanifa mazhabida erdag'i jinsiy zaiflik aybi sababli, er taloq qilmasa, qozi taloq qilish huquqiga ega. Abu Hanifaning shogirdi imom Muhammad esa bunga qo'shimcha tarzda, agar er majnun, moxov yoxud peslik kasaliga chalingan bo'lsa ham, qozi taloq qilish huquqiga ega, degan. Lekin mazkur ayblar bilan ajratishning quyidagi shartlari bor: a) ayol nikohdan avval bu ayblarni bilmasligi; b) ayol qozidan ajratib qo'yishni talab qilishi kerak.

Ammo boshqa mazhab vakillari qozi hukmi bilan taloq qilishning chegarasini ancha kengaytirganlar. Masalan, er xotinni nafaqa bilan ta'minlamasa, er xotinga qasddan zarar yetkazish niyatida yomon muomala qilsa, er uzoq muddatga qamalgan holatlarda, xotin qoziga ajratib qo'yishni talab qilgan taqdirda qozi er nomidan taloqqa hukm qilish huquqiga ega.

*Xala'a sababli nikohning bekor bo'lishi.* Ayol o'ziga berilgan mahrni, uning miqdorini yoki undan ziyodrog'ini eriga qaytarishi, berishi evaziga nikohini bekor qilishi mumkin. Bu jarayon albatta qozining yoki hokimning bevosita ishtirokida amalga oshiriladi. Qozidan taloqni olib berishini so'rab kelgan ayolga eridan olgan mahrini tamomila qaytarishi shart qilib qo'yiladi. Qozining huzurida erga ayolning talabi bayon qilinib, er rozi bo'lsagina bergen mahri yoki uning miqdori qaytarilib berilishi evaziga er o'z xotiniga taloq beradi.

*Lion tufayli nikohning bekor bo'lishi.* «Lion» arab tilidagi so'z bo'lib, «la'natlash» degan ma'noni bildiradi. Qonun tilida lion erkak kishining aql-hushi o'zida bo'lgan holatida o'z nikohida bo'lgan pok xotinini boshqa erkak kishi bilan zino qilganlikda ayblashi, uni zinoga nisbat beruvchi so'zlar bilan haqarat qilishi (misol uchun xotinini «sen fohishasan, zinokorsan», deya so'kishi) yoki «sen tuqqan bola mendan emas» deb haqarat qilishi er-xotinlikning tugatilishiga asos bo'lishi mumkin. Lionning huquqiy oqibatlari: *birinchidan*, lion sababli har ikkala tomon ham had jazosidan qutulib qoladi; *ikkinchidan*, lion aytilgandan so'ng, o'rta ga boin taloq tushib, qozi ularning o'rtasini ajrim qilib, idda muddati davomida ayolning nafaqasini arning zimmasiga yuklaydi; *uchinchidan*, agar er o'z ko'rsatmasini lion bilan tasdiqlashdan bosh tortsa, unga nisbatan tuhmat uchun belgilangan jazo qo'llanadi, shundan so'ng er-xotinlikni qayta davom ettirish mumkin.

*Idda muddati* (ayol taloq qilingandan so'ng yoki eri vafot etgandan so'ng, uning boshqa turmushga chiqishini man etuvchi ma'lum muddat). Musulmon huquqida ayol uchun belgilangan iddaning bir qancha o'ziga xos tomonlari mavjud:

– eri vafot etgan yoki taloq qilingan ayolning o’sha eridan homilasi bor-yo‘qligini aniqlash. Agar homila mavjud bo‘lsa, bo‘lajak farzandning nasabi – otasi ma’lum bo‘lgan hisoblanadi;

– vafot etgan arning hurmati, ya’ni bir necha yillik bиргаликдаги hayotning hurmati. Er vafot etgach, hech fursat o’tmay boshqa turmush qurish, avvalo, turmush o‘rtog‘iga nisbatan hurmatsizlik bo‘lsa, so‘ngra ayolning yengil tabiatli ekanligini bildiruvchi holatdir;

– taloq iddasida o‘tirgan ayol va taloq qilgan er uchun qilgan ishi to‘g‘risida yaxshilab mulohaza yuritish, taloq qilish jahl ustida, arzimas sababdan bo‘lgan bo‘lsa, qaytadan yarashib, bиргаликда hayot kechirish uchun berilgan qulay fursatdir. Shuning uchun iddada o‘tirgan ayollar, idda muddatida eri bilan birga yashagan uydan chiqmasliklari va o‘z navbatida erlari ham ularni chiqarib yubormasliklari kerak. Chunki Alloh taolo «Taloq» surasining 1-oyatida: «...*qachon sizlar (mo‘minlar ayollariningizni) taloq qilsanglar... (to iddalari tugaguncha) ularni (o‘zlari yashab turgan) uylaridan haydab chiqarmanglar va ular o‘zlari ham chiqib ketmasinlar*», – deb buyurgan.

*Iddaning shartlari.* Musulmon huquqining sunniylik mazhabi qoidalari to‘g‘risidagi asarlarda iddaning quyidagi shartlari bayon etilgan:

– agar iddada o‘tirgan ayol, idda ichida tug‘sa, tug‘ilgan farzandning otasi avvalgi eri hisoblanadi;

– agar idda ichida er yoki xotin vafot qilsalar, idda raj‘iy taloqdan bo‘lgan taqdirda, er yoki xotin bir-birlaridan meros olishga haqlidirlar. Ammo idda boin taloqdan bo‘lsa, u vaqtida bir-birlaridan meros ololmaydilar;

– idda vaqtida xotin boshqa erga chiqishi mumkin emas. Ammo er kishi uchun uylanmaslik muddati tayinlanmagan, ya’ni xotini iddada o‘tirgan bo‘lsa ham, eri uylanishi mumkin.

*Bolalarning huquqlari.* Bolalarning eng birinchi huquqi nasabining aniq bo‘lishidir. Bolaning kelgusidagi barcha ishlariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi haqi – uning nasabi – ota va onasining aniq bo‘lishidir.

*Emmoqlik.* Bu huquqqa ikki jihatga ko‘ra e’tibor qaratiladi. *Birinchidan*, bolaga beriladigan nafaqa, *ikkinchidan*, ma’lum muddatda bolaning hayoti uchun munosib ozuqa – ona sutining ta’milanishi. Shu talablar sababli emizishlik onaning vazifasi hisoblanadi. Zero, Qur’oni karim «Baqara» surasining 233-oyatida: «*Onalar bolalarini to‘la ikki yil emizadilar. (Bu hukm) emizishni benuqson qilmoqchi bo‘lgan kishilar uchun. Ularni (ya’ni, onalarni) yaxshilik bilan yedirib-kiydirish otaning zimmasidadir*», – deya ko‘rsatma berilgan.

*Go‘dakni tarbiyaga olish.* Farzand dunyoga kelishi bilan uni tarbiyalash, muhofaza qilish lozim bo‘ladi. Islom dini bola tarbiyasiga o‘ta mas’uliyat bilan yondashib, tarbiya jarayonini bir necha bosqichlarga taqsimlagan va har qaysi bosqichda kim uning tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘lishi zarurligini ko‘rsatgan.

*Bolalar va qarindoshlar nafaqasi.* Yuqorida bolalarning uch turli haqlari – nasab, emmoq, himoya quchog‘ida bo‘lishlarni aytib o‘tdik. To‘rtinchi haq – nafaqa haqi – bolani yedirish va kiyintirishdir. Bolaning nafaqa huquqini yaxshiroq tushunish uchun avval ba’zi qarindoshlarning ba’zi qarindoshlardagi nafaqa haqini biroz sharhlash lozim.

Islom normalariga ko‘ra, o‘ziga to‘q va bir kasbga ega kishi, biror kasbni qilishga ojiz bo‘lgan qarindoshiga ham yordam qilishi zarur. Lekin qaysi qarindoshlarga yordam qilish lozim deganda, ulamolar turli fikrlarni bildirganlar.

### 7.3. «Meros» tushunchasi va uning taqsimoti

Islom meros huquqi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi<sup>1</sup>. Meros huquqi islomda Qur’oni karimning «Niso» surasi, payg‘ambar (s.a.v.)ning sunnatlari<sup>2</sup> hamda olimlar ijmosi orqali tartibga solingan. Meros ilmi islomda eng mo‘tabar ilmlardan hisoblanib, Qur’onda bu haqda «meros ilmi ilmlarning yarmini tashkil qiladi», deyilgan. Hanafiy mazhabi olimlari meros huquqini qonun va vasiyat bo‘yicha ajratib o‘rganganlar. Qonun bo‘yicha vorislik quyidagicha ifodalangan, ya’ni eng avvalo, musulmon huquqida inson dunyodan o‘tgach, undan qolgan mulkni meros sifatida taqsimlashdan avval mol-mulkka nisbatan to‘rt xil haq aniqlanadi: kafanlash; yuvish-ko‘mish xarajatlarini qilish; mayitning moliyaviy qarzlarini uzish; vasiyatni amalga oshirish.

Bunda, agar merosxo‘rlari bo‘lmasa, farz va vojib amallariga ko‘ra, vasiyat hamma moldan amalga oshiriladi. Ammo vasiyat muayyan bir shaxsga qilingan bo‘lsa-yu, u shaxs merosxo‘rlardan bo‘lmay, o‘z merosxo‘rlari mavjud bo‘lsa, bu vasiyat merosning uchdan birigacha bo‘lgan qismidan amalga oshiriladi.

<sup>1</sup> Қаранг: Турсунов Д. Мерос хуқуқи. — Т., 2004.

<sup>2</sup> Мухаммад Шавконий ўттизга яқин ҳадис келтирган. Қаранг: Мұхаммад Шавконий. Найлул автор мин аходиси саййидил ахёр (Пайғамбаримизнинг ҳадисларидан кўзланган мақсадга етишиш). Ж. 6. – Байрут-Лубонон, 1973. – Б. 168–198.

Qur’oni karim «Niso» surasining 8-oyati mazmuniga ko‘ra, merosxo‘rlar uch guruhdan iborat: *farzgurlar* – Qur’onda ulushlari bayon qilingan qarindoshlar; *asaba* – bular ota tomondan qarindoshlar bo‘lib, farzgurlardan qolgan mulkning hammasini, agar farzgurlar bo‘lmasa, hamma molni oladilar; *zav ul-arhom* – bular farzgir ham, asaba ham bo‘lmagan qarindoshlar bo‘lib, birinchi va ikkinchi guruhdagi merosxo‘rlar bo‘lmaganlarida, merosni olishga haqli bo‘ladi.

*Meros olmaydigan qarindoshlar* to‘rt guruhga bo‘linadilar: qul; dinsiz; meros qoldiruvchisini merosni tezroq qo‘lga kiritish uchun nohaq yo‘l bilan qasdan o‘ldirgan merosxo‘r. U ham merosdan mahrum etiladi. Ammo tasodifiy holatlar bundan mustasno. Masalan, quduq qazisa-yu, shu quduqqa qarindoshi tushib o‘lsa yoki jinni o‘z otasini o‘ldirsa, shunday holatlarda meros olinadi; *ixtilofi dorayn*, ya’ni din jihatidan farqlanadigan ikki mamlakatda (islom va nomusulmon mamlakatlarda) yashaydigan qarindoshlar bir-birlaridan meros olish huquqidан mahrum bo‘ladilar. Ammo ota islom mamlakatida bo‘lib, bola esa g‘ayridin mamlakatda yashasa-da, musulmon bo‘lsa, meros oladi.

*Farzgir ota* uch xilda meros oladi: mayitning farzandi yoki nabirasi bo‘lsa, molning 1/6 qismini oladi; mayitning qizi yoki o‘g‘lining qizi bo‘lsa, farzgir sifatida merosning 1/6 qismini oladi. Ayni paytda ulardan qolganini asaba sifatida ham oladi; mayitning farzandi yoki nabiralari bo‘lmasa, asaba sifatida hamma molni oladi.

*Bobo* ikki xil bo‘ladi: otaning otasi — sahih bobo; onaning otasi — fosid bobo (fiqhiy adabiyotda onaning otasi sahih boboning ziddi tariqasida fosid bobo, deb keltirilgan).

Bobo ham otaga o‘xshaydi, lekin ikki masalada otadan farq qiladi: *birinchi masala*: mayitning onasi mayitning otasi bilan birga yashaganida (mayitning eri yoki xotinining ulushidan) qolgan molning 1/3 qismini, bobosi bilan birga yashaganida esa, hamma molning 1/3 qismini oladi.

*Ona* ham uch xil meros oladi: mayitning avlodi bo‘lmasa, merosning 1/3 qismini oladi; agar avlodi bo‘lsa yoki ikkita aka-uka, opa-singlisi bo‘lsa, 1/6 qismini oladi.

*Momolar* qancha bo‘lsalar ham, ikki yoki uch tarafli bo‘lsalar ham, merosning 1/6 qismiga o‘zaro sherik bo‘ladilar. Uzoq qarindoshlar yaqin qarindoshlar mavjudligi sababli merosdan mahrum bo‘ladilar (masalan, ota yoki onaning hayotligi sababli momolar (katta onalar) merosdan to‘silib qoladilar).

*Er* ikki holatda meros oladi: xotinning avlodi mavjud bo‘lmaganida, merosning yarmini; o‘lgan xotinning avlodi mavjud bo‘lsa, ularning otasi kimligi yoki noma’lumligidan qat’i nazar, merosning 1/4 qismini.

*Xotin* ham ikki xil meros oladi: agar erning avlodi bo‘lmasa, molning 1/4 qismini; ammo erning farzandi bo‘lsa, molning 1/8 qismini.

Xotinlar nechta bo‘lsalar ham, yuqoridagi ulushda o‘zaro sherik bo‘ladilar.

*Qiz* uch holatda meros oladi: yolg‘iz qiz hamma molning yarmini oladi; qizlar ikkita yoki undan ortiq bo‘lsalar, molning 2/3 qismini bo‘lishib oladilar; qizlar aka-ukalari bilan birga hisoblanganida, o‘g‘illar ularni ham asaba qiladi. Bunda qiz o‘g‘il farzand ulushining yarmini oladi.

*O‘g‘ilning farzandi*, ya’ni nabira, o‘g‘il bo‘lsa — o‘g‘il o‘rnida, qiz bo‘lsa — qiz o‘rnida bo‘ladi. Ammo ular mayitning o‘g‘li bo‘lmaganida meros oladilar, aks holda, merosdan to‘silib qoladilar.

(*Ota-onas bir*) *opa-singillar*. Agarda mayitning qizi ham bo‘lmasa, opa-singillar merosxo‘rlikda qiz kabi bo‘ladilar. Bir nafar bo‘lsa — hamma molning yarmini, ikki nafar yoki undan ko‘p bo‘lsalar, molning 2/3 qismini, agar aka-ukalari bilan birga bo‘lishsa, ikki qiz bir o‘g‘ilning ulushi barobarida meros oladi.

Mayitning ota bir opa-singillarining ulushlari quyidagicha: ular ota-onas bir opa-singillar bo‘lmay, yolg‘iz bo‘lsa, hamma molning yarmini, ikki va undan ortiq bo‘lsalar, 2/3 qismini, opa yoki singil bo‘lganida esa, 1/6 qism ulush oladilar.

Asaba ota tarafdan qarindosh bo‘lib, farzgurlardan ortib qolgan molni bo‘lib oladi; agar yolg‘iz bo‘lsa, hamma molni oladi. Asaba ikki xil bo‘ladi: a) asabai nasabiyya; b) asabai sababiyya.

Asabai nasabiyya uch xil bo‘ladi:

a) *asaba binafsih* — o‘z-o‘zidan asaba bo‘lib, u bilan mayit orasidagi nasab nisbatida ayol zoti kirmagan kishidir;

b) *asaba big ‘ayrih* — boshqa birovning (masalan, akasining) vositasi ila asaba bo‘ladigan ayollar;

d) *asaba ma ‘a g ‘ayrih* — boshqa biror qiz qarindoshi bilan birgalikda asabaga aylanadigan ayollar.

Asabai sababiyya ikki xildir:

1) *qulni ozod qilgan xo ‘jayin* (quidor);

2) *mavlal muvolah*, ya’ni nasabi ma’lum bo‘lmagan kishi boshqa kishi bilan «Men o‘lsam merosxo‘rim bo‘lasan, jinoyat qilsam, xunini to‘lashga yordam qilasan», deb ahd-paymon qilgan do‘st.

Asabalarning avlosi (afzali) o‘g‘il, keyin uning o‘g‘li (va uning zurniyotlari), ota, bobo (qancha yuqori ketsa ham), so‘ngra ota-onalari bir aka-uka, keyin ota bir aka-uka, keyin uning o‘g‘li, keyin esa ona bir aka-ukaning o‘g‘li, keyin ularning o‘g‘illari. Asabaning eng oxiri ham zav ul-arhomdan oldin turadi.

*Zav ul-arhom.* Bu toifaga mayitning farzgir ham, asaba ham bo‘lman qarindoshlaridir. Ularga mayitning ammasi, xolasi, opa-singillarining qizi, onasining otasi, tog‘asi va qizining bolalari kabi qarindoshlari kiradi. Ular mayitning farzgir va asaba qarindoshlari bo‘lman taqdirdagina, meros olishga haqli bo‘ladilar. Farzgir mavjud bo‘lganida, ular meros olmaydilar. Lekin mayitning eri yoki xotini qolsayu, boshqa qarindoshi bo‘lmasa, qolgan molni zav ul-arhom oladi.

Zav ul-arhomlar besh guruhg‘a bo‘linadilar:

- 1) mayit qizlarining bolalari;
- 2) onasining ota-onalari;

3) ota-onalari bir opa-singillarining bolalari, shuningdek ota bir opa-singillarining bolalari; o‘g‘lining qizining bolalari, amakisining bolalari hamda ona bir aka-ukalarining bolalari;

4) mayitning tog‘asi, xolasi, ammalari hamda amakisining qizlari va ularning bolalari;

5) ota va onanining ammalari, xolalari, tog‘alari hamda otasining ona bir amakisi va onanining amakilari hamda ularning bolalari.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Islomda oila qurish shartlarini tushuntiring.
2. Nikohga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
3. Taloqning huquqiy oqibatlarini tushuntiring.
4. Islomda musulmonlar va nomusulmonlar o‘rtasidagi nikoh turlari qanday?

## **8-BOB. MUSULMON FUQAROLIK HUQUQI. MAJBURIYAT**

### **8.1. «Musulmon fuqarolik huquqi» tushunchasi**

Islom fuqarolik huquqi asosan arab xalifaligining ikkinchi asrida shakllana boshlangan. Musulmon huquqining asosiy manbalari hisoblangan Qur’oni karim va sunnada fuqarolik huquqiga oid normalar keltirilgan. Biroq, ular muayyan bir tizimga solinmagan, alohida guruhlarga ajratilmagan. Shuningdek, ushbu normalar hamma sohalardagi

huquqiy munosabatlarni to‘liq yoritib bermagan. Arab xalifaligi kengaygach, uning fuqarolarining soni ortdi, natijada fuqarolik huquqiga taalluqli oyat va hadislarni bir tizimga solish, ularni takomillashtirish va talab darajasida ishlab chiqish ehtiyoji tug‘ildi<sup>1</sup>. Ushbu sohada Abu Hanifa, Molik ibn Anas, Muhammad ibn Idris ash-Shofi’iy samarali mehnat qildilar. Ularning faoliyatları mayjud huquqiy normalar va urfodatlarga asoslangan edi. Musulmon huquqi, ayniqsa, fuqarolik huquqini ishlab chiqishda zabit etilgan xalqlarning huquqiy normalari ham hisobga olindi. Islom fuqarolik huquqining rivojlanishi Abbosiylar xalifaligi davrida, imom A’zam Abu Hanifaning shogirdi va maslakdoshi Abu Yusufning bosh qozi lavozimiga tayinlanishi bilan boshlandi. Abu Yusufning «Kitob ul-xiroj» asari butun xalifalik hududi bo‘ylab iqtisodiy sohada yagona tizimni joriy qilish uchun tarqatilgani e’tiborga molikdir.

Musulmon oilasi patriarxal munosabatlar asosiga qurilgan bo‘lib, oila boshlig‘i boshqa a’zolarga nisbatan ko‘proq imtiyozlarga ega bo‘ladi. Qur’oni karim «Niso» surasining 34-oyatida erkaklar ayollari ustidan rahbar ekanliklari qayd etilgan. Zero, erkaklar jismonan baquvvat bo‘lib, oilani himoya qilish, uning a’zolarini tartibga chaqirib, odob berish vazifalarini bajarib, hissiyotga berilmaydigan xislati bilan boshqa a’zolardan ajralib turadilar. Ayollar va bolalar erkaklarning qaramog‘ida hisoblanadilar. Ko‘pincha oilaning barcha a’zolari biror qarindoshining qilgan qilmishi uchun mas’ul bo‘lganlar. Balog‘atga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz qarindoshlarini otaliqqa olganlar. Musulmon huquqiga ko‘ra, oilalar o‘zaro quda bo‘lishdan avval, urug‘-nasablarning mos kelishini ham o‘rganib chiqqanlar. Hanafiy mazhabi ulamolari nasab diyonat (e’tiqod birligi), iqtisod, kasb-hunarda teng bo‘lsa, shu yetarli, deb hisoblaganlar. Islom ta’limotida iymon keltirganganlarning barchasi «ummat» deb nomlanadi. Ular tug‘ilganidan boshlab huquqiy layoqat egasi hisoblanadilar. Musulmon huquqiga asosan, shaxs ikki holatda huquqiy layoqatini yo‘qotishi mumkin: tabiiy o‘lim topganda va bedarak yo‘qolganda.

Shaxsning bedarak yo‘qolganligini sunniylik mazhablarida qozi, shialik mazhablarida imom va hokim belgilaydilar. Shaxs bedarak ketganda, uning xotini bilan nikohining bekor bo‘lishi haqida turli fikrlar mayjud.

---

<sup>1</sup> Каранг: *Исхаков С.А.* Ислом фуқаролик хуқуки асослари. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2005. – Б. 18.

Hanafiy mazhabiga ko‘ra, shaxs bedarak yo‘qolgandan so‘ng, oradan yetmish yildan ko‘proq vaqt o‘tgach, nikoh bekor bo‘ladi. Molikiy mazhabida esa to‘rt yildan so‘ng nikoh bekor bo‘ladi.

Arab xalifaligining ilk davrlarida guvohlarning ko‘rsatmalariga ko‘ra insonning shaxsini tasdiqlash mumkin bo‘lgan. Keyinchalik davlat idoralarining vakillari, harbiy zabitlar, yuqori mansab egalarini ba’zi shaharlarda ro‘yxatdan o‘tkazib qo‘yanlar.

Musulmon huquqiga ko‘ra, shaxs balog‘at yoshiga yetgandan so‘ng muomala layoqatiga ega deb topiladi. Erkaklarda soqolning chiqishi yoki 15 yoshga to‘lish, ayollarda hayz kelishi yoki 9–10 yosh (ba’zi issiq o‘lkalarda ushbu yoshda qizlar balog‘atga yetadilar)ga kirish muomala layoqatini beradi. Abbosiylar xalifaligi davridan qullar ham huquq subyektlari hisoblana boshlagan. Qullar xojasining ruxsati bilan turli bitimlarni tuza olganlar, o‘zlariga bo‘lajak qalliqlarini tanlay olish huquqiga ega bo‘lganlar. Undan tashqari, qullar meros qoldirish huquqiga ham ega bo‘lganlar. Ozod qilingan qullar «mavolidlar» deb atalib, ular ma’lum muddatgacha o‘z xojalari bilan aloqalarini bog‘lab turganlar.

Musulmon bo‘limganlarga nisbatan «zimmiylik» munosabatlari qo‘llanilgan. Hanafiy mazhabiga ko‘ra, ular o‘zaro islom iste’mol qilishni taqiqlangan narsalarni savdo qila olardilar. Ularning bir-birlariga qilgan vasiyatlari qonuniy hisoblangan.

Musulmon huquqidagi «buyum» tushunchasi turli mazhablarda turlicha talqin qilinadi. Ba’zi faqihlar buyum sanalishi uchun qiymatga egaligi, iste’molga yaroqliligi, zaruriyligiga ko‘ra xususiy mulk bo‘la olishi kerak, deganlar. Hanafiy mazhabi ulamolari yuqoridagidan tashqari yana jamg‘arilish xususiyatiga ega bo‘lishi shartligini ta’kidlashgan. Shofi’iy va Hanbaliy mazhablari tarafdorlari inson mehnati pul bilan o‘lchanadigan bo‘lsa, uni ham buyum deyish mumkin, degan fikrni ilgari surganlar. Ba’zilar arab tilida «shay» degan so‘z buyumni ifoda etadi, desalar, ko‘pgina olimlar esa faqatgina «mol», «amvol» degan so‘zlar buyumni anglatadi, chunki «shay» deb atalgan har qanday narsa buyum-predmet bo‘la olmaydi, deganlar. Shia mazhabining huquqshunoslari fikricha, buyum: xususiy bo‘la olishi, aylanma foyda predmeti bo‘lishi hamda insonga foyda keltirishi kerak. Musulmon huquqiga ko‘ra, xususiy mulk bo‘la olmaydigan buyumlar quyidagicha:

- 1) havo, dengiz, sahrolar;
- 2) ummu valad, ya’ni o‘z xojasidan farzand ko‘rgan cho‘ri;
- 3) umumjamoat foydalanadigan joylar, ya’ni quruqlikdagi va suvdagi qatnov yo‘llari, masjidlar, madrasalar, maktablar.

Musulmon huquqida harom qilingan, musulmonlarni dindan qaytaradigan va chalg‘itadigan narsalar, musulmonlarga tegishli buyumlar quyidagi kategoriyalarga bo‘linadi:

*Ko‘char (manqul)* va *ko‘chmas (g‘ayri manqul)* buyumlar. Ko‘char buyumlar bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi oson bo‘lgan, tortish va o‘lhash orqali aniqlash mumkin bo‘lgan buyumlar hisoblangan. Hanafiy mazhabining faqihlari ko‘chmas buyumlar sirasiga bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirib bo‘lmaydigan, ko‘chirilganda o‘z xususiyatini yo‘qotadigan narsalarni kiritganlar. Yerga ishlov beriladigan barcha buyumlar ham ko‘chmas buyumlarga kiritilgan. Musulmon huquqiga ko‘ra, ko‘chmas mulk quyidagicha toifalanadi:

- a) *mamluka* – xususiy shaxslarning qo‘lidagi mulk;
- b) *amiriya* – davlat mulki.

Davlat yerlari bevosita mahalliy hokimiyat nazoratida bo‘lib, xizmatchilarga iqto’ hisobida berilgan, dehqonlarga ijara ga ham berib turilgan. Umumjamoat foydalanadigan yo‘llar, ko‘chalar, davlat muassasalari davlat nazoratida bo‘lgan. Arab xalifaligi zaiflashgach, mahalliy zodagonlarning hokimiysi, nufuzi ortib borgan. Asta-sekinlik bilan ko‘pgina yerlar xususiylashtirilgan:

- d) *matruka* – tashlandiq yerlar bo‘lib, umum foydalanadigan yaylov, o‘rmon maydonlaridir;
- f) *amvot* – o‘lik yerlar.

Qur‘on ta’limotiga ko‘ra, bunday yerlar xohlovchilarga ishlov berib, ularni jonlashtirish uchun evazsiz foydalanishga topshirilgan. Yuqorida sanab o‘tilgan barcha buyumlar shartnomaviy munosabatlarning predmeti bo‘lishi mumkin. Mulkning asosiy belgisi uning foyda keltira olish xususiyatidir. Shialikda esa, inson mehnati ham mulk va boylik manbai hisoblangan. Mulkka bo‘lgan huquqni egallah yoki huquqni yo‘qotish qozilar tomonidan amalga oshirilgan.

Islomda ikki xil qaror mavjud: *birinchisi* – vaz’iy, ya’ni shartli; *ikkinchisi* – majburiy. Ushbu qarorlar orqali jamiyat manfaatlari ko‘zlanib, biror xatti-harakat taqiqlangan yoki unga ruxsat berilgan. Shartli qarorlar foydalanishdan olib qo‘ylgan narsalar xususida bo‘lgan. Misol uchun, davlat nazoratida bo‘lgan yerlardan foydalanuvchilarga ularni ijara ga berish yoki sotib yuborish taqiqlangan.

## 8.2. Islomda shufoat, muzoraba va garov huquqi

Musulmon huquqida shartnoma ijrosini ta’minlash vositalariga *kafillik*, *garov* va *omonat* kiradi.

Musulmon huquqiy adabiyotlarida kafolat (kafililik)ga: «U bir narsaning da’vosi (mas’uliyati) borasida birovning majburiyatini o‘z zimmasiga olish, ya’ni bir odam o‘z shaxsiyatini o‘zganing shaxsiyatiga biriktirib va unga keladigan majburiyatni (da’voni) o‘ziga olishidir», – degan ta’rif berilgan. Mazkur institutning asosi Qur’oni karim «Yusuf» surasining 67-oyati, payg‘ambarimizning hayotlari davomida bir qancha sahobalarga kafililik qilganlari, shuningdek: «uchta narsadan tiyilishga kafil bo‘linglar, men sizlarni jannatga kirishingizga kafilman: shirkdan, g‘iybatdan, zinodan», – degan hadisidir. Hanafiy mazhabining asoschisi imom A’zam, uning shogirdlari Abu Yusuf, Muhammad Hasan Shayboniyning fiqhiy qarashlari asosida kafolat instituti rivojlandi.

*Kafolatning shartlari.* Kafilning taklifi bilan kafolat (kafililik) shartnomasi tuziladi va kuchga kiradi. Lekin makfulun lahu (kafldan foydalanuvchi) istasa, uni rad eta oladi. «Makfulun ma’ahu» rad etmaguncha, kafililik saqlanib qoladi. Demak, makfulun lahu yo‘qligida uning qarziga birov kafil bo‘lsa va kafilning xabari unga yetmasdan dunyodan o‘tsa, kafil bo‘lishni zimmasiga olgan shaxs kafilligi uchun javobgar bo‘ladi. Kafililik taklifi, ya’ni kafililik lafzlari urf-odatga ko‘ra, so‘z berish va majburiyat olishga dalolat qiluvchi so‘zlardir. «Kafil bo‘ldim», «kafilman», «to‘layman» (zomin bo‘laman) deyilsa, kafil ahdi tuzilgan bo‘ladi. Va’da berish bilan ham kafililik bo‘ladi. Masalan, bir odam sening qarzingni bermasa, men beraman, desa kafililik bo‘ladi va qarz egasi qarzini talab qilganda, qarzdor bermassa, u qarzni kafildan talab qiladi. «Bu kundan falon vaqtga qadar kafilman» deyilsa, muqarrar kafililik bo‘ladi. Kafililik mutlaq (erkin) holda tuzilishi mumkin bo‘lgani kabi, tez yoki muhlatli tarzda ham tuzilishi mumkin. «Shu zahoti» yoki «falon vaqtda to‘layman», deb ilovali tarzda ham tuziladi. Kafilga kafil bo‘lishlikka ham musulmon huquqshunoslari tomonidan ruxsat berilgan. Hanafiy mazhabiga ko‘ra, bir necha kafilning bo‘lishi joizdir.

*Kafil shaxsga qo‘yilgan talablar.* Kafililik amalga oshishi uchun kafil muomala layoqatiga ega bo‘lishi shart. Shunga binoan ruhiy kasal (aqli noraso) va yosh bolaning kafilligi noqonuniydir. Agar, yosh bola kafil bo‘lib, balog‘at yoshiga yetgach, o‘sha bergen kafilligiga iqror bo‘lsa, uni o‘z kuchida qoldirsa ham javobgar bo‘lmaydi. *Makful anhu* aqli va balog‘atga yetgan bo‘lishi shart emas. Shunga binoan aqlidan ajragan va yosh bolaning qarziga kafil bo‘lmoq durustdir. *Makful bih* jonli narsa bo‘lsa, ma’lum bo‘lishi shartdir. Agar tovar bo‘lsa, ma’lum bo‘lishi shart emas. Shunga binoan, falonchining falonchiga bergen qarziga kafilman

deganda, qarz (*makful bih*)ning miqdori ma'lum bo'lmasa ham, kafolat haqiqiy hisoblanadi.

*Zar kafilda makfulun bihi «asl»* (qarzdor) tomonidan to'lab berilishi shartdir. Unga ko'ra, tovarning puliga (qiymatiga), ijara haqiga va boshqa barcha to'g'ri belgilangan qarzlarga kafil bo'lish durustdir. Shuningdek, *g'asb qilingan* (zo'rlik bilan tortib olingan, talangan) molga ham kafil bo'lish durust bo'lib, talab qilinganda kafil uning o'xshashini (turdoshini) yoki pulini (haqini) to'lashga majbur bo'ladi. Jinoyatga jazo berishda jinoyatchi shaxs o'rniga o'rnbosari o'tmaydi. Shuning uchun qasos va boshqa shaxsiy (jinoyat) jazolarda kafillik durust emas (o'tmaydi). Ammo jarohat yetkazilganda va qotil zimmasiga tushadigan to'lov va xun haqlarida kafillik o'tadi.

#### *Kafillik turlari:*

1. *Shaxsga kafil bo'lishning hukmi* – makful bihni (topib) keltirmoqdan iboratdir. Ya'ni qaysi vaqtda makful bihni topshirish va'da qilingan bo'lsa, o'sha vaqtda makful lah undan talab qiladi. Shunda kafil uni topib kelishi lozim bo'ladi, topsa topdi, topolmasa, shunga majbur etiladi.

2. *Zar kafillik hukmlari*. Da'vogar da'voda tanlash huquqiga ega: qarzini istasa, kafildan yoki asldan talab etadi. Biridan talab qilish ikkinchisidan talab qilishni soqit etmaydi. Biridan talab etib, so'ngra ikkinchisidan yoki birdaniga har ikkalasidan ham talab eta olish mumkin. Zar kafil bo'lgan odamning zimmasiga tushadigan mablag'ga boshqa birov kafil bo'lsa, qarz egasi qarzini kafillarning qaysisidan istasa, talab qila oladi.

Hammalari mushtarak qarzdor bo'lgan shaxslar bir-birlariga kafil bo'lsalar, ularning har biri umumiylar qarzga javob beradilar. Bir qarzning bir necha kafillari bo'lgan holatda, agar boshqa-boshqa kafil bo'lgan bo'lsalar, har birlari umumiylar qarz uchun javob beradilar.

Agar birgalikda kafil bo'lgan bo'lsalar, har qaysilari qarzdagi hissasi miqdoricha javob beradilar. Lekin ular biri-birining zimmasiga tushadigan mablag'ga ham kafil bo'lgan bo'lsalar, u holda har birlari umumiylar qarzga javob beradilar. Havola qiluvchi (qarzini o'zgaga o'tkazuvchi)ning qarzdan ozod bo'lmaslik sharti bo'lsa, ushbu havola kafillikdir. Unga binoan bir odam qarzdorga: «Sendagi qarzimni sen (o'zing) ham zomin bo'lib qolishing sharti bilan falonching ustiga (zimmasiga) o'tkaz», – deb aytsa, u ham xuddi shunday tarzda havola etsa, da'vogar (qarz egasi) o'z qarzini qaysi biridan istasa oladi. Bir odamda boshqa birovning omonatga qo'ygan moli bo'lsa, o'sha molidan

to‘lash sharti bilan uning qarziga kafil bo‘lsa, bo‘ladi va o‘sha moldan (qarzni) to‘lashga kafil majbur qilinadi. Agar u mol yo‘qolsa, kafilga hech narsa yuklanmaydi. Faqat kafil bo‘lgandan so‘ng, u molni o‘z egasiga qaytarib bersa, u holda o‘zi (ularning qarziga) zomin bo‘ladi.

Kafil tayinlangan vaqtda qarzni tayyorlab qo‘ysa-yu, makful lah bu vaqtda ushbu shaharda bo‘lmasa, o‘rniga vakil belgilab, unga makful bihni topshirishni so‘rab hokimga murojaat qila oladi. Erkin (mutlaq) kafolatda aslning qarzi muhlatsiz bo‘lsa, kafilga nisbatan ham muhlatsiz holda o‘tadi. Muhlatli bo‘lsa (ya’ni falon vaqtda uzish sharti bo‘lsa), kafilga nisbatan ham muhlatli tarzda o‘tadi.

Shartli kafolatda (kafillik va kafolat bir ma’noli so‘zlar) muhlatsiz va muhlatlidan qaysi biri ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lsa, o‘shanga ko‘ra talab qilinadi. Ma’lum muddatli qarzga o‘sha muddat bo‘yicha kafillik berish mumkin bo‘lgani kabi undan uzoqroq muddat bo‘yicha kafil bo‘lishlik ham mumkin. Qarz egasi o‘z qarzini qaytarish uchun aslga muhlat bersa, kafil yoki kafilning kafiliga ham muhlat bergen bo‘ladi. Birinchi kafilga muhlat bersa, ikkinchi kafilga ham muhlat bergen bo‘ladi. Ammo kafilga nisbatan muhlat bergen aslga ham muhlat berdi, degani emas. Muhlatli qarzi bo‘lgan kimsa qarz muhlati kelmasdan burun o‘zga yurtga ketadigan bo‘lib qolganda, qarz egasi hokimga murojaat qilib, undan kafil talab qilsa, kafil topib berishga majbur bo‘ladi.

*Kafillikning huquqiy oqibatlari. Erkin, shartli va muddatli kafillikning hukmlari.* Kafillikning hukmi talab etilishidir. Qarz beruvchi yoki da‘vogarning kafildan berilgan pul, qarzni talab etishga haqi borligidir. Erkin kafolatda aslning qarzi muddatsiz bo‘lsa, darhol, muddatli bo‘lsa, muddati bitganidan so‘ng qarz egasi kafildan qarzini talab etishga haqlidir. Ammo biror shartga bog‘liq va kelajakda to‘lanadigan tarzda tuzilgan kafilliklarda (qo‘yilgan) shart amalga oshmaguncha va belgilangan vaqt kelmaguncha kafildan (biror narsa) talab etilmaydi (kafillik kuchga kirmaydi). Masalan, «falon odam sening qarzingni bermasa, to‘lashga men kafilman» deyilganda, shartli kafillik tuzilgan bo‘ladi. Demak, qarz qaytarilishi so‘ralganda, u odam bermasa, kafildan talab etiladi. Lekin asldan talab qilinmay turib, kafildan talab etilmaydi. Shuningdek, «falon odam sening molingni o‘g‘irlasa, men to‘layman» deyilsa, bunday kafillikni berish mumkin va o‘sha odam o‘g‘irlikni sodir etsagina, kafilga da‘vo qilinadi. Makful lah (qarzini) qachon talab qilsa, o‘sha kungacha muhlati bo‘lgan kafillik berilsa, aytilgan muhlat o‘tganidan so‘ng, makful lah qachon istasa, o‘shanda qarzni talab eta oladi.

*Muvaqqat kafolatda* kafil faqat kafolat muddati davomidagina mas’ul bo‘ladi. Masalan, bu kundan bir oygacha kafilman desa, kafil faqat o‘sha bir oy davomida mas’ul bo‘lib, u oy o‘tgandan keyin kafillikdan qutuladi.

Kafillik tuzilgandan so‘ng, kafil o‘z kafilligidan kecha olmaydi. Lekin shartli va muddatli kafolatda qarz qarzdorning (qarz so‘raganning) zimmasiga (majburiyatiga) o‘tishidan muqaddam, kafil o‘z kafolatidan voz kecha oladi. Tortib olingen yoki vaqtincha foydalanib turishga berilgan (oriyatga) molning qaytarib berilishiga kafil bo‘lgan odam molni egasiga berishda yo‘l kira haqini tortib olgandan va oriyatga olgandan (foydalangan shaxsdan) undiradi.

*Kafillikdan ozod bo‘lish.* Qarz asl yoki kafil tarafidan makful lahga to‘lanar ekan, kafil kafolatdan ozod bo‘ladi (qutuladi). Makful lah: «Kafilni kafolatdan soqit qildim yoki kafil tarafda mening haqim yo‘q», – desa, kafil qutulgan bo‘ladi. Kafilning ozod bo‘lishi aslning ozod bo‘lishini taqozo etmaydi. Aslning ozod bo‘lishi (qarzdan, talab va da‘vodan) kafilning ozod bo‘lishini ta‘minlaydi.

Kafil makful bihni ma’muriy organlar orqali makful lahga topshirar ekan, makful lah qabul etsin yo qabul etmasin, kafil (bergan) kafilligidan ozod bo‘ladi. Lekin birorta tayinlangan shaharda topshirish shart qilingan bo‘lsa, boshqa yerda qarzni topshirish bilan kafolatdan qutulolmaydi. Hokimning huzurida topshirish shart qilinib kafil bo‘lganda, ko‘chada (yo‘lda) topshirish bilan kafillikdan chiqolmaydi, lekin mirshab huzurida topshirsa, ozod bo‘ladi. Talab etuvchining talabi asosida makful bihni topshirish bilan kafil kafolatdan ozod bo‘ladi. Ammo talab etuvchi talab etmasdan burun (qarzni) topshirsa, «Kafolatning taqozosi bo‘yicha (kafolatimni ado etib) topshirdim (berdim)», demagunicha (kafillikdan) ozod bo‘lolmaydi. «Falon kunga» (qarzni, kafolat obyektini) topshirishga kafil bo‘lgan odam o‘sha kundan avval u narsani topshirsa va makful lah uni olmassa, bunday kafil kafillikdan ozod bo‘lmaydi. Makful bih vafot etganda, kafil kafolatdan chiqqani kabi kafilning kafili bor bo‘lsa, u ham ozod bo‘ladi. Shuningdek, kafil olamdan o‘tsa, o‘z kafolatidan qutulgani kabi kafili bo‘lsa, u ham kafillikdan chiqadi.

Ammo makful lahning vafoti bilan kafil kafolatdan ozod bo‘lmaydi, endi uning vorisi talabgor bo‘ladi.

*Zar kafillikdan ozod bo‘lish.* Qarz egasi vafot etsa va qarzdor uning birdan-bir merosxo‘ri bo‘lsa, kafil o‘z kafolatidan ozod bo‘ladi. Agar qarz egasining boshqa vorisi ham bo‘lsa, kafil faqat qarzdorning ulushidan ozod bo‘lib, o‘zga vorisning ulushidan ozod bo‘la olmaydi. Kafil yoki asl

qarzning biror qismi to‘g‘risida qarz egasi bilan kelishganlarida, agar ikkovi yoki aslning ozod etilishi shart etilgan yoki hech bir shart qo‘yilmagan bo‘lsa, ikkovi ham ozod bo‘ladi. Agar yolg‘iz kafilning ozod bo‘lishi shart etilgan bo‘lsa, faqat kafil ozod bo‘lib, talab qiluvchi esa ixtiyorli bo‘ladi: istasa barcha qarzni asldan va istasa kelishuv badalini (to‘lovini) kafildan, qolganini asldan oladi.

Kafil makful lahni (qarz egasini) birovning ustiga havola etganda (o‘tkazganda), buni makful lah va muhal alayh (qarzni zimmasiga olgan) ham qabul etsa, u holda kafil va makful anh ozod bo‘ladi. Zar kafil vafot etganda, mol makful bihning merosidan talab qilinadi. Tovarning puliga kafil bo‘lganda bay’ (savdo) buzilsa yoki tovarning haqli egasi chiqib, olib qo‘ysa yoki aybi uchun qaytarib yuborilsa, kafil kafillikdan ozod bo‘ladi.

*Garov.* Islom qonunshunosligida shartnomaga bo‘yicha bajariladigan majburiyatlarni amalga oshirishda garov ijobjiy omillardan biri hisoblanadi. Garov biror qiymatga ega bo‘lgan moddiy ashyoni haq evaziga ushlab turishdir. Musulmon huquqida payg‘ambarimizning sunnatlari va ulamolar ijmosi garovning huquqiy asosi hisoblanadi. Muhaddislardan imom Buxoriy, Nasoiy, ibn Mojja rivoyatlariga ko‘ra, Muhammad (s.a.v.) o‘z sovutlarini bir yahudiya garovga qoldirib, undan oilalari uchun arpa olganlar. Islom fiqhida *garov* deb, qarzning evaziga biror buyumni ishonch tariqasida qoldirish tushuniladi. Arab tilida garovni *rahn*, garov qo‘yuvchini *rohin*, garovga olib qoluvchini *murtahin*, garov obyekti esa *marhun* deb ataladi.

Musulmon huquqida garov bilan bog‘liq munosabatlar quyidagicha tartibga solinadi:

1) garov shartnomasi uchun har ikki tomonning o‘zaro roziliklari talab etiladi va o‘zaro ishonch asosida bo‘lganligi uchun og‘zaki holda tuziladi (garovga beruvchi va uni oluvchi o‘rtasida qabul vositasida garov ahdi tuziladi. Biroq (mol) qo‘ldan qo‘lga o‘tmaguncha, mukammal tarzda kuchga kirmaydi. *Garovning taklif va qabuli:* garov beruvchi: «Bunarsani qarzim muqobiliga senga garovga berdim», – deb yoki shunday ma’nodagi boshqa bir gapni aytib va garovga oluvchi: «Roziman», – degan ma’nodagi roziligidan dalolat beruvchi bir gapni aytishidir. Bunda «garov» so‘zi aytilishi shart emas);

2) har ikki tomonning muomalaga layoqatliligi;

3) garov qo‘yuvchida garovga berayotgan buyum ustidan haqiqatan egalik huquqining mavjudligi. Imom Abu Hanifaning fikriga ko‘ra, shirkatdagi buyum faqat alohida ajratilib qo‘yilgan holdagina rohin

tomonidan garovga qo'yilishi mumkin. Imom Shofi'iy esa shirkatdagi buyumni alohida ajratmasdan turib ham, shirkatda bo'lgan, bo'linmas buyumlarni ham garovga qo'yish mumkin, deb hisoblangan;

4) taslim – garovga topshirish, iqboz – garov predmetining murtahinning qo'liga o'tishi sharti. Imom Shofi'iy: «Murtahinning men garovni qabul qildim, deyishining o'zi kifoya, istasa, garovni qarzdorning o'zida qoldiradi», – degan fikrni bildirgan;

5) garovga biror ashyni qoldirish qarzdorni qarzdan ozod qilmaydi, balki garov predmeti uning qarzini to'lashi uchun vosita bo'lib, qarzdorga doimo o'z qarzini uzish majburiyatini eslatib turadi;

6) kelishilgan muddat o'tgunga qadar qarzdor garov predmetini qarzini to'lash maqsadida sotish huquqiga ega. Muddat o'tgandan so'ng, qarzdor turli vaj-bahonalar bilan qarzini to'lamasdan yursa, hokimning buyrug'i bilan garov predmeti (yoki obyekti) sotilib, murtahinga bergen qarzi barobaridagi miqdor to'lanadi;

7) garov predmeti (yoki obyekti)ni qarzdorning ruxsatisiz hech kim tasarruf qila olmaydi. Garov obyektidan foydalanib turish borasida ulamolar ikki xil fikr bildirganlar. Ahmad ibn Hanbal, Abu Lays Samarqandiy, Hasan Basriy, Abu Is'hoq va boshqalar payg'ambar (s.a.v.)ning: « Hayvon garovga qo'yilgan ekan, uning yem-hashagi murtahinning zimmasida bo'lib, yem-hashagi barobarida sutidan foydalanishi mumkin», – degan hadisidan kelib chiqib, garov obyektidan foydalanish mumkinligini ta'kidlaganlar.

Abu Hanifa, Molik, Shofi'iy kabi ulamolar murtahinning garov obyektidan foydalanishga haqi yo'q, garov obyektidan keladigan barcha foyda qarzdorga taalluqli, degan fikrni bildirganlar;

8) belgilangan muddat tugagach, agar tomonlar o'zaro kelishsalar, muddatni yana uzaytirishlari mumkin;

9) garovga beriladigan narsa (garov obyekti) sotishga yaraydigan, shuningdek ahslashuv vaqtida mavjud hamda qiymatga ega, olib berish (topib berish) mumkin bo'lgan narsa bo'lishi kerak. Garovning evaziga beriladigan narsa to'lovli (mazmun) mol bo'lishi shart;

10) garov molini oluvchi shaxs uni o'zi yoki oilasi, sherigi yoki xizmatchisi kabi ishongan odamning huzurida saqlashi mumkin. Joy ijarasi, qorovul va farosh haqi kabi garov molining muhofazasi uchun ketadigan xarajatlar garovni olgan shaxs tomonidan to'lanadi. Garov hayvon bo'lsa, yemi va cho'ponining haqi, agar ko'chmas mulk bo'lsa, ta'miri va sug'orilishi, tozalash kabi uning saqlanishi uchun sarflanadigan sarfu xarajatlar garov beruvchining zimmasida bo'ladi. Garov beruvchi va

oluvchidan biri boshqasiga taalluqli bo‘lgan xarajatlarni o‘zicha to‘lab yuborsa, bu ehson, deb qaraladi va uni keyin talab qilib ololmaydi.

*Garovning turlari. Vaqtincha foydalanishga olingan narsaning garovi.* Bir odam o‘zganing molini istioraga olib, keyin uning ruxsati bilan garovga berishi mumkin. Bunga *istiora garovi* deyiladi. Mol egasining ruxsati mutlaq (shartsiz) bo‘lsa, istioraga olgan kishi uni turli tarzda (shaklda) garovga bera oladi. Molning egasi ma’lum miqdordagi pulga yoki ma’lum turdagি mol evaziga, falon odamga yoki falon shaharda garov berishi kabi shartlar bilan ruxsat bergen bo‘lsa, molni istioraga oluvchi faqat ana o‘sha shartlarga amal qilib, uni garovga bera oladi.

Adlning qo‘li garov olganning qo‘li kabidir, ya’ni garov bergen va olgan shaxs o‘zлari ishongan bir odamda saqlanishi sharti bilan kelishsalar, u rozi bo‘lgach, molni qo‘liga (ixtiyoriga) olsa, garov bitimi yuridik kuchga kiradi. Shu bilan u odam garov olganning o‘rniga o‘tadi. Adl bo‘lgan odamning qarzi bor vaqtida, garovdagи ikki tarafдан birining ruxsatisiz garov molini boshqa birovga bera olmaydi, bersa, uni qaytarib olishi shart. Garov qaytarib olishdan ilgari yo‘qolsa, adl uning qiymatiga zomin (javobgar) bo‘ladi. Adl o‘lsa, ikki tarafning roziligi bilan garov boshqa bir adlga topshirilishi mumkin. Agar o‘zaro kelisha olmasalar, hokim garov molini birorta adlning qo‘liga (ixtiyoriga) topshiradi.

Garov bergen yoki uni olgan shaxslardan biri boshqasining roziligesiz garovga qo‘yilgan obyektni sota olmaydi. Qarzni qaytaradigan vaqt kelsa-yu, garov bergen shaxs qarzini to‘lamay tursa, hokim garovni sotish yo‘li bilan qarzni to‘lashga buyruq beradi. Agar u ko‘nmasa, hokim garovni sotib, qarzni ado etadi. Garov bergen shaxs yo‘qolgan yoki bedarak ketgan bo‘lsa, garov olgan garov obyektini sotib, qarzini undirib berishni so‘rab, hokimga murojaat qiladi. Garov (moli)ning zararlanishi xavfi tug‘ilsa, garov olgan shaxs uni hokimning izni bilan sota oladi va pulni o‘z qo‘lida garovda tutadi. Agar hokimdan izn olmay sotadigan bo‘lsa, zomin (javobgar) bo‘ladi. Garov molni sotishga vakil bo‘lgan odam qarzni qaytarish vaqt kelganda garovni sotib, pulini garov olganga topshiradi. Agar u bundan bosh tortsa, garov molini topshirgan shaxs garovni sotishga majbur qilinadi. U ham bosh tortsa, hokimning o‘zi molni sotadi. Agar garov bergen yoki uning vorislari yo‘q bo‘lsa (g‘oyib bo‘lsa), garovni sotishga vakil majbur qilinadi. U ham sotishdan bosh tortganda, hokimning o‘zi molini sotadi.

Musulmon huquqida qozilar uchun garovning qonuniylik darajasi borasida yuqoridagi qoidalar asosida tuzilgan majburiyatgina qonuniy

hisoblangan. Garov obyektiga yetkazilgan har qanday zarar uni keltirgan shaxsdan undirilgan. Garovga aloqador nizo yuzasidan murtahin quyidagi hollarda guvohlarni keltirishi shart:

1) garovga qo‘yilgan ashyaning soni va miqdori borasida nizo chiqqanda;

2) obyekt garov yoki vadi’ a (ya’ni qarzi bo‘lmasa ham birovga omonatga tashlab ketish) uchunligini tasdiqlash lozim bo‘lganda.

Qarzdor quyidagi hollarda guvohlarni keltirishi kerak:

1) murtahinni garov obyektiga shikast yetkazganlikda ayblas;

2) murtahin: «Garov obyektini sotishga ruxsat bermagan edim», – deb tongan holatda.

Garov quyidagi hollarda tugatiladi:

1) garov qarzdorning o‘z qarzini uzishi yoki murtahin qarzdorning qarzidan kechib yuborishi bilan;

2) tomonlardan birining vafoti tufayli. Garovga beruvchi vafot etsa, uning vorislari merosdan qarzni to‘lab, garov predmetini qaytarib olishlari shart. Garovga oluvchi vafot etganda, garov moli meros moliga qo‘shib yuborilmay, balki qozi orqali hal qilinadi.

Musulmon huquqida *vadi’ a* (monat instituti) sababli majburiyatning kelib chiqishi quyidagicha:

*omonat* qoldirish, omonat berish qadimdan xalqlar orasida o‘zaro ishonchga asoslanib joriy bo‘lib kelgan odat hisoblangan. Omonat huquqning turli manbalari asosida tartibga solingan. Islom dinida ham omonat instituti Qur’oni karim oyatlari, payg‘ambar hadislari asosida va mujtahid olimlarning qonun ijodkorligi faoliyati natijasida muayyan tartibga keltirilgan. Musulmon huquqiga ko‘ra, *vadi’ a* omonatning bir turi bo‘lib, biror shaxsning vaqtincha qoldirib ketgan mol-mulki, ashvosini saqlab turish majburiyatidir.

Musulmon huquqining asosiy manbai bo‘lgan Qur’oni karimning «Niso» surasi 57-oyatida, «Anfol» surasining 77-oyatida omonatni o‘z egalariga topshirish majburiyati ta’kidlagan.

Ikkinchi manba bo‘lgan payg‘ambar hadislarida omonat to‘g‘risida juda ko‘p ko‘rsatmalar mavjud. Abu Hurayra payg‘ambarning quyidagi hadisini keltirgan: «*Sizga omonat topshirgan kishining omonatini to‘kis ado eting, sizga xiyonat qilganga (omonatni ado etish chog‘ida) xiyonat etmang*». Yana bir hadis: «*Omonatni saqlagan inson (mazkur omonatga) zomin (moddiy javobgar) bo‘lmaydi (ya’ni omonat predmeti tabiiy holda shikastlansa, qiyamatini yo‘qotsa, uni asragan shaxs moddiy javobgar bo‘lmaydi*».

Barcha fiqhiy adabiyotlarda mol-mulkini vadi'aga qo'yib ketgan shaxslarni *muvaddi'*, saqlash uchun qabul qilib olgan shaxsni *mustavdi'* va vadi'a obyektini *vadi'at*, deb atash qabul qilingan.

*Omonatning shartlari*. Islom mujtahidlari vadi'a institutini tashkil qiluvchi quyidagi qoidalarni uqtirganlar:

1) eng avvalo, omonatda har ikkala tomonning roziligi, loaqal bitta guvohning bo'lishi, mustavdi'ga omonat predmeti hech bir to'xtovsiz o'tishi zarur. Bunday bitimlar asosan fuqarolar o'rtasidagi o'zaro ishonchga asoslangani uchun og'zaki tarzda tuziladi;

2) mustavdi'ning vadi'a predmetidan foydalanishga haqi yo'q;

3) vadi'aga qo'yilgan buyum birinchi talabdayoq mustavdi' tomonidan qaytarilishi shart;

4) mustavdi' qo'lidagi omonat mulk, ashyo to'g'risida qayg'urishi shart. Mazkur ishdagi barcha xarajatlar mulk egasining zimmasida bo'ladi;

5) omonat predmetiga talofat yetganda, mustavdi' faqat ikki holatdагина javobgar bo'ladi: birinchisi – beparvoligi,sovuqqonligi tufayli omonatga zarar yetganda, ikkinchisi – omonat predmetini egasidan beruxsat boshqa odamga berganda yoki o'zi foydalanib, talofat yetkazib qo'yganda.

Imom Abu Hanifa mustavdi' omonat mulkni uchinchi bir shaxsga saqlab turish uchun berib qo'yishi ham mumkinligini ta'kidlagan. Imomlar Shofi'iy va Molik esa mustavdi' faqatgina mulk egasining ruxsati bilan boshqa shaxsga omonatni saqlash uchun berib qo'ya oladi, deganlar;

6) muomala layoqatiga ega bo'lмаган shaxslarga omonat topshirilmaydi;

7) musulmonga ham, zimmiy odamga ham berilishi mumkin bo'lган omonat predmeti mustavdi'ning qo'liga o'tishi bilan shartnomaga kuchga kiradi.

Hanafiy mazhabi namoyandalarining fikriga ko'ra, omonatdor shaxs (omonat ishonib topshirilgan odam)ning aybisiz omonat predmetiga ziyon yetsa yoki u yo'qolgan taqdirda, to'lov lozim bo'lmaydi. Bir kishi yo'lда yoki boshqa joyda biror narsani yotgan holda ko'rsa va uni o'ziga mulk qilib o'zlashtirib olmoqchi bo'lsa, u talonchi (zo'ravon, qaroqchi) hukmida bo'ladi. Buning ustiga, o'sha narsa yoki mol o'zlashtirilgandan so'ng, ziyon ko'rsa yoki yo'qolgan ashyo uchun uning aybi yoki sovuqqon munosabat bo'lmasa ham, javobgar bo'ladi (to'laydi). Ammo egasiga bermoqchi bo'lib olgan va egasi ma'lum bo'lsa, haqiqiy omonat

bo‘ladi va uni egasiga topshirishi shart. Agar egasi noma’lum bo‘lsa, bu ashyo «topilma» bo‘lib, topib olgan kishi qo‘lida u omonat hisoblanadi. Topilmani topib olgan shaxs uni e’lon qiladi. Egasi chiqqunicha omonat sifatida uni saqlaydi.

Bir odam chiqib, o‘z moli ekanligini isbot qilsa, unga topshirish lozim bo‘ladi. Bir odamning qo‘l ostida o‘zganining moli tasodifan talofat ko‘rsa, agar molni egasining ruxsatisiz olgan bo‘lsa, har qanday holda ham uni to‘laydi. Egasining ruxsati bilan olgan bo‘lsa, mol uning qo‘lida omonat sifatida turgani bois, to‘lamaydi. Lekin savdo-sotiq ishlarida boshqacha yondashiladi, ya’ni narxi belgilab qo‘yilgan yoki og‘zaki aytilgan bo‘lsa, to‘lov lozim bo‘ladi. Masalan, bir odam chinni idishlar do‘konidan o‘zicha (beruxsat) bir kosa olsa va u qo‘lidan tushib sinsa, uning haqini to‘lashi shart. Agarda egasining ruxsati bilan olib ko‘rayotganda tasodifan tushib sinsa, to‘lov lozim bo‘lmaydi. Agarda kosa boshqa bir to‘p kosalarining ustiga tushib, ular ham sinsa, keyingi kosalarining to‘lovi lozim bo‘ladi. Lekin avvalgi bitta kosa omonat bo‘lgani uchun baribir to‘lanmaydi. Ammo: «Bu kosa necha pul?», – deganida, do‘konchi: «shuncha pul, ol», – degandan so‘ng, uni qo‘liga olgach, yerga tushib sinsa, zomin bo‘ladi. Shuningdek, bir odam sharbat ichayotganda, sharbatchining piyolasi qo‘lidan tushib sinsa, «oriyat» (vaqtincha foydalaniladigan narsa) bo‘lgani bois, zomin bo‘lmaydi. Lekin ichuvchining o‘zi to‘g‘ri foydalanmagani sababli piyola sinsa, zomin bo‘ladi. Ishora orqali berilgan ruxsat ham ochiq-oydin berilgan ruxsat kabitdir. Lekin ochiq-oydin taqiq bor ekan, ishora hisobga o‘tmaydi.

Vadi'a joiz aqdga (o‘zgaruvchan majburiyat) mansub bo‘lganligi uchun taraflardan yolg‘iz birining xohishi bilan ham tugatilishi mumkin. Tomonlardan birining o‘limi yoki aqldan ozishi bilan ham vadi'a darhol bekor qilinadi. Muvaddi' «omonat buyumni qaytarmadi», deb mustavdi'ning ustidan da'vo bilan chiqqanda, mustavdi'dan guvoh keltirish talab qilinadi. Agarda mustavdi' omonat buyumni egasining roziligi bilan boshqa bir shaxsga omonat uchun topshirib qo‘yanligini ma’lum qilsa, unda guvohlarni keltirishi shart bo‘ladi. Imomlar Abu Hanifa va Shofi’iy har ikki holatda ham qasam ichsa, kifoya qiladi, deganlar.

Bitimlarning eng asosiy elementlari bu – «*aqd*» va «*iyqo'*» hisoblanadi. *Aqd* – ikki yo undan ortiq shaxsning o‘zaro kelishib, og‘zaki yoki yozma holda o‘zlariga erkin majburiyatni olishlaridir.

*Iyqo'* – bir tomonning talabi bilan tuziladigan bir tomonlama bitimdir. O‘zga shaxslarning xohish-irodasi bunday bitimlarning tuzilishiga ta’sir etmaydi. *Iyqo'*ga *taloq, nazr, qasam* kiradi.

Hanafiy mazhabining qonunshunoslari qasamlarni uch turga: *g‘umus qasam, munaqida qasam, lag‘v qasamga bo‘lganlar.*

*G‘umus qasam* – o‘tgan bir ish yuzasidan yolg‘onni qasd qilib ichilgan qasamdir. Musulmon huquqida bunday qasamni ichgan shaxs gunohkor hisoblanadi. Bu haqda Abu Umoma ibn Hubbon Muhammad (s.a.v.)dan: «*Kimki yolg‘ondan qasam ichsa, Allah uni do‘zaxga kirgizadi*», – degan hadisni rivoyat qilgan. Musulmon huquqi bo‘yicha bunday qasam sohibiga kafforat yo‘q, balki tavba va istig‘for lozimdir. Imom Shofiy: «Bunday kimsaga ham kafforat vojib bo‘ladi, chunki kafforat Allohning ismiga hurmatsizlik tufayli sodir bo‘lgan gunohni o‘rtadan ko‘tarish uchun mashru’ qilingan. G‘umus qasam sohibi Allohning ismini aytib ichgan yolg‘on qasami bilan ushbu kafforatga mustahiq bo‘ldi, bu go‘yo munaqida qasamga o‘xshaydi», – degan. Bunga javoban Hanafiy mazhabining ulamolari: «*G‘umus qasam ayni kabira gunohning o‘zidir, kafforat esa niyat sharti bilan ro‘za tutishlik ila ado qilinadigan ibodatdir. Kabira gunohga esa hech evaz, badal yo‘qdir. Munaqida esa boshqa narsa bo‘lib, bu qasam asli muboh sanaladi. Kishi bu qasam bilan gunoh sodir etmaydi, balki uni buzishi bilan jarima lozim bo‘ladi. Shuning o‘zi ham munaqida qasamning g‘umusdan katta farqi borligini isbotlab turibdi*», – deganlar. *Munaqida qasami haqida aniqroq qilib aytganda, bu bir kimsaning kelajakda bir ishni albatta qilaman (yoki qilmayman), deb qasam ichishidir. Qachonki u ushbu qasamini buzsa, unga kafforat vojib bo‘ladi.*

*Lag‘v qasami* haqida qonunshunoslari: «Bu bir kishi o‘tgan ish haqida o‘z gumonicha fikrlab, «Allohga qasamki, bu shundoq, Allahga qasamki, bu shunaqa», deb aytsa-yu, lekin haqiqat u aytgandan o‘zgacha bo‘lib chiqsa, bu lag‘v (behuda) qasam, deyiladi. Ya’ni bir qasamki, «bu Zayd», desa, haqiqatda esa bu Amr bo‘lib chiqsa yoki «Allohga qasamki, mana bu tim qora», desa, haqiqatda esa u jigarrang bo‘lib chiqsa, ushbu qasam ichuvchining tiliga bu qasam kalimalari odat bo‘lib qolganligi e’tibori hamda boshqa maqsadni idora qilmaganligi e’tibori bilan, unga hech qanday jarima ham («Baqara» surasining 225-oyat), gunoh ham yozilmaydi», – deganlar.

Musulmon huquqshunoslarning fikriga ko‘ra, qasam borasida qasddan aytgan ham, majburlangan holda qasam ichgan ham, esdan chiqqan holda qasam ichgan kishi ham barobardir. Ya’ni ushbu holatlarning barchasida ham kafforat vojib bo‘ladi. Faqihlar ushbu fikrlariga dalil sifatida Muhammad (s.a.v.)ning: «*Uch narsaning hazili*

*ham, jiddysi ham jiddiy qabul qilinadi: taloq, nikoh, qasam», – degan ta’kidini keltirganlar.*

Qasam hisoblanadigan so‘zlar – Allohning ismlari, ya’ni Rahmon, Rahim hamda xalq orasida ma’lum bo‘lgan sifatlari («Allohning izzati bilan», deb) bilan aytilgan so‘zlardir. Bu iboralar xalq orasida odatda qasam ichishda qo‘llaniladigan so‘zlar bo‘lgani bois, qasam ichuvchilar uni aytish bilan o‘z so‘zining to‘g‘ri va e’tiborli ekanligini ta’kidlamoqchi bo‘ladi. Ammo «Allohning ilmi bilan», «Allohning g‘azabi yoki rahmati bilan», deb ichilgan qasam qasam o‘rniga o‘tmaydi. Chunki bunday iboralar bilan qasam ichish urf bo‘lmagan hamda gohida g‘azab deganda, uqubat, azob va rahmat deganda, yomg‘ir nazarda tutilishi tufaylidir. Qasam bobida e’tibor beriladigan asosiy shart – kimsaning qasam bo‘la oladigan so‘zlar bilan qasam ichishidir. Kimki Allohdan o‘zganing ismi bilan qasam ichsa, garchi nabiy yoxud Ka’ba nomi bilan qasam ichsa ham, qasami o‘timsiz va e’tiborsizdir. Chunki Muhammad (s.a.v.) bu haqda: «*Kimki qasam ichmoqchi bo‘lsa, Allohning nomi ila qasam ichsin yoki hech qasam ichmasin*», – deganlar (imom Muslim). Qur’on nomi bilan qasam ichish ham shu kabitdir, chunki Qur’on nomi bilan qasam ichish ham odat emas. Burhoniddin Marg‘inoniy: «Agar kimki payg‘ambarlar va Qur’on nomi bilan qasam», desa, bu qasamga o‘tmaydi, ammo «Men payg‘ambardan ham, Qur’ondan ham kechdim», desa, bu qasamga o‘tadi va sohibi kofir bo‘ladi», – deydi.

Qasam lafzlari faqat insonlar iboralarida joriy bo‘lmay, balki Qur’on, sunna matnlarida ham mavjud. Ta’kidlash kerakki, qasam lafzlari arab tili grammatikasida yaxshiroq, tushunarliroq ifodalangan. Arab tilida qasamning ma’nosи harflar bilan ham ifodalanadi, ya’ni «*vallohi*»da, «*vov*» «*billahi*»da «*bo*», «*tallahi*»da «*to*» harflari Qur’oni karimda qasamni ifodalovchi harflar hisoblanadi va bu qoida keng xalq ommasiga tanish. Arablar ba’zida ushbu harflarni ochiq talaffuz qilmay, qasamni aytib qo‘yaveradilar. Masalan, «*Allohga qasamki, men bu ishni qilmayman*» deyiladi, ya’ni «*Allohga qasamki*», degan so‘zni ifodalovchi birgina «*vov*» harfi tushirib qoldirilgan holat bayon qilindi, bu yerda bu harflarni xazf qilish (qisqartirish) arablarning odatidir.

### **8.3. Islomda «mulk huquqi» tushunchasi va turlari**

Islomda xususiy mulk abadiy, nihoyasiz, deb hisoblanadi. Xususiy mulk egasi (molik) o‘z mulkining to‘laqonli egasi bo‘lib, hech qanday shaxs unga o‘z mulkini to‘la tasarruf qilishida xalaqit bera olmaydi.

Faqatgina uning tasarrufi tufayli o‘zgalarning mulkiga yoki shaxsiga ziyon yetayotgan bo‘lsa, uning faoliyatiga aralashish, tartibga chaqirish mumkin bo‘ladi. Musulmon huquqida xususiy mulkni himoya qiluvchi ko‘plab normalar mavjud. Payg‘ambar alayhissalom: «*Insonning obro‘si, izzat-nafsi to‘kish harom, mulkiga tajovuz qilish jinoyatdir*», – deganlar. Yana bir hadisida dinidan qat’i nazar, shaxsning xususiy mulkiga ko‘z olaytirishdan, unga tama qilishdan qaytarib, bunday salbiy holatlar islomdan emas, deganlar<sup>1</sup>. Xususiy mulk egaligi to‘g‘risida ko‘plab fikrlar mavjud. Hanafiy mazhabining namoyandalari mulkka 15 yil egalik qilish bilan bu mulk xususiy mulkka aylanadi, degan fikrni bildirganlar. Shunga ko‘ra, 15 yil biror mulkka egalik qilgan fuqarolar o‘sha mulkka tamoman ega bo‘lib qoladilar. Molikiy mazhabi fikricha, ko‘chmas mulkka o‘n yil, ko‘char mulkka nisbatan ikki-uch yil egalik qilgan shaxs, agar o‘sha mulk egasi e’tiroz bildirmas ekan, uning tamoman egasi bo‘lib qoladi. Molikiy mazhabi tarafdorlari o‘z so‘zlariga Muhammad (s.a.v)ning: «*O‘n yil davomida buyumga egalik qilgan shaxs uning egasi bo‘lib qoladi*», – degan hadisini dalil sifatida keltirganlar. Mazkur fikrga e’tiroz bildiruvchilar: «*Vaqt o‘tishi bilan ham mo‘minning huquqi bekor bo‘lmaydi*», – degan hadisni dalil o‘rnida keltirganlar.

Da’vo muddatining vaqtি haqida ham ulamolar orasida ixtiloflar (turli fikrlar) mavjud bo‘lgan. Ba’zilar uni 15 yil, deb belgilasalar, ba’zilar 30 yil, deb belgilaganlar. Keyinchalik bu muddatlar turli islam mamlakatlarida o‘z mahalliy sharoitlaridan kelib chiqib, qisqartirilgan. Agar narsaning o‘zi va uning mevasi ham xususiy mulk obyekti hisoblansa, bunday egalikka tamomila egalik huquqi deyiladi. Ammo, xususiy mulk obyektiga mulkdan olingan foyda yoki uning mevalari kirsa, bunday egalik shakliga «irtifoq», ya’ni uzufrukt deyiladi.

Musulmon huquqiga ko‘ra, egalik fuqarolik bitimlari, meros olish va g‘animatlarga ega bo‘lish orqali qo‘lga kiritiladi. Mulkni xususiy lash-tirishning boshqa shakllari ham bor. Agar biror odamning mulki boshqa bir shaxsning mulki bilan qo‘shilib ketib, so‘ng ularni ajratib olishning iloji bo‘lmasa, unday holda yangi buyum va egalikning yangi bir shakli kelib chiqadi. Abu Hanifaning fikriga ko‘ra, bu holatda xususiy mulk egasi o‘z mulkiga qo‘shilib ketgan molning pulini to‘lashi shart. Imom Shofi‘iyning fikricha, mazkur mulkning egalari uning bo‘linishini talab qilish huquqiga egadirlar, agar o‘sha mulkni bo‘lishning imkoniyati

<sup>1</sup> Қаранг: *Абу Мусо Аиъарий*. Ал-мавсуату фил ислом (Исломдаги кенгчилик). – Байрут, 1986. – 88 б.

bo‘lmasa, ikkala shaxs ham o‘sha mulkka ega hisoblanadilar. Musulmon huquqi o‘zaro urushlarda egasiz sochilib yotgan ashyo-buyumlargaga ‘animat sifatida ega bo‘lishga, tabiat resurslariga ega bo‘lishga, hayvonlarni ov qilishga, daryodagi ne’matlardan foydalanishga ruxsat bergen. Qur’oni karim ta’limotiga ko‘ra, o‘lja olingan mol-mulklar uch toifaga bo‘linadi:

1) *anfol* – asosan dushmanlardan urushlar natijasida tortib olingan yer maydonlari. Bunday yerlar hech kimning xususiy mulki bo‘la olmaydi. Davlat boshlig‘i ushbu yerlarni tasarruf qiladi. U o‘z xohishi bilan bu yerlarni xohlagan odamiga bera oladi. Bunday yerlar kimlarga dir hadya qilinadigan, vaqf uchun beriladigan xususiy mulk obyekti bo‘la olmaydi. Mazkur yerlardan olingan foya chegaralarni mustahkamlash, yo‘l, ko‘prik qurilishlari uchun ishlatilgan;

2) *fay buyumlari*. Mazkur buyumlargaga harbiy yurishlar vaqtida, urushsiz, tinch yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan ashylar kirgan. Ular asosan ko‘char mulklar bo‘lib, bunday mulklar Qur’onning «Anfol» surasi 41-oyatida shunday taqsimlab berilgan: «*Agar Allohga va ajralish kunida – ikki jamoa to‘qnashgan kunda, bandamiz (Muhammadga) nozil qilganimiz (oyatlar va farishtalardan iborat) narsaga iymon keltirguvchi bo‘lsangizlar, bilingizki, o‘lja qilib olgan narsangizning beshdan biri Alloh uchun, payg‘ambar uchun va u zotning qarindosh-urug‘i, yetimlar, miskinlar va musofirlar uchundir. Alloh hamma narsaga qodirdir*»;

3) *g‘animat* buyumlargaga harbiy yurishlar vaqtida qo‘lga kiritilgan o‘ljalar bo‘lib, ular asosan ko‘char mulklar bo‘lgan. Ular ishtirokchilar orasida teng taqsimlangan. G‘animatga qo‘lga kiritilgan barcha narsalar – jonsiz buyumlar, qullar, harbiy asirlar ham kiradi. G‘animatning beshdan biri baytulmolga jo‘natilib, qolgan qismi barcha ishtirokchilar orasida bo‘lingan. Arablar keyinchalik Saudiya hududidan chiqishgach, fath qilgan yerlaridan ko‘char buyumlarni ko‘pincha g‘animat sifatida olib, anfol qilib esa ko‘chmas mulklarni, asosan ekin maydonlarini egalarida qoldirganlar. Ikkinci xalifa Umar davrida Eron bosib olinganda, ekin maydonlari va bog‘larga fotihlarni egalik qilishdan qaytarib, ularni o‘z egalarida qoldirganlar.

Shia mazhabidagilarning fikriga ko‘ra, dushmanlardan qo‘lga kiritilgan barcha mulklar: tashlandiq yerlar, buzilgan imoratlar, tog‘lar, o‘rmonlar, daryolar, xullas, mag‘lub podshohlar mulkidagi barcha narsalar musulmonlar imomi (rahbar)ning ixtiyoriga o‘tadi.

*Luqota* topilma. Ushbu guruhgaga har qanday topilma buyumlar, topilgan bolalar, kishilar kiradi. Mazkur topilmalarni o‘zlashtirish uning

topilgan vaqtin, joyiga bog‘liq. Deylik, o‘z shaxsiy tomorqasidan xazina topib olgan shaxs uning egasi bo‘ladi. Ushbu xazinani o‘zgalar yeridan qazib olish unga egalik huquqini bermaydi. Biror joydan topib olingan buyum xususida ulamolarning fikriga ko‘ra, topilgan buyumni bir yil davomida xalq orasida e’lon qilib turish shart. Ushbu muddat o‘tgandan so‘ng egasi topilmasa, topib olgan odam uni o‘zlashtirishi mumkin. O‘zlashtirish buyum yo‘qolgan vaqt bilan bog‘liq. Faqihlar bu borada shunday holatlarni ham ko‘rib chiqqanlar. Agar buyum islomning kirib kelishidan oldin yo‘qotilgan bo‘lsa-yu, so‘ng o‘sha buyumni o‘zga shaxs islom dini qabul qilingandan so‘ng topib olgan bo‘lsa, uni o‘zlashtirishi mumkin. Aksar ulamolarning fikricha, islom dini kirib kelgandan so‘ng yo‘qolgan buyumni topib olgan shaxs uni o‘zlashtirishi mumkin emas. Bu fikrni ular mulk huquqining shaxsda doim saqlanib qolishi bilan asoslaydilar. Mulk egasi mulkini xohlagan vaqtida talab qilishi mumkin, topilmani iste’mol qilib tugatgan, ishlatib yuborgan shaxs esa uni o‘z mulki hisobidan to‘lagan.

Hanafiy mazhabi ta’limotiga ko‘ra, shartnoma (bitim) ikki va undan ortiq kishilarning o‘zaro kelishuvdir. Mazkur shartnoma muayyan manfaat evaziga yoki hech bir evazsiz tuziladi. Islomda bitim predmeti sanalishi uchun biror-bir harakatning bo‘lishi shart emas, balki unga harakatsizlik yoki biror-bir harakatni sodir etishdan to‘xtash ham kiradi. Musulmon huquqida nazr qilish (biror-bir xatti-harakatning oqibatiga bog‘lab, Alloh nomi bilan ichilgan qasamga rioya qilish. Misol uchun «O‘qishga kirsam, shu maskanga bir qo‘y atadim», – desa, o‘qishga kirishi bilan unga atab bir qo‘y so‘yish yoki mazkur maskanga hadya qilish vojib bo‘ladi) kabi bir tomonlama bitim, ichgan qasamiga ko‘ra, o‘z mulkini sadaqa yoki vaqfga berib yuborish kabi bitim ham uchraydi. Islomda bitimlar tomonlarning o‘zaro roziliklari asosida tuziladi.

Islom faqihlari bitimlardan kelib chiqadigan majburiyatlar xususida ham to‘xtab o‘tganlar. Islomdagi majburiyat huquqi rim yoki boshqa huquq tizimlaridan tamomila farq qiladi. Islomning majburiyat ta’limotiga ko‘ra, insonning Allohnинг oldidagi majburiyati eng asosiy majburiyat hisoblanadi. Fuqarolik majburiyatları ikkinchi o‘rinda turadi. Musulmon huquqiga ko‘ra, majburiyatlar cheklanmagan va cheklanganga ajratiladi. *Cheklanmagan majburiyatlar*, garchi qonun bilan belgilanmagan bo‘lsa-da, kishilar ularni bajarishga majburdirlar. Misol uchun halokatga uchrayotgan shaxsga yordam ko‘rsatish, kambag‘allarga moddiy va ma’naviy yordam berish kabilalar. *Cheklangan majburiyatlarga* qonun bilan belgilangan majburiyatlar kiradi. Bu majburiyatlar, o‘z

navbatida, ikki tur: *haqqulloh* (ya’ni insonning Alloh oldidagi majburiyatlari) va *haqqunno*s (shaxsning fuqarolik bitimlaridan kelib chiqadigan, o‘zgalar oldidagi majburiyatlari)ga ajratiladi.

*Shartnomaning predmeti*. Islom olimlarining fikriga ko‘ra, shartnoma predmeti, eng avvalo, birovga erkin o‘tish xususiyatiga ega bo‘lishi kerak. Havodagi qush, cho‘kkan kema, arqonini uzib qochgan chorva moli shartnomaning predmeti bo‘la olmaydi. Shartnoma predmeti muayyan, aniq narsa bo‘lib, tomonlar u haqida yetarlicha ma’lumot olishlari kerak. Shartnoma predmeti asosan naqd bo‘lishi, shuningdek shartnomaning predmeti va maqsadi musulmon huquqi nuqtai nazaridan ruxsat etilgan bo‘lishi kerak.

*Shartnomaning shartlari*. Eng avvalo, tomonlarning roziliklari va xohishlarini erkin bildirishlariga monelik qilinmasligi lozim. Majburlov ostida yuzaga kelgan bitim noqonuniy hisoblanadi.

### *Savol va topshiriqlar*

1. O‘zbekistonlik allomalarning musulmon fuqarolik huquqi rivojiga hissa qo‘shgan asarlarini bilasizmi?
2. Markaziy Osiyo xalqlari hayotiga musulmon fuqarolik huquqining ta’siri haqida gapiring.
3. «Mulk huquqi» tushunchasini yoriting.
4. Burhoniddin Marg‘inoniyning «Hidoya» asarining fuqarolik huquqini o‘rganishdagi ahamiyatini tushuntiring.

## **9-BOB. MUSULMON JINOYAT HUQUQI**

### **9.1. Islomda «jinoyat» tushunchasi va turlari**

Musulmon jinoyat huquqining asosi «jamiat va shaxs huquqi» tushunchalari bo‘lib, ular orqali jamiatdagi barcha huquqiy qoidalar belgilanadi. Islom fiqhshunoslari jinoyat huquqini – jamiatning umumiy nizomini va maslahatini muhofaza etuvchi huquq, deya izohlaganlar. Ushbu huquqni ular Allohnинг haqi bilan bog‘laganlar. Musulmon huquqida Alloh haqi muqaddas bo‘lib, uni bajarish, unga rioya qilish majburiy, deb belgilangan. Bu qoidadan tashqari biror shaxs manfaatini ko‘zlash va uni jazodan ozod qilishning imkoniyati umuman berilmagan. Musulmon huquqida ibodatlar ham, jazo berish ham Alloh haqini berish

deb qaralgan. Demak, jinoyat huquqini buzganlik uchun jazo berish ibodatdek qabul qilingan<sup>1</sup>.

«Shaxs haqi» tushunchasiga kelsak, har qanday jabrlangan shaxs o‘ziga tegishli haqni to‘liq qaytarib olish huquqiga ega bo‘lgan. Jinoyatchiga jabrlanuvchiga ko‘rsatgan zarariga qarab jazo belgilangan, shuningdek jabrlanuvchining talablarini to‘liq qondirish ta’minlangan. Jamiyat va shaxs huquqlarini buzadigan zararli amallar Qur’on ahkomlarida keltirilgan, hadislarda esa sharhlanib to‘ldirilgan. Fiqh olimlari ularni tartibga keltirib, o‘ziga xos huquqiy qoidalar majmuini tuzganlar.

Musulmon jinoyat huquqida jinoyat va uqubat masalalari asosiy o‘rnlarni egallagan. Bu masalalar bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, hatto jinoyatlarga beriladigan jazolarning nomlari bilan bog‘lab yuritilgan. Masalan: had uqubatlari – had jinoyatlari yoki qasos uqubatlari – qasos jinoyatlari, ta’zir uqubatlari – ta’zir jinoyatlari.

*Had uqubatiga* mansub jinoyatlar jamiyatga xilof bo‘lib, og‘ir jazoga mustahiq ko‘rilgan. Bunday jinoyatlar isbotlangan taqdirda, afv etilmay, ularga jazolar ko‘paytirilmay yoki kamaytirilmay belgilangan. *Qasos uqubatiga* loyiq qasos jinoyatlari esa shaxs huquqiga tegishli bo‘lib, qasos jazosi bilan jazolangan. Bunda jinoyatchi qilgan jinoyatiga mos ravishda jazolangan. Agarda jinoyatchi biror shaxsni o‘ldirgan bo‘lsa, o‘ldirilgan. Qo‘lini kesgan bo‘lsa, qo‘li kesilgan. Bunday jinoyat sodir etilgandan so‘ng, jabrlanuvchining qarindoshlari xohlasalar, jinoyatchini afv etish huquqiga ham ega bo‘lganlar. *Ta’zir uqubatiga* mansub jinoyatlar esa bir vaqtning o‘zida jamiyat va shaxs maslahatiga xilof bo‘lgan. Bunday jinoyat uchun og‘ir jazo belgilanmay, ayrim hollarda odobga chaqirish bilan cheklanilgan. Bu jinoyatlar uchun jazolarni qozilar belgilaganlar.

Kishi qilmishining jinoyat, deb hisoblanishi uchun avval ma’lum hukm, so‘ng ma’lum jazo belgilanishi kerak bo‘lgan. Biror qilmishga jazo belgilanishi uchun hukm talab qilingan, hukmsiz jazo rad etilgan. Musulmon jinoyat huquqidagi shar’iy hukmlar asosan to‘rt manba, ya’ni Qur’on, sunna, ijmo va qiyosdan olingan. Bulardan tashqari ikkinchi darajali manbalar ham mavjud bo‘lib, bular istihson, istisloh, urf-odat hisoblangan. Yuqorida ko‘rsatilgan to‘rt manbadan olingan hukmlar *vojib hukmlar*, deb yuritilgan.

Islom jamiyatida jinoyat huquqi ma’lum jamiyat maslahatlarining (arab jamiyati uchun foydali ijtimoiy munosabat) muhofazasini ta’minlab

---

<sup>1</sup> Қаранг: *Абдулқодир Ўда*. Ислом ҳукуқида жиноят қонунларини дунёвий қонунлар билан қиёсий ўрганиш. Ж. 1. – Байрут, 1985.

turadi. Jamiyat maslahatlari beshta tarkibdan iborat. Bular: din, nafs, mol, aql, nasl.

*Din* – insonga insoniy xususiyatlarni belgilab beruvchi nizom bo‘lib xizmat qiladi. Uning himoyasi uchun ibodatning hamma turlari qonunlashtirilgan. Unga rioya qilish jinoyat huquqi tomonidan nazorat qilinadi. Islom dinida ibodatga inson ruhini poklovchi, salomatligini saqlovchi va uni tarbiyalovchi omil sifatida qaraladi. Musulmon huquqi esa ibodat hukmlarining bajarilishini ta’minlaydi va u dinning himoyasida turadi.

*Nafs* – inson hayoti hisoblanib, inson uchun berilgan eng katta ne’mat sanaladi. Inson hayotiga uning shaxsiyati ham taalluqli bo‘lib, tuhmat va haqorat kabi illatlardan inson hayotini himoya qilish ham huquqning vazifasiga kiradi. Shuningdek, jinoyat huquqi erkin fikrlilikni va erkin diniy qarashlarni ham himoya qiladi. Unga «qatl» va «jarohat» tushunchalari zid bo‘lib, jinoyat huquqi inson hayotini ulardan himoya qilib turadi.

*Aql himoyasi* – aqlni har xil zararli illatlardan to‘sish, jamiyatning osoyishtaligi va rivojlanishini ta’minlash kabi vazifalar bilan bog‘liq. Islom jamiyatining har qaysi a’zosi aqlan salomat bo‘lishi, jamiyatga yaxshilik va naf keltirib turishi lozim. Chunki aql faqat uning egasiga emas, balki jamiyatga ham tegishli hisoblanadi. Shuning uchun ham jamiyat insonning sog‘lomligi uchun mas’uldir.

*Nasl muhofazasi* – insoniyatning davom etishini ta’minlashdir. Katta avlod, ya’ni ota-onada yosh avlodga g‘amxo‘rlik ko‘rsatib, tarbiya berishi, uni himoya qilishi nasl muhofazasining asosi hisoblanadi. Huquq esa oilaning yuzaga kelishini, uning buzilmasligini himoya qilib turadi, oilaning buzilishiga olib keladigan illatlar, zino, tuhmatchilik, fohishalik kabilarga qarshi kurashadi. Buni ularga belgilanadigan og‘ir jazolar ham tasdiqlaydi.

*Mol muhofazasi* – mol-mulkni o‘g‘riliklar, talon-toroj va turli tajovuzlardan himoya qilishdir. Jinoyat huquqi kishilar o‘rtasidagi mol oldi-berdilarining adolat bilan olib borilishini ta’minlaydi. Uni muhofaza qilib, tartib bilan tasarruf etadigan kishilar qo‘liga o‘tishini rag‘batlantiradi.

Jinoyatlar taqiqlangan amallar hisoblanib, belgilangan jazoga mustahiq hisoblanadi. Ular bir qancha turga bo‘linadi. Jinoyatlar qaysi jihatdan ko‘rlishicha qarab, quyidagi turlarga bo‘linadi: agar jinoyatlarga beriladigan jazo nuqtai nazaridan qaralsa, *hudud*, *qasos* yoki *diya* va *ta’zir* jinoyatlariga; jinoyatchining maqsadi nuqtai nazaridan qaralsa,

*qasddan* va *qasdsiz* sodir etilgan jinoyatlarga; jinoyat vaqtin nuqtai nazaridan qaralsa: *aniq* va *noaniq hisoblangan jinoyatlarga*; agar jinoyatlarning oqibatlari nisbatiga qaralsa, *ijobiy* va *salbiy*, *qayta takrorlanuvchi*, *vaqtinchalik* va *davom etuvchi jinoyatlarga*, jinoyat tarkibi bo‘yicha, uni: *toifaga qarshi*, *ma’lum shaxsga qarshi*, *oddiy* va *siyosiy jinoyatlarga ajratish mumkin*.

## 9.2. Islomda jazo va uning turlari

Jinoyatlar ularga belgilangan jazolardan kelib chiqib, quyidagi turlarga bo‘linadi: a) hudud; b) qasos; d) diya; f) ta’zir.

*Birinchi tur – hudud jinoyatlari* bo‘lib, bunday jinoyatlarga had jazolari belgilanadi, u Alloh haqi uchun beriladigan jazolardir. Had jazosi muayyan belgilangan jazo bo‘lib, uning quyi yoki yuqorisi bo‘lmaydi. Alloh haqining ma’nosi belgilangan jazodan hech bir shaxs yoki jamoat ozod etilmasligidir. Ushbu jinoyatlar jamiyat qoidalariga xilof bo‘lganidan jazo Alloh haqini bajarish uchun beriladi. Had jinoyatlari aniq belgilangan bo‘lib, ular zino, yolg‘on guvohlik berish, mast qiluvchi ichimlik iste’moli, o‘g‘rilik, qaroqchilik, dindan chiqish, qo‘zg‘olon ko‘tarishdir. Ushbu jinoyatlarga beriladigan jazolar *had jazolari*, deb ataladi. Har qaysi jinoyatning jazosi farqlanishi uchun ular zino hadi, ichkilik hadi va boshqalarga bo‘linadi.

*Ikkinci tur – qasos jinoyatlari* bo‘lib, ular qasos yoki diya jinoyatlariga mustahiq, deyiladi. Qasos va diya jinoyatlari had jazolari kabi aniq belgilangan bo‘lib, shaxs haqi uchun bajariladi. Shaxs haqida jabrlanuvchiga (agar u hayot bo‘lmasa, uning qarindoshlariga) jinoyatchini afv etish huquqi beriladi. Bunday holda jinoyatchi jazodan ozod etiladi.

Qasos va diya jazolari *besh* xil bo‘ladi: qasddan odam o‘ldirish; qasdga o‘xhash; xatolik orqasidan yuz bergan qotillik; qasddan keltirilgan zarar; xatolik orqasidan qilingan jinoyat.

*Uchinchi tur – ta’zir jinoyatlari* bo‘lib, bunday jinoyatlar uchun ta’zir uqubatlari belgilangandir. Ta’zir uqubatlarining ma’nosi odobga chaqirish bo‘lib, u qozining hukmi bilan amalga oshiriladi. Ta’zir jinoyatlari uchun aniq jazolar belgilangan bo‘lmay, yengil yoki og‘ir uqubatlar bilan jazolash mumkin bo‘lgan. Bunda, albatta, jinoyatlarning tafsilotlarini aniq o‘rganib chiqish talab qilingan. Ta’zir jinoyatlari ribo, g‘iybatchilik, poraxo‘rlik va shunga o‘xshagan jinoyatlardan iborat.

Had, qasos va diya jinoyatlarining ta’zir jinoyatlaridan farqi shuki, ularga hukmlar aniq, yozma belgilangan bo‘lib, o‘zgartirmay ijro etiladi. Ta’zir jinoyatlariga hukm chiqaruvchi qozidir. U jinoyat uchun jazo belgilayotganda, jamiyatdagi ahvolni ham hisobga oladi. Jamiyatdagi ahvol deganda, uning kechagi hayoti bilan bugungisi o‘rtasida farq bo‘lsa, uni e’tiborga olish ko‘zda tutiladi.

Jinoyatlarning had, qasos, diya, ta’zir kabilarga bo‘lish quyidagi sabablarga asoslangan:

– *birinchidan*, afv etish masalasi bo‘lib, had jinoyatlari afv etilmaydigan jinoyatlar hisoblanadi. Bunday jinoyatni sodir etgan kimsani jabrlanuvchi ham, hakam ham jazodan ozod etolmaydi. Ulardan biri afv etgan taqdirda ham, uning afv hech qanday kuchga ega bo‘lmaydi. Qasos jinoyatlarida esa jinoyatchini uqubatdan faqat jabrlanuvchi, agar u hayot bo‘lmasa, uning qarindoshlari ozod etadilar. Ushbu jinoyatda jabrlanuvchi olamdan o‘tsa-yu, uning yaqinlari bo‘lmasa, u holda davlat hokimi jinoyatchini jazodan ozod etish huquqiga ega bo‘ladi. Ta’zir jinoyatlarida afv etish huquqi qozi kalonga beriladi. Ammo undan jabrlanuvchining haqiga to‘liq rioya etgan holda afv etish talab qilinadi;

– *ikkinchidan*, qozining hudud jinoyatlariagi huquqi. Hudud jinoyatlari sodir etilganda, jazolar qozi tarafidan musulmon huquqida belgilanganidek, nuqson siz berilishi lozim bo‘ladi. Qozining hudud jinoyatlari jazolarini kechiktirishi mumkin emas. Uning hudud masalaridagi huquqi juda cheklangan bo‘ladi. Qasos jinoyatlari bo‘yicha ham qozi cheklangan huquqqa ega bo‘ladi. Agar jinoyatchi jabrlanuvchi tarafidan afv etilsa, qozi unga *diya jazosini* belgilaydi. Jinoyatchi dildan ham afv etilsa, qozi unga ta’zir jazosini belgilaydi. Bunday jazoda esa unga katta huquq berilgan bo‘ladi.

Ta’zir jinoyatlarida qoziga katta huquq berilgan. U o‘z hukmi bilan jazo turlarini belgilaydi. Uning og‘ir yoki yengil bo‘lishini ham ko‘rsatib beradi. Jinoyatchini ozod etish ham uning hukmida bo‘ladi;

– *uchinchidan*, yengillashtiruvchi holatlarni inobatga olish. Hudud, qasos, diya jinoyatlarida yengillashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lmaydi. Ularga beriladigan jazolar muqarrar bo‘lib, ko‘rsatilgan hech qanday sabablar inobatga olinmaydi. Ammo ta’zir jinoyatlarida yengillashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lib, qozidan yengilroq jazoni tanlash talab qilinadi;

– *to‘rtinchidan*, jinoyatning isboti masalasi. Musulmon huquqida hudud, qasos jinoyatlarining isboti uchun muayyan guvohlar talab qilinadi. Masalan, zino jinoyati uchun to‘rtta guvohni shahodat qilish

talab qilinadi. Boshqa turdag'i jinoyatlar uchun ikkita guvoh talab etiladi. Ta'zir jinoyatlarida esa bitta guvohning shahodati ham joiz, deb qaraladi.

Jinoyatlar maqsadiga ko'ra, *qasddan* va *ehtiyotsizlik* natijasida sodir etilgan jinoyatlarga bo'linadi. Qasddan sodir etilgan jinoyatlar deganda, jinoyatchining bir amalni bajarish mumkin emasligini bila turib, uni bajarishi tushuniladi. Ushbu nisbat jinoyatning umumiy sifati, deb qaraladi. Endi uning xususiy jihatiga qaralsa, jinoyatchi bajaradigan amalining natijasini oldindan belgilab olishidir. Bunday umumiy va xususiy jihatlar e'tiborga olinadigan jinoyat qasddan sodir etilgan jinoyat, deb ko'rsatiladi.

Agar jinoyatchi jinoyatining natijasini oldindan belgilab olmagan bo'lsa, *shubhali qasd*, deb yuritiladi.

Ehtiyotsizlik tufayli sodir etilgan jinoyatga uni sodir etgan shaxs taqiqlangan amalni bajarishni niyat qilmagan, balki xatolik yuzasidan sodir etgan, deb yuritiladi. Xatolik ikki turga bo'linadi:

– jinoyatchi bir ishni bajarayotgan bo'lib, bu ish tufayli jinoyat sodir etishi. Masalan, bir kishi yo'lni toshlardan tozalayotib, ularni to'g'ri kelgan tomonlarga otayotganda, bir tosh bir odamga tegib, uni o'ldirib qo'ysa yoki ovchi mo'ljalni noto'g'ri olib, bir kishini nobud qilsa, mazkur amallar xatolik yuzasidan sodir etilgan jinoyatlar, deb hisoblangan;

– kishining hech bir ishni oxirigacha bajarmay, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etishi. Masalan, bir kishi quduq qazib, uning yonatrofini to'sib qo'y may, tashlab ketsa va boshqa kishining unga tushib, cho'kishi natijasida o'lishi.

Ushbu bo'linishdan maqsad jinoyatchiga jazo belgilash uchundir. Agar jinoyatning qasddan bajarilganligini isbotlashga dalillar yetishmasa, jinoyatchi jazodan ozod etiladi. Jinoyatchi jinoyatni ehtiyotsizligi tufayli sodir etgan bo'lsa, u jazoni faqat ehtiyotsizlik qilgani uchun oladi. Qasddan sodir etilgan jinoyat qasdsiz jinoyatdan tubdan farq qilib, ba'zi vaqtda kishi qasdsiz jinoyat sodir etgan bo'lsa, jazodan umuman xalos qilinmasligi ham mumkin.

Jinoyatlar sodir etilgan vaqtiga qarab, *ochiq, noaniq va mujmal* jinoyatlarga bo'linadi. Agarda jinoyat sodir etilganiga ko'p vaqt o'tmagan, shuningdek uni aniq ko'rgan guvohlar mavjud bo'lsa, mazkur hodisa ochiq, aniq jinoyat, deb yuritiladi.

Jinoyatlarning sodir etilgan vaqlari aniq bo'lmasa, noaniq jinoyatlar, deyiladi. Ushbu ajratish musulmon huquqida ikki maqsadni ko'zda tutadi:

– *birinchidan*, jinoyatni isbot etish uchun. Masalan, agar jinoyat hudud jinoyatlariga kirsa, unga guvohlik berish (dalil ko'rsatish) talab

qilinadi. Guvohlar jinoyatning sodir etilgan vaqtini, jinoyatchini jinoyat ustida ko‘rishganligini aniq aytishlari lozim bo‘ladi. Bunday talab to‘rttala mazhabning imomlari tomonidan ham e’tirof etilgan;

– *ikkinchidan*, jinoyatning oldini olish maqsadida. Masalan, jinoyat sodir etilganda, uning shohidi bo‘lgan har qanday shaxs kuchi yetganicha jinoyatchini jinoyatdan qaytarishi nazarda tutiladi.

*Jinoyatlar ijobiy va salbiyga ajraladi.*

*Ijobiy jinoyatlar* – taqiqlangan amallarni qilish tufayli sodir bo‘ladi. Masalan, o‘g‘rilik, qotillik, zino, mast qiluvchi ichimlik iste’mol qilish va boshqalar.

*Salbiy jinoyatlar* – buyurilgan amallarni qilmaslik tufayli sodir etiladi. Masalan, guvohning shahodat berishdan bosh tortishi, zakot bermaslik va boshqalar.

Ko‘pgina fiqh olimlari salbiy jinoyatlar ijobiy jinoyatlar natijasida kelib chiqishini e’tirof etganlar. Uni sodir etgan shaxslarga esa uqubatlar belgilangan. Masalan, hibsda tutib turilgan mahbusga ovqat bermasdan, uni nobud qilish ijobiy jinoyatning salbiy jinoyat natijasida kelib chiqishidir. Musulmon huquqi ahkomlarida ta’kidlanishicha, ba’zi vaqtarda yordam berishdan bosh tortgan kishilar o‘z qilmishlari uchun mas’ul bo‘lmaydilar. Masalan, biror kishi yong‘in ichida yoki suvda cho‘kayotgan bo‘lsa, unga yordam bermagan shaxs mas’uliyatdan xolis bo‘ladi.

Jinoyatlar sodir etilish usullariga ko‘ra, *oddiy* va *takrorlanuvchi* jinoyatlarga bo‘linadi.

*Oddiy jinoyatlarga* o‘g‘rilik, mast qiluvchi ichimlik iste’mol qilish kabilar misol bo‘ladi. Bunday jinoyatlar vaqtincha yoki davom etuvchi bo‘lishi mumkin. Hudud, qasos va diya jinoyatlari oddiy jinoyatlar toifasiga mansubdir.

*Takrorlanuvchi jinoyatlar* biror harakatning qayta takrorlanishidan yuzaga keladi. Qilmish ko‘rinishiga ko‘ra, jinoyat bo‘lmasa ham, lekin uning qayta-qayta takrorlanishi jinoyat, hisoblanadi. Qayta takrorlanuvchi jinoyatlar ta’zir jinoyatlari tarkibiga kirib, ularni bajarish musulmon huquqi ahkomlarida man etilgan. Oddiy jinoyatlar sodir etilgan kundan boshlab jinoyat hisoblanadi (agar u vaqtincha bo‘lsa, masalan, zino, o‘g‘rilik).

*Davom etuvchi jinoyatlar* ruxsat etilgan davri tugagan vaqtdan jinoyat, deyiladi.

*Ketma-ket sodir etiladigan* jinoyatlarda jinoyatchi bir turdag'i jinoyatlarni ketma-ket sodir etadi. Masalan, jinoyatchi o‘g‘rilik qilib, bir

joydan mollarni olib chiqib ketib, jinoyatni yana takrorlaydi. Yoki biror shaxsga ko‘pgina jarohatlar yetkazadi. Musulmon huquqida bunday jinoyatlar bitta jinoyat, deb qaraladi. Ular uchun jazo ham bir marta beriladi. Kimda-kim ikki yoki undan ortiq marta o‘g‘rilik qilsa, qilmishining bir martasi uchun jazo oladi.

*Takrorlanuvchi, ketma-ket sodir etiluvchi va g‘ayrimuaqqat jinoyatlarining bir-biridan farqi.* Takrorlanuvchi jinoyatlar ketma-ket sodir etiluvchi jinoyatlarga nisbatan ko‘pincha jinoyatga yaqin amallardan sodir bo‘ladi. Jinoyatga yaqin bir amalning o‘zi jazo uchun kifoya qilmaydi. Shu bois, u jinoyat hisoblanmaydi. Ammo ketma-ket sodir etiluvchi jinoyatlarda uning aksi bo‘lib, bitta jinoyat ishi uchun ham jazo matlub bo‘ladi. Masalan, bir shaxs biror uyning jihozlarini o‘g‘irlashni niyat qilib, shu jinoyatni amalga oshirsa, u buning uchun jazolanishi ma’lum. Ketma-ket sodir etiluvchi jinoyatlar g‘ayrimuaqqat jinoyatlardan ba’zi xususiyatlari bilan farqlanadi. Ketma-ket sodir etiluvchi jinoyatlar ko‘p harakatli bo‘lishiga qaramasdan, uzilish bilan sodir etiladi. Har bir jinoyat ishidan so‘ng, ma’lum uzilish bo‘lib, keyin esa takrorlanadi. G‘ayrimuaqqat jinoyatlar davomli yoki yangilangan holda sodir etiladi. Ketma-ket sodir etiluvchi jinoyatlarning bitta jinoyat, deya qaralishining sababi – musulmon huquqida bir turdagи jinoyatlar uchun jazolarning ko‘paytirilishiga ruxsat etilmasligidir. Uning uchun bitta jazo kifoya, deyiladi. Chunki jinoyatchi bir ishni niyat qiladi va uni sodir etadi, u esa bitta jinoyat hisoblanadi.

### 9.3. «Ta’zir» tushunchasi va turlari

Musulmon olimlarining asarlarida ushbu jinoyatlarning turlari to‘g‘risidagi qaydlar uchramaydi. Ular, asosan, jinoyatlarning hudud, qasos va diya turlari haqida fikr bildirganlar. Chunki bunday jinoyatlar sobit bo‘lib, ularning tamoyillari o‘zgarmagan, ularga beriladigan jazolar ham muqarrar bo‘lib, ular ham o‘zgartirilmagan. Ushbu jinoyatlarning hammasi *muaqqat jinoyatlar*, deyilgan.

Ammo ta’zir jinoyatlari ichida muaqqat va muaqqat bo‘lmagan jinoyatlar mavjud bo‘lib, ularni qozilarning o‘zları farqlab, belgilab borganlar. Bu borada ularga katta huquqlar berilgan. Hukm chiqaruvchi mahkamalarning hukmlari davlatlarning urf-odatlariga binoan turlicha bo‘lgan. Biror davlatda ruxsat etilgan amallar boshqa davlatda man etilgan. Shu bois fiqh olimlari ushbu masala xususida mufassal bahs olib borishni zarur, deb topmaganlar.

*Muaqqat jinoyatlar* birorta man etilgan amalni bajarishdan yoki buyurilgan amalni bajarmaslikdan kelib chiqadi. Bunday jinoyatlar chegaralangan vaqt ichida sodir bo‘ladi. Ushbu jinoyatlarga o‘g‘rilik, mast qiluvchi ichimlik iste’mol qilish yoki yolg‘on guvohlik berish, guvohlik berishdan bosh tortish kabilar kiradi.

*Muaqqat bo‘lmagan jinoyatlar* yangilanib yoki to‘xtamasdan davom etib turadi. Ushbu jinoyatlarning bajarilishi vaqtłari tugagandan so‘ng, ular jinoyat, deb yuritiladi. Bunday jinoyatlarga biror shaxsni nohaq hibsda ushlab turish, zakot berishdan bosh tortish kabilar kiradi.

Musulmon huquqining qoidalarida bayon etilishicha, muaqqat jinoyatlar u boshlangan vaqtdan jinoyat, deb hisoblanadi. G‘ayrimuaqqat jinoyatlar esa albatta nihoyasiga yetgan bo‘lishi shart. Ammo, bu o‘rinda jinoyatning natijasi bilan jinoyatning davom etishini chalkashtirmaslik lozim bo‘ladi. Bunga o‘g‘rilik jinoyatini misol qilsak, o‘g‘rilik sodir bo‘lgandan so‘ng, o‘g‘irlangan mollarning jinoyatchi qo‘lida qolishi bu jinoyatning davom etishi emas, balki jinoyatning natijasi, hisoblanadi.

G‘ayrimuaqqat jinoyatlar *yangilanib turadigan* va *davom etuvchi* jinoyatlarga bo‘linadi.

*Yangilanib turadigan jinoyatlar* jinoyat davom etishi bilan yangilanib turadi. Masalan, yil mobaynida zakot majburiyatini bajarmaslik vaqt o‘tishi bilan jinoyatning ortishiga olib keladi. Bu holda jinoyat yangilanib turaveradi.

Bunday taqsimlanishda bir qancha jinoyatlar inobatga olingan, ya’ni:

- muaqqat jinoyatni sodir etgan jinoyatchi uchun maxsus hukmlar mavjud. G‘ayrimuaqqat jinoyatlarning hukmlari maxsus bo‘lmay, zamon va makonga qarab o‘zgarib turadi. Shu nuqtai nazardan ushbu jinoyatlarning har biri bitta emas, balki bir necha hukmlarga ega bo‘ladi, deyish mumkin;

- muaqqat jinoyat ustidan jinoyat ishi jinoyat boshlanishi bilan qo‘zg‘atiladi, ammo g‘ayrimuaqqat jinoyatda jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi uchun albatta nihoyasiga yetishi talab qilinadi;

- yangi chiqarilgan qonunlar muaqqat jinoyatlar uchun ahamiyatga ega emas. Ular faqat muaqqat jinoyatlarga ta’sir etib, eski qonunlar bunday sharoitda bekor qilinadi;

- muaqqat jinoyatda hukm voqeа sodir etilib, mahkamaga xabar qilinganda chiqariladi. Agar bu holda mahkamaga ma’lum qilinmagan jinoiy voqealar sodir bo‘lgan bo‘lsa va hatto hududda o‘sha hukmga ega jinoyatlar bo‘lgan taqdirda ham. ular hukmga ta’sir etmaydi. Hukmdan keyin sodir bo‘lgan jinoiy voqealar tufayli ham unga o‘zgartish kiritilmaydi.

Hukmdan keyin sodir bo‘lgan jinoyat uchun yangidan jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, muqaddam chiqarilgan hukmning jazosi ijro etilgandan so‘ng, yangi hukm ijro etiladi. Ammo g‘ayrimuaqqat jinoyatlarda hukm o‘tgan hamma jinoyatlarga tegishli bo‘ladi. Hatto ba’zi jinoyatlar mahkamaga ma’lum bo‘lmagan taqdirda ham, ularning voqelikda sodir etilganligi e’tirof qilinadi. Chunki o‘sha jinoyatga yaqin amallarning barchasi birlashtirilib, bitta jinoyatning hisobiga kiradi.

Jinoyatlar tabiatiga ko‘ra, *jamiyatga* yoki *shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlarga* bo‘linadi.

Jamiyatga qarshi qaratilgan jinoyat uchun jazo jamiyatdagi tartibni himoya qilish maqsadida belgilanadi. Bunday jinoyatlar shaxsga yoki jamoaga qarshi qaratilgan bo‘ladi. Shaxsga qaratilgan bo‘lsa ham, lekin jamiyatga qarshi, deb yuritilishining boisi, ba’zi (zino, o‘g‘rilik) jinoyatlar shaxsdan ko‘ra jamiyatga ko‘proq zarar yetkazadi va mazkur jinoyatlarda jabrlangan shaxsga jinoyatchini afv etish huquqi berilmaydi.

Bunday jinoyatlar uchun jazo shaxs huquqini himoya qilish maqsadida belgilanadi. Jinoyatlar bir vaqtning o‘zida ham shaxsga, ham jamiyat hayotiga qarshi bo‘lishi mumkin. Masalan, qasos va diya shaxs huquqini buzadigan jinoyatlar hisoblanadi, lekin bunday jinoyatlar jamiyat huquqiga ham taalluqli bo‘ladi. Ammo ko‘proq shaxs huquqiga tegishli bo‘lgani bois, jazo shaxs huquqi uchun beriladi.

Agar jabrlanuvchi shaxs o‘z haqidan kechib, jinoyatchini afv etsa, unda jinoyatchiga jamiyat haqi uchun jazo beriladi, ya’ni unga ta’zir uqubati belgilanadi. Ta’zir jinoyatlari ba’zi vaqtida jamiyatga va ba’zan shaxsga qarshi sodir etilgan bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, jazolar jamiyat haqi uchun og‘irroq, shaxs haqi uchun yengilroq belgilanadi.

Musulmon huquqida jinoyatlar *oddiy* va *siyosiy* jinoyatlarga bo‘linadi. Garchi siyosiy tus olgan bo‘lsa-da, hamma jinoyatlar ham siyosiy jinoyatlarga kirmaydi. Ba’zan oddiy jinoyatlar siyosiy keskinlik vaqtida sodir etilsa, ularga siyosiy jinoyatlar sifatida qaraladi. Bu ikki xil jinoyat xususiyatiga ko‘ra, bir-biridan farq qilmaydi. Ularning bajarilish holatlari va usullari bir-biriga muvofiq keladi. Bunday holatlarda jinoyatlarni bir-biridan ajratib ko‘rsatish qiyin kechadi.

Oddiy holatlarda, ya’ni urush yoki qo‘zg‘olon vaqtlaridan boshqa vaqlarda ro‘y bergen har qanday jinoyat oddiy jinoyat, deb yuritiladi. Masalan, kimdir davlat hokimini o‘z siyosiy qarashlari bois qatl etgan bo‘lsa, uning maqsadidan qat’i nazar, u oddiy jinoyatni sodir etganlikda ayblanadi. Chunki qatl oddiy sharoitda amalga oshirilgan bo‘ladi. Bunga xalifa Aliga xorijiylar qasd qilganlarida, qotilga uning o‘zi bergen jazosi

misol qilinadi. Xalifa Ali o‘g‘li Hasanga: «Madomiki, men tirik kelsam, uni o‘zim jazolayman, agar o‘lsam, uni menga urgan zarbi kabi uringlar», – deb buyurgan. Islom olimlari Ali o‘z qotilini oddiy jinoyatchi deb qabul etgan, degan fikrni bildirganlar.

Siyosiy jinoyatlar g‘ayrioddiiy holatlarda yuzaga keladi. Ular qo‘zg‘olon va urush holatlarida, bir davlat ikkinchi davlatning ustiga bosqinchilik bilan kelayotgan vaqtida, mamlakatda tinchlik va barqarorlik ketib, notinchlik hukm surayotgan bir sharoitda ro‘y beradi.

Fiqh olimlari siyosiy jinoyatchilarni *qo‘zg‘olonchilar*, deb ataydilar. Qo‘zg‘olonchilar – davlatdan norozi bo‘lib, unga qarshi harakatlarni olib boruvchi ma’lum bir shaxslardir.

Siyosiy jinoyatchilarning qo‘zg‘olon vaqtida va undan keyingi huquqlari quyidagicha: qo‘zg‘olon boshlanib ketgan vaqtida, davlat hokimi siyosiy jinoyatchilarni qatl qilmaslikka harakat qiladi. Urushda eng ashaddiy qo‘zg‘olonchilarni o‘ldirish buyuriladi. Qo‘zg‘olonchilardan biri qurolini tashlasa, unga zarar yetkazilmaydi. Uning mol-mulki, ayollari saqlab qolinadi va urush tugagach, qaytarib beriladi. Agarda mol-mulklar tinchlik vaqtida talon-toroj qilingan bo‘lsa ham, davlat ularni o‘z egalariga qaytarishga mas’uldir. Siyosiy jinoyatchilarning mol-mulkulari urush ta’sirida yo‘q bo‘lib ketgan bo‘lsa, bu holda davlat ularning mol-mulklariga mas’ullikni zimmasiga olmaydi.

Siyosiy jinoyatchilar urush holatida odam o‘ldirish, mol-mulkni talon-toroj qilish kabi jinoyatlarni sodir qilgan bo‘lsalar, davlat hokimi ularni jazolashi ham, jazodan ozod etishi ham mumkin. Jazo ta’zir uqubatidan iborat bo‘lib, bu to‘g‘rida to‘rt buyuk imom o‘z fikrlarini bildirganlar. Imomlar Molik, Shofi‘iy va Ahmad siyosiy jinoyatchilarga o‘lim jazosi berilmasligini yoqlab chiqqanlar. Ular islomda asirlar va jarohatlangan kishilarni qatl etish harom qilinganligini e’tirof etganlar. Abu Hanifa esa qatlni yoqlab chiqib, agarda jamiyat maslahati buni talab etadigan bo‘lsa, asirlarni qatl qilsa bo‘ladi, degan fikrni bildirgan. Har qanday holatda ham bu borada davlat qozisiga katta huquq berilgan bo‘lib, uning hukmi bilan jinoyatchi qilmishi uchun jazo oladi yoki jazodan umuman ozod etiladi.

Siyosiy jinoyatchilarga beriladigan jazolar vaziyatga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, agarda jinoyat qo‘zg‘olondan oldin yoki keyin sodir etilgan bo‘lsa, ularga oddiy jinoyatlar nisbatida gi jazo beriladi. Qo‘zg‘olon vaqtida sodir etiladigan siyosiy jinoyatlarga davlat rahbarlarini qatl etish, shaharlarni egallab olish va umuman urush holatiga mansub jinoyatlar kiradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, siyosiy jinoyatchilarning muayyan talablari va maqsadlari bo'ladi. Ular davlat boshlig'i yoki ijro hokimiyatining iste'foga chiqishini talab qilish yoki itoat qilishdan bosh tortish kabi harakatlarni sodir etadilar. Mana shu holatlarda ular siyosiy jinoyatchilar, deyiladi. Agar jinoiy harakat musulmon huquqiga o'zgartirish kiritish yoki qo'shni davlatning qonunlarini o'z davlatida qo'llab, bu orqali davlat siyosatini o'zgartirishga olib kelsa, bunday harakat siyosiy jinoyat hisoblanmay, balki oddiy jinoyat sifatida baholanadi. Ular mamlakatga *fasod tarqatuvinar*, deb ayblanadilar va tegishli jazoga hukm qilinadilar.

Siyosiy jinoyatchilar qo'ygan talablarining bajarilishini talab qilishadi. Agarda ularning keltirgan dalillari haqiqatga to'g'ri keladigan bo'lsa, u qabul qilinadi va o'zлari siyosiy jinoyatchilar deb tan olinadilar. Agar qo'yilgan talablarining vaji haqiqatga yaqin bo'lmasa, unda ular siyosiy jinoyatchilar, deb tan olinmaydilar.

*Siyosiy jinoyatchilar muayyan kuchga ega bo'lishlari shart.* Ular o'z maqsadlarini ilgari surganlarida ham biror kuchga ega bo'lmasalar, siyosiy jinoyatchilar, deb tan olinmaydilar.

*Mamlakatda* qo'zg'olon yoki urush vaziyatlari hukm surib turganda siyosiy jinoyatlar sodir bo'ladi. Yuqorida bayon etilgan barcha amallar tinchlik sharoitida yuz beradigan bo'lsa, ular oddiy jinoyatlar hisoblanadi. Bu jinoyatlarni sodir etgan shaxslar oddiy jinoyat qilganlar kabi jazolanadilar.

Ulardan bu davrda tinch yo'l bilan hayot tarzlarini olib borish talab qilinadi. Ular so'z erkinligiga ega bo'lib, musulmon huquqida ruxsat etilgan amallarini bajarishlari mumkin bo'ladi. Ammo jinoyatchi qo'l urgan siyosiy jinoyati uchun darhol oddiy jinoyatchi kabi jazosini oladi. Siyosiy jinoyatchilar jamoa tashkil etish huquqiga egadirlar. Ammo bunda jamoa o'z yo'boshchisiga ega bo'lishi talab etiladi. Aks holda, jamoa tarqatilib yuborilishi mumkin.

### *Savol va topshiriqlar*

1. O'zbekistonlik allomalarining musulmon jinoyat huquqining rivojiga hissa qo'shgan asarlari haqida gapiring.
2. Musulmon jinoyat huquqining o'ziga xos jihatlarini tushuntiring.
3. Islomda jazo va uning turlarini tushuntirib bering.
4. «Ta'zir» tushunchasi va turlarini ayting.

### 10-BOB. MUSULMON SUD HUQUQI

#### 10.1. «Musulmon sud huquqi» tushunchasi

Musulmon huquqi to‘g‘risidagi asosiy adabiyotlarda sud huquqining ma’nosi qazo (qozilik) haqidagi boblarda yoritib berilgan. Arab tilidagi «qazo» so‘zi tayin qilish, hal qilish degan ma’nolarni ifodalab, mazkur fe’l (harakat)ning bajaruvchisi «qozi» (tayin qiluvchi, hal qiluvchi), deb nomlanadi. «Qozi» ham arabcha so‘z bo‘lib, «qazo» fe’li (amali)ning foili (ya’ni ish bajaruvchisi, harakatni sodir qiluvchisi)dir. «Qazo» so‘zining bir qancha lug‘aviy ma’nolari bo‘lib, hukm, ado qilish, nihoyasiga yetkazish, komiliga yetkazish kabi ma’nolarni ifodalaydi. Uni qo’llash borasida to‘rt mazhab ulamolari turlicha yondashganlar.

Hanafiylarning ta’rifiga ko‘ra, qazo bu – insonlar orasida haq bilan hukm qilish.

Molikiy mazhabining tarafdorlari esa, qazo – majbur qilib qo‘yish yo‘li orqali shar’iy hukmni bildirish, deganlar.

Shofi’iy mazhabining tarafdorlari qazo – voqelikda shar’iy hukmning qozi bo‘lgan shaxs tomonidan amalga oshirilishidir, deganlar.

Hanbaliy mazhabiga ko‘ra, qazo – shar’iy hukmni va uning majburiy bo‘lib qolganligini va muayyan bir nizoga aniqlik, oydinlik kiritilganini bayon qilishdir.

Ulamolar qazo – hukm chiqarishning asosiy shartlari haqida ko‘plab fikrlarni bildirganlar. Hanafiy mazhabining olimi ibn Obiddin qazo qonuniy bo‘lishi uchun quyidagilar mavjud bo‘lishi shart, deb ko‘rsatgan:

– *birinchidan*, qozining shaxsan mavjudligi (gohida hokim ham deb yuritiladi);

– *ikkinchidan*, hukm chiqarilishi uchun sabab bo‘lgan voqeа;

– *uchinchidan*, hukmni kutib turgan shaxs yoki jamoat;

– *to‘rtinchidan*, musulmon huquqiga muvofiq, hukmni qabul qilish, o‘z navbatida, to‘rt maqsadni nazarda tutish:

a) Allohning haqi – zino yoki xamr (mast qiluvchi ichimlik) ichganligi uchun had urishlik;

b) bandaning haqi – mol-mulkiga ega bo‘lish;

d) Alloh va bandaning haqlari birga, lekin Allohning haqi ustun bo‘lgani bois, keskin chora ko‘rish, masalan, o‘g‘rilik uchun qo‘l kesilishi;

f) Alloh va bandaning haqi birga, lekin bandaning haqi ko‘proq bo‘lgani bois, banda tomonidan istasa, yengilroq jazo berilishi mumkin bo‘lgan jinoyat turi – qasos yoki tuhmat uchun jazo;

– *beshinchidan*, isbot yo‘llari.

Ushbu o‘rinda qozining qarori va fatvo o‘rtasidagi farq to‘g‘risida mufassal to‘xtalish o‘rinlidir.

*Hukm chiqarish* bilan *fatvo shar‘iy xabarni bildirish* bir-biriga o‘xshab ketsa ham, quyidagi farqlar mavjud.

*Fatvo* uni talab qilganlar yoki talab qilmaganlarga umumiy bajarilishi shart bo‘lgan shar‘iy qarordir. Qozining qarori esa muayyan masala yuzasidan chiqqan bo‘lsa, o‘sha voqeа ishtirokchilariga tegishli, xolos. Fatvoga amal qilishda uni so‘rovchilar mazkur javob shar‘iy dalilga yaqin bo‘lsa, e’tiborga oladilar, agar shar‘iy hujjatlarga muvofiq kelmasa, amal qilmaydilar. Muftiy o‘z qarorini fatvo talabgorlarining birortasiga ham zo‘rlab o‘tkaza olmaydi. Qozining esa majburlov apparati mavjud.

Fatvo fiqhning barcha sohalarida majburiy sanaladi, ya’ni ibodat, muomalot, jinoyat va jazo – farqi yo‘q. Ammo qozining qarori ibodatga taalluqli bo‘lmaydi. Qozi namozning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi haqida qaror chiqara olmaydi. Bir mazhabning fatvosini boshqa mazhab qabul qilmasligi mumkin. Chunki fiqhiy mazhablar ba’zi masalalarda o‘z dalillari bilan boshqa mazhabning fatvolarini rad qilishlari mumkin. Biroq biror qozining chiqargan qarorini boshqa qozi bekor qila olmaydi. Misol uchun, bir qozi «taloq tushgan» desa, o‘sha hukm o‘z kuchida qoladi.

Ulamolarning fikriga ko‘ra, fatvo erkakdan ham, ayoldan ham, ozod quldan ham sodir bo‘ladi. Ammo qozi masalasida ozod, erkak odam bo‘lishi shart qilib qo‘yilgan.

Islom sud huquqining asosiy manbai Qur’oni karim, sunna va ijmo hisoblanadi. Sud huquqiga taalluqli oyatlar Qur’on karim «Baqara» surasining 213, «Hadid» surasining 25, «Niso» surasining 58, 65, 105, «Moida» surasining 44, 45, 47, 49, 250, «A’nom» surasining 82, «Ahzob» surasining 36, «Nur» surasining 48, 51-oyatlari hisoblanadi.

*Sunnatdan keltirilgan dalillar.* Imom Buxoriyning hadislar to‘plamida quyidagi hadis bor: «*Amr ibn Os Muhammaddan rivoyat qiladilar: Muhammad dedilar: «Qachon hakim ijтиҳод qilib (ya’ni hukm chiqarishda), to‘g‘ri hukm chiqarsa, unga ikkita ajr bor, agar ijтиҳод qilib xatoga yo‘l qo‘ysa, unga bitta ajr bor».*

Umuman, Abu Dovud, ibn Mojja, imom Termiziy kabilarning hadis to‘plamlarida mazkur mavzuga dalolat qiluvchi 50 ga yaqin hadislar mavjud.

*Ijmoga ko‘ra dalil.* Islom olimlari sahabalar davridan tortib, to shu kungacha qazoning hukm jihatdan ham, taqlid jihatdan ham qonuniyligiga ijmo qilganlar<sup>1</sup>.

Muhammad ibn Abdulloh (payg‘ambarimiz) Madinaga hijrat qilganidan so‘ng, u yerda islam jamoasiga (ummaga) asos soldi. Keyinchalik uning mazkur jamoa a’zolariga diniy-huquqiy masalalar yuzasidan ko‘rsatmalar bergani, nizoli masalalarda hakamlik qilgani tarix kitoblarida bayon qilingan. Islom tarixida birinchi qozi, albatta Muhammad (s.a.v.) hisoblanib, hayotlik vaqtida bir qancha ishlar yuzasidan qozilik qilgani, sud jarayonida ishtirok etib, ayblanuvchilarning iqrorlariga o‘zları shohid bo‘lgani manbalarda bayon qilingan.

Payg‘ambar vafotidan so‘ng, bu vazifani davlat boshliqlari – Xulafoi roshidinlar amalga oshirganlari. Hazrati Umar ibn Hattob Madina, Basra, Kufa shaharlarining dastlabki qozilarni tayinlagan. Shundan keyin qozilar yirik shaharlar va viloyatlarda, harbiy yurishlar vaqtida esa qo‘sishnlarda ham tayinlana boshlagan.

Ummaviylar xalifaligi davrida bosh sudya bu xalifa hisoblangan. Xalifa olim, faqih musulmonlar ichidan tanlab olib, qozilik lavozimiga qo‘ygan. Islom mamlakatlarida sudning uchta turi mavjud edi:

- a) *mazolim sudlar*, ya’ni joylarda xalifaning buyrug‘iga ko‘ra tashkil etiladigan sudlar;
- b) musulmon normalari bo‘yicha tashkil etilgan *oddiy sud*;
- d) *zimmiylik sudlari*. Musulmon bo‘lmagan fuqarolarning ishlari bilan shug‘ullanuvchi davlat sudlari.

Abbosiylar xalifaligi davrida davlat sud organlarida bir qancha o‘zgarishlar qilingan. Fuqarolik ishlari bilan shug‘ullanuvchi sud jinoyat sudidan ajratilgan. Eng yuqori sud – *Devon un-nasr-al mazolim* (ya’ni mazlumlarga yordam beruvchi vazirlik, sud), deb nomlangan. Sudning raisi xalifa yoki adliya vaziri bo‘lgan. Mazlumlar sudining raisi barcha sudlar ustidan nazorat olib borgan. Zarurat tug‘ilganda, xalifa tomonidan favqulodda sud (oliy sud) chaqirtirilishi ham mumkin bo‘lgan. Mazkur sud tarkibiga xalifa, (bosh sudya) kotib, bosh qozi va faqihlar kiritilgan. Oliy sudning qarorlari qatyiy bo‘lib, shikoyatga yo‘l qo‘yilmagan. Barcha viloyat sudlari bosh qoziga hisobot topshirganlar. O‘z davrida Abu Yusuf ham bosh qozi lavozimida faoliyat ko‘rsatgan. Ko‘pchilik olimlar Abu Yusufning «Xiroj» nomli qo‘llanmasini butun imperiya hududida yagona qo‘llanma sifatida tarqatilganini va u birinchi manbaligini e’tirof etganlar.

---

<sup>1</sup> Қаранг: Ўзбекистон МДА, Р-38-жамғарма, 1-рўйхат, 46-иш, 97-варак.

Dastlab qozi mayda xizmatchi bo‘lib, hokim unga sudlov majburiyatlarini bajarishni buyurardi. Ma’lumki, jinoyat yoki ma’muriy sudlar amaliy zarurat, ya’ni xalifalarning dunyoviy (diniy emas) hokimiylatlari yo‘qolayotgan shart-sharoitlar ta’sirida shakllangan. Fuqarolik ishlariga oid vazifalar musulmon bo‘lmanlar (yahudiylar va xristianlar)ga ham topshirilishi mumkin bo‘lgan, qozilik vazifasini faqat musulmonlarga bajargan. Boshqa din vakillari uchun maxsus sud muassasalari bo‘lgan. Ammo ular o‘z nizo va tortishuvlarini musulmon qozisining hukmiga havola qilishlari zarur bo‘lgan. Qozining mahkamasida qozilar kengashi (mashura) faoliyat ko‘rsatgan. Idoraning asosiy vazifasi maslahat berish bo‘lgan, muhokamada qatnashmaydigan, biroq rasmiy shohidlik vazifasini bajarib, sud jarayoni amalga oshganini tasdiqlaydigan, notariusga o‘xhash ikki *adul* – uning ijrosini ta’minlagan.

*Avvonlar* – sud nozirlari, ularning vazifalari xabar berish va sud jarayonida tartibni saqlab turish bo‘lgan. *Muakkil* – alohida topshiriqlarni bajaruvchi himoyachi. Sunniylar ta’limotiga ko‘ra, o‘zga din vakillari tomonidan tayinlangan qozining vakolatlari inkor etilmaydi.

Qozi savdo va jinoyat ishlar bo‘yicha to‘liq, fuqarolik ishlarida ko‘char va ko‘chmas mulkka nisbatan, mol va xususiy huquq sohasida muayyan yurisdiksiyaga ega bo‘lgan.

Sud va sud jarayoni juda sodda, og‘zaki tarzda amalga oshirilib rasmiyatchilikning yo‘qligi bilan ajralib turgan. Javobgar va da’vogar o‘rtasidagi kelishuvga asosan yoki chaqiriqqa binoan javobgar qozi huzuriga kelgan. Agar joyning bir nechta mahalliy qozilar bo‘lsa, Molikiy mazhabining qoidalariga ko‘ra, shikoyatchi tanlagan, Hanafiy mazhabining talablariga ko‘ra, javobgar tanlagan qoziga murojaat qilinadi. Agarda taraflar turli diniy-huquqiy mazhablarga e’tiqod qilsalar, qozini tanlash huquqi javobgarga beriladi. Biroq, agar ishni ko‘rib chiqishni bir mazhab qozisi boshlagan bo‘lsa, ishni ko‘rib chiqishni boshqa mazhabning qozisiga o‘tkazish mumkin bo‘lman. Sud ishi taraflarning ishtiroki bilan yoki ularning ishtirokisiz ham ko‘rib chiqilishi mumkin (ya’ni vakillarini ishtirok ettirish faqat layoqatsizlar, ayollar va ish ko‘rilayotgan yerdan uzoq manzillarda bo‘lganlar uchun mumkin) bo‘lgan. Ahamiyatga molik yagona rasmiyatchilik ishonarli dalillardan yetarlicha keltira olmagan tarafga qozining: «Yana birorta daliling bormi?», – degan so‘nggi savoli bo‘lgan. Shundan keyin chiqariladigan qarorlarni yozma ravishda ifodalash shart bo‘lman.

Fiqh ishni sirtdan ko'rib chiqish amaliyotini ma'qullamaydi. Mahkamaga chaqirilgan javobgar u yerga borishdan bosh tortsa, nozir uni mahkamaga kuch bilan olib keladi yoki itoatsizning uyiga muhrlar urilgandan keyin, ish go'yoki uning ishtirokida ko'rib chiqilgan hisoblanadi. Javobgar sud majlisda qozining savollariga javob berishdan bosh tortsa, qozi javobgarni kaltak bilan jazolashi yoki qamoq jazosini berishi, uning bosh tortishiga qaramay, ishni ko'rishda davom etishi mumkin. Javobgar qamalishdan cho'chib, qozining so'nggi savolini kutmay, mahkamani tark etsa, unga mahkamaga qaytish uchun muhlat beriladi. Ish yurituvchilar uchun sud uning ishtirokida bo'layotgan hisoblanaveradi. Sunniylik oqimining Molikiy mazhabi namoyandalari ishda boy bergan taraf yutib chiqish imkoniyatini beradigan ma'lumotni aniqlaganda, sud qaroriga e'tiroz bildirilishiga yo'l qo'yadilar, bunday holatda ish qayta ko'rib chiqiladi. Sud qarorini bajarish qozining vazifasiga kiradi. Agarda to'lovni to'lash to'g'risidagi qarordan keyin javobgar shaxs uni bajarishdan bosh tortsa, qozi uni ozodlikdan mahrum qilishi shart. Keyinchalik zarurat tug'ilsa, ishni boy bergan shaxsning mulkini garov sifatida olib qo'yishi va xatlashi (rahn) mumkin. Ushbu barcha choralar ta'sir ko'rsatmagan taqdirda, sud mulkni begona qilish va sotishni boshlaydi.

Musulmon sud protsessiga xos xususiyat – sud chiqargan qarorning so'nggi qaror, deb tan olishning imkoniy yo'qligi hamon davom etib kelmoqda. Qozi, agarda huquqiy xatoga yo'l qo'yganini anglab qolsa, o'z qarorini bekor qilish huquqiga ega. Qabul qilingan qarorni uning vorisi yoki hamkasbi bekor qilishi mumkin. Qozi bunday qarorni chiqargan va mahkum o'rtasida adovat borligini aniqlashi yoki mahkum o'ziga ilgari ma'lum bo'lмаган hujjatni taqdim etgani munosabati bilan har qanday qarorni qayta ko'rib chiqishi mumkin.

## **10.2. Musulmon sud huquqida fuqarolik va jinoyat ishlarini ko'rib chiqish**

Avval bayon qilganimizdek, musulmon huquqida qonunda nazarda tutilgan dalillar tizimi haqiqiy hisoblangan. Qozi qarorini faqat ichki ishonchi va shaxsan o'ziga ma'lum bo'lgan ma'lumotlar bilan (guvohlarni rad etish masalasidan tashqari) asoslay olmaydi. Dalillarning ustun turuvchilari, atroflicha tartibga solinganlari guvohlik ko'rsatmalari hisoblanadi, yozma ko'rsatmalar ikkinchi darajada turadi.

Guvohlik ko‘rsatmalarining haqqoniyligi guvohga qo‘yilgan quyidagi talablarga ko‘ra aniqlanadi: musulmon bo‘lish, bid’atchi bo‘lmaslik, aqlan sog‘lom bo‘lish, huquqiy layoqatga ega bo‘lish, obro‘-e’tiborga ega bo‘lish; zarurat tug‘ilganda, qozining surishtiruv ishlarini o‘tkazishi. Ayni paytda fiqh, agarda qotillik yoki tan jarohati yetkazish to‘g‘risidagi ish ko‘rib chiqilayotgan bo‘lsa, guvoh sifatida jinsiy yetuk bo‘lman o‘g‘il bolalarning ham jalb etilishiga yo‘l qo‘yadi. Sudda ikki erkak shaxsning qasam ichmasdan bergen ko‘rsatmalar, odatda, qonuniy dalil hisoblanadi. Ayollarning guvohlik ko‘rsatmalar ularga aloqador alohida ishlar (masalan, tug‘ruq to‘g‘risida)ni ko‘rib chiqishda inobatga olinadi. Oila mulki to‘g‘risidagi ishlarda bir erkak guvoh ikkita ayol guvoh bilan almashtirilishi mumkin (oila huquqiga kelsak, bunday holatga faqat Hanafiy mazhabida ruxsat berilishi mumkin).

Guvohlik ko‘rsatmalarining uch turi mavjud: *bevosita*, *bilvosita* va *barchaga ma’lum bo‘lgan guvohlik* ko‘rsatmalar (ilgari bo‘lib o‘tgan faktlarga nisbatan). Ziddiyatli holatlar yuzaga kelganda, ko‘rsatmalarning birinchi turi ustunlik qiladi.

Da’vo qiluvchi bir erkak yoki ikkita ayol guvohni keltirgan taqdirda, qasam qo‘llanadi va u dalilni to‘ldiradi. Qasam yana boshqa ishonarli dalillar mavjud bo‘lma, tugal dalil hisoblanib, ont sifatida qo‘llanishi mumkin. Bunda javobgardan ont ichish talab qilinadi yoki arz qiluvchiga qasam ichish taklif etiladi.

Musulmon huquqidagi yozma hujjatlarning isbotlash kuchi to‘g‘risidagi manbalar musulmon huquqiy tizimining nazariyasi va amaliyoti o‘rtasida ziddiyat mavjudligini ko‘rsatadi. Ruh va hatto o‘zining o‘tmish qoldiqlariga o‘ralib qolgan pozitiv huquq belgilarining ahamiyati nisbiyligini ko‘rsatadi. Musulmon huquq tizimi rivojining ilk bosqichida sudlov faoliyati faqat og‘zaki guvohlik ko‘rsatmalar bilan cheklangan edi. Biroq, qonunga asoslanib dalillarni ko‘rib chiqish jarayoni ularni har qanday huquqiy hujjatning ajralmas atributi (sifati) bo‘lgan yozma hujjatlarning ahamiyatiga to‘g‘ri baho berishga o‘rgatdi. Fiqh esa yozma dalillarni inkor etishda davom etaverdi, biroq xizmatchi guvohlar jamoat notariuslari vazifalarini amalga oshiradigan bo‘ldilar. Shu tariqa sud jarayoni og‘zaki shakldan yozmaga o‘tdi, adullar sud kotiblariga aylandilar. Ular o‘zлari yozib borgan har bir javob yoki shikoyat bo‘yicha hujjat taqdim etilishi faktlari va qozi chiqargan qarorlardan bayonnomma matnini ishlab chiqardilar. Qozi mazkur bayonnomani tasdiqlab berishi, unga maxsus guvohnoma qo‘sib qo‘yishi zarur hisoblangan. Hujjat

yozilib, rasmiylashtirilgach, hattoki boshqa viloyatlarning qozilariga ham uning mazmunini o‘zgartirishga ruxsat berilmagan.

Islom sud faoliyatida «Musulmon shaxsning xatti-harakatlari asosan to‘g‘rilikka asoslangan», degan qarash ustunlik qiladi. Ushbu fikrga ko‘ra, dalil va ashyolar ko‘rsatilmaguncha, gumondor o‘z aybiga iqror bo‘limguncha, guvohlar guvohlik bermaguncha qozi hech kimdan gumon qilmaydi, biror-bir harakatni jinoiy sanab, unga nisbatan ayb qo‘ymaydi.

Musulmon huquqida qozining huzuriga kelgan yoki keltirilgan tomonning biridan o‘z so‘ziga to‘rtta guvoh keltirishi talab qilinsa, ikkinchi tomonning esa garchi hech guvohi bo‘limgan holda ham, adolat yuzasidan, qasam ichib aytgan so‘zlari e’tiborga olinadi.

Sud faoliyatida isbotning uchta turi mavjud: a) *iqror*; b) *guvohlik*; d) *qasam*.

*Iqror* – tan olish bo‘lib, gumondor o‘z aybiga guvohlar ishtirokida uch marotaba iqror bo‘limgunicha, unga nisbatan chora qo‘llanilmaydi. Masalan, Muhammad (s.a.v.)ning davrida bir ayol huzuriga kelib, zino qilganiga iqror bo‘lgan, mazkur ayol uch bora o‘z aybiga iqror bo‘lganidan so‘ng, unga nisbatan chora ko‘rilgan.

*Guvohlik*. Islomda guvohlik instituti mukammal ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, muqaddam yolg‘onchilik qilgani, yolg‘on ko‘rsatma bergenligi uchun jazolangan shaxslarning guvohliklari fuqarolik sudlarida inobatga olinmaydi. Shuningdek, musulmon bo‘limgan shaxslarning ham musulmonlarga qarshi guvohlikka o‘tishi noqonuniy deb qaraladi. Faqat musulmon, balog‘atga yetgan erkak va ayolning guvohligi inobatga olinadi.

*Qasam*. Muhammad (s.a.v.)ning: «*Da’vogarlardan guvoh keltirish, gumondordan qasam ichish talab qilinadi*», – degan ko‘rsatmasiga asoslanib, gumondorga qasam ichiriladi. Sud jarayonida gumondorga va guvohlarga ichiriladigan qasam so‘zlari murakkab matn emas (faqtgina lion – er-xotinning bir-birini zinoda ayblab, la’natlab ichadigan qasamida ba’zi maxsus so‘zlar bor). Qasamda asosan «vallohi», deb boshlanib, so‘ng shaxs o‘z muddaosini yoki aybsizligini izhor qilgan. Qasam faqat Allohning nomi bilan ichilganda, qonuniy hisoblanib, yuridik oqibatni keltirib chiqaradi.

Alloh Qur’on karimda suddagi bahs-munozarali ishlarda garchi qarindoshlarning zarariga bo‘lsa ham, adolat bilan to‘g‘ri ko‘rsatma berishni buyurgan.

XIX asrning o‘rtalariga kelib, Usmonli turk sultanati va Misrda Yevropa andozasidagi fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sularning

tashkil etilgani tufayli qozilik sudlari o‘z ahamiyatini yo‘qota boshlagan. Chor Rossiyasining musulmonlar yashaydigan hududlarida (shu jumladan Turkistonda) qozilarga keng vakolatlar berilgan. Oktabr to‘ntarishi arafasida sobiq Turkiston general-gubernatorligida rusiyzabon aholi uchun fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar, o‘zbeklar va tojiklar uchun qozilik sudlari, qirg‘izlar, qoraqalpoqlar va turkmanlar uchun biy sudlari faoliyat ko‘rsatgan. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudsarning sudyalari asosan yuristlar bo‘lgan. Qozi lavozimiga zaruriy ma’lumotga ega, musulmon huquqini yaxshi biluvchi ulamolar, biy lavozimiga odad huquqining bilimdonlari tayinlanganlar.

1917-yilgi Oktabr to‘ntarishidan keyin, qozi sudlari avval tarqatib yuborildi, biroq, keyinroq O‘rta Osiyo va Shimoliy Kavkazda qayta tiklandi. Qozilar mahalliy aholi tomonidan saylanar va fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar bilan bab-baravar faoliyat olib borar edilar.

Qozi sudlarining vakolatlari oila-nikoh, vorislik, shuningdek ikkala tarafning roziligidagi ko‘ra, ayrim fuqarolik va jinoyat ishlarini ko‘rib chiqish bilangina chekshanardi. Ular qo‘llaydigan fiqh va odad me’yorlari «soviet qonunchiligi»ning asosiy qoidalariga zid kelishi mumkin emas edi. Turkiston Avtonom SSR (TASSR) hukumati qozilik sudlarini birvarakayiga bekor qilmasdan, ularni asta-sekin tugatishga qaratilgan bir qancha tadbirlarni amalga oshirdi. Ularning faoliyati mahalliy sho‘rolar (mahalliy hokimiyat organlari) va adliya xalq komissarligi nazoratiga olindi. Qozi sudlariga taalluqli ishlarning doirasi cheklandi.

1919-yil 17-iyunda TASSR Xalq Komissarlari Kengashi qozi sudlarini bekor qilish, ularni «millati va diniy e’tiqodidan qat’i nazar, barcha Turkiston fuqarolari uchun yagona xalq sudi» bilan almashtirish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Sud shaklan o‘zgarib, faqat qozi hukmiga asoslangan sud kollegial sudga aylandi. Ishlarni sudda ko‘rishning yangi tartibi, ish yuritishning yangi shakli joriy etildi. Shunga qaramay, xalq sudi mazmuni va ruhiga ko‘ra, qozi sudi ishining davomchisi bo‘lib qoldi. Bu tabiiy bir holdir, chunki tub aholi musulmon huquqi qoidalari asosida tarbiyalangan bo‘lib, aksariyat hollarda sobiq biy va qozilardan saylangan xalq sudyalari faqat musulmon huquqi me’yorlarini qo‘llar edilar.

Xullas, sudlar xalq sudi, deb atalsa-da (ular sudyalar, xalq maslahatchilaridan iborat bo‘lib, ish sho‘rocha andozaga ko‘ra yuritilar edi), mohiyatan qozi va biy sudlaridan iborat bo‘lgan. O‘z-o‘zidan ravshanki, xalq sudlari faoliyatida qarama-qarshiliklar yuzaga kelgan.

Masalan, RSFSR Xalq Komissarlari Kengashining «Nikohni bekor qilish to‘g‘risida»gi 1917-yil 12-dekabr dekreti qabul qilinganidan so‘ng, juda ko‘p ziddiyatlar yuz berdi. Bu huquqiy hujjatga muvofiq, Turkiston Respublikasining Adliya xalq komissarligi: «Bundan buyon faqat dekretga muvofiq amalga oshirilgan nikohdan ajralish holatlari haqiqiy deb hisoblanadi», – degan maxsus buyruq chiqardi. Biroq, shaklan xalq, ruhan musulmon huquqi sudi er-xotinlarni musulmon huquqi me’yorlariga asoslanib ajratishda davom etdi. Gap shundaki, sudyalar er-xotinni yuqorida zikr etilgan dekretga muvofiq ajratgan taqdirda ham, erdan ajralgan ayol (turmush tarzi diniy qoidalarga asoslangani tufayli) garchi erkinlik olsa ham, qayta erga tega olmas edi. Nikoh mulla yoki imom tomonidan o‘qilar, ular ajralish musulmon huquqi qoidalari ko‘ra amalga oshirilgani haqidagi shahodatnomasiz nikoh o‘qishdan bosh tortardilar. Albatta, mahalliy hokimiyat ijroqo‘mlar va boshqa ma’muriy organlarga tegishli ko‘rsatmalar berib, sudyalar ishini «to‘g‘ri yo‘lga solish»ga harakat qilgan, lekin bu natija bermagan. Ko‘rsatmalarni bajarmagan xalq sudyalari qamoqqa ham olingan. Xalq sudi baribir aholining e’tiborini qozona olmagan. Amaliyot qozi sudlarini bekor qilishda shoshma-shosharlik bo‘lganini ko‘rsatgan. Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi (TurkMIQ)ning 1921-yil 6-sentabrdagi dekreti bilan qozi va biy sudlari qisman tiklandi. 26 mayda TASSR hukumati butun respublika hududida qozi va biy sudlarini qonuniylashtirish to‘g‘risida dekret qabul qildi. Musulmon sudi xodimlari qurultoyi tomonidan qabul qilinib, TurkMIQning 1921-yil 25-iyuldagagi qarori bilan tasdiqlangan «Turkiston Respublikasi musulmon xalq sudlari to‘g‘risidagi nizom»ning 1-moddasiga muvofiq, Turkiston Respublikasi hududida tub musulmon aholi uchun xalq sudi bilan bir qatorda, quyidagi tarkibda musulmon xalq sudlari ham ta’sis etildi: a) o‘troq aholi uchun xalq qozisi (qozilar sudi); b) ko‘chmanchi aholi uchun xalq biyi (biylar sudi).

Turkiston Respublikasida musulmon huquqi sudlariga doir huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqi berildi. XX asr 20-yillarining oxiriga kelib, qozi sudlarining faoliyati tugatildi.

Buxoro (BXSR) va Xorazm (XXSR) Respublikalarida bunday sudlarning huquqiy holati boshqadir. TASSR sud tizimida darhol yagona sovet xalq sudi asoslari yetakchilik qila boshlagan, qozi sudlari muvaqqat institut hisoblangan. BXSRda musulmon huquqi sudining yangi shakldagi

xalq sudiga o‘tishi darhol yuz bermagan. Bunda mamlakat aholisiga musulmon huquqi peshvolarining ta’siri kuchli bo‘lgani ham hisobga olingan. Shu sababli xalq qozi sudlari BXSR va XXSRda sud tizimining teng huquqli bo‘g‘inlariga aylangan. Xalq sudlari faqat BXSR va XXSR hududida yashagan ruslarning manzilgohlarida amal qilgan, musulmon huquqi esa xalq qozi sudlari faoliyatining huquqiy negizi bo‘lib qolgan<sup>1</sup>. Shuni ta’kidlash zarurki, BXSR va XXSR hukumatlari mazkur sudlar faoliyatining xususiyatlari va asoslarini hamda musulmon huquqi me’yorlarini qo‘llash tartibini sezilarli darajada o‘zgartirgan. Bu me’yorlar BXSR va XXSRda huquq manbalari sifatida tan olinib, ularni inqilobiy hokimiyat dekretlari va qarorlariga zid kelmaydigan darajada qo‘llanishi ta’kidlangan<sup>2</sup>.

Musulmon huquqining amal qilish doirasi ham ancha toraydi. Lekin BXSR va XXSRdagi qozi sudlarining vakolatlari RSFSRning musulmon aholi yashaydigan avtonom respublikalari va viloyatlaridagi qozi sudlarining vakolatiga qaraganda ancha keng edi. Buxoroda qozi sudlari BXSR Muvaqqat inqilobiy hukumatining 1920-yil 2-sentabrdagi dekretiga muvofiq tugatildi. 1920-yil noyabr oyining o‘rtalarida adliya vaziri BXSR hukumatiga ma’lumotida shunday deb yozadi: «Ikkinchи oktabrdan boshlab maxsus komissiya mahalliy inqilobiy qo‘mitalar tavsiyasiga ko‘ra qozixonalar tashkil etib, qozilarni tayinlashga kirishdi. Ular xizmat ko‘rsatadigan hududlar belgilandi, shuningdek ularga sovet qonunlari va musulmon huquqi qonunlariga asosan ish olib borish majburiyati yuklandi»<sup>3</sup>.

1922-yil 27-mayda BXSR hukumati xalq qozilari to‘g‘risida muvaqqat qonun qabul qildi, 1922-yil 19-dekabrdagi esa Umumbuxoro MIQning II sessiyasida «BXSRda xalq qozi sudlari to‘g‘risidagi nizom» tasdiqlandi. Ushbu Nizom BXSRda yagona sud tizimini tashkil etish yo‘lida tashlangan muhim qadam bo‘ldi. Nizomga muvofiq, xalq qozi sudlari tumanlar va viloyatlar hududidagi barcha jinoyat va fuqarolik ishlarini ko‘rib chiqar edi. Mansabdorlik jinoyatlari, davlat va uning

<sup>1</sup> Қаранг: Абидова Н.И. Суды казиев и особенности процесса их ликвидации в Узбекской ССР: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – Т., 1974. – 23 с.

<sup>2</sup> Ўзбекистон МДА, Р-46-жамғарма, 1-рўйхат, 15-иш, 7-варак.

<sup>3</sup> Ўзбекистон МДА, Р-48-жамғарма, 1-рўйхат, 64-иш, 21-варак.

xavfsizligiga qarshi jinoyatlar, shuningdek harbiy xizmatchilar, mansabdor shaxslar yoki hokimiyatga muxolifatda bo‘lgan fuqarolar tomonidan sodir etilgan barcha qilmishlarga doir ishlar, bundan mustasno edi. Xalq qozi sudlari Adliya nozirligining (vazirligi) qaroriga ko‘ra, belgilangan sud uchastkalarida ish olib borardi. Nizomda birinchi marta uchastka va viloyat sudlari alohida ajratildi. Viloyat xalq sudi yirik jinoyat ishlari, chunonchi: odam o‘ldirish, badanga og‘ir shikast yetkazish, nomusga tegish, bosqinchilik, talonchilik, o‘t qo‘yish, qalbaki pul yasash, hujjatlarni soxtalashtirish, shuningdek ayollarni o‘g‘irlash to‘g‘risidagi ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida ko‘rib chiqardi. Ayni vaqtida, u uchastka sudlariga nisbatan birinchi appellatsiya-kassatsiya, nazorat-taftish instansiyasi hisoblanar edi. Adliya nozirligi huzuridagi Xalq qozilari kengashi ikkinchi kassatsiya-nazorat instansiyasi vazifasini bajarar edi.

Viloyatlardagi shaharlar uchun xalq qozilari Adliya nozirligi tomonidan bir yil muddatga saylangan va Umumbuxoro MIQ tasdig‘iga kiritilgan. Tumanlar va kentlarning qozilari viloyat ijroqo‘mlari tomonidan saylanib, Adliya nozirligi tomonidan tasdiqlangan. Xalq qozilariga Adliya vazirligi ishlab chiqqan va Umumbuxoro MIQ tasdiqlagan tariflar bo‘yicha maosh tayinlangan. Bunday tartib qozilarga ko‘rilgan ishlar uchun tushgan pul hisobidan haq to‘lashdek an‘anaviy musulmon huquqidagi qoidaga zid edi. BXSRda qozi sudlari o‘sha davrdagi vaziyat bilan hisoblashishga va shunga muvofiq, o‘z ish usullariga o‘zgartishlar kiritishga majbur bo‘lgan. Nizomning 1-moddasiga muvofiq, ularga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- 1) tergov olib borish sud tergovchisiga yuklatilmagan jinoyat ishlari bo‘yicha dastlabki tergovni amalga oshirish;
- 2) jinoyat sodir etishda ayblanib, ushlangan shaxslarni so‘roq qilish;
- 3) ehtiyyot chorasiini tanlash;
- 4) xalq sudi kotibiyatining ishini boshqarish.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Musulmon sud huquqining tarkibi va musulmon sudlariga tavsif bering.
2. Musulmon sudlarida jinoyat ishlarini ko‘rib chiqish va qarorlarni ijro etishga xos xususiyatlarni gapirib bering.
3. Qozilarning huquqiy maqomi va vakolatlarini tushuntiring.
4. Shariatda advokatura institutining mohiyatini tushuntiring.

## **11-BOB. XORIJIY MAMLAKATLAR HUQUQIY TIZIMIDA MUSULMON HUQUQINING TUTGAN O'RNI**

### **11.1. Musulmon huquqida reyvalizm va tanzimot islohotlari**

*Islom huquqida reyvalizm va tanzimot islohotlari.* XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab musulmon huquqi maqomida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu, eng avvalo, yuksak rivojlangan musulmon mamlakatlari huquqiy tizimlari o'z o'rnini G'arbiy Yevropa andozalariga asoslangan qonunchilikka bo'shatib berilganligi bilan bog'liqdir. Usmon sultanati huquqiy ustqurmasidagi islohotlar ham shundan dalolat beradi. Mazkur islohotlar, *bir tomonidan*, yangi iqtisodiy munosabatlarning rivojlangani, *ikkinchi tomonidan esa*, xorijiy kapitalning xuruji va mavqeining mamlakatlarning ijtimoiy rivojiga siyosiy va mafkuraviy ta'siri bilan bog'liq edi. Bunday sharoitda musulmon huquqi ijtimoiy sabablarning keng doirasini mutanosiblashtirish ehtiyojlariga javob berolmay qoldi va o'z yetakchilik o'rnini G'arbiy Yevropa huquqiy tizimga bo'shatib berdi, shu bilan birga esa u faqat shaxsiy maqom masalalarini mutanosiblashtirishga bo'lgan hukmronligini saqlab qoldi. Mazkur o'zgarishlar Misr huquqiy tizimiga ham ta'sir ko'rsatdi. Turk sultonining Misrdagi noibi Muhammad Ali va uning izdoshlarining siyosati bu mamlakatda kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga obyektiv yo'nalgan bo'lib, huquqiy sohada XIX asrning 70–80-yillarida qator muhim qonunlarni, jumladan fuqarolik, tijorat, jinoyat, dengiz, fuqarolik va jinoyat-protsessual (1875-y.) kodekslari hamda sudlarni G'arbiy Yevropa andozasi asosida (asosan, fransuz andozasi) ishlab chiqdi. Mazkur islohotlar natijasida Misrda musulmon huquqining ta'sir doirasi asosan shaxsiy maqom va vaqflarning huquqiy holatiga doir munosabatlarni mutanosiblashtirishdan iborat bo'ldi. Suriya, Livan, Iroqda huquqiy tizimlardagi o'zgarishlar unchalik chuqur bo'lmadi. Bu mamlakatlarda yer va jinoyat, protsessual kodekslarning qabul qilin-ganiga qaramay, musulmon huquqini qo'llash ham sezilarli darajada qolaveradi. Bundan tashqari, bu davrda (1869–1876-yillarda) Majalla – Usmon sultanati Fuqarolik kodeksi chiqarilib, musulmon huquqi normalarini kodekslashtirish o'tkazilgan edi. Ma'lumki, Majalla Turkiyada 1926-yilgacha, Livanda 1932-yilgacha, Suriyada 1949-yilgacha, Iroqda 1953-yilgacha, Jordaniyada esa 1976-yilgacha amal qildi. Hozirgi kunda uning ta'siri qisman Isroilda, Quvaytda va Kiprda saqlanib qolgan. XX asrning boshlarida faqat Arabiston yarim oroli va Fors qo'ltig'idagi

mamlakatlarda musulmon huquqi o‘z mavqeini saqlab qolib, an’anaviy shaklda keng qo‘llanib kelgan deyish mumkin. Yuksak rivojlangan arab mamlakatlarining huquqiy tizimlarida ba’zi cheklanishlar bilan ikki asosiy andoza: roman-german (fransuz) – Misr, Suriya, Livan, Mag‘rib mamlakatlarida, ingliz-sakson tizimi esa Iroq va Sudanda urch bo‘ldi. Mazkur mamlakatlarda musulmon huquqi oila-nikoh, vorislik va musulmonlar (ba’zan nomusulmonlar) o‘rtasidagi ba’zi boshqa munosabatlar sohasida saqlanib qoldi. Umuman musulmon huquqiy tizimining kuchsizlanishini Eron huquqiy tizimida ko‘rish mumkin. Eronda XX asrning 20–30-yillarida tijorat, jinoyat, fuqarolik va fuqarolik-protsessual kodekslarning qabul qilinishi bilan bog‘liq jiddiy islohotlar natijasida musulmon huquqining ta’sir doirasi ancha qisqardi. Ja’fariy mazhabining qonun-qoidalari esa faqat shaxsiy maqom va vaqflarning huquqiy holatini aniqlash borasida o‘z mavqeini saqlamoqda.

## **11.2. Islom davlatlarining huquqiy tizimi, amaldagi qonunchiligi va ularning musulmon manbalari bilan nisbati**

Hozirgi kunda musulmon huquqi zikr etilgan mamlakatlarning birortasida ham amal qiladigan yagona huquq maqomida emas. Faqat XX asrning 20-yillarida xalifalikning rasmiy ravishda bekor qilingani tufayli Turkiyada musulmon huquqi barcha tarmoqlarda (jumladan, oila-nikoh munosabatlarini mutanosiblashtirishda ham) G‘arbiy Yevropadan o‘zlashtirilgan qonunchilik bilan almashtirildi.

Bevosita amaldagi musulmon huquqi miqyosini, shuningdek uning qonun chiqarishga nisbatan ta’sir darajasini asos qilib, islom mamlakatlari hozirgi huquqiy tizimining quyidagi tasnifini keltirish mumkin. *Birinchi guruhni* musulmon huquqi keng qo‘llanib kelinayotgan Saudiya Arabistonni, Ummon va Eron huquqiy tizimlari tashkil etadi. Uning normalari va tamoyillari, eng avvalo, mazkur mamlakatlardagi konstitutsiyaviy va shakllangan boshqaruv tizimiga chuqur ta’sir etadi. Masalan, Saudiya Arabistonida davlat boshlig‘i – qirol hokimiyatni ravishda meros sifatida olmaydi, balki u nufuzli diniy arboblar va hukmron sulola vakillarining rasmiy saylovidan so‘ng taxtga o‘tiradi. Rasmiy ravishda u qonun chiqarish vakolatiga ega emas. Bu vazifani, ya’ni Qur’on va sunnada ifodasini topmagan masalalar to‘g‘risida normativ-huquqiy hujjatlar chiqarishni, basharti ular Hanbaliy mazhabining asosiy tamoyillariga muvofiq kelsa, Vazirlar Kengashi amalga oshiradi (bunday hujjatlar qonunlar deb emas, balki «nizomlar» –

qarorlar deb ataladi). Qirol eng muhim qarorlarni «maslahat» tamoyiliga qat’iy rioya qilgan holda, Saudlar urug‘-jamoasining obro‘li a’zolari, davlatning yirik olimlari, katta qabilalarning shayxlari, asosiy viloyatlarning boshliqlari bilan kengashib, qabul qiladi.

Bugun musulmon huquqiy nazariyasi Erondagi boshqarish tizimiga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu ta’sir asosan shoh rejimi qulaganidan so‘ng, ya’ni 1979-yildan sezila boshladi. Mamlakatning 1979-yilning noyabrida qabul qilingan yangi konstitutsiyasi shia huquqshunoslarining faol ishtiroki bilan tayyorlandi. Konstitutsiyaning 1-moddasida: «Eronda boshqarish shakli – islom respublikasidir», – deb e’lon qilindi. Shia huquqiy nazariyasining ta’siri yangi tuzilma – Konstitutsiyada umrbod rahbar – faqih qo‘lida oliv davlat va oliv hokimiyatni tutib turuvchi mansabning ta’sis etilishida ko‘rinadi. 5-moddada mamlakat boshqaruvi hamma narsadan voqif, xalq tan olgan faqih zimmasida ekanligi qayd etilgan. Garchi Eron davlat boshqaruvining shakli tashqi jihatdan Parlament va Prezident Respublikasi xususiyatlarini birlashtirsa ham, amaldagi siyosiy tuzum hokimiyatning haqiqiy jilovini shia ruhoniylari qo‘lida to‘pladi. Faqih tomonidan tayinlanadigan, tarkibi 12 kishidan iborat kengash a’zolarining yarmi shia huquqshunoslaridir. Faqih majlisning (parlament) faoliyatini, shuningdek ular tomonidan qabul qilinadigan qonunlarni Konstitutsiyaga, ayni paytda islom tamoyillariga ham muvofiq kelishini nazorat qiladi.

Zikr etilgan mamlakatlarda musulmon huquqi amaldagi huquqning boshqa tarmoqlarida ham muhim mavqega ega. Bu konstitutsiya mazmunida ham o‘zining tasdig‘ini topgan. Eron Konstitutsiyasi barcha qabul qilinadigan qonunlarning musulmon huquqiga mutanosib bo‘lishini mustahkamlaydi (Saudiyaning 1926-yildagi asosiy qonuni ham davlatning normativ hujjatlari musulmon huquqi tamoyillariga muvofiq kelishini nazarda tutgan edi). Ushbu qoidaga amal qilinib, u yoki bu mazhabning (Hanbaliylar – Saudiya Arabistonida va Ja’fariylar – Eronda) umumiyl tamoyillari va muayyan normalarini mustahkamlashga yo‘nalgan qonunlar chiqarilgan. Chunonchi, hozirgi kunda Saudiya Arabistonida spirtli ichimliklarni iste’mol qilish va jinsiy buzuqlik uchun jazo tayinlash to‘g‘risidagi qonunchilik amal qiladi. Shuningdek, bu mamlakatda qasddan qotillik sodir etganlik uchun qon to‘lovi (diya 45 ming rialga teng) rasmiy ravishda belgilangan. O‘g‘rilik uchun qo‘lni chopib tashlashdek had jazosi ham saqlanib qolgan. Ayni paytda bunday jazo hatto 2001-yilning boshlarida ham amalda qo‘llanilgan.

Shaxsiy maqom borasida musulmon huquqi umuman an'anaviy tusda amal qilib kelmoqda. Bu sudlov tamoyillariga, 1975-yilda qonunlar bilan mustahkamlangan jarayonga ham taalluqlidir. Basharti, Saudiya Arabistonida musulmon huquqi hech qachon huquqning manbai sifatidagi imtiyozli mavqeini yo'qotmagan bo'lsa-da, Eronda esa u yetakchi o'rinni faqat shoh tuzumi qulatilganidan so'ng, respublika rahbariyatining mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, xullas, barcha jabhalarini, hatto fuqarolarning shaxsiy manfaatlari sohalarini ham islomlashtirishga qaratilgan siyosati tufayli egalladi. Mazkur fikrni tasdiqlash uchun nafaqat huquqiy, balki axloqiy, jumladan, musulmonlarga kiyim-kechak, bo'sh vaqtlarini o'tkazishlari to'g'risida belgilangan normalarni buzganliklari uchun ba'zida ayovsiz jazolar tizimi joriy qilinganini eslash kifoyadir. Mayjud tuzumga salbiy munosabatlari tufayli tahdid uyg'otayotganlar ta'qib ostiga olinadi. Bundan tashqari, 1981-yilning apreldidan qasos to'g'risidagi qonun kuchga kirdi, u musulmon huquqida jinoiy jazolarning murosasiz tizimini nazarda tutadi. Shuni ta'kidlash zarurki, Eron va Saudiya Arabistonida musulmon nazorati va nozirlik «hisba»si degan maxsus muassasalar faoliyat ko'rsatib, ular tijorat, jamoat yoki axloq qoidalarini buzganlik uchun jazo tayinlash vazifasini bajaradi.

*Ikkinci guruhni* Pokiston, Yaman, Liviya, Sudanning huquqiy tizimlari tashkil etadi. Garchi tizimning bevosita ta'sir doirasi birinchi guruh mamlakatlaridek keng qamrovli bo'lmasa-da, so'nggi vaqtarda esa bu ta'sir kuchaygan. Musulmon huquqining tamoyil va normalari mazkur mamlakatlarning konstitutsiyaviy tusdagi asosiy hujjatlariga, davlat mexanizmi tarkibi va faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, Yaman Arab Respublikasining 1970-yilgi konstitutsiyasiga ko'ra, parlament shaklidagi oliy vakillik idorasi (1971–1975-yillarda faoliyat yuritgan) rasmiy «maslahat kengashi» deb ataldi. 1978-yilning boshida boshqaruvning prezidentlik shakliga o'tishi to'g'risida qabul qilingan qaror aksariyat «xalifai roshidin»larning mukammal musulmon davlati tajribasiga asoslangan edi. Maslahat kengashi davlat boshlig'ining to'la hokimiyatini ta'minlangan holda, sof maslahat vazifalarini ado etardi (1982-yildan 1985-yilgacha faoliyat yurgizdi). Livanda esa 1977-yilning boshida Qur'on umuman «jamiyat qonuni» deb e'lon qilinib, u amalda Konstitutsiyaning o'rnini egalladi.

Zikr etilgan to'rt mamlakatda musulmon huquqiga rasmiy ravishda asosiy mavqe berilgan. Masalan, 1973-yilgi Pokiston Konstitutsiyasida musulmon huquqi qonunchilikning asosiy manbai sifatida mavqeini

mustahkamladi, Sudanning 1985-yildagi muvaqqat Konstitutsiyasi esa musulmon huquqining oddiy huquq bilan birgalikda asosiy huquqiy manbasi ekanligini mustahkamladi. 1977-yilda Pokiston Islom mafkurasi kengashi tuzildi, u mamlakatda amalda bo‘lgan qonunchilikni musulmon huquqiga muvofiqlashtirishga doir takliflarni tadqiq etadi. Uning tavsiyasiga binoan tezda mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotini islomlashtirish to‘g‘risidagi qonun kuchga kirdi. 1971-yilda Liviya Inqilobiy qo‘mondonligi Kengashi mamlakatning qonunlariga musulmon huquqi ruhidagi tuzatish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Bunday umumiyoq yo‘riq mazkur mamlakatlarda qabul qilingan qator huquqiy hujjatlarda ham muayyan tasdig‘ini topdi. Masalan, musulmonlarga islomning asosiy tamoyillariga muvofiq keluvchi barcha sharoitlarni ta‘minlash zarurligi to‘g‘risida Konstitutsiyaga, shuningdek zikr etilgan islomlashtirish haqidagi qonunga tayanib, Pokiston ma’muriyati 1979-yildan boshlab «musulmon turmush tarzi»ni o‘rnatishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni, jumladan, sudxo‘rlik, zakot va ushr to‘g‘risidagi qonunlarni qabul qilgan. Shuningdek, qator jinoyat qonunlari ham joriy etilgan. Liviyada 1972-yildayoq zakot, xususiy shaxslar o‘rtasidagi qarz oldi-berdilarida foiz to‘lovlarini taqiqlash, o‘g‘rilik va talonchilik uchun qo‘l va oyoqlarni chopib tashlash kabi jazolarni tayinlash to‘g‘risidagi qonunlar kuchga kirdi. Shundan keyin ikki yil davomida qabul qilingan qonunlarga, er-xotinlikka xiyonat qilish va spirtli ichimliklar iste’moli uchun musulmon huquqining Molikiylik tariqatidagi xulosalar asos qilib olindi.

Yaman Arab Respublikasida 1976–1978-yillarda musulmon huquqi normalarini kodekslashtirish amalga oshirildi. Komissiyaning tashabbusi bilan hadya etish va vaqflar, qotillik va tan jarohatlar yetkazganlikda qon uchun to‘lanadigan tovon miqdorini (diya) belgilash to‘g‘risidagi qonunlar qabul qilindi. Shuningdek, oila va protsessual kodekslar kuchga kirdi, jinoyat kodeksining aksariyat musulmon huquqi tuzuklari o‘zlashtirilgan loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu hujjatlardagi qoidalarda musulmon huquqining eng mutanosib tamoyil va normalari o‘z aksini topgan.

Sudanda ham huquqiy tizimni shakllantirish borasidagi dadil qadamlar qo‘yildi. 1983-yilda bu yerda musulmon delikt huquqining asosiy tuzilmalarini qabul qilgan jinoyat qonunchiligi kuchga kirdi va u amalda keng qo‘llanilmoqda (uning amal qilishi barcha fuqarolarga, jumladan janubiy viloyatlarda yashab turgan musulmon bo‘lmagan fuqarolarga ham taalluqli). 1985-yilning aprelida Nimeyrining reaksiyon idora usuli

tugatilgach, Sudan rahbariyati mazkur qonunchilikni amaldan to‘xtatish to‘g‘risidagi maqsadini e’lon qildi. Bu borada gap umuman musulmon huquqidan voz kechish to‘g‘risida bo‘lmay, balki ilgarigi hujjatlarni yangilari, ya’ni haqiqiy normalarni qo‘llash nazarda tutilganlari bilan almashtirish to‘g‘risida bordi.

Fors qo‘ltig‘idagi qator mamlakatlar – Birlashgan Arab Amirliklari, Bruney, Malayziyaning ayrim shtatlari huquqiy tizimlarini mustaqil guruhga ajratib tahlil etish zarur. Mazkur mamlakatlarning asosiy qonunlari, odatda, islomning davlatga oid tavsifini mustahkamlab, musulmon huquqi qonunchilikning asosiy manbai ekanligini nazarda tutadi. Monarxiya usulida boshqariladigan bunday mamlakatlarning ba’zilarida monarx huzurida maxsus maslahat muassasalari – boshqarishning mumtoz musulmon andozasiga o‘xshash tuzilmalar barpo etilgan. Masalan, Abu-Dabi va Qatarda hukmdorlar tayinlaydigan kengashlar mavjud. Birlashgan Arab Amirligida esa bu amirliklar – federatsiya a’zolari tomonidan vakil qilish orqali shakllanadi. Amirliklarning aksariyatida qonun hujjatlari hukmdorning o‘zi tomonidan shaxsan qabul qilinadi, lekin bunda maslahatlashish jarayoniga rasmiy ravishda rioya qilinadi. Mazkur mamlakatlarning saylov huquqida musulmon an’analari ta’siri saqlanib qolgan. Masalan, 1982-yilning boshida Quvayt parlamenti ayollarga saylov huquqini berish to‘g‘risidagi qonun loyihasining islam tamoyillariga ziddi bois, rad etdi.

Zikr etilgan guruhdagi davlatlar huquqiy tizimlarida ham musulmon huquqining ta’siri sezilarli bo‘lmoqda. Lekin bunday ta’sir yuqorida eslatilgan ikki huquqiy tizimdagidek maqomda emas. Masalan, 1960-yildagi Quvayt Jinoyat kodeksi (1964-yildagi to‘ldirishlar bilan) va 1976-yilgi Bahrayn Jinoyat kodeksi spirtli ichimliklarni iste’mol qilganlik va qimor o‘yinlari uchun jazoni nazarda tutadi. Bruneyda ham spirtli ichimliklar bilan savdo qilishni cheklash to‘g‘risida qonun qabul qilingan. Abu-Dabida bosqinchilik uchun qo‘lni chopib tashlash joriy qilingan. Birlashgan Arab Amirligi qonunchiligi machitlarning imom va xatiblari huquqiy maqomini batafsil mutanosiblashtiradi. Bahraynda esa haj safarini tashkil etish va zakot fondi to‘g‘risidagi qonunlar amal qilmoqda. Bruney va Malayziyada musulmon delikt huquqining normalari diniy majburiyatlar: namoz, zakot to‘lovi, ro‘za tutish qoidalarini buzganlik uchun qo‘llaniladi.

Ko‘p sonli guruhning aksariyatini arab mamlakatlarining huquqiy tizimlari tashkil etadi. Ushbu guruhga Misr, Suriya, Iroq, Livan, Marokash, Iordaniya, Jazoir, shuningdek Afrikaning qator mamlakatlari –

Somali, Mavritaniya, Nigeriyaning shimoliy shtatlari va Osiyodagi Afg'oniston kabi mamlakatlarning huquqiy tizimlarini kiritish mumkin. Mazkur guruhga kiruvchi mamlakatlar huquqiy tizimlariga musulmon huquqi bir necha jihatlardan ta'sir ko'rsatgan. Ularning konstitutsiyaviy huquqi, odatda, musulmon huquqining mavqeini mustahkamlaydi. Ushbu davlatlarning konstitutsiyalarida davlat boshlig'i faqat islom dinidagi shaxs bo'lishini, musulmon huquqi esa qonunchilikning asosiy manbai ekanligi nazarda tutiladi. Mazkur konstitutsiyaviy holat amalda huquq va sud tuzilishining boshqa tarmoqlarida ham joriy etiladi. Masalan, zikr etilgan mamlakatlarning ko'pchiligidagi oila huquqi bo'yicha butunlay musulmon huquqiga asoslangan qonunlar qabul qilingan. Livanda 1920-yil qabul qilingan oila to'g'risidagi Usmon qonunining amal qilishi, 1920 va 1929-yillarda Misrda oila qonuni, Suriyada 1953-yilgi shaxsiy maqom haqidagi qonun, Iroq, Tunis, Marokash, Jazoir kabi mamlakatlardagi qonunlar shular jumlasidandir. Qator mamlakatlarning fuqarolik kodekslarida (masalan, Misr, Suriya, Iroq) vorislik va vasiyatlarga oid barcha masalalar musulmon huquqi va unga asoslangan qonunlar orqali hal qilinadi.

Boshqa tarmoqlarda musulmon huquqi bu qadar keng ko'lamda amal qilmaydi. Biroq uning ayrim normalarining ta'siri seziladi. Fuqarolik huquqida, bundan tashqari, qonunda mutanosiblashtirilmagan holatlarda uning qo'llanishiga yo'l qo'yiladi. Chunonchi, Misr, Suriya, Iroq, Jazoir, Afg'oniston Fuqarolik kodekslarining ilk moddalarida qonundan normalar topilmaganda, hakam musulmon huquqining normalarini qo'llaydi, deyilgan. Mazkur mamlakatlar Fuqarolik kodekslarining moddalari musulmon huquqining ko'plab va muayyan qoidalarini qishloq xo'jaligi va vaqf yerlarini ijaraga olish, qarzni ko'chirish kabi masalalarni yoritish orqali mustahkamlaydi. Ushbu mamlakatlarning fuqarolik huquqida muayyan, jumladan ko'chmas mulkka egalik huquqini mutanosiblashtiradigan mavqeini vaqf mulkini idora qilish to'g'risidagi musulmon huquqiy normalari belgilaydi. Bunday holat huquqning boshqa tarmoqlarida, masalan, Marokash va Shimoliy Nigeriyaning Jinoyat kodekslarida ham kuzatiladi<sup>1</sup>. 1976-yilda qabul qilingan Afg'oniston Jinoyat kodeksi ham qotillik, talonchilik, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, o'g'rilik, er-xotinlikka xiyonat qilish va hokazolar uchun musulmon huquqi bo'yicha jazolashni nazarda tutadi.

<sup>1</sup> Қаранг: *Лихачев В.А. Уголовное право в независимых странах Африки.* – М., 1974. – С. 78.

Umuman, musulmon huquqining amal qilish doirasi mazkur guruhda ancha cheklangan. Ularning ba’zilari (Suriya va Iroq)da oila huquqiga oid musulmon huquqiy qoidalarining muayyan demokratlashganini kuzatish mumkin. Shu bilan birga, bunga teskari holatlar ham ko‘zga tashlanadi. Bunga so‘nggi yillarda Misr huquqiy tizimida musulmon huquqi mavqeining kuchayib borayotganligi misol bo‘ladi. Chunonchi, Misrning 1978 yilgi ichki frontni himoya qilish to‘g‘risidagi qonuni ilohiy qonunlarni inkor etuvchi yoki ularning normalariga zid qarashlarni targ‘ib qiluvchi yoxud shunday g‘oyaviy oqimlarning tashabbuskori bo‘lgan shaxslarning saylanadigan davlat idoralari va jamoat uyushmalari qo‘mitalaridagi mas’ul lavozimlarni egallashini taqiqlaydi. Bundan tashqari, qonun chiqarish tartibida siyosiy partiyalarning ustavlari, shuningdek ularning dasturlari va tamoyillari musulmon huquqi qonunchilikning asosi ekanligi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy qoidani shubha ostida qoldirishi mumkin emas. XX asr 70-yillarining boshlarida Misrda musulmon huquqini kodekslashtirishga oid kengash tuzilib, u Xalq majlisining topshirig‘iga binoan Jinoyat, Oila va Fuqarolik kodekslarining loyihalarni ishlab chiqdi. Musulmon huquqining tamoyillari faqat qonun chiqarishning asosiy manbalaridan biri emas, balki bosh manba ekanligi to‘g‘risidagi o‘zgartirish 1980-yilda Misr Konstitutsiyasiga kiritildi. Shu vaqtidan boshlab maslahat kengashi amal qilib, u o‘zining boshqa vazifalaridan tashqari mazkur konstitutsiyaviy qoidaning himoyasi uchun ham zarur choralarini ishlab chiqdi.

Mavritaniyada ham musulmon huquqi mavqeining kuchayganligi e’tiborni tortadi. Bu mamlakatda 1980-yilda maxsus musulmon sudi tashkil etilib, unda bir necha marotaba had jazosi – o‘g‘rilik uchun qo‘lni chopib tashlash amalga oshirildi. Ushbu guruhga kiruvchi mamlakatlarda shaxsiy maqom munosabatlari bilan bog‘liq bahs-munozaralarni ko‘rib chiqishda musulmon protsessual huquqining aksariyat normalarini qo‘llaydigan musulmon sudlari faoliyat ko‘rsatmoqda (Misrda bunday normalar umumfuqarolik sudlari tomonidan qo‘llaniladi). Shuni qayd qilish zarurki, musulmon huquqining vorislik, vasiyat, vaqflar, vasiylik, homiylik (qaramoqqa olish), huquqiy salohiyatni cheklash to‘g‘risidagi qoidalar zikr etilgan mamlakatlarning aksariyatida barcha fuqarolarga, jumladan nomusulmonlarga ham taalluqlidir.

Afrika qit’asining Tanzaniya, Keniya, Gvineya kabi mamlakatlari, shuningdek, Osiyodagi mamlakatlar – Hindiston va Filippin huquqiy tizimi maxsus guruhnini tashkil etadi. Ushbu mamlakatlarda musulmon huquqi shaxsiy maqom munosabatlarini mutanosiblashtirish, shuningdek

vaqflarning huquqiy maqomi, zakot yig‘ish va xarjlashga doir munosabatlarda amal qilib kelmoqda. Ba’zida mazkur mamlakatlarda qonunlarni qabul qilishga musulmon huquqi normalarining ta’siri kuchaymoqda. Chunonchi, Tanzaniyada 1971-yilda qabul qilingan Oila kodeksi musulmon huquqining ayrim normalarini mustahkamladi. Lekin ushbu huquq Zanzibarda amal qilmaydi, zero musulmonlarining asosiy qismi mazkur mamlakatda yashaydi. Bu mamlakatda musulmon huquqi ta’siridagi oila huquqi (qisman) ham, fuqarolik huquqi ham qo‘llanishda davom etmoqda. Keniyaning 1972-yilgi vorislik huquqi to‘g‘risidagi qonuni ayrim mintaqalarda musulmon aholi o‘rtasida mulkning ayrim toifalariga nisbatan musulmon huquqini qo‘llashga yo‘l qo‘ydi. Ushbu mamlakatda musulmon huquqi shafiyalar tariqatining nazariyasiga asoslanib, musulmonlar (ular aholining to‘rtdan bir foizini tashkil etadi) o‘rtasidagi nikoh-oila munosabatlarini mutanosiblashtiradi.

Gvineya, Mali kabi mamlakatlarning nikoh-oila qonunchiligidagi musulmon huquqining muayyan ta’siri kattadir. Ayrim mamlakatlarda (masalan, Chad va Nigeriyada) Molikiylar mazhabi nazariyasiga asoslangan musulmon huquqi musulmonlarning shaxsiy maqomi munosabatlarini va vaqf mulki huquqiy idora usulini mutanosiblashtirib kelmoqda. Ushbu guruhga kiruvchi ba’zi mamlakatlarda (Nigeriya, Keniya, Filippinda) musulmon sudlari amal qiladi. Ammo qayd etish mumkinki, tropik Afrika, Janubi-Sharqiy Osiyoning aksariyat mamlakatlarida musulmon huquqi mohiyat-e’tiboriga ko‘ra, mahalliy odad huquqining bir turi kabi maqomdadir.

Tunis huquqiy tizimi ham o‘ziga xos xususiyatlari bilan alohida e’tiborga molik. Uning nikoh-oila qonunchiligi musulmon huquqi ta’sirida bo‘lsa-da, ammo qator muhim tuzilmalari amal qilmaydi. Ko‘pxotinlilik qonunan taqiqlangan va farzandlikka asrab olish e’tirof etilgan. Yaman Xalq Demokratik Respublikasining Oila kodeksi, garchi musulmon huquqining ayrim qoidalarini o‘zida mustahkamlangan bo‘lsa-da, mohiyatan ayolga oilaviy munosabatlarda erkaklar bilan teng huquqlarini taqdim etgan. Har ikkala mamlakatda ham musulmon sudlari tugatilgan. O‘rganib chiqilgan mamlakatlar bilan qiyoslaganda, ushbu mamlakatlarda musulmon huquqining ta’siri juda cheklangan.

Islom mamlakatlari qonunchiligidagi fiqh qoidalarining mustahkamlangishi holatining musulmon huquqining ushbu mamlakatlar huquqiy tizimlari uchun qanday ahamiyatga egaligi to‘g‘risidagi savolning tug‘ilishi tabiiydir. Boshqacha aytganda, bunday normativ hujjalarni qaysi ma’noda «musulmon huquqi» deb atash va musulmon huquqi

qonun chiqarishning asosiy manbai, degan iborani qanday tushunish mumkin?

Fikrimizcha, savollarga javob berishda masalaning bir necha tomonini inobatga olmoq joiz. Eng avvalo, musulmon huquqining evolutsiyasiga nazar tashlab, mumtoz normalarning hozirgi qonunchilikdagi qoidalardan mohiyatan muhim tafovutini alohida ta'kidlash darkor. Musulmon huquqi yangi sharoitlarda bir qadar o'zgargan holda, mustaqil huquqiy hodisa kabi amal qiladi, deb aytish xato bo'ladi. Musulmon huquqining qoidalari nafaqat shakan, balki, mazmunan ham muhim o'zgarishlarga uchradi.

### **11.3. Islom davlatlarida qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiysi**

Hozirgi zamon qonunchiligidan mustahkamlangan musulmon huquqining ayrim normalari mohiyatiga ko'ra, ilgarigi xususiyatlarini yo'qotdi. Faqt shaxsiy maqom huquqi nisbatan mustaqilligini saqlab qolib, umuman, huquqiy tizimda maxsus mavqeni egallamoqda. Biroq nisbatan mustaqil bo'lgan huquqiy normalar majmui hozirgi zamon qonunchiligi ta'sirida o'z tamoyillarini qayta qurmoqda. Umuman musulmon huquqiga tayanmaydigan huquqiy tizimning rivoji, amal qilishi, ijtimoiy mavqeining umumiy qonuniyatlariga tobora muvofiqlashib bormoqda.

Musulmon huquqi nazariyasi baribir aksariyat hollarda ustuvor huquq sifatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, Misr Arab Respublikasi va Suriya Arab Respublikasida oila huquqiga doir qoidalarning qonunda mavjud bo'limganligi bois, hakamlar Abu Hanifa tariqatining eng muvofiq keladigan xulosalarini qo'llashni tavsiya etadi. Shuni qayd etish lozimki, Suriya Arab Respublikasining Konstitutsiyasi 2-moddasining mohiyatini ham shunday talqin etish mumkin. Undagi «fiqh» atamasi, eng avvalo, musulmon huquqi nazariyasini, ya'ni olimlarning shu huquqning muayyan normalari, umumiy tamoyillari bayon aks etilgan asarlarini nazarda tutadi. Shu bois, «musulmon huquqi qonunchilikning asosiy manbai», degan fikr mohiyatiga ko'ra, konstitutsiyaviy usulda musulmon huquqi nazariyasi asosiy manba ekanligining e'tirofidir.

Huquq ko'plab ijtimoiy hodisalar bilan yaqindan bog'liqlik va o'zaro ta'sirda bo'ladi. Huquqni shakllantiruvchi ijtimoiy kuch deganda, huquqiy normalarning (huquqning moddiy, tarixiy manbalari) mohiyati va mazmunini belgilaydigan ijtimoiy (iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy-ruhiy) munosabatlarning yig'indisini tushunish darkor. Ushbu

normalar davlat hokimiyati (rasmiy ma’nodagi huquq manbai) tomonidan bevosita ishlab chiqiladi yoki tasdiqlanadi. Iqtisod bilan bevosita bog‘lanmagan va istalgan tarixiy turdagi huquqning shakllanishi va rivojiga sezilarli ta’sir etadigan omillar orasida vorislik muhim ahamiyatga molikdir. Ko‘rib chiqilgan mamlakatlarda eski huquqiy ustqurmaning unsurlari qatorida «vorislik» maqomini belgilovchi musulmon huquqini ham kiritish mumkin. Zotan, u uzoq asrlar mobaynida dunyoning mazkur mintaqasida asosiy mavqeni egallab, yangi tarixiy sharoitlarda huquqiy normalarni shakllantirishda muhim o‘rin tutmoqda. Ayni paytda huquqiy vorisiylikka xos ayrim eski jihatlarning tugatilgani yoki qisman saqlab qolningani oila huquqi sohasida namoyon bo‘ladi<sup>1</sup>.

Har qanday mamlakatning huquqiga huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy mafkura va ruhiyat ta’sir ko‘rsatadi. Huquqiy sabablar, qarashlar, g‘oyalalar huquqiy normalarni shakllantirishning bevosita mafkuraviy va ruhiy manbaidir. Shundan kelib chiqib, musulmon huquqi o‘ziga xos mavqega ega. Musulmon huquqining normalari ham huquqiy, ham axloqiy, ham diniy mazmunda namoyon bo‘lmoqda. Musulmon huquqi, eng avvalo, umumi diniy-axloqiy ta’midot, har qanday qilmishni baholashning mezoni, rasmiy ma’noda esa yirik huquqiy tariqatlar asoschilarini va ular tarafdarlari fikrlarining majmui, yuzlab huquqiy adabiyotlarda nazariy jihatdan bayon etilgan asosiy huquqiy tamoyillar va muayyan vazifaning yechimidir.

Musulmon huquqi hozirgi kungacha ommaga katta ta’sir o’tkazayotgan din bilan uzviydir. Hozirgi zamon dirlari orasida, islam siyosat, davlat va huquq bilan juda yaqin aloqadadir. Bu o‘rinda musulmon huquqining vazifasi ushbu tuzilmalarni bir-biriga bog‘lashdan iborat. Ayni paytda u hozirgi zamon Sharq mamlakatlarining huquqiy rivojiga huquqiy mafkura va ruhiyat vositasida ta’sir etadi. Aytish mumkinki, musulmon huquqining mafkuraviy ta’siri uning muayyan normativ yo‘riqlarini qo‘llash doirasidan ancha kengdir. Hozirgi tadqiqotchilarning tasdig‘icha, muayyan xulq-atvor qoidalari emas, balki norma – tamoyillar musulmon huquqining tag-zamini va eng barqaror qismidir. Ular barcha davr va xalqlar uchun musulmon huquqining amal qilishini kafolatlaydi.

Inson huquqlarini tartibga solish va himoya qilish milliy huquqda ham, xalqaro huquqda ham eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayni vaqtida islam inson huquqlarini himoya qilish tizimi e’tibordan chetda qolib kelmoqda va deyarli o‘rganilmagan. Holbuki, dunyoviy va

---

<sup>1</sup> Қаранг: *Неновски Н.* Преемственность в праве. – М., 1977. – С. 154.

musulmon huquqiy tizimlarini ilmiy va amaliy jihatdan taqqoslash, ularning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o‘rganish musulmon olami fuqarolariga o‘zlarini, deylik, yevropaliklardan kam bo‘lmagan darajada himoyalangan, deb his qilish borasidagi huquqiy mexanizmni aniqlash va uni obyektiv tavsiflashga imkoniyat yaratadi.

Shuni aytib o‘tish kerakki, jahonda asosiy xalqaro huquqiy tizimni yaratish «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» (1948-yil)da belgilangan prinsiplar va normalarni mustahkamlashdan boshlandi. Insoniyat bu vaqtgacha to‘plagan tarixiy-huquqiy tajriba AQSHning 1776-yilgi Mustaqillik deklaratsiyasi, Fransyaning 1789-yilgi Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi, AQSHning 1787-yilgi Konstitutsiyasi va ikki jahon urushi tajribasini o‘zida to‘pladi.

Hozirgi vaqtda «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ga ijtimoiy-huquqiy ongning rivojlanish bosqichi, umume’tirof etilgan prinsiplar asosida huquq normalarini umumiylashtirish, huquq tizimining yetishmayotgan unsurlarini topish va uning mazmunini belgilash imkonini bergen huquqiy ta’limot sifatida qaraladi. «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning prinsiplari va normalari juda ko‘p davlatlar uchun milliy huquq tizimi va qonunchilikni rivojlantirishda dasturulamal bo‘lib xizmat qildi.

Deklaratsiyada ifoda topgan inson huquqlari xalqaro doktrinasiga asosan huquq tizimida bir necha yo‘nalish rivojlandi:

*birinchi yo‘nalish* inson va fuqaro siyosiy huquqlarini ishlab chiqish va qabul qilish bilan bog‘liq. Shaxs manfaatlarining ustun, deb e’lon qilinishi «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro bitim», ushbu bitimga ikkita qo‘sishimcha bayonnomma qabul qilinishiga asos bo‘ldi;

*ikkinci yo‘nalishning* rivojiga turmush sharoitini yaxshilash obyektiv zarurati turtki berdi. Shu bois «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro bitim» qabul qilindi, inson huquqlariga oid ikkala xalqaro huquqiy hujjat ham 1966-yilda qabul qilindi;

*uchinchchi yo‘nalish* milliy konstitutsiyalar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning aksariyati yangi xalqaro huquqiy prinsiplarga asoslana boshladi;

*to‘rtinchi yo‘nalish* musulmon mamlakatlari tomonidan «Islom inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi»ning qabul qilinishi bilan bog‘liq. U Yevropa uchun Islom kengashi tomonidan tayyorlandi va 1981-yil 19-sentabrda Parijda imzolandi (Islom kengashi davlatlararo tashkilot hisoblanmaydi, lekin «Islom birdamligi» harakati tan olingan).

Shuni ta'kidlash zarurki, «Islom inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi» («Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» kabi) majburiy yuridik xususiyatga ega emas, u davlatlar oldiga kafolatlar berish va uning qoidalari milliy qonunchilikka implementatsiya qilish vazifasini qo'ymaydi.

«Islom inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi»da e'lon qilingan huquqlar va asosiy erkinliklar Qur'on, musulmon huquqi va ular asosidagi qonun hujjatlari bog'liq. Shu sababli bu hujjat an'anaviy xususiyat kasb etgan. «Islom inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi»ning qoidalari insonga daxlsiz va uzviy huquqlar Alloh tomonidan berilgan, ularni hurmat qilish majburiydir, degan prinsipni nazarda tutadi.

Xullas, ushbu hujjat mohiyatida Allohnинг huquqi inson huquqlari va asosiy erkinliklariga nisbatan birlamchi va oliydir, degan g'oya yotadi.

«Islom inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi»ning I–XXIII mod-dalari «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi», 1966-yilgi xalqaro bitimlar, Inson huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konven-siyasi va boshqa hujjatlarning moddalariga hamohangdir. Moddalar mazmunan mos kelsa-da, manbalar va shakllarga ko'ra har xildir. Olimlarning ta'kidlashicha, musulmon huquqi diniy-an'anaviy ta'limot-dan XIX asrning ikkinchi yarmida amalga oshirilgan islohotlar tufayli Misr Arab Respublikasi, Yaman Respublikasi va boshqa musulmon mamlakatlarining milliy hujjatlaridagi xalqaro huquqiy normalarning o'zlashtirilishiga qadar bo'lган tarixiy yo'lni bosib o'tdi. Bundan tashqari, musulmon huquqi me'yorlarining tiklanishi va ularning Eron, Pokiston, Afg'oniston va boshqa mamlakatlarning amaldagi qonun hujjatlarida mustahkamlanishi kuzatilmoqda.

Musulmon huquqi tadqiqotchilari jinoyat huquqi sohasidagi huquqbazarliklarning bir qancha tasniflarini ishlab chiqqanlar. Aksariyat tasniflar zamirida quyidagi ikki mezon yotadi:

- 1) u yoki bu qilmish uchun jazo belgilash darajasi;
- 2) buzilgan huquqlar xususiyati.

Ushbu mezonlarga ko'ra, barcha huquqbazarliklar uch guruhg'a bo'linadi:

- a) birinchi guruh – had jazosiga loyiq Allohga qarshi jinoyatlar;
- b) ikkinchi guruh – diya jazosiga mustahiq bo'lган ayrim shaxslarning huquqlariga qarshi jinoyatlar;
- d) uchinchi guruhga ta'zir jazosi nazarda tutilgan boshqa huquqbazarliklar kiradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, musulmon huquqining ommaviy-huquqiy institutlari (hisba – maxsus islom nazorat organlari, politsiya, «sho‘ro», dunyoviy sud) Qur'on qoidalardan ham ko‘ra, ko‘proq davlat normativ-huquqiy hujjatlariga asoslangan. Masalan, «dunyoviy sudlar» o‘z faoliyatida G‘arbiy Yevropa sudlari amaliyotidan o‘zlashtirilgan normativ-huquqiy hujjatlarga suyanildi (o‘rta asrlarda «dunyoviy sudlar» o‘z hukmdorlarining jinoyatga oid huquqiy hujjatlariga tayangan).

Shunday qilib, «Islom inson huquqlari umumiyligi deklaratsiyasi»da aks etgan inson huquqlari jahonning ko‘pgina mamlakatlari hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilgan huquqlarning vorisiyligidan dalolat beradi. Biroq bu huquqlar musulmon xalqlariga nisbatan hozircha irrelevant (lotincha irrealis – noreal, ya’ni amalda emas, faqat g‘oyada mavjud) bo‘lib qolayotir.

Islom konsepsiyasi, «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»da va «Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiya»da ifodalangan erkinlik konsepsiyasi o‘rtasida jiddiy farq mavjud emas. «Islom inson huquqlari umumiyligi deklaratsiyasi»da belgilangan asosiy erkinliklar musulmon huquqi tizimini xalqaro huquq tizimi bilan yaqinlashtirish yo‘lida tashlangan muhim qadamdir.

Bundan tashqari, «Islom inson huquqlari umumiyligi deklaratsiyasi»ning normalari inson va fuqaro huquqlari hamda erkinliklari borasida davlat huquqi normalaridan ustunlikka da‘vogar bo‘lishi mumkin. Islomda inson huquqlari birdan-bir maqsad hisoblanmaydi, lekin hayotdagi muayyan vazifalarni bajarishning vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Inson o‘zining ma’naviy mavjudot ekanligini anglashi va jamiyat ravnaqi yo‘lida bunyodkorona mehnat qilishi bilan hayvondan farq qiladi. Inson Allohning irodasiga ko‘ra uning yerdagi xalifasi (noibi) hisoblanadi.

Insonga yashash huquqi u bundan butun insoniyat foydasi va ravnaqi yo‘lida foydalanishi uchun berilgan. U o‘z ixtiyoricha harakat qilishi uchun unga erkinlik hadya etilgan. Biroq inson Allohning irodasiga bo‘ysunish yo‘lini tanlasa, u ongli ravishda hayotining har bir lahzasi uchun o‘ziga qo‘srimcha mas’uliyat yuklaydi.

Islomga e’tiqod qiluvchi shaxsning huquqlari quyidagicha:

- 1) yashash;
- 2) tenglik;
- 3) erkinlik;
- 4) erkin fikrlash;
- 5) siyosiy erkinlik;

- 6) chet mamlakatlarga chiqish va ulardan boshpana topish;
- 7) munosib hayot kechirishni ta'minlovchi mehnat qilish;
- 8) odil sudlov;
- 9) qonun oldida tenglik;
- 10) o'z sha'nini himoya qilish;
- 11) ijtimoiy ta'minot olish;
- 12) nikoh tuzish;
- 13) shaxsiy hayot va xavfsizlik;
- 14) o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan himoyalanish;
- 15) ta'lim olish;
- 16) jabr-zulmga qarshi norozilik bildirish;
- 17) so'z erkinligi;
- 18) namoyishlar o'tkazish erkinligi;
- 19) vijdon va e'tiqod erkinligi;
- 20) diniy tuyg'ularni himoya qilish;
- 21) davlat ishlarida ishtirok etish;
- 22) munosib hayot kechirish.

Qur'on va hadislarda inson huquqlari haqida fikrlar mavjud:

«(Ey mo'minlar), sizlarga nima bo'ldiki, Allah yo'lida va: «Parvardigoro, bizni egalari zolim bo'lgan bu shahardan ozod qil va bizga O'z huzuringdan bir do'st berin, bizga O'z huzuringdan bir yordamchi qilgin», deyayotgan erkaklar, ayollar hamda bolalardan iborat bo'lgan bechoralar (ni ozod qilish) yo'lida jang qilmayapsizlar?!» («Niso» surasi, 75-oyat).

«Kim noto'g'ri ishni ko'rsa, buni u o'z qo'li yordamida tuzatishi lozim, agar bunga uning kuchi yetmasa, u buni so'zi bilan tuzatishga urinmog'i kerak, lekin bunga ham uning kuchi yetmasa, u hech bo'lmasa buni butun qalbi bilan qoralashi lozim». (Buxoriy va Muslimdan sahih hadis).

Jahonda tub o'zgarishlar yuz bergan, kishilarning ma'naviy dunyosini o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchaygan XX asrning oxiri XXI asr boshida islom olamida ham shaxs, uning erkinliklari va mas'uliyatiga doir muammolarni o'rganishga alohida e'tibor paydo bo'ldi. Faqihlar fikriga ko'ra, musulmonlar avvalo o'zlarining fuqaro sifatida jamiyatdagi ijtimoiy o'rni va ahamiyatini anglashlari, bag'rikeng va sabr-toqatli bo'lishlari, g'ayriijtimoiy harakatlarga yo'l qo'ymasliklari, yuzaga kelgan muammolarni fuqarolarning manfaatlarini himoya qiluvchi qonunlar vositasida hal qilishlari juda muhimdir. Vijdon erkinligi tamoyiliga barcha davlat idoralari, diniy birlashmalar, dinsizlar va dindorlar qat'iy

amal qilishlari shart. Shundagina bu tamoyil insonning ma’naviy erkinligi unsuriga aylanadi.

Musulmonlarni hozirgi iqtisodiy munosabatlar, fuqaro erkinliklari va burchlarini bajarishga keng da’vat qilishning muhimligini anglab, ko‘pgina islom mutafakkirlari islom an’analari va vorisiylikning bir-biridan uzilib qolmasligiga alohida ahamiyat beradilar. Bu an’analarga ko‘ra, har qaysi musulmon uchun ideal shaxs Muhammad (s.a.v.) payg‘ambar hisoblanadi. To‘g‘riso‘zlik, o‘zgalarning huquqlarini hurmat qilish, savdo-sotiq va boshqa ishlarni amalga oshirishda halollik, mehnatkashlik, rahmdillik kabilar haqiqiy musulmonning fazilatlaridir. «*Do‘st bilan xushmuomala bo‘lish – yaxshi ish, biror-bir odamga yuk ortishga ko‘maklashish – yaxshi ish, qo‘schnining chelagiga suv quyib berish ham – yaxshi ishdir*», – deb ta’kidlagan Muhammad payg‘ambar.

Tavhidda nafaqat musulmon olami, balki butun insoniyat sivilizatsiyasini uyg‘unlashtirish, muvozanatga solish va insonparvarlashtirish maqsadi mujassamlashgan. Yakka xudoga ishonish, faqihlar fikriga ko‘ra, odamlarni o‘lim dahshatidan xalos qiladi, inson hayotiga ma’no baxsh etadi. U insonda o‘zlikni anglash, o‘zini o‘zi hurmat qilish tuyg‘ularini uyg‘otadi. Shuni ta’kidlash zarurki, islomda shaxsning shakllanishi, o‘z qobiliyatini namoyon etishiga monelik qiluvchi sabablar va xususiyatlar, ya’ni yashashdan maqsadning yo‘qligi, tashabbussizlik, o‘z kuchi va imkoniyatlariiga ishonmaslik qoralanadi.

Hozirgi vaqtida islom ma’rifatchilari ilgari surgan quyidagi g‘oya ustuvor ahamiyat kasb etmoqda, ya’ni inson, agar u savodsiz va bilimsiz bo‘lsa, erkin ham, mas’ul ham bo‘la olmaydi. Ehson va ixlos kabi fazilatlarga ega bo‘lish bilan bir qatorda, haqiqiy musulmon bergen ahdiga vafodor bo‘lishi, vaqtini qadrlashi, hayot va mehnatda muayyan yutuqlarga erishish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi lozim.

Qur’on va sunnadan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

- mehnat qilish jamiyat a’zosining burchidir;
- islom davlati mehnat qobiliyatiga ega har bir fuqaroga mos keladigan ish berishi lozim;
- mehnatkashlar o‘z mehnatiga munosib haq to‘lanishini va me’yordagi ish sharoitini ta’minlashni talab qilishga haqlidirlar.

Islomda *mehnat* boyliklarni taqsimlashning bosh omili va xususiy mulkning asosiy manbai hisoblanadi. Alloh taoloning kalomi shudir: «*Kim biror yaxshi amal qilsa, o‘zi uchundir. Kim yomonlik qilsa, o‘z ziyoniga qilur...*» (Qur’oni karim, «Fussilat» surasi, 46-oyat).

Islom iqtisodiy tizimi mehnatkashning o‘zi yaratgan boylikka egalik qilish huquqiga egaligini nazarda tutadi, bundan mulk huquqi kelib chiqadi. Huquqshunoslar fikricha, yer yuzasida yotgan, ishlov berish uchun katta kuch-g‘ayrat talab qilinmaydigan tabiiy resurslarni hech kim o‘zining mulki, deb hisoblashi va o‘zlashtirib olishi mumkin emas. Faqat mehnat qilish, bu resurslarga ishlov berish mulk huquqini, ya’ni boylikka egalik qilish huquqini beradi.

Yer ostidagi foydali qazilmalarga kelsak, Alloh hukmiga ko‘ra, kishilar ularga nisbatan muayyan huquqlarga ega, chunki ularni topish, qazib olish va foydalanishga tayyorlash uchun muayyan kuch-g‘ayrat sarflash talab etiladi. Bu odamlarni tabiiy resurslarga ishlov berishga, ishlab chiqarish unumdorligini oshirish va rivojlantirishga, ya’ni Alloh taolo mukofot evaziga inson zimmasiga yuklagan muhim vazifalarni bajarishga rag‘batlantiradi.

Qur’onda shunday deyilgan: «...*U sizlarni yerdan paydo qilib, unga joylashtirdi*» («Hud» surasi, 64-oyat).

Alloh taolo insonga yerni obod qilish, uning boyliklarini tadqiq etish va ulardan foydalanishni topshirgan.

Islom qonuni xo‘jasiz (egasiz) yerga ishlov bergan yoki uni obod etgan har qanday odamni uning haqiqiy egasi, deb hisoblaydi. Jamoa rahbari davlatning barcha vositalaridan foydalangan holda, mumkin qadar yerlarni ko‘proq o‘zlashtirish, ularni obod etish choralarini ko‘rishi lozim. Bu pirovard natijada mamlakat iqtisodiyotining yuksalishi va ishlab chiqarishning o‘sishiga xizmat qiladi. Zero, davlatning ravnaq topgani ko‘p jihatdan uning fuqarolari farovonligi bilan belgilanadi. Yalpi milliy mahsulot esa, ma’lumki, ayrim ishlab chiqaruvchilar, ya’ni barcha fuqarolar ishlab chiqargan mahsulot yig‘indisidan tarkib topadi.

Islom foydalanishga berilgan yerga mulk huquqini egasi unga amalda ishlov bergan, ya’ni undan odamlar uchun foydali bo‘lgan biror-bir ish uchun foydalangan, chunonchi hosil yetishtirgan, uy qurgan va hokazo holdagina tan oladi. Faqat shu shartning bajarilishi yerga xususiy mulk huquqi uchun qonuniy asos bo‘ladi.

Islom mehnat qobiliyatiga ega odamlardan Alloh ularga yuborgan tirikchilik manbaini izlab, dunyoning to‘rt tomoniga tarqalishni talab qiladi. Qur’onda shunday deyilgan: «*U (Alloh) sizlar uchun Yerni xokisor – bo‘ysunuvchi qilib qo‘ygan zotdir. Bas, u (Yer)ning har tomonida (sayrsayohat qilib, yo tijorat bilan yoki dehqonchilikni kasb qilib) yuraverenglar va (Allohning bergen) rizq-ro‘zidan yenglar. Yolg‘iz Uning huzuriga tirilib chiqish-qaytish bordir*» («Mulk» surasi, 15-oyat).

Islom insonlarga o‘z mehnatining mahsuliga egalik qilish huquqini beradi. Bu tamoyilni bajarish musulmon jamoasida boyliklarni taqsimlashning bosh negizi hisoblanadi. Biroq jamiyatning barcha a’zolari ham rizqni o‘z mehnati bilan topib yemaydi. O‘zini ta’minlay olmaydigan, yordamga muhtoj ojiz odamlar ham bor. Bular, masalan, yetimlar, bevalar, qariyalar, bedavo kasallikka chalinganlar, nogironlar, ruhiy kasallar va hokazo.

Ayni vaqtida, mehnat qilishni xohlaydigan, lekin ish topa olmayotgan yoki tirikchilik manbai bo‘lmagan odamlar ham bor. Ayrimlar shu qadar kam ishlab topadiki, mablag‘lari ularning tirikchiligiga yetmaydi. Jamiyatning bunday a’zolari umumiy boylikdan o‘z ulushini olmaydi. Shu bois ehtiyojlari va o‘zini ta’minlashga qodir emasligini hisobga olib, islom ular Alloh taolo Qur’onda belgilab qo‘ygan zakotdan mablag‘ olishlarini nazarda tutadi.

Kimlar zakot to‘lashlari, u nimalarga sarflanishi, qaysi mol-mulkdan to‘lanishi, mulkning har xil turlaridan qancha miqdorda undirilishi, qachon va qanday to‘lanishi hamda taqsimlanishi payg‘ambar sunnasida aniq tushuntirib berilgan.

*Zakot* – xayr-ehson to‘lash insonlarni Alloh taqdirlaydigan fazilatli musulmonlar bilan bir qatorga qo‘yadi. Musulmonlarning Qur’onida shunday deyilgan: «*U namozni to‘kis ado etadigan, zakotni (haqdorlarga) ato etadigan va oxiratga aniq ishonadigan, chiroyli amal qilguvchi zotlar uchun rahbar – yo‘lboshchi va rahmat bo‘lgan (Kitob)dir*» («Luqmon» surasi, 3–4-oyatlar).

Insonning turar joy yoki boshpanaga ega bo‘lish huquqi islomda quyidagicha tavsiflanadi:

1) islom musulmon davlatida yashovchi har bir insonning uni qanoatlantiruvchi turar joyga ega bo‘lish huquqini tasdiqlaydi va agar inson o‘zini turar joy bilan ta’minlashga qodir bo‘lmasa, bu vazifani davlatga yuklaydi. Islom musulmon davlatining har bir fuqarosiga uni yog‘ingarchiliklardan himoya qiladigan, shaxsiy hayotiga begonalarning aralashuviga yo‘l qo‘ymaydigan tegishli turar joy berilishini nazarda tutadi. Islom davlat har bir fuqarosini turar joy bilan ta’minlashi shart, deb hisoblaydi. Bunda mablag‘lar budgetdan, ya’ni zakot jamg‘armasidan va budgetdagi boshqa manbalardan ham olinishi mumkin. Agar bu xarajatlar budgetga og‘irlik qilsa, hukmdor boy fuqarolarga qo‘srimcha soliqlar soladi, shuningdek ortiqcha turar joyga ega bo‘lganlarga boshpanadan mahrum musulmonlarga mo‘tadil haq evaziga boshpana berish majburiyatini yuklaydi;

2) islom turar joy daxlsizligi huquqini tasdiqlaydi, u muayyan shaxsning uyiga uning ruxsatisiz bostirib kirishni, bunday harakatlarni bajarayotgan shaxsning jamiyatdagi mavqeidan qat'i nazar, taqiqlaydi.

Musulmonlarning Qur'onida shunday deyilgan: «*Ey mo'minlar, o'z uylaringizdan boshqa uylarga to izn so'ramaguningizcha va egalariga salom bermaguningizcha kirmangiz. Mana shu sizlar uchun yaxshiroqdir. Shoyad eslatma-ibrat olsangizlar*». «*Endi agar u (uylarda) hech kimni topmasangizlar, u holda, to sizlarga izn berilmaguncha ularga kirmangiz! Agar sizlarga «qaytinglar», deyilsa (ya'ni kirishga izn berilmasa), qaytib ketinglar! Shu sizlar uchun eng toza (yo'ldir). Alloh qilayotgan amallaringizni bilguvchidir*» («Nur» surasi 27–28 oyatlar);

3) musulmon huquqi hukmiga ko'ra, biror odam birovning uyiga uning ruxsatisiz kirishi mumkin emas. Faqihlarning fikricha, jamiyatda inson hayoti, uning obro'si va mulkini hurmat qilish muqaddas va daxlsiz hisoblanmas ekan, bunday jamiyatni ma'rifatli deb sanash mumkin emas. Islomda inson va boshqa jonzotlarning huquqlariga nisbatan odilona va universal yondashuv mavjudligini Qur'onning quyidagi oyati ham tasdiqlaydi: «*Qasamki, biz o'z payg'ambarlarimizni aniq hujjat – mo'jizalar bilan yubordik va ular bilan birga Kitob hamda odamlaradolatni barpo qilishlari uchun mezon-tarozi tushirdik. Yana biz temirni tushirdik-yaratdik. Unda kuch-quvvat va odamlar uchun manfaatlar bordir. Alloh g'aybda (bandalari ko'ziga ko'rinasdan) turgan holida O'ziga va payg'ambarlariga yordam beradigan kishilarni bilish uchun (temirni yaratdi). Albatta Alloh kuchli, qudratlidir*» («Hadid» surasi, 25-oyat).

### *Savol va topshiriqlar*

1. Musulmon huquqida reyvalizm va tanzimot islohotlarini tushuntiring.
2. Musulmon davlatlarining huquqiy tizimi, amaldagi qonunchiligi va ularning islom manbalari bilan nisbatini yoriting.
3. «Musulmon davlatlarida qonun chiqaruvchi», «ijro etuvchi va sud hokimiyati» tushunchalarining mohiyatini aytib bering.
4. Islom davlatlarida huquqiy tizimning qanday shakllari mavjud?

---

## FOYDALANILGAN ADABIYOT

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2010. – 40 б.

*Каримов И.А.* «Шаҳидлар хотираси» ёдгорлик мажмуининг очилишига бағишланган маросимда сўзланган нутқ // Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т. 8. – Т., 2000. – Б. 462–466.

*Каримов И.А.* Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т. 5. – Т., 1997.

*Каримов И.А.* Имом ал-Бухорий ёдгорлик мажмуининг очилишига бағишланган маросимда сўзланган нутқ // Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т. 7. – Т., 1999. – Б. 179–184.

*Каримов И.А.* Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.7. – Т., 1999. – 410 б.

*Каримов И.А.* Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. 11. – Т., 2003.

И. А. Каримов миллий давлатчилик, истиқлол мафкураси ва ҳуқуқий маданият тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президенти асарларини ўрганувчиларга ёрдам) / Тузувчилар: юридик фанлар докторлари, профессорлар У. Таджиханов, А. Сайдов. – Т., 1999. – 573 б.

*Сайдов А.Х.* Бурхониддин Марғиноний – буюк ҳуқуқшунос. – Т., 1997. – Б. 67–72.

*Сайдов А.Х., Жўзжоний А.Ш.* Шарқ ва инсон ҳуқуқлари. – Т., 1998. – 215 б.

*Сайдов А.Х.* Основы мусульманского права: Курс лекций. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 1994. – 140 с.

*Бурҳониддин Марғиноний. Ҳидоя. Ж. 1.* / Масъул муҳаррирлар А. Х. Сайдов, М. Нуриддинов. – Т., 2000. – 848 б.

*Мансуров А.* Қуръони карим маъноларининг таржимаси. – Т., 2001. – 618 б.

*Жўзжоний А.Ш.* Мусулмон ҳуқуқшунослиги: Ҳанафий мазҳаби ва Ўрта Осиё фақиҳлари. – Т., 2002. – 256 б.

*Хусниддинов З.* Ислом: йўналишлар, мазҳаблар, оқимлар. – Т., 2000.

*Ҳасанов А.* Қадимги Арабистон ва илк ислом. – Т., 2001. – 254 б.

*Ражабова М.* Мусулмон ҳуқуқида жиноят ва жазо. – Т., 1996. – 132 б.

Ислам: Энциклопедический словарь. – М., 1991. – 315 с.

*Ислом энциклопедияси / З.Хусниддинов таҳрири остида.* – Т., 2004.

*Муқимов З.* Мовароуннахр фикҳ мактаби. – Самарқанд, 1997. – 49 б.

*Каримов Д.А.* Становление и развитие основных институтов мусульманского права в Мовероуннахре (VII–XIII вв.). – Т., 1997.

*Имом ат-Термизий. Сунани Термизий. Ҳадислар тўплами /Таржимон М.Кенжабек.* – Т., 1999. – 688 б.

*Минг бир ҳадис /Арабчадан А. Мансуров таржимаси.* Т. 2. – Т., 1991. – 223 б.

*Максуд Р.* Ислам / Пер. с англ. В. Новикова. – М., 2001. – 304 с.

*Сюккийнен Л.Р.* Мусульманское право. Вопросы теории и практики. – М., 1986. – С. 215–228.

*Керимов Г.М.* Шариат. Закон жизни мусульман. – М., 1999. – С. 23–24.

*Шарль Р.* Мусульманское право / Пер. с фр. С. И. Волка. Под ред. и с предисловием Е.А.Беляева. – М., 1959. – 142 с.

*Давид Р.* Основные правовые системы современности. – М., 1988. – С. 382 – 406.

*Рахманкулов Х.Р., Раҳманов А.Р.* Права человека: история и современность. – Т., 1998. – 263 с.

*Раҳманов А.Р.* Мусулмон ҳуқуқида инсон ҳуқуқлари ва шахс мақоми: Юрид. фанлари номз. ... дисс. автореф. – Т., 2002. – 30 б.

*Баҳромов Абдурашид қори.* Имом Аъзам асарлари. – Т., 2003. – 132 б.

*Абӯ Абдуллоҳ Мұхаммад ибн Исмоил ал-Бухорий.* Ҳадис. Алжомеъ ас-саҳиҳ (Ишонарли тўплам) /Арабчадан Раҳматуллоҳ қори Қосимов ва Ҳожа Бахтиёр Набиҳон ўғли таржимаси. Т. 1,2,3,4. – Т., 1997. – 606 б.

*Мақсадхўјса ибн Мансурхўјса «Мажмаъ ул-Мақсуд» ёки Мұхтасар ул-Виқоянинг ўзбекча шарҳи.* – Т., 2005. – 580 б.

Мұхтасар (Шариат қонунларига қисқача шарҳ) / Нашрга тайёрловчилар: Р. Зоҳид, А. Дехқон. – Т., 1994. – 336 б.

*Исхаков С.А., Набиев А.Г.* Ислом ҳуқуқий мазҳаблари (келиб чиқиши сабаблари ва аҳамияти): Ўқув қўлланма / Масъул муҳаррир проф. А.Х. Саидов. – Т., 2009.– 68 б.

*Ишанова Ш.О.* Нормы шариата и их применение казийскими судами в Средней Азии: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – Т., 1995.

*Петрушевский И.П.* Ислам в Иране в VII–XV веках. – Л., 1966. – С. 164–198.

*Муҳиддин С.* Оила ва шаръий никоҳ одоблари. – Т., 1999. – 80 б.

*Бурхониддин Маргиноний.* ал-Ҳидоя. Ж. 1–2. – Пешовар, 1314 х.й.

*Исхаков С.А.* Ислом фуқаролик ҳуқуқи асослари. – Т., 2005. – 127 б.

*Абдулваҳҳоб Ҳаллоф.* Усул ул фикҳ (Ислом қонуншунослиги асослари). К. 1,2,3,4. / Таржимон Салоҳиддин қори Муҳиддин. – Т., 1999. – 378 б.

*Рахманов А.Р., Умаров Ф.Б.* Ислом ҳуқуқида шартнома ва мажбуриятлар: Ўқув қўлланма. – Т., 2009. – 96 б.

*Максуд Р.* Ислам. – М., 2001. – 302 с.

*Рахманов А.Р.* Мусульманское право: вакуфная собственность: Учебное пособие. – Т., 2001. – 216 с.

*Керимов Г.М.* Мусулмон ҳуқуқи. Закон жизни мусульман. – М., 1999. – С. 167–226.

*Фитрат А.* Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Т., 1998. – 98 б.

*Ал-Фарғоний Гулнор.* Мусулмон ҳуқуқида аёлларнинг ҳуқуқ ва бурчлари ҳамда уларнинг кафолатлари //Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – 1999. – №3–4. – Б. 60–65.

*Ал-Жазарий Абдураҳмон.* Тўрт мазҳаб бўйича фикҳ илми. – Байрут, 1990.

Исломда ҳуқуқ: 1992–1993 йилларда Аммонда ўтказилган илмий конференция материаллари. Ж. I–II. – Иордания, 1994.

---

## MUNDARIJA

SO'Z BOSHI .....	3
------------------	---

### BIRINCHI BO'LIM

#### **1-BOB. «MUSULMON HUQUQI» TUSHUNCHASI, PREDMETI VA METODLARI**

1.1. Musulmon huquqining predmeti, maqsadi, ahamiyati va boshqa fanlar bilan bog'liqligi.....	6
1.2. Musulmon huquqining tizimi va metodlari.....	13

#### **2-BOB. ISLOMNING KELIB CHIQISHI VA MARKAZIY OSIYODA MUSULMON HUQUQI**

2.1. Islom va musulmon jamoasining vujudga kelishi.....	17
2.2. Markaziy Osiyoda musulmon huquqining o'rnatilishi, o'zbekistonlik faqihlarning musulmon huquqi rivojiga qo'shgan hissalari.....	23

#### **3-BOB. MUSULMON HUQUQINING MANBALARI**

3.1. «Musulmon huquqi manbalari» tushunchasi va turlari.....	37
3.2. Qur'on va sunnaning huquqiy ko'rsatmalari musulmon huquqi manbalari sifatida.....	38
3.3. Musulmon huquqining ratsional manbalari.....	43

### IKKINCHI BO'LIM

#### **4-BOB. MUSULMON MAZHABLARI VA HUQUQIY MAKTABLARI**

4.1. Ilk islom davlati boshqaruvi davrida siyosiy-huquqiy qarama-qarshiliklar. Musulmon huquqida diniy-huquqiy mazhablarning vujudga kelishi.....	47
4.2. Musulmon huquqining asosiy mazhablari.....	47
4.3. Musulmon huquqida diniy-huquqiy mazhablarning o'rni va ahamiyati.....	63

#### **5-BOB. MUSULMON HUQUQINING NORMALARI VA TURLARI**

5.1. Musulmon huquqiy normalari va ularning tasniflanishi.....	70
5.2. Aniq va mavhum normalar.....	74
5.3. Oghlantiruvchi va taqiqlovchi normalar.....	76

## **6-BOB. MUSULMON HUQUQINING TARMOQ VA INSTITUTLARI. ISLOM DAVLATI VA MOLIYA HUQUQI**

6.1. Islomda «davlat huquqi» tushunchasi.....	81
6.2. Davlat boshqaruvi shakllari: imomlik va xalifalik.....	84
6.3. «Moliya huquqi» tushunchasi va shakllari.....	95

## **UCHINCHI BO‘LIM**

### **7-BOB. OILA, NIKOH VA MEROS HUQUQI**

7.1. Islomda «nikoh» tushunchasi va shartlari.....	102
7.2. Islomda «taloq» tushunchasi va turlari.....	105
7.3. «Meros» tushunchasi va uning taqsimoti.....	109

## **8-BOB. MUSULMON FUQAROLIK HUQUQI. MAJBURIYAT**

8.1. «Musulmon fuqarolik huquqi» tushunchasi.....	112
8.2. Islomda shufoat, muzoraba va garov huquqi.....	115
8.3. Islomda «mulk huquqi» tushunchasi va turlari.....	127

## **9-BOB. MUSULMON JINOYAT HUQUQI**

9.1. Islomda «jinoyat» tushunchasi va turlari.....	131
9.2. Islomda jazo va uning turlari.....	134
9.3. «Ta’zir» tushunchasi va turlari.....	138

## **TO‘RTINCHI BO‘LIM**

### **10-BOB. MUSULMON SUD HUQUQI**

10.1. «Musulmon sud huquqi» tushunchasi.....	143
10.2. Musulmon sud huquqida fuqarolik va jinoyat ishlarini ko‘rib chiqish.....	147

## **11-BOB. XORIJIY MAMLAKATLAR HUQUQIY TIZIMIDA MUSULMON HUQUQINING TUTGAN O‘RNI**

11.1. Musulmon huquqida reyvalizm va tanzimot islohotlari.....	154
11.2. Islom davlatlarining huquqiy tizimi, amaldagi qonunchiligi va ularning musulmon manbalari bilan nisbati.....	155
11.3. Islom davlatlarida qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati.....	163

**ISXAKOV SUR'AT ARIPDJANOVICH,**

*yuridik fanlar nomzodi, dotsent;*

**RAXMANOV ABDUMUXTOR REJJABAYEVICH,**

*yuridik fanlar nomzodi, dotsent*

# **MUSULMON HUQUQI**

*Darslik*

*Muharrirlar: M.S. Rahmonova  
Texnik muharrir D.X. Xamidullayev*

---

Bosishga ruxsat etildi 19.03.2012 y. Nashriyot-hisob tabog‘i  
Adadi 200 nusxa. Buyurtma № . Kelishilgan narxda

---

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,  
1000197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68.